

# *O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti xabarлари*

*Ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnali*

*Jurnal bir yilda to'rt marta nashr etiladi*

## **Bosh muharrir –**

**Yo'ldoshev Ibrohim Jo'rayevich**  
filologiya fanlari doktori, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari –**

**Jumayev Sobirjon Saidovich**  
professor

## **Tahrir hay'ati**

**Tulyaxodjayeva Muhabbat Turobovna** – san'atshunoslik fanlari doktori, professor  
**Qodirova Sarvinoz Muhsinovna** – san'atshunoslik fanlari doktori, professor  
**Ibrohimov Oqilxon Akbarovich** – san'atshunoslik fanlari doktori, professor  
**Muxtarov Ildar Asxadovich** – san'atshunoslik fanlari doktori, professor  
**Ismoilov Abdurahim Isroilovich** – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, professor  
**Umarov Absalom Adilovich** – sotsiologiya fanlari doktori, professor  
**Mavrulov Abduxalil Abduxayevich** – tarix fanlari doktori, professor  
**Yo'ldoshev Ma'rufjon Muxammadjonovich** – filologiya fanlari doktori, professor  
**Xalikulova Go'zal Erkinovna** – san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent  
**Ismoilov Hamdam** – filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
**Kosheleva Antonina Fedorovna** – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent  
**Rashidov Temur Maxmudovich** – san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent  
**Shermanov Eldor Uralovich** – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.  
**Tursunov Farrux G'ulomovich** – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.  
**Abdujabbarova Musallam Lafasovna** – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

## **Jamoatchilik kengashi**

**Sayfullayev Baxtiyor Sayfullayevich** – Senatning yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi, pedagogika fanlari nomzodi, professor  
**Nazarbekov Ozodbek Ahmadovich** – O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri, O'zbekiston Respublikasi xalq artisti  
**Hakimov Akbar Abdullayevich** – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi  
**Akilova Kamola Baltabayevna** – san'atshunoslik fanlari doktori, professor  
**Mahmudov Jasur Xusanovich** – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v.b.  
**Karimova Nigora G'aniyevna** – san'atshunoslik fanlari doktori  
**Qosimov Nozim Kozimovich** – filologiya fanlari nomzodi, professor

*Maqolada keltirilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir.*

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan  
2015-yil 14-dekabrda 0862-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya  
Komissiyasi Rayosatining 2017-yil 29-noyabrdagi  
245/6-sonli qarori bilan San'atshunoslik fanlari bo'yicha  
dissertatsiyalar yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop  
etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN 2181-8932

2021/4(20)

# MUNDARIJA

1. <b>I. Yo‘ldoshev.</b> Navoiy hayotida inson rizoligining muqaddasligi .....	3
2. <b>Z. Isokov.</b> Konstitutsiyamiz – tarix sahifalarida.....	6

## I. TEATR VA KINO

1. <b>A. Исмаилов, К. Хидирова.</b> Киномонтаж: композиционное строение фильма.....	9
2. <b>F. Abdvohidov.</b> O‘zbek kinosida zamonaviy mavzu masalasi (Erkin A‘zam dramaturgiyasi misolida)....	14
3. <b>A. Кудрявцев.</b> Киноклуб как средство эстетического воспитания студентов.....	17
4. <b>Z. Kozimova.</b> “Alanga” jurnalida teatr masalasining yoritilishi.....	19
5. <b>M. Abdreymov, Q. Jumanov.</b> Qoraqalpoq kinematografiyasi rivojida mutaxassis kadrlar rayyorlashning dolzarb jihatlari.....	24

## II. MUSIQA SAN‘ATI

1. <b>Sh. Muhammadiyev.</b> Akademik Yunus Rajabiy ijodining O‘zbek davlat musiqali drama teatri taraqqiyotidagi o‘rni.....	28
2. <b>N. Xudoyqulova.</b> Fortepiano ijrochiligida talaba dasturini takomillashtirish xususida.....	31
3. <b>Z. Yakubov.</b> Savti kalon sho‘basi xususida.....	34
4. <b>D. Abdullayev.</b> O‘zbek musiqiy cholg‘ularining tarixiy taraqqiyoti milliy an‘naviylikning negizi misolida.....	36
5. <b>F. Mannonova.</b> Aktyor ijodida xatti-harakat.....	38

## III. SAN‘AT TARIXI, FALSAFA VA NOMODDIY MADANIY MEROS

1. <b>B. Kudaybergenova.</b> Jirov-baxshi va xalq qo‘shiq-lari, qissaxonlik san‘ati.....	41
2. <b>D. Muxammedova.</b> Folklor san‘ati va musiqa folklorining yoshlar ma‘naviyatiga ta‘siri.....	44
3. <b>Sh. Almatov.</b> O‘zbek milliy ijrochiligida soz va ovoz uyg‘unligi.....	47
4. <b>D. Irisboyeva.</b> Milliy qadriyatlarining janrlararo munosabatlar masalasida folklorning o‘rni va ahamiyati...49	

## IV. PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA

1. <b>A. Nurullayev.</b> Ijtimoiy-madaniy muhitni yaratishda menejmentning o‘rni.....	53
2. <b>H. Ismoilov.</b> Til – taraqqiyot timsoli.....	57
3. <b>T. Fayziyev.</b> Madaniyat va san‘at sohasida boshqaruv samaradorligini oshirish .....	59
4. <b>N. Avazov.</b> “Padarkush” dramasida yoshlarni ilmsizlikdan qutqarish g‘oyasi.....	62
5. <b>T. Рашидов.</b> Пути совершенствования образовательного процесса в вузах культуры и искусств на современном этапе .....	65
6. <b>D. Tulanova, A. Raximova.</b> Oliy ta‘lim tizimida Yevropa Renessans davri san‘atining o‘qitishdagi o‘ziga xos xususiyatlar .....	67
7. <b>M. Юлдашева.</b> Особенности развития сферы культуры и досуга в эпоху цифровизации.....	69
8. <b>B. Mirzayev.</b> Aktyorlik fanlarini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati...71	
9. <b>Z. Narquziyeva.</b> Kino janrlarini ingliz-rus-o‘zbek tillarida nomlanishining qiyosiy tahlili.....	74

## V. YOSH TADQIQOTCHI

1. <b>T. Mamatqulova.</b> “Qo‘shiq” terminining qo‘llanilishi .....	78
2. <b>M. Xolmo‘minov, A. Qolqanotov.</b> “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobi va madaniy-ma‘rifiy ishlar....80	
3. <b>D. Sharipova.</b> Yangi O‘zbekistonda kutubxona va kutubxonachilik faoliyatidagi keng ko‘lamli yangilanish va o‘zgarishlar.....	83
4. <b>I. Nazarova.</b> Sahnada nutq madaniyatini ulug‘lagan Muhiddin qiziq.....	86
5. <b>Sh. Xudoynazarova.</b> Imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatdagi faolligini oshirishda xoreografiya san‘atining o‘rni.....	88

## VI. KO‘NGIL SO‘ZLARI

1. <b>N. Shermatov.</b> Malakali mutaxassis – ta‘lim taraqqiyoti omili.....	92
2. <b>N. Xayrullayev.</b> Xalq qalbidan o‘rin olgan ijodkor.....	94
3. <b>M. Yo‘ldoshev.</b> Zamonamiz tavaddudi.....	97
4. <b>H. Rajabov.</b> Ustoz san‘atkor Uchqun Naimovni eslab... ..	99
5. <b>G‘. Xudoyev.</b> Zakiy olim muborak yoshda (San‘atshunoslik fanlari doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning 65 yoshlik yubiley sanasiga bag‘ishlanadi).....	100
6. <b>T. Bayto‘rayev.</b> O‘zbekistonda kutubxona ishi va bibliografiya sohasi mutaxassislari shakllanishi bosqichlari.....	102

# NAVOIY HAYOTIDA INSON RIZOLIGINING MUQADDASLIGI

Respublikamizda, shuningdek, jahonning bir qancha mamlakatlarida ulug‘ shoir va mutafakkir, davlat arbobi, shoirlar sultoni, o‘zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligi keng nishonlanmoqda. Ushbu qutlug‘ sana munosabati bilan 2020-yil 19-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarori e‘lon qilindi. Qarorda o‘qiyimiz: “Buyuk shoir va mutafakkir, atoqli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiyning bebaho ijodiy-ilmiy merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon adabiyoti tarixida, milliy madaniyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida alohida o‘rin tutadi. Ulug‘ shoir o‘zining she‘riy va nasriy asarlarida yuksak umuminsoniy g‘oyalarni, ona tilimizning beqiyos so‘z boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlarini butun jozibas va latofati bilan namoyon etib, yer yuzidagi millionlab kitobxonlar qalbidan munosib va mustahkam o‘rin egalladi.

Jonajon Vatanimiz “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning butunlay yangi bosqichiga qadam qo‘yib, yangi Uyg‘onish davri – Uchinchi Renessans poydevorini yaratayotgan bugungi kunda Alisher Navoiyning bezavol adabiy merosi misolida o‘zbek adabiyoti va madaniyatini chuqur o‘rganish va ommalashtirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda”.

Mazkur qaror bilan tegishli mutasaddi tashkilot va muassasalarga muhim vazifalar yuklatildi hamda buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini nishonlash bo‘yicha tashkiliy qo‘mita tarkibi hamda ushbu sana munosabati bilan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Tashkiliy qo‘mitaga Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini nishonlash doirasida o‘tkaziladigan tadbirlarni yuksak saviyada tashkil etish, mazkur qaror va chora-tadbirlar dasturining o‘z vaqtida, sifatli va to‘liq amalga oshirilishini muvofiqlashtirib borish vazifalari yuklatildi. Shuningdek, qarorda Alisher Navoiy hayoti va ijodini mamlakatimiz va xalqaro miqyosda keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori loyihasini ishlab chiqish, Alisher Navoiyning ijodiy merosini chuqur o‘rganish va ommalashtirishga ulkan hissa qo‘shgan mamlakatimiz va xorijiy davlatlar fuqarolarini hamda ilmiy-ijodiy muassasalarini taqdirlash maqsadida Alisher Navoiy ordenini ta‘sis etish yuzasidan taklif kiritish, Afg‘oniston Islom Respublikasining Hirot shahridagi Alisher Navoiyning maqbarasi majmuasida qurilish va obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish imkoniyatlarini o‘rganib chiqish va natijasi bo‘yicha taklif kiritish, xorijiy davlatlarda saqlanayotgan Alisher Navoiy qalamiga



**2021-yilning 15-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Koreya Respublikasiga davlat tashrifi arafasida ushbu mamlakat poytaxti – Seul shahri markazida ulug‘ o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy buysti ochildi.**

mansub va u yashagan davrga oid qo‘lyozmalarining nusxalarini mamlakatimizga olib kelish choralari ko‘rish, 2020 – 2021-yillar davomida Alisher Navoiyning qo‘lyozmalari asosida shoir asarlarining mukammal ilmiy nashrini yaratish ishlarini amalga oshirish, Alisher Navoiy ijodiy merosining sharhini yaratish ishlarini yakuniga yetkazish hamda ularni “Navoiy va yoshlar” maxsus dasturida joylashtirish uchun Yoshlar ishlari agentligiga taqdim etish, Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyida 2021-yil noyabr oyida Alisher Navoiy yashagan davr, shoir hayoti, ijodi, adabiy muhiti, ustozlari, zamondoshlari va izdoshlari haqida hikoya qiluvchi, asarlarining qo‘lyozma va nashr nusxalari to‘g‘risida ma‘lumot beruvchi adabiy-badiiy ko‘rgazmani tashkil etish, Alisher Navoiy hayoti va ijodiy merosini tadqiq etish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi

talablariga muvofiq ilmiy loyihalar tanlovini e'lon qilish, 2021-yil oxiriga qadar O'zbekiston Milliy kutubxonasida Alisher Navoiy asarlari hamda "Navoiyshunoslik" fani bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarning elektron platformasini yaratish, Alisher Navoiy asarlarini uzluksiz o'qitish konsepsiyasini ishlab chiqish hamda 2021–2022-o'quv yilidan barcha ta'lim muassasalarida shu asosda o'qitishni yo'lga qo'yish, umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida "Navoiy vorislari" g'azalxonlik tanlovi, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar o'quvchilari o'rtasida "Navoiyni anglash" mavzusida insholar tanlovini o'tkazish va g'oliblarni munosib taqdirlash, beshta muhim tashabbus doirasida yosh dasturchilarni keng jalb etgan holda Alisher Navoiy asarlarining mobil ilovalarini yaratish va ularni yoshlar o'rtasida ommalashtirish, 2021-yilda Toshkent shahrida Alisher Navoiy nomidagi ijod maktabini tashkil etish, 2021-yil noyabr oyining birinchi o'n kunligida Navoiy shahrida "Alisher Navoiy ijodiy merosining bashariyat ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotidagi o'rni" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyani hamda Toshkent shahrida Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligiga bag'ishlangan tantanali adabiy-badiiy anjumanni yuqori saviyada o'tkazish, 2021-yilda Alisher Navoiy hayoti va asarlari asosida yangi spektakllar yaratish hamda "Navoiy siymosi va asarlari sahnada" respublika teatrlarining festivalini o'tkazish, shoir g'azallari asosida "Nazm va navo" kechalarini, maqom tanlovlarini tashkil etish, 2021-yil davomida Alisher Navoiy asarlari asosida badiiy va multiplikatsion filmlar, shoir hayoti va ijodi bilan bog'liq yangi ma'lumotlar va manbalar asosida to'liq metrajli badiiy-publitsistik film yaratish, 2021-yilda "Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligi" rukni ostida shoir asarlari, uning hayoti va ijodi haqidagi ilmiy va ommabop kitoblar turkumini chop etish, mamlakatimizning xorijdagi diplomatik vakolatxonalarida Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan tadbirlar tashkil etish, chet elda istiqomat qilayotgan o'zbek tili mutaxassislari, tarjimonlarni jalb etgan holda Alisher Navoiyning asarlarini chet tillarga tarjima qilish, nashr etish va xorijiy mamlakatlarda taqdimotlarini o'tkazish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi binosini to'liq rekonstruksiya qilish, yangi zamonaviy ekspozitsiya yaratish, zarur texnik va ashyoviy jihozlar bilan ta'minlash uchun kerakli mablag'lar ajratish choralarini ko'rish hamda 2021-yil oktyabrga qadar ta'mirlash ishlarini yakuniga yetkazish, 2021-yil fevral oyida Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan tasviriy san'at asarlari, miniatyuralar, xalq amaliy san'ati namunalari ko'rgazmalarini o'tkazish, Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini nishonlash bilan bog'liq tadbirlarni keng yoritish, shoir asarlari asosida maxsus ko'rsatuv va eshittirishlar, o'quv-ma'rifiy filmlar yaratish kabi vazifalar belgilandi. Ta'kidlab o'tilgan vazifalarning ijrosini ta'minlash faqat mutasaddi tashkilot rahbarlarininggina emas, balki barchamizning buyuk Navoiy siymosi oldidagi sharaffi burchimizdir. Shuningdek, amalga oshirilayotgan ishlarimiz ulug' Navoiy shaxsiga ko'rsatilayotgan e'tibor va e'tirofning namunasidir.

Biz ham ayni shu muqaddas sana munosabati bilan bir tarixiy voqeelik, ya'ni Alisher Navoiyning qalamiga

mansub bir g'azalning tug'ilish tarixiga oid quyidagi manbani tayyorlab, e'tiboringizga havola qilmoqni maqsad qildik. Zero, quyidagi satrlar orqali ulug' Navoiyning buyukligiga, uning halolligiga va saxovatpeshaligiga yana bir bor guvoh bo'lib, tasannolar aytamiz.

Navoiy hayoti va ijodini o'rganish jarayonida yetuk olimlarimizdan Vohid Abdullayevning bundan 53 yil muqaddam, ya'ni 1968-yilda chop etilgan "Navoiy Samarqandda" (Toshkent: G'.G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968. – 136 b.) monografiyasini mutolaa qilish asnosida bir qiziqarli ma'lumotni uchratdim. Hozir sizlarning e'tiboringizga shu asardan parchani keltirmoqchiman (bu iqtibos kitobning 83–87-sahifalaridan olindi):

"Shoir Maqsud Shayxzoda ta'riflaganidek, – deb boshlaydi Sobir Abdulla, – g'azal mulkingning sultoni Amir Alisher Navoiyning yigitlik davriga taalluqli bir kichik hikoyani aytib bermoqchiman. Buni men O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi Mirza Abdulla Boqiydan eshitganman.

Alisher Samarqandda tahsil ko'rayotgan yillarda bir matla'ning asiri, maftuni bo'ldi:

***"Ko'kragimdur subhning pirohanidin chokroq,  
Kiprigim shabnam to'kilgan sabzadin namnokroq".***

Alisherni o'ziga asir-u maftun etgan bayt shu bo'lib, uning sohibi bir gado edi. Samarqand bozorida kechgacha baland, shirali ovozi bilan shu baytni takrorlard, baytni gadodan qayta-qayta eshitib, zavqlanuvchi, unga sadaqa inom qiluvchi ahli dard, ahli fazl kimsalar oz emas edi.

Navoiy gadoning yoqimli ijrosida matla'ni qayta-qayta tinglard, yodlab olingan matla'ni yo'l-yo'lakay zamzama qilar, hujraga qaytganda ham qulog'ida shu misralar jaranglab, kechalari uyqu bermas edi.

"Xaridor bo'lib, shu baytingizni menga soting, desam sotarmikin?... Balki sotar, balki sotmas!.. Qani endi menga sotsa edi?". Bu istak Navoiyni tinch qo'ymadi, gado orqasidan ergashib xarobasiga borishga, qo'ldan tutib, iltimos qilishga ahd qildi:

– Otaxon! Shu baytingizni menga soting! Aqcham kifoya qilmasa, to'nimni ham sotib beray. Yo'q demang!

Navoiyning iltimosini eshitgan keksa gado qah-qah urib kulib yubordi, keyin boshini chayqab iltimosini rad qildi.

– Ko'rinishingizdan qashshoq mullavachchaga o'xshaysiz! Shundog'mi?

– Shundog'.

– Shundog' bo'lsa, baytni sotib olish niyatidan keching, tekinga oling, yodlab o'qib yura bering! Buning uchun mening tomonimdan qanday mone'lik bo'lishi mumkin?...

– Shuning uchun sotib olishim kerakki, u chog'da siz bu matla'ni kuylab, tilanishdan mahrum bo'lursiz.

Navoiydan bu da'voni eshitgan gado miyig'ida kulib, tamasxurona bosh chayqadi:

– Balki kuchingiz yetmas, balki buni shohlikka alishmasman. Zeroki, bu bayt menga otamdan meros qolgan, men uni qirq yildan beri takrorlayman, bu bilan qornimni to'yg'izaman, bola-chaqa boqaman!...

– Otangiz shoirmidilar?

– Shoir emas edilar, bog‘bon edilar, bu baytni baland ovozdak kuylab bog‘ni parvarish qilardilar.

– Faqat bir baytning o‘zimidagi yoki to‘la, mukammal g‘azal edi-yu, siz shu bir baytni yodda qoldirganmisiz?...

– Yo‘q! Otam ham shu bir baytni takrorlard edi.

– Qaysi zotning asarlari ekanligini ham bilmassiz?...

– Afsus, nomu taxalluslarini bilmayman. Otam ham bundan xabarsiz bo‘lgan bo‘lsalar kerak!...

Navoiy g‘amgin sukutga cho‘mdig‘i, gado so‘zini davom ettirdi:

– Siz yod olib, o‘qib yurishingiz uchun mening rizo bo‘lishim kifoya qilmaydimi?

– Men sizning rizoligingizsiz ham yod olib zamzama qilib yuribman. Lekin men uchun bu kifoya emas.

Shunday qilib, Navoiyning umidi uzildi, bo‘shashib hujraga qaytib keldi.

Oradan bir necha yil o‘tdi. Husayn Boyqaroning taklifi bilan Navoiy Hirotda jo‘nab ketdi; Sulton Husaynning saltanatida bosh vazirlik lavozimi, malikush-shuaro martabasini egalladi. Sulton Husayn Boyqaro davlat, saltanat sultoni maqomida bo‘lsa, Alisher Navoiy Sharqqa “g‘azal mulkingiz sultoni” bo‘lib tanildi.

Oradan o‘n yildan ko‘proq o‘tgandan so‘ng Navoiy davlat ishlari bilan Samarqandga yo‘li tushib, qadrdonlarga mehmon bo‘ldi, bir suhbatda Navoiy o‘zini asiru maftun qilgan o‘sha bayt bilan uning sohibi – gadoni esladi. Hamsuhbatlar Navoiyga o‘sha gadoning nihoyatda keksayib qolganligi, baytni o‘shandoq baland, shiralik ovozdak emas, bir yerda mukchayib o‘tirganicha pichirlab aytib, tilanayotganidan darak berdilar. Navoiy ertasi kun gadoni kappon bo‘zag‘asidan topib, ziyorat qildi, so‘ng o‘zini tanitdi:

– Yodingizda bormi? Baytga xaridor bo‘lgan edim, siz rad qilgan edingiz...

– Yodingizga tushdi! Hali ham o‘sha davodan qaytganingiz yo‘qmi?

– Yo‘q ota! Hamon o‘sha g‘azalning asiri, maftuniman, hamon jazman xaridorman!

Chol kuldi:

– Sotaman! Biroq sotib olishga qurbingiz yetsa koshki edi.

– Balkim qurbim yetib qolar, balkim yetmas...

– Juda keksayib qoldim, endi uni baland ovozdak o‘qishdan oqizman! Haq so‘zini aytganda, gadolik ham me‘daga tegdi. Qurbingiz yetsa, yaxshi hovli-joyga, shu joy yaqinidan bir tegirmon va bir eshakka ega qiling-u, bayt sizniki bo‘lsin, men o‘lgunimcha haqqingizga duo qilib, qolgan umrimni tegirmonchilik bilan kechiray.

Navoiy mamnuniyat bilan xo‘p dedi, cholning aytgani bo‘ldi: cholga dang‘illama hovli-joy, tegirmon va bir eshak sotib olib berildi. Sohibi noma‘lum, uzoq yillar gado bo‘lgan shoh bayt Navoiyning zarxarid mulki bo‘lib qoldi va shundan keyin Navoiy unga dadil dast urib, uni mukammal g‘azal holigaga keltirdi:

***Ko‘kragimdur subhning pirohanidin chokroq,  
Kiprigim shabnam to‘kilgan sabzadin namnokroq.***

***Bu ko‘ngil g‘amnokidin to shodmon ko‘rdim seni,  
Istaram har damki o‘lg‘ay xotirim g‘amnokroq.***

***Layli andin qo‘ydi Majnun ko‘ngilda rohat g‘amin,  
Kim, yo‘q erdi manzil ul vodiya andin pokroq.***

***O‘yla mijgon xanjariga yopishubdur dard aning–  
Kim, magar andin tinim yo‘qdur vale bebokroq.***

***Lablaringdin jon olurda barcha el quldur sanga,  
Jon berurda bir qulung yo‘q bandadin cholokroq.***

***Odamiylik tuprog‘in bersa fano yeriga charx,  
Ohkim, yo‘qtur kishi ahli fanodin xokroq.***

***Necha o‘qlonsa Navoiy ko‘ngli zaxmin chok bo‘lur,  
Ko‘rmadik, zaxmini tikkan sori bo‘lgay chokroq.***

Navoiyning boshqa nodir g‘azallari qatori bu “roq” radifli g‘azali ham o‘z vaqtida muxlislariga yetdi, hofizlar uni kuyga solib kuyladilar, bu mashhur, o‘lmas kuyning nomi ham “roq” deb ataladi, bu kuy Navoiyning g‘azali bilan asrlar osha bizning davrimizga yetib keldi, uni to‘y-tantalarimizda atoqli hofizlarimiz tomonidan zavq-shavq bilan kuylanib, kishilarimizga ruhi g‘izo baxsh etmoqda.

Alisher Navoiyning Sobir Abdulla tomonidan O‘zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a‘zosi Mirza Abdulla Boqiydan eshitib keltirilgan bu kichik hikoyasidagi “chokroq – namnokroq” qofiyasi bilan boshlangan g‘azali va Samarqandda yozilgan, deb taxmin qilingan juda ko‘p lirik manzumalari haqidagi naqlarni manbalarga solishtirib asoslash navoiyshunosligimizning muhim vazifalaridandir. Har holda shunday izlanishlarning davom etavergani yaxshi va uning navoiyshunoslik kabi katta ishga ozmi-ko‘pmi foyda keltirishi shubhasizdir”.

Biz nima uchun bugun ushbu ma‘lumotlarni keltirishni ma‘qul topdik? Bu hikoyadan yana bir bor buyuk Navoiyning mardligi, insoniyligi va saxovatpeshaligiga guvoh bo‘lamiz. E‘tibor bering, Navoiy bu matla‘ni hech kimdan ruxsat so‘ramasdan olishi va davom ettirishi mumkin edi. Uning muallifi noma‘lum, aytayotgan shaxs esa hech qanday martabaga ega bo‘lmagan bir kishi edi. Qolaversa, Navoiy Hirotda, gado esa Samarqandda, hech kim bu g‘azalning kimga oidligi bilan Navoiydek inson bilan tortishmaydi, gadoning ham Samarqandda bu g‘azalga da‘vogarlik qilishga imkoni ham, qudrati ham yetmaydi. Lekin Navoiyning halollik bobidagi odobini qarangi, bir necha ming satrdan iborat g‘azallar sohibi bo‘lishiga qaramasdan, ushbu kichik hajmdagi g‘azalni tirikchiligining asosiy manbasi sifatida qo‘shiq qilib aytib kelayotgan nochor insonni rozi qilib olishni maqsad qiladi. Ilk bor uchrashgan vaqtida Navoiy moddiy jihatdan unchalik qudratli bo‘lmagan, oradan o‘n yil o‘tib, moddiy imkoniyati ortganda yana Samarqandga kelib, ikki qator she‘r uchun gado aytgan shartni mamnuniyat bilan qabul qiladi. Ya‘ni Samarqanddan bir qancha mablag‘ evaziga uy-joy – hovli, yana tegirmon, eshak aravasi bilan sotib olib, gadoni rozi qiladi, uning kelajak avlodlari uchun hayot kechirish manbaini hozirlab beradi. Bu Navoiyning haqiqiy inson, mard va saxovatpesha shaxs bo‘lganligidan namuna emasmi?

O‘zingiz bir mulohaza qilib ko‘ring, bugun ayrimlar tomonidan o‘zganing qo‘shig‘ini, yaratgan kuyini, asarini hech tap tortmasdan surbetlarcha o‘zlashtirish tobora avj olib borayotgan bir davrda bu jihatdan ham buyuk Navoiydan o‘rnak olishimiz lozimdek ko‘rinadi.

## KONSTITUTSIYAMIZ – TARIX SAHIFALARIDA

**Annotatsiya.** Maqolada dunyoning rivojlangan davlatlari konstitutsiyalarining shakllanishi hamda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilish tarixi qalamga olingan.

**Kalit so‘zlar:** davlat, mustaqillik deklaratsiyasi, qonun ustuvorligi, konstitutsiya, konstitutsiyaviy komissiya.

Зиёдулло ИСОКОВ,

кандидат исторических наук, доцент кафедры “Общественно-гуманитарных наук” ГИИКУЗ

## НАША КОНСТИТУЦИЯ – НА СТРАНИЦАХ ИСТОРИИ

**Аннотация.** В статье анализируется история формирования конституционной системы развитых государств мира и процесс создания Конституции Республики Узбекистан.

**Ключевые слова:** государство, декларация независимости, верховенство закона, конституция, конституционная комиссия.

Ziyodullo ISOKOV,

Candidate of Historical Sciences, Associate Professor of the chair of Social and Humanitarian Sciences of the Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

## OUR CONSTITUTION IS ON THE PAGES OF HISTORY

**Annotation.** The article deal with comparative analyses of history of formation of constitutional system of developed states of the world and creation of the Constitution of the Republic of Uzbekistan.

**Key words:** state, declaration of Independence, law supremacy, constitution, constitutional commission.

Uzoq asrlar davomida bashariyat ming-minglab qoidalar va nizomlardan jamiyat uchun asosiylarini va o‘ta muhimlarini tanlab oldi. Konstitutsiya, davlatni davlat, millatni millat qiladigan hujjat, ta’bir joiz bo‘lsa, u huquqiy bilimlar alifbosidir. Unda bayon etilgan tushunchalar shu qadar ahamiyatli, hech bir odam ularsiz yashay olmaydi. Negaki, insonning har kuni duch keladigan muammolarni hal etishga qaratilgan faoliyati ko‘pincha mamlakat asosiy qonuniga kiritilgan qoidalar va moddalarga bog‘liqdir. Konstitutsiya so‘zi lotin tilida “Constitutio” – so‘zidan kelib chiqib, “tuzish”, “o‘rnatish”, “belgilash” ma’nolarini bildiradi. Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni qonun asosida belgilash dastlab qadimgi Rimda amalga oshirilganligi tarixdan bizga ma’lum. Konstitutsiya o‘zining uzoq tarixiga ega. Jahonda birinchi Konstitutsiyalar 1787-yilda AQSHda, 1791-yil Fransiyada, 1831-yilda Belgiyada, 1874-yilda Shveysariyada qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jahonda eng rivojlangan, taraqqiy topgan demokratik davlatlarning tarixiy tajribasi va Konstitutsiyaviy amaliyotiga tayangan holda yaratilgan. Konstitutsiyamiz BMT hujjatlariga, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasiga, xalqaro huquqning umume’tirof etgan qoidalarga asoslangan. Shuningdek, unda Yaponiya, Kanada, AQSH, Germaniya, Fransiya, Portugaliya, Italiya, Shvetsiya, Turkiya, Ispaniyaning hamda sharq mamlakatlaridan – Hindiston, Pokiston, Misr davlatlarining konstitutsiyaviy tajribasidan ijobiy foydalanilgan<sup>1</sup>. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 6 bo‘lim, 26 bob, 128 moddadan iborat. Italiya Konstitutsiyasi 139, GFR Konstitutsiyasi 146, Fransiya Konstitutsiyasi 92, Ispaniya Konstitutsiyasi 169, Hindiston Konstitutsiyasi 400 dan ortiq modda va 10 ta ilovadan, Nigeriya Konstitutsiyasi 331 modda va 7 ilovadan iborat. O‘zbekistonda Konstitutsiyaviy

tuzum o‘ziga xos xususiyatlari bilan 1918-yildan boshlab yashab kelmoqda. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, yangi mustaqil davlat maqomini qonuniy jihatdan mustahkamlash zarurati tug‘ildi.

Asosiy Qonunimiz loyihasi uch ming yillik milliy davlatchilik hamda dunyo qonunchilik tajribasi, xalqaro inson huquqlari mezonlarini o‘zida mujassamlashtirdi. O‘zbekistonning o‘zligi huquqiy jihatdan Konstitutsiyamizda yaqqol ifodasini topgan. Fuqarolarimizning o‘zligi esa Konstitutsiyani nechog‘li bilishi va unga rioya qilishidir. Bundan yigirma yil muqaddam 2001-yil 4-yanvarda mamlakatimizda umumdavlat ahamiyatiga molik hujjat – O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishni tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoyishi qabul qilingan edi. Bu farmoyish yosh avlodning huquqiy ongi, tafakkuri va madaniyatini tarbiyalash hamda yuksaltirish, shuningdek, Konstitutsiyani bilish, uni keng targ‘ib-tashviq qilishga qaratilgan bilan ahamiyatli bo‘ldi. Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va milliy qonunchiligi xalqaro huquqning barcha jihatlariga to‘laligicha mos keladi deb aytishimiz mumkin. Milliy qonunchilikni yaratish iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalarda islohotlarning huquqiy poydevori bo‘lishi barobarida fuqarolik jamiyatini shakllantirishda ustivor yuridik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish, jamiyat ma’naviy hayotini yuksaltirish, tinchlik va barqarorlikni ta’minlash yo‘lida qat’iy va izchil siyosat olib borilmoqda. Bu kabi sa’y-harakatlarning barchasi O‘zbekiston Konstitutsiyasi bilan bevosita bog‘liqdir. O‘zbekiston Oliy Kengashining 1990-yil 20-iyunda bo‘lib o‘tgan 2-sessiyasida “Mustaqillik deklaratsiyasi” qabul qilingandan so‘ng, O‘zbekiston Respublikasi uchun yangi Konstitutsiya yaratish masalasi ko‘tariladi.

1. Jacques Barrat, Coline Ferro, Charlotte Wang. Ge‘opolitique de L’Ouzbekistan. – P., 2010.

1992-yil 26-sentabrda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi loyihasi umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e‘lon qililib, ushbu muhokama ikki oy davom etdi. Muhokama jarayonida bildirilgan takliflar asosida tuzatishlar kiritilgan loyiha 1992-yil 26-noyabrda matbuotda ikkinchi marta e‘lon qilindi. Umumxalq muhokamasi davrida bildirilgan olti mingdan ortiq taklif va mulohazalar inobatga olindi<sup>2</sup>.

Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqishda eng avvalo, Milliy davlatchiligimizning tajribasi, Amir Temur va boshqa davlatchiligimiz tarixida muhim o‘rin tutgan arbob va allomalarimizning davlatni idora qilish sohasidagi g‘oyalari yangi Konstitutsiyaga asos qilib olindi. Shuningdek, konstitutsiyaviy rivojlanishning jahon tajribasi o‘rganildi, inson huquqlari, demokratiya va qonunchilik sohasida jahonda qo‘lga kiritilgan yutuqlar hisobga olindi. Sohibqiron Amir Temur bobomiz “Davlat qonunlar asosida qurilmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tarkibi yo‘qoladi”, deb ta’kidlagan edilar. Shu nuqtai nazardan, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta‘minlash biz bunyod etayotgan demokratik huquqiy davlatning bosh mezonini hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 6 ta bob, 26 ta bo‘lim, 128 ta moddadan iborat.<sup>3</sup> U “Mustaqillik Deklaratsiyasi”, “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi Qonunda mustahkamlangan tamoyillar va g‘oyalarni o‘zida to‘la mujassamlashtirgan. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ijodkor xalqimizning xohish, irodasi va dono fikr-mulohazalari asosida va jahonda to‘plangan eng ilg‘or konstitutsiyaviy rivojlanish tajribasini va milliy davlatchiligimiz xususiyatlarini hisobga olgan holda mustaqil ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o‘rganish jarayonida uning mohiyatini ochib beruvchi quyidagi asosiy tamoyillarni bilib olishga ahamiyat berish zarur:

1. O‘zbekiston Konstitutsiyasining muhim tamoyili davlat suverenitetidir. “O‘zbekiston Respublikasi” va “O‘zbekiston” degan nomlar bir ma‘noni anglatadi.

2. Konstitutsiyamizning tamoyillaridan yana biri xalq hokimiyatchiligidir.

3. Davlat hokimiyatining uch tarmoqqa bo‘linishi. O‘zbekiston davlat hokimiyati tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo‘linishi qonunlashtirildi.

4. Asosiy konstitutsiyaviy tamoyillardan biri demokratiyaga sodiqlikdir. Konstitutsiyada umuminsoniy demokratik tamoyillarning, xalqaro huquq sohasida umume’tirof etilgan qoidalarning ustunligi tan olingan.

5. O‘zbekiston Konstitutsiyasida inson hayoti, erkinligi, or-nomusi, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari eng oliy qadriyat ekanligi belgilab qo‘yilgan.

6. Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi. Konstitutsiyaning 15-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi”, – deb belgilab qo‘yilgan.

Fuqarolarning asosiy burchlari Konstitutsiya va boshqa

qonunlarda o‘z ifodasini topish barobarida ularning huquq va majburiyatlari ham aniq belgilab qo‘yilgan.

Konstitutsiyamizning 18-moddasiga muvofiq, “barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, dini, ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar” deyiladi. Qonunlar bilan ta‘minlangan bunday tenglik normalarining hayotiy isboti sifatida bir olamshumul e’tirofni eslashimiz o‘rinli deb o‘ylayman. 2011-yilda BMT O‘zbekiston millatlararo va dinlararo bag‘rikenglik normalariga to‘laligicha amal qilinayotgan mamlakat sifatida oltita tilda jahon afkor ommasiga bayonot berdi. Shuningdek, asosiy Qomusimizda inson huquqlari, burch va vazifalari kabi Vijdon erkinligi ham alohida belgilab qo‘yilgan. Asosiy Qonunimizning 31-moddasida “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburiy singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi”, deb alohida ta’kidlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bugungi kunda dunyo ekspertlari va mutaxassislar tomonidan yuqori baho berilgan. Jumladan, AQSHlik ekspert Donald S.Karlayl Konstitutsiyamizga shunday ta’rif beradi. “O‘zbekistonning Konstitutsiyasi sovetlardan keyingi davlatlar – sobiq ittifoqdosh davlatlar konstitutsiyalari orasida birinchidir. Boshqa barcha Mustaqil hamdo‘stlik davlatlari va Boltiq bo‘yi davlatlarida konstitutsiyalar keyinroq, ya’ni 1992–1996-yillarda qabul qilingan. Konstitutsiya o‘zbek jamiyati va davlatining barcha eng muhim sohalarini tartibga soladi, qisqaligi va aniq ifodalanganligi, shuningdek, o‘ziga xos tuzilishi bilan ajralib turadi. U dunyodagi eng maqbul tuzilishga ega konstitutsiyalardan biridir”. Rossiyalik ekspert N.Mishin esa konstitutsiyamiz to‘g‘risida shunday fikr bildiradi, “Asosiy Qonunda inson huquqlari va davlat mustaqilligi g‘oyalari sodiqlik, hozirgi va kelajak avlodlar oldida chuqur mas’uliyatni his etish, o‘zbek davlatchiligining tarixiy tajribalariga tayanish, demokratiya va qonuniylikka hurmat, xalqaro huquqning umum e’tirof etgan normalarini tan olish, O‘zbekistonning munosib hayotini ta‘minlash, insonparvar huquqiy davlat yaratish va nihoyat, mustahkam fuqaroviy tinchlik hamda milliy kelishuvni ta‘minlash kabi ezgu niyatlar o‘z mujassamini topgan”.

Bir so‘z bilan aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi mamlakatimiz hayotida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. U mamlakatimizda qonunchilikning rivojlanishi uchun, huquqiy islohotlar uchun asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Yuzlab qonunlar, kodekslar, milliy dasturlar ishlab chiqildi, umumxalq muhokamasidan o‘tdi, qabul qilindi va hayotimizning barcha jabhalarida amal qilinmoqda. Zero, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – farovon hayot garovi” dir.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida xalqimiz uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan demokratik prinsiplar o‘z ifodasini topgan va ularni kafolatlanishi ko‘rsatilgan.

2. A.X.Saidov. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilish jarayoni.//O‘zbekiston respublikasi IIV akademiyasining axborotnomasi. 2017-yil. Maxsus son 5 –10-betlar.

3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: 2016.



*I BO'LIM*

**TEATR**

**VA KINO**

**Абдурахим ИСМАИЛОВ,**  
Заслуженный деятель искусств Узбекистана, лауреат Государственной Премии, кинооператор-кинорежиссёр, профессор кафедры «Звукорежиссуры и операторского мастерства» ГИИКУз.  
**Камола ХИДИРОВА,**  
и.о. доцента кафедры «Звукорежиссура и операторское мастерство» ГИИКУз

## **КИНОМОНТАЖ: КОМПОЗИЦИОННОЕ СТРОЕНИЕ ФИЛЬМА**

*Аннотация: В данной статье рассказывается об искусстве киномонтажа - как творческого процесса в кинематографии и его художественных видах. А также уделяется особое внимание таким аспектам, как монтажные приёмы, игра света и тени, композиционно строение фильма в создании художественного образа.*

**Ключевые слова:** искусство, живопись, кино, кадр, композиция, киноосвещение

**Abduraxim ISMAILOV,**  
O‘zDSMI “Ovoz rejissorligi va operatorlik mahorati” kafedrası professorı, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, Davlat mukofoti sovrindori.  
**Kamola XIDIROVA,**  
O‘zDSMI “Ovoz rejissorligi va operatorlik mahorati” kafedrası dotsenti v.b.

## **KINOMONTAJ: FILMNING KOMPOZITSION QURILMASI**

*Annotatsiya: Ushbu maqolada kinematografiya sohasining ijodiy jarayon sifatidagi kinomontaj san’atininigi badiiy shakllari haqida so‘z boradi. Shuningdek, montaj uslublari, nur va soya, badiiy obraz yaratishda filmning kompozitsion qurilmalariga alohida e’tibor qaratilgan.*

**Kalit so‘zlar:** san’at, rangtasvir, kino, kadr, kompozitsiya, kinoyorug‘lik.

**Abdurahim ISMAILOV,**  
Honored Artist of Uzbekistan, laureate of the State Prize, cinematographer-film director, professor of the chair of “Sound Engineering and Cinematography” of Uzbekistan state institut of Art and Culture  
**Kamola KHIDIROVA,**  
Acting Associate Professor of the chair of Sound Engineering and Cinematography of Uzbekistan state institut of Art and Culture

## **FILM EDITING: THE COMPOSITIONAL STRUCTURE OF THE FILM**

*Annotation: This article reveals about the art of cinematography of the creative process in the cinematography of artistic forms. And also special attention is paid to such aspects, where editing techniques, the play of light and shadow, the compositional structure of the film in creating an artistic image are of no small importance.*

**Keywords:** art, painting, cinema, frame, composition, movie lighting.

Монтаж – завершающий производство фильма творческий и технический процесс, во время которого материал, снятый на плёнку и цифру проходит несколько этапов обработки и лучшие кадры соединяются в целостную композицию фильма. Монтаж называется также система смысловых, звукозрительных и ритмических соотношений между отдельными кадрами, которые слагаются постепенно и закрепляются в готовом фильме.

Монтажное изложение сюжета, выразительность раскадровки, разнообразие приёмы сочетания кадров органически связаны с драматургией и композицией фильма и подчиняются идейным и творческим замыслам режиссёра.

Каждый фильм представляет собой соединение большого количества монтажных кадров- отдельных кусков снятого на плёнку, на цифру действия которых записан в режиссёрском сценарии. Режиссерский сценарий в мировом кинематографе ввел известный американский кинорежиссер продюсер и драматург Томанс Инс. Смысловая и изобразительная характеристика кадра может быть сложной и изменчивой. Органическое соединение смежных кадров определяется наличием в них ряда общих признаков.

По своему существу монтаж диалектичен; чтобы кадры хорошо, чётко монтировались, они должны

быть и родственны между собой и в то же время могут отличаться друг от друга. Последовательно сочетаемые кадры активно взаимодействуют, сливаясь в восприятии зрителя в нерасторжимое целое. Монтажная фраза может быть составлена из кусков, снятых в разное время и в разных местах, включать в себя фрагменты и многочисленные детали какого-то одного определённого действия. Смысл отдельного кадра иногда существенно меняется от перемены монтажного контекста.

Монтаж организует восприятие фильма, облегчает и углубляет понимание происходящего на экране. Монтажная раскадровка, изменение точек и приёмов съёмки, контрасты кадров по крупности и содержанию делают изложение кинематографии, сюжета живым, динамичным и разнообразным по форме. Монтаж акцентирует отдельные моменты и усиливает воздействие игры актёра. Быстрая или замедленная смена кадров придаёт каждому эпизоду фильма свой особый ритм. Однако степень выразительности монтажа сила его воздействия на зрителя во многом зависят от сюжета и идеи фильма от изобразительного решения отдельных кадров, а темпо-ритмы фильма, определяются не только количеством и длиной монтажных кусков, но и построением режиссерского сценария, характером диалога, искусством актёров.

В зависимости от жанра и сюжета фильма от индивидуальности режиссёра и кинооператора монтаж может принимать самые разнообразные формы. На протяжении фильма характер соотношения кадров постоянно меняется. Отдельные эпизоды отличаются друг от друга не только по своему содержанию, но и по приёмам и ритму монтажа. Монтажная манера того или иного режиссёра может изменяться в связи с эволюцией его творчества.

Монтажная стилистика фильма существенно видоизменяется с освоением кинематографом новых изобретений и новых выразительных средств, какими являются звук, цвет, широкий экран, стереоскопичность, универсальная подвижность съёмочной камеры и др.

Монтажом начинается режиссёрской раскадровки сценария и построение кадра во время съёмки, когда решается, каким планом и как будет сниматься тот или иной объект. Первоначальная и наиболее простая форма показа действия — фиксация целой сцены или эпизода в одном длительном кадре, снятом при статичном положении камеры или призначительном, её движении исходя режиссерского сценария.

От монтажной стилистики зависит очень много особенно композиционное строение эпизодов и фильма в целом.

Когда речь идёт о композиции кадра и фильма, здесь особенно режиссёру, кинооператору и художнику фильма необходимо изучить творчество Микеланджело Мерзи да Караваджо XVII в, основателя реализма в живописи, одного из крупнейших мастеров барокко. Он очень внимательно обращал через композицию на освещение, свет и тень. У Караваджо главное достоинство картины-мастерски воссоздание световоздушная среда, создавшая атмосферу поэтичности. Искусство Караваджо оказало огромное влияние на творчество итальянских, но и ведущих мастеров живописи западной Европы XVII-века.

Киномонтаж – (франц. *montage* – сборка), термин, имеющий несколько взаимосвязанных значений:

1. Система специфических выразительных средств экрана, создающих кинематографическую образность.
2. Принцип и закономерности построению художественного образа «общий монтажный принцип в искусстве».
3. Технологический и творческий процесс соединения отдельно снятых кадров в единое идейно-художественное, целое фильм<sup>1</sup>.

Различают два вида монтажа – внутрикадровый и межкадровый.

**Внутрикадровый монтаж** – построение единого выразительного пространства времени кадра.

Его выразительный арсенал – ракурс (грубияна резко изображаемого пространства), масштаб изображения (дальний, общий, средний, крупный планы, деталь), длина кадра (метраж) движения камеры, цвет, звук, средства актёрского исполнения, декорационное и музыкальное решение фильма. Композиция кадра объединяет все его выразительные средства и новое художественное целое – мизанкадра (термин С.М.Эйзенштейна) – элемент монтажного кадра<sup>2</sup>.

**Межкадровый монтаж** – сочетания (склейка) мизанкадров на основе их содержательного взаимно действия, ведущего к созданию единой монтажной системы фильма.

В 1895-1905 кадр, как правило, строился по аналогии с фотографией и сценическим действием. Ракурс, метраж, объектив и прочее были лишь техническими средствами, создающими экранное изображение объекта реальности. Межкадровый монтаж в этот период сводился к однозначно-информационной склейке кадров и выполнял функцию логически последовательного изложения событий. Кинематограф ещё не был искусством, так как не обладал сценически выразительными средствами. Их зарождение и быстрое развитие началось в 1908–1910 года. Кадр превращался в художественное целое, обладающее новым качеством – экранной выразительностью изображение стало многозначным, содержательно обогатившись авторским видением<sup>3</sup>.

Первым исследователем монтажа у нас в кинематографе был Л. В. Кулешов. В статьях 1917–1923-е года он пришёл к пониманию внутрикадрового и межкадрового монтажа, ставшему фундаментом современной монтажной теории. В эксперименте, получившем название «эффект Кулешова», был осмыслен монтажный принцип создания нового художественного качества, возникающего при целенаправленном сопоставлении кадров. Кулешов первый подошёл к важнейшему выводу о том, что монтажный принцип лежит в основе специфики кино и что экранная выразительность всех без исключения кинематографических средств есть выразительность монтажная.

Куски заснятой сцены монтируются по смыслу – по задачам сценария; при этом учитываются следующие возможности их соединения:

- По направлению съёмки (для чего необходимо находить и учитывать генеральное направление в съёмке сцены).
- По движению в кадрах (для чего необходимы при съёмке «захлесты» движений и учет их направлений).
- По темпу и ритму действия в кадрах (для чего необходимо на съёмке учитывать темп и ритм монтирующихся друг с другом кусков).
- По темпу и ритму движения кадра – съёмка движущейся камерой (для чего необходимо строго учитывать направление, темп и ритм движения камеры в соединяемых кусках).
- По размерам планов (для чего необходимо учитывать при съёмке соотношение планов).
- По композиции кадра – расположению и местоположению двигающихся и статистических объектов в

<sup>1</sup> Стивен Принс; Уэйн Э. Хенсли «Эффект Кулешова: воссоздание классического эксперимента». Кино-журнал. №31 (2): 59–75. DOI : 10.2307/1225144 Москва/ 1992 г. –С.31.

<sup>2</sup> Thomas Leitch, Leland Poague. A Companion to Alfred Hitchcock. John Wiley & Sons.. doi:10.1002/9781444397321. ISBN 9781444397321. 2011. Blackwell Publishing Ltd. –С. 60.

<sup>3</sup> Dean Mobbs; Nikolaus Weiskopf; Hakwan C. Lau; Eric Featherstone; Ray J. Dolan; Chris D. Frith "The Kuleshov Effect: The influence of contextual framing on emotional attributions". Social Cognitive and Affective Neuroscience. Journal № 1: doi:10.1093/scan/ns1014./ США 2006 г.-С 95–106.

кадре (для чего необходимо учитывать при съемке не только композицию кадров, но и движение, видоизменение композиции в кадрах – кинетическую композицию).

– По тональности, свету и цвету (для чего необходимо учитывать при съемке освещение объектов в кадре, тональность кадров, их цветовую гамму, а также видоизменение освещенности и тональности и гаммы внутри кадров)<sup>4</sup>.

А вот самые важные слова Льва Кулешова, как правило не учитываемые начинающими «киношниками»:

«Подготавливая к съемке сцену, мы с вами все время думаем о будущем монтаже этой сцены. Монтаж должен всегда учитываться и в режиссерском сценарии, и на репетициях, и на съемках, иначе смонтировать сцену (и фильм, состоящий из сцен) будет чрезвычайно трудно, а иногда просто невозможно»<sup>5</sup>.

Первые фильмы снятое изобретателем Л. Люмьера, состояли из одного кадра. Режиссёр Ж. Мельес уже принял монтаж в его простейшей форме – отдельные сцены поставленных им соединялись при помощи наплывов или движений объектов, а монтажное «волшебные» эффекты удавались Мельесу только благодаря трюковым съёмкам и монтажа.

**Кулешов уточнил основные понятия своей монтажной теории и изложил её в систематическом виде во многом учтя опыт и теоретические исследования Д. Вертова, Эйзенштейна и др.**

Творчество Дзига Вертова вошло в документальный кинематограф как взрыв. Оно ошеломляет. Подвижная камера, неожиданные ракурсы, острый и смелый монтаж. Активность художника, его страсть, его, если можно так сказать, предвзятость. Личная заинтересованность во всем, что происходит. Жизнь, застывшая врасплох, – и осмысление ее. Шумы производства, списанные с натуры. «Я иногда не мог представить себе, что эти индустриальные звуки можно организовать так, чтоб они казались прекрасными, писал Дзиге Вертову Чарли Чаплин. «Я считаю ваш «Энтузиазм» одной из самых волнующих симфоний, которые я когда-либо слышал»<sup>6</sup>.

Дзига Вертов получил мировое признание как выдающийся режиссер, создатель нового жанра поэтического документального фильма, мастер искусства образной публицистики.

Имя Дзига Вертова стоит в одном ряду с именами крупнейших художников экрана – С. Эйзенштейна, В. Пудовкина, А. Довженко и многих др. Его знают тысячи людей в разных странах мира как автора смелых, необычных фильмов «**Киноправда**», «**Киноглаз**», «**Шагай, Совет!**», «**Шестая часть мира**», «**Одиннадцатый**», «**Человек с киноаппаратом**». Открытые им новаторские методы съемки и монтажа документального фильма оказали воздействие на все развитие мирового кинодокументализма. В 1964 году, через десять лет после того, как Дзига Вертов ушел

из жизни, кинокритики 24 стран назвали «Человека с киноаппаратом» в числе двадцати лучших документальных фильмов всех времен и народов.

*Я – киноглаз.*

*Я у одного беру руки, самые сильные и самые ловкие, у другого беру ноги, самые стройные и самые быстрые, у третьего голову, самую красивую и самую выразительную,*

*и монтажом создаю нового, совершенного человека».*

Дзига Вертов хотел доказать провозглашенную им теорию о том, что у «киноглаза» гораздо больше возможностей, чем у обычного человеческого зрения. Мир оценил старания Дзига Вертова: в 1925 году в Париже, на родине кинематографа, на выставке декоративных искусств он получил серебряную медаль и диплом за выпуск «Киноглаза». В 1929 году режиссер поехал по Германии с докладом на тему «Что такое киноглаз», он выступил в Ганновере, Берлине, Дессау, Эссене, Штутгарте. Переводчик ему не требовался, он прекрасно владел немецким языком.

На своих занятиях со студентами ВГИКа, Эйзенштейн любил рассказывать принципы композиции путем «раскадровки» и монтажного анализа сложных произведений живописи, таких как «Тайная вечеря» Леонардо да Винчи «Изгнание торгующих из храма» и «Буря над Толедо» Эль Греко, «Боярыня Морозова» и «Утро стрелецкой казни» Сурикова В.Серов «Девушка с персиками».

Разделяя картину на десятки «кадров» различной крупности и располагая эти "кадры" в определенном смысловом, драматургическом порядке, студенты как бы оживляли картины, превращали зафиксированный в статике момент действия в процесс, развивающийся во времени и пространстве. Эти занятия, развивая творческую фантазию будущих режиссеров, одновременно учили их скупости, сдержанности, экономии изобразительных решений, умению эксплуатировать каждый штрих, каждую деталь для выражения основной мысли лучшие из студенческих работ Эйзенштейн обрабатывал сам, предупреждал, что хочет использовать их в своих теоретических работах. Частично он использовал их в «Неравнодушной природе» (главки об Эль Греко) и в «Монтаже». Особый интерес представляет сделанный им самим анализ композиции портрета М.Н.Ермоловой кисти В.А.Серова. Он открыл, что необычайная мощь внутреннего подъема, новизна образа великой русской актрисы достигнута... монтажным способом, т.е. объединением четырех различных ракурсов, точек зрения на фигуру Ермоловой, как бы разделяющих портрет на четыре кадра: общий план в рост, фигуру по колени, фигуру по пояс, крупный план головы, причем это деление подчеркнуто прямыми горизонтальными линиями рамы портрета, рамы зеркала, стыками между полом и стеной, стеной и потолком, а впечатление движения, жизни и монументальности достигается постепенным перемещением точки зрения от "сверху" к "в лоб", к "отчасти снизу", к "снизу", по мере укрупнения. Этот оригинальнейший анализ композиции портрета, содержащего одну лишь неподвижно стоящую фигуру, удивительно емко по содержанию. Он показывает

<sup>4</sup> Кулешов Л. Первые киносъемки. -Москва: Искусство, 1962. -С. 23-24.

<sup>5</sup> Кулешов Л. Первые киносъемки. -Москва: Искусство, 1962. -С. 59.

<sup>6</sup> Вертов Д. Чарли Чаплин, гамбургские рабочие, приказы доктора Вирта // Пролетарское кино. -1932. -№ 3. -С.40-43.

значение композиции, ракурса, монтажных переходов как средств, могущих расшифровать сущность человеческого характера, идейное содержание человеческого образа. Не менее интересен «кинематографический» анализ композиции эстампа И.Добужинского «Октябрьская идиллия» и суриковского «Меньшикова в Березове».

В 1939 году Эйзенштейн написал небольшую статью «Пушкин и кино», которая должна была послужить предисловием к специальному исследованию. В ней он коснулся сложности взаимоотношений кино с другими искусствами, «предками не прямыми, а косвенными». Наиболее кинематографичным из литераторов он считал Пушкина. «Величие Пушкина. Не для кино. Но как кинематографично!».

Анализ боя с печенегами из «Руслана и Людмилы» начинается раздел «Монтажа», озаглавленный "Пушкин – монтажёр". В нем много наблюдательности и остроумия. Есть и натяжки. Почему, например, первую строку отрывка «Сошлись – и заварился бой» он счел «типичным титром», а не типичным общим планом, с каких обычно начинаются батальные сцены в кино, в том числе и Ледовое побоище из "Александра Невского?» Подобных возражений можно сделать немало. Побывавшему на лекциях Эйзенштейна ясно, что эти возражения он блистательно и злоехидно разбил бы и опроверг. Но не в этом суть. Анализ композиции батального эпизода, распределения бьющихся по группам, монтажное столкновение этих групп и звукозрительные обертонные сочетания разработаны и неожиданно, и убедительно, зримо.

Еще убедительнее анализ Полтавского боя, разделенный на две части, причем вторая озаглавлена «Шары чугунные» и, возможно, предназначалась для отдельной публикации. Здесь, опираясь на четверостишие Пушкина, описывающее, как между сражающимися прыгают, разят, роют, шипят «шары чугунные», то есть пушечные ядра, Эйзенштейн развернул целую монтажную сюиту, полную бурного движения, драматизма, фантазии.

Когда же шары чугунные, «отыграв все пластические возможности», заканчивают шипением – раздастся «звучный глас Петра», и начинается со звука – из шатра вслед за толпой любимцев, выходит Петр – высший, кульминационный момент сюиты. Снабженная рисунками и схемами эта статья «Эйзенштейна о монтаже» является шедевром монтажного мышления и должна изучаться как блестящий пример кинематографической режиссуры.

Эйзенштейн смело выстроил систему приемов монтажа – от наиболее простого, повествовательного к самым сложным, обусловленным тонкостями художественной формы и идейного содержания. Применение всех этих приемов Эйзенштейн считал возможным в рамках одного фильма, в зависимости от содержания сцен, от намерений режиссера.

Его мысль стремится, рвется вперед. Рамки и без того разбухшего исследования становятся тесны. Вставки, сноски, вкладки несут все новые и новые темы, объекты исследования. Все настойчивее привлекает его внимание синтез. Как бы задавая себе

уроки на будущее, он конспективно набрасывает и подчеркивает, что проблема разрешения вопроса звукозрительного монтажа есть проблема цвета в кино. Потом решает пояснить этот парадокс и исписывает несколько страниц о соизмеримости звука и цвета (что позднее будет переработано для "Вертикального монтажа"). Мысль формулируется более четко: "Другими словами – до конца решить проблему звукозрительной подлинной синхронности – а, следовательно, и проблему монтажа тонфильма – способно только цветное кино".

Новая техника, новые технические открытия толкают вперед творческие мысли художника, дают ему возможность по-новому решать художественную форму произведения, форму, которая будет выразительней и ярче раскрывать идеи, замыслы фильма.

Монтажное композиционное построение сцены вызвало применение оптики с разным характером оптического рисунка. Камера сдвинулась с места.

Сдвинувшаяся с места камера на всегда оставалась на своей «нормальной» высоте. Иногда она опускалась ниже, иногда поднималась над своей бывшей «нормой». Это давало новую киномонтажную выразительность изображению, усиливало художественный эффект, влияло на передачу смысла происходящего.

Так, конечно, это лишь в схеме. Во время съёмки фильма постепенно накапливались выразительные средства: изменение ракурса не только от кадра к кадру, но даже на протяжении одного кадра, изменение масштабности изображения в определенном ритмическом чередовании, использование фокусного расстояния объектива для сознательного управления соотношением масштабов переднего и заднего планов кадра для монтажа.

Освещение (свет) был всегда выразительно изобразительным средством киномонтажного эмоционального раскрытия содержания.

Влияние живописи на кинематограф огромно. Великие живописные произведения Рембрандта – чародея света – питали наше искусство.

Термин «рембрандтовское освещение» приобрел у нас свой смысл, а «рембрандтовский свет» – свой характер.

#### **Потом кинематограф «открыл» импрессионизм.**

Оператор Андрей Москвин в фильмах Козинцева и Трауберга «С.В.Д.» и «Новый Вавилон» применяет мягко рисующую оптику, растушевывает рисунок. Он бросает на лицо, на обстановку, декорацию блики света, «размывает» фон. Но талантливый кинематографист, сознательно или интуитивно, воспользовался большими достижениями импрессионистов не из увлечения их внешней формой, а для того, чтобы многие технические приемы импрессионизма нашли в монтаже новую, реалистическую выразительность. Вокруг имени Андрея Николаевича Москвина создано немало легенд. Для многих характер этого молчаливого человека оставался загадкой.

Операторское видение Москвина обладало поэтической силой. Его кадры стали образцом, в мировом кинематографе.

В 1943 году С.М.Эйзенштейн, еще до войны

задумавший сценарий об Иване Грозном, готовился к постановке фильма. Снимать павильонные сцены был приглашен А.Москвин, над натурой работал постоянный оператор Эйзенштейна – Э.Тиссэ.

Замысел Эйзенштейна формировался в полемике с образом Грозного, сложившимся в русском искусстве. Эйзенштейну нужна была сложная, нервная живопись портретов, эмоционально насыщенная и заражающая волнением борьба света и цвета.

Этими качествами в совершенстве владел Андрей Николаевич Москвин. До «Ивана Грозного» Москвину не приходилось снимать в цвете. Но Эйзенштейн верно почувствовал, что сложную задачу динамического, смыслового насыщенного цветового решения фильма может разрешить лишь оператор, в совершенстве владеющий динамикой света. Так состоялось сотрудничество Эйзенштейна, Москвина, художника Шпинеля, обогатившее изобразительный язык мирового кино прежде всего открытием цвета, как экспрессии и проникновению в характер действующих лиц. Каждый кадр – законченная живописная композиция, по гармонии пластики и силе выразительности ничуть не уступающая станковой картине. И главное, несущая в своих изобразительных элементах – в борьбе света и тени, мизансцене, в динамике цвета – реализацию основного конфликта трагедии. В нем как бы снова ожила зрительная поэзия немого кино, слившись в гармоничном единстве с музыкально звучащим словом.

Здесь каждый жест и движение актёра вписаны в живописную композицию, заданы режиссерским сценарием.

Поэтическая основа замысла Эйзенштейна была близка и понятно Москвину. Он тонко уловил необычный для своего времени строй этого фильма и нашел зрительные формы его выражения.

Но, пожалуй, самое большое чудо этого фильма – портреты. Иван Грозный – юноша, венчающийся на престол, и изможденный страстями и борьбой старец, – это только две конечные точки роли. А между ними – сложная, раздираемая противоречиями борьба с боярами, измена друзей и смерть жены, твердость державного правителя и мучительные, рвущие душу сомнения в праве судить людей. Образ этот сложен, противоречив. Москвину удалось не только зафиксировать все тонкости и подробности актерской игры Черкасова, но и усилить их, мастерством изобразительной культуры. В этих кадрах фильма в целом светотень и ракурс у оператора А. Москвина был самым важным эффектом освещения в искусстве кинооператора. Найденные оператором Андреем Москвиным киноизобразительные средства в фильме «Иван Грозный» вошли в качестве ценнейшего вклада в сокровищницу операторского мастерства в мировой кинематографии.

Кинооператорское мастерство Москвина над образом Ивана грозного великолепно вскрыта и описана С.М.Эйзенштейном в «Неравнодушной природе»: «Долго ищется сквозная световая формула облика: какая-то неотступная тень в глазной впадине, от чего начинается линия скулы, где-то убранная асимметрия глаз, бликом выступающий угол лба, смягченная сетками белизна шеи.

Здесь требуется уже не скульптурная световая лепка сквозного образа, не только изменчивая живописная ее интерпретация в условиях изменяющейся обстановки и окружения (ночь, день, полумрак, плоский фон или глубина), но тончайшей тончайшая тональная нюансировка того, что я бы назвал световой интонацией, которой в таком совершенстве владеет Андрей Москвин. Здесь такая же тончайшая световая музыкальность в портрете, как в тончайшей лирике пейзажей Эдуарда Тиссэ».

А вот портрет Грозного в одном из сильнейших эпизодов второй серии. На троне – расслабленная фигура царя. Редкая седая борода клинышком выдается вперед, жидкими прядями висят волосы, лоб в испарине, глаза мутные. Света обнажает черные круги под глазами, костистый череп – царь болен. Это душевная лихорадка, страх перед тенью тех, кто по его приказу уничтожен.

Один из центральных эпизодов второй серии «Ивана Грозного» – при в Александровой слободе – решен Эйзенштейном и Москвиным в цвете. В стихию черно – белой живописи ворвалось пламя, как говорил Эйзенштейн цветового эпизода как написано монтажные кадры в режиссерском сценарии фильма.

Можно без преувеличения сказать, что это сильнейшая сцена фильма и одна из наиболее интересных попыток овладения драматургией цвета в мировом кино с помощью киномонтажа она сделано на самом раннем этапе, когда кино едва – едва преодолевало свою техническую и эстетическую неграмотность в вопросах цвета. Работа Эйзенштейна и Москвина опередила поиски кинематографа в этом направлении.

Специфику цвета в кинематографе, его особую роль и значение открыли на экране Эйзенштейн и Москвин. Они первыми освоили цвет как динамический фактор, изменяющийся во времени и пространстве и несущий в своем движении глубочайший внутренний смысл.

Не случайно цветовым был задуман кульминационный эпизод второй серии. В сцене пира Грозный наконец получает доказательства своим подозрениям, понимает, кто был центром боярского заговора против него, – слабоумный Владимир Старицкий с дурашливой радостью надевает Мономахову шапку и бармы, берет скипетр и державу, выдавая этим свою мать тетку царя. Огонь мщения и ненависти, злой страсти с такой силой бушует, а Иване, что сжигает не только его врагов, но и самого Ивана.

В борьбе цвета и монтажа в его движении и реализуется накаленный драматизм этой сцены.

Цвет не только усилил драматическую коллизию эпизода, но и с предельной доступностью выразил то, что другими средствами было невыразимо.

Расчет создателей фильма был **верным**. Чувство цвета, «которое является популярнейшей формой эстетического чувства вообще», могло и стало одним из сильнейших выразительных средств мирового кинематографа. Это было еще одним открытием драматургии цвета С.М.Эйзенштейна и А. Москвина.

Кино завоевывало новые высоты, его героем становился не исторический герой, а современник, близкий и понятный своими мыслями, волнениями, оценками и размышлениями.

## O'ZBEK KINOSIDA ZAMONAVIY MAVZU MASALASI (ERKIN A'ZAM DRAMATURGIYASI MISOLIDA)

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada bugungi kun o'zbek kinosida yaratilayotgan filmlardagi zamonaviy mavzuning talqin jihatlariga Erkin A'zam kinodramaturgiyasi misolida e'tibor qaratiladi.*

**Kalit so'zlar:** *badiiy film, aktyor, rejissor, kinodramaturg, janr, syujet, obraz, tasvir, montaj*

Фахриддин АБДУВОХИДОВ,

ГИИКУз, и.о. доцента кафедры "Искусствоведение и культурология", (PhD)

## ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ ТЕМЫ В УЗБЕКСКОМ КИНО (НА ПРИМЕРЕ ДРАМАТУРГИИ ЭРКИНА АГЗАМА)

**Аннотация.** *В данной статье на примере творчества кинодраматурга Эркина Агзама рассматриваются особенности интерпретации современной темы в узбекских фильмах.*

**Ключевые слова:** *художественный фильм, актер, режиссер, кинодраматург, жанр, сюжет, образ, монтаж.*

Fakhriddin ABDUVOHIDOV,

UzSIAC, acting Associate Professor of the chair of Art History and cultural studies", (PhD)

## QUESTIONS OF A MODERN THEME IN UZBEK CINEMA (ON THE EXAMPLE OF THE DRAMA OF ERKIN AZAM)

**Abstract.** *In this scientific article, using the example of the work of screenwriter Erkin Azam, the features of the interpretation of a modern theme in Uzbek films are considered.*

**Keywords:** *feature film, actor, director, screenwriter, genre, plot, image, editing.*

Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq o'zbek kino san'atini rivojlantirish maqsadida samarali izlanishlar olib borildi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1992-yil 9-martdagi "Kino sohasini alohida tarmoq tizimi sifatida qayta tiklash to'g'risida"gi, 1996-yil 29-apreldagi "O'zbekkino" davlat-aksiyadorlik kompaniyasini tuzish to'g'risida"gi, 2004-yil 16-martdagi "Kinematografiya sohasida boshqarishni takomillashtirish to'g'risida"gi Farmonlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 17-martda "O'zbekkino" Milliy agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarorida soha mutaxassislariga badiiy kinoning jamiyat ma'naviy hayotini yuksaltirishdagi, uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati qay darajada bo'lishi lozimligi kabi muhim vazifalarni belgilab berdi.

Shuningdek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "2017–2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoniga imzo chekdi. Unda boshqa sohalar qatori, ilm-fan, madaniyat va san'at masalalariga ham alohida urg'u berilgan. Ayniqsa, davlat rahbarining madaniyat va san'at arboblari bilan bo'lgan uchrashuvda "Mamlakatimizda ma'naviyat masalalari, shuningdek, madaniyat va san'at hech qachon shou-biznesga aylanmaydi", degan ma'noda aytgan so'zlari barcha san'atkorlarni, xususan, kino ijodkorlarini ham ruhlantirish bilan birga, ularni yanada ko'proq mas'uliyat bilan ijod qilishga undadi.

Taniqli kinoshunos Hamidulla Akbarovning ta'biri bilan aytganda, bugungi kunda "Kinodramaturgiya, qahramon tanlash hamda uning badiiy talqini borasida barcha ijodiy, tashkiliy masalalar hal etilgan deb bo'lmasada, bugungi kinoning yuksak talablariga javob beradigan to'laqonli asarlar yaratilayotganligini qayd

etish lozim. Bu esa yurtimizda iste'dodli, elga bo'lgan mehr muhabbatini ehtiros va falsafiy o'ylari bilan jamoatchilikka yetkazishga qodir ijodkorlar faoliyat ko'rsatayotganligidan dalolat beradi"[3.46-b.].

Binobarin, iste'dodli publitsist va yozuvchi Erkin A'zam ham Milliy kinodramaturgiya sohasida samarali ijod qilib kelayotgan ijodkorlardan hisoblanadi. Erkin A'zam ijodining o'ziga xosligi shundaki, ular yumoristik bayon uslubi, kinoyali tili, kutilmagan badiiy yechimlarga egaligi bilan ajralib turadi. U qalamga olgan chigal jihatlarini ochiq ko'rsatmay, imo-ishora orqali aks ettirishi asarlarining ta'sir kuchini oshiradi. Adib kinossenariylari qahramonlari oddiy va to'pori, boshqalarga o'xshamaydigan, dardu tashvishlari, shaxsiy kechinmalari bilan yaqqol ajralib turadi.

Xarakterlar falsafasini yoritish, uslubiy teranlik, psixologik tahlilning kuchliligi, asar syujetining xarakterlar asosiga qurilishi, voqealar o'rtasidagi bog'liqlikni obrazlar, detallar orqali ifodalash, muallif va personaj nutqining yaqinligi, psixologizm va falsafiylikning mushtarakligi Erkin A'zam ijodining xususiyatlari hisoblanadi.

Yozuvchi qalamiga mansub turli mavzudagi kino-qissalarni ruhan birlashtirib turadigan jihat – insoniy erk, erkinlik uchun botiniy kurash, har qanday ko'rinishdagi zo'rvonlikka munosabat masalasidir. Yana bir diqqatga sazovor tomoni – har satirda samimiyat balqib turgan, yumorga boy, zavq bilan o'qiladigan mazkur asarlardagi adibning hayotga, jamiyat tartib – qoidalariga, qolaversa, qahramonlariga talabchan, goho achchiq aralash murosasiz munosabatidir.

Erkin A'zamning qinoqissalaridagi o'ziga xos jihatlar mavzuning zamonaviyligi nutqning kinoya va kesatiqqa boyligi shuningdek, dardu tashvishlari, shaxsiy kechinmalari bilan o'zgalardan anchayin farq qiladigan

sodda, to'pori odamlar xarakterini yaratish, voqealar o'rtasiga bog'liqlikni obrazlar, detallar orqali ifodalash uslubi uning "Chantrimore", "Pakana", "Piyoda", "Dilxuroj", "Erkak", "Zabarjat", "Jannat qaydadir?", "Suv yoqalab" singari kinoqissalarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Erkin A'zamning turli janrlardagi kinoqissalariga nazar tashlansa, ona vatan qadri, yurtga muhabbat, vatanparvarlik tuyg'ulari singdirilgan insonning o'z kindik qoni to'kilgan tuprog'iga nisbatan xiyonati uni kelajakda ma'naviy inqirozga olib kelishi muqarrar degan g'oyalar bilan sug'orilgan ijod na'munalarini kuzatish mumkin.

Xususan, adibning nasriy asarlarida ilgari surilgan fikr va g'oyalar uning kinodramaturgiyadagi faoliyatida ham ko'zga tashlanadi. Bu borada Erkin A'zam qalamiga mansub "Piyoda" va "Jannat qaydadir?" ssenariylarida yaqqol namoyon bo'ladi.

"O'zbek kinosi rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotgan rejissor Ravil Botirov tomonidan suratga olingan "Jannat qaydadir?" filmi Erkin A'zamning "Jiydalidan chiqqan Jo'raqul" nomli ikki qismli dramatik qissasi asosida yaratilgan"[4.54-b.].

Adibning bu asar o'tish davridagi voqealarni qamrab oladi. Unda insoniyat oldidagi azaliy muammo faqat o'zini o'ylaydigan, ter to'kib mehnat qilishni istamaydigan, ammo hech bir qiyinchiliksiz, nihoyatda farovon hayot kechirishni xohlaydigan insonlar toifasi qalamga olinadi. Asarning markaziy qahramoni Surxondaryoning olis Jiydali qishlog'idan chiqqan Jo'raqul domla o'z fikrini hech qachon o'zgartirmaydigan inson. U yangi davr qonuniyatlarini qabul qila olmaydi, o'zining dunyoqarashi va fikrlashini sira o'zgartirgisi kelmaydi. Ammo uning o'z Vatani bo'lgan sadoqati, mehri va hurmati, tug'ilib o'sgan joyiga bo'lgan buyuk muhabbati hamma narsadan ustun turadi. Shu bois domla Vatanini sevadi va ardoqlaydi.

Erkin A'zam kinoqissaga domla xarakteriga zid obrazni kiritish orqali Jo'raqulning xarakterini yana yorqinroq ko'rsatishga harakat qiladi. U ham bo'lsa boshqalar uni "xonim" deya atashidan zavqlanidigan, o'ziga nihoyatda bino qo'yan yangamullo, ya'ni domlani rafiqasi obrazidir. Jiddiyroq e'tibor qaratsa Jo'raqul (Afzal Rafiqov) domla va Xonim (Shohida Uzoqova) shunchaki, to'qima obrazlar emas, bu ikki obraz prototiplarini bugungi biz yashab turgan hayotda nihoyatda ko'plab uchratish mumkin. Xonim nihoyatda boylikka o'ch, hamisha yegani oldida, yemagani ortida bo'lib yashashni, yengil hayotni xush ko'radigan ayol. Shu bois u o'ziga to'q xonadonning bekasi bo'lsa-da, Amerikaga ketishni orzu qiladi. U xoriydagi hayotni xuddi ertaklardagidek, osongina pul topib, malikalar singari yashash orzusini ro'yobga chiqaradigan joy deb biladi.

Filmda Xonimning Amerikaga ko'chib ketish vaqti AQShdagi mash'um davrga to'g'ri keladi. Shu va yana bir qancha sabablar bilan ayol o'zining qattiq adashganligini, tinch va osuda hayot tarzi hamma narsadan, hatto boylikdan ham ustun ekanligini kechroq tushunib yetadi. Erkin A'zam kinoqissalarida uning jamiyatdagi adolatsizlik va nohaqliklarga befarq emasligi, kishilar fe'l-atvoridagi ba'zi bir qusurlar-u, insonlarning qon-qoniga singib ketgan illatlardan noroziligi sezilib turadi.

Asosiysi, muallif mazkur kinoqissa orqali jamiyatdagi

adolatsizlik va nohaqliklarga befarq emasligi, kishilar fe'l-atvoridagi ba'zi bir qusurlar-u, insonlarning qon-qoniga singib ketgan illatlardan norozi ekanligini, yangi davr insonlari xarakteridagi o'zgarishlarni badiiy obrazlarda ko'rsatib bera oldi.

Erkin A'zamning kinodramaturgiya sohasidagi salohiyati, ijodi yanada takomillashib, sayqal topib borayotganligi "Erkan", "Dilxuroj", "Suv yoqalab", "Parizod" filmlarida yanada yorqinroq namoyon bo'ldi. Ayniqsa, kinorejissor Yusuf Roziqov bilan hamkorlikda yaratilgan "Erkak" filmining 2006-yil Fransiyaning Versal shahrida o'tkazilgan "Osiyo filmlarining 12-xalqaro kinofestivali"da bosh sovrin – "Gran Pri"ga, Rossiyaning Anapa shahrida bo'lib o'tgan "Kinoshok" festivalida esa "Eng yaxshi kinossenariy uchun", Moskva shahrida o'tkazilgan 27-xalqaro kino festivalda "Milliy mavzuning poetik aks ettirgani uchun" nominatsiyasiga munosib topiladi.

"Erkak" filmda ba'zi bir oila boshliqlarining o'z vazifasini to'la ado etmasligi, hattoki, ro'zg'or yukini umr yo'ldoshining zimmasiga yuklab qo'yishi, ba'zan ayollarning bola-chaqa tashvishida uncha buncha yigitning qo'lidan kelavermaydigan har qanday og'ir yumushni bajarishga majbur bo'lishi kabi muammolar o'ziga xos uslubda, ramziy ifoda vositalari oqali yoritib beriladi.

Asar voqealari yagona syujet chizig'idan iborat bo'lib, film qahramonlari nihoyat kam so'zlashadi. Ammo ularning nigohida sezilib turgan dard, ichki iztiroblar tomoshabinni beixtiyor o'ylashga fikrlashga majbur qiladi. Uning Milliylik ruhi bilan sug'orilganligi, shuningdek, ko'tarilgan muammoning umuminsoniy ahamiyat kasb etishi, unda ilgari surilgan g'oyalar millat tanlamasligi, barcha uchun birday tushunarli va qadrlil bo'lishi film muvaffaqiyatini ta'minlagan.

Erkin A'zam kinoqissalari orasida rejissor Yusuf Roziqov bilan hamkorlikda yaratilgan "Dilxuroj" filmi boshqalaridan mavzu jihatidan keskin farq qiladi. Muhabbat g'alabasi kuylangan ushbu film ikki yoshning samimiy sevgi tarixidan iborat. Ya'ni filmga insonning to'kis baxtga erishishi oson bo'lmasligi, qolaversa, har qanday holatda ham haqiqiy muhabbat g'alaba qozonishi Sanam (Sevinch Mo'minova) va Toshtemir (Alisher Hamrayev) obrazlari orqali tasvirlab beriladi. Filmda ilgari surilgan mavzu va g'oyaning yoritilishida milliy chizgilar va obrazlar xarakteridan unumli foydalanganligi asar ta'sir kuchini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois mazkur film ko'pgina davlatlarda qiziqish uyg'otdi. Ayniqsa, Yaponiyaning Fukuoka shahrida bo'lib o'tgan xalqaro kinofestivalda muvaffaqiyatli ishtirok etganligi, uni Germaniya va Fransiya televideniylari katta mablag' evaziga sotib olganligi ham ijodkor ilgari surgan mavzu dunyo tomoshabinlari uchun ham qiziqarli bo'layotganligini ko'rsatadi.

Keyingi yillarda mutaxassislar tomonidan e'tirof etilayotgan "Suv yoqalab" filmi Erkin A'zamning kinodramaturgiya qonun-qoidalarini puxta o'zlashtirganligini, adibning ijodiy kamolotga yetganligini yorqin isbotladi.

"Suv yoqalab" filmda o'zbek xalqiga xos bo'lgan burchga sadoqat, ota va farzand o'rtasidagi munosabatlar, sevgi, sadoqat, oqibat, o'zbekona andisha kabi masalalar yuksak badiiy ifodasini topgan. Asarda inson hayoti oqar

suvga qiyoslanadi. Ya'ni suv goho jo'shqin, goho sokin, ba'zan o'zanidan to'lib-toshib, ba'zida esa to'siqlarga uchragan holda oqadi. Hayot ham umr ham shunday, hamisha bir tekis kechavermaydi: insonga ba'zan qayg'uli, ba'zan shodon, ba'zan baxtiyor, ba'zida esa fojiali kunlar hamroh bo'ladi.

“Suv yoqalab” filmida sobiq Rais (Erkin Komilov), omadsiz o'g'il (Tohir Saidov), qiz (Zulxumor Mo'minova), beva ayol (Sayyora Yunusova) obrazlari asar g'oyasini to'laqonli yoritilishida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, Zulxumor Mo'minova baxt va muhabbatga loyiq, o'z otasini nihoyatda sevgan, ammo “Chiqqan qiz chig'iriqdan tashqarida” naqliga ko'ra muammolari yechimini otasidan kutmaydigan g'ururi baland o'zbek ayolining jonli qiyofasini gavdalandiradi. Uning ijrosida jo'sh urgan ruhiy iztiroblar, sof milliy xususiyatlar tomoshabinlar qalbiga sizib kiradi. Bu esa aktrisaning muallif ichki kechinmalarini chuqur his etgan holda qahramoni xarakterini yaratishga harakat qilganligidan dalolat beradi.

“Yozuvchi Erkin A'zamning mustaqil adabiy asari zamirida paydo bo'lgan “Suv yoqalab” filmi tafakkuri boy, xarakteri ancha murakkab, atrof-muhitni, voqeilikni anglashga bo'lgan intilishi kuchli shaxslarning ichki dunyosi, ba'zan bir – biriga zid fikrlari, quvonchi va qayg'u alami haqiqiy kinematografik shaklda namoyon etilgan mukammal asarlardan biri” deya e'tirof etib kelinayotganligi ham ijodkorning kinodramaturgiyada o'z o'rni, uslubi, dastxati, muhimi aytar so'zi borligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda Erkin A'zam o'zbek kinodramaturgiyasida barakali izlanishlar olib borayotgan ijodkorlarning yetakchilaridan sanaladi. Uning qalamiga mansub asarlar turli mavzuga oid bo'lsa ham, ularni umumiy birlashtiruvchi jihatlar asarlarda muallifning hayot haqidagi o'ylari, kuzatishlari, zamondoshlar fe'latvori to'g'risidagi mushohadalari, ijtimoiy muammolarni tahlil qilishdagi yondashuvlarini kuzatish mumkin. Bu esa ijodkorning istiqloq davri o'zbek kinosi rivojida muhim o'rin tutganligidan dalolat beradi.

Shuni nazardan qochirish kerakki, birgina Erkin A'zam kinodramaturgiyasi bilan bugungi kundagi tomoshabinlar ehtiyojini qondirishning sira iloji yo'q. Ayni damda yaratilayotgan barcha filmlarni yuksak mas'uliyat natijasi deb aytish juda mushkul. Pul topish

ilinijida bir necha xorijiy filmlar asosida nimadir yasashga harakat qilayotgan qo'shtirnoq ichidagi ijodkorlar hali ham oramizdan topiladi. To'g'ri, ba'zi bir ijodkorlar tayyorlagan matohi o'tmay qolayotganligidan uncha-buncha mas'uliyat his qila boshladi. Bu kamchiliklarning asl negizi esa fikr qashshoqligiga borib taqaladi. Dangasalikka o'rganib qolganimiz uchun fikrga intilish yo'q.

Yurtimizda bo'layotgan islohotlar fikrlashda ham yangi tamoyil, yangi yondashuvlarni talab qilayotir. Biroq, aksar filmlarda hamon bir qolipdagi gaplar, boy qiz va kambag'al yigit, hashamatdor uylar, qo'sha-qo'sha mashinalar, silliq-silliq qiyofalar, tillo taqinchoqlarga burkangan sovchi xolalar tasviri gavdalandirilmogda. Ularda chinakkam hayot nafasi, tabiiylik yo'q. Aslida, o'sha qahramonlarning hashamador uylari qanday, nimani evaziga bunyod bo'layotganligini ko'rsatish kerak. To'qlikka sho'xlik qilib, tagi puch urush-janjaldan bo'shamaydigan yosh kelin-kuyov hayotiga doir mayda ikr-chikirlar, zerikarli mavzular kimga kerak? Buning o'rniga falsafaga boy, yangi mavzu, yangi ruh, yangi qahramon, yangi fikr, yangi ijro, yangicha yechimga ega bo'lgan filmlar yaratish kerakligini davrning o'zi taqazo etib turibdi. Erkin A'zam ta'biri bilan aytganda, quruq safsata kino san'atiga begona, yomon filmlar quruq gapdan iborat bo'ladi. Kinoda ko'zlar, xatti-harakatlar “gapirishi” kerak, qahramonning yurak “manzarasi” ko'rsatilishi lozim.

Buning uchun kinodramaturg va rejissorlardan yuksak salohiyat hamda bilim, tajriba talab qilinadi. Afsuski, aksariyat rejissorlarimiz kam mutolaa qilishadi. Ba'zilari faqat texnikadan xabardor, besh-oltita xorij filmlarini ko'rgan xolos, yurak bo'm-bo'sh. Unutmaslik kerakki, kinoning sarchashmasi – adabiyot, badiiy adabiyotdir!

O'z yechimini kutayotgan bunday muammolarni hal etish maqsadida chinakkam dard bilan yozilgan, yangi mavzudagi yaxshi asarlarni yaratish uchun tanlovlar o'tkazish, yaxshilarini tanlab mualliflarni qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish, shu bilan birga ustoz-shogird an'analarini yo'lga qo'yish, mahoratli ustozlar ijodini o'rganish samarali natijalar beradi. Qolaversa, tajribali kinodramaturg va rejissorlar o'tasidagi ijodiy hamkorlik va hamjihatlik tufayli har jihatdan mustahkam badiiy filmlar yaratilganligini tarix isbotlab turibdi.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. – // Xalq so'zi. 2017, 4-avgust.
2. Abulqosimova X. Kinoteledramaturgiya asoslari. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.
3. Akbarov H. Davon oshish zavqi va mashaqqati //Huriyat, 2009-yil, 15-aprel. - №17.
4. Ulug'ov A. Jannat o'zi qaydadir? //Huriyat, 2012 yil, 27 iyun.-№4.
5. Qo'shayeva I. Kino millat ko'zgisiga aylansa //Tafakkur, 2010 yil. №2.

Александр КУДРЯВЦЕВ,

Старший преподаватель кафедры «Режиссура кино, ТВ и радио» ГИИК Узбекистана

## КИНОКЛУБ КАК СРЕДСТВО ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ

**Аннотация:** В данной статье рассматривается вопрос о роли Киноклуба при формировании эстетического и художественного вкуса у студентов-режиссёров кино, ТВ и радио.

**Ключевые слова:** эстетика, вкус, индивидуальность, воспитание.

Aleksandr KUDRYAVSEV,

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Kino, televidenie va radio rejissorligi” kafedrasida katta o‘qituvchisi

## TALABALAR ESTETIK TA’LIM VOSITASI SIFATIDA KINOKLUBI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada televideniye va radio rejissorligi yo‘nalishi talabalarida estetik va badiiy ta’limni shakllantirishda Kino-klubining roli ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** estetika, badiiy ta’lim, individuallik, tarbiya.

Aleksandr KUDRYAVTSEV,

Senior teacher of the “chair of Film, TV and Radio Directing” State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan

## CINEMA-CLUB AS A MEANS OF AESTHETIC EDUCATION OF STUDENTS

**Annotation:** In this work there is considered the question of the defining role of Cinema-club of HIGHER EDUCATION INSTITUTION when forming esthetic and art taste among students.

**Key words:** esthetics, personality, pedagogic, style.

С 2015 года на кафедре «Режиссура кино, ТВ и радио» существует Киноклуб. Самое время подвести итоги его деятельности и сравнить ожидаемое с результатом. Но сначала о самой структуре Киноклуба. Наш Киноклуб – самостоятельное объединение друзей кино, организованное при ГИИК Узбекистана, кафедра «Режиссура кино, ТВ и радио». Деятельность Киноклуба – просмотр и обсуждение фильмов, встречи с мастерами кино, критиками и киноведами, участие в кинофестивалях. Задачи Киноклуба – это прежде всего эстетическое воспитание его членов, кинопросвещение, выработка художественного вкуса и ориентации в кинорепертуаре. Но можно ли сформировать эстетический и художественный вкус этими просмотрами? Думается, здесь вопрос эстетического воспитания находится в центре всей молодёжной политики в республике. В Узбекистане уже 5 лет как вступил в силу закон «О государственной молодёжной политике». Правовой документ был принят Законодательной (нижней) палатой узбекского парламента 12 августа и одобрен Сенатом (верхняя палата парламента) 24 августа 2016 г. 14 сентября 2016 г., закон подписал и.о.президента Узбекистана Ш.Мирзияевым. «Целью настоящего закона является регулирование отношений в области государственной молодёжной политики» [1], – говорится в первой статье документа. Кроме этого президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев своим указом от 7 февраля 2017 г. утвердил «Стратегию действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах», которая представляет собой программу развития страны на ближайшую «пятилетку» [2]. И практически четвертое ее направление напрямую касается молодежи Республики. Приоритетными направлениями государственной молодёжной политики, согласно этим двум законам, станут обеспечение социальных, экономиче-

ских, политических и иных прав и интересов молодого поколения. Приняты во внимание вопросы воспитания молодежи в духе уважения к законам, национальным и общечеловеческим ценностям. Кроме этих, общих, долговременных и стратегических целей, естественно должны ставиться и текущие, более узкопрофильные. А учитывая зачастую довольно условный уровень общего воспитания и образования у части студентов-первокурсников ГИИИК Узбекистана, я считаю приоритетны, прежде всего, формирование базового эстетического вкуса у учащихся. Я здесь исхожу из того опыта, что данная задача серьёзна не ставилась ранее перед студентом, социумом, семьёй, начальным и средним звеном обучения. Ведь главная задача искусства в современном мире – формирование души человека. Обращаясь к человеку как к целостной личности, искусство наиболее полно удовлетворяет ее духовные потребности, воздействуя на чувства, разум и волю. И за это будут уже завтра нести ответственность узбекские кино-режиссёры. Но что же такое эстетический вкус?

Эстетический вкус обычно рассматривают как способность человека к эстетической оценке явлений действительности и искусства. Эта традиция определения заложена И.Кантом, который считал, что вкус – это «способность судить о красоте» [3]. Эстетический вкус является важнейшей характеристикой становления личности, отражающий уровень самоопределения человеческой индивидуальности. То есть эстетический вкус не сводится к простой способности эстетической оценки, поскольку не останавливается на самой оценке, а завершается присвоением или отрицанием культурной, эстетической ценности. Так что правильнее будет определить эстетический вкус как способность личности к индивидуальному отбору эстетических ценностей, а тем самым и к саморазвитию

и самоформирования. Действительно, человек, обладающий эстетическим вкусом, отличается определенной завершенности, целостности, то есть является не просто человеческим индивидом, а личностью. Отличительная особенность здесь состоит в том, что кроме таких индивидуальных особенностей, как пол, возраст, рост, цвет волос и глаз, тип психики, личность обладает также индивидуальным внутренним духовным миром, который определяется социальными ценностями и преимуществами.

Становление личности – процесс длительный, не завершается окончательно никогда. Есть однако возрастная граница от 13 до 20 лет, когда формируются основные социальные характеристики личности, в том числе эстетический вкус. В возрасте 18–25 лет, что соответствует возрастной психологии студентов ВУЗа, эстетические вкусы уже должны быть сформированы, а преподавателям и кураторам необходимо лишь направить их в правильное русло. Ценность каждой личности как раз и заключается в ее своеобразии, неповторимости. В значительной степени это достигается тем, что в процессе формирования на личность влияет свой, неповторимый комплекс культурных ценностей и духовных ориентации. Таким способом состоит уникальность формирования каждого человека. И эстетический вкус становится не только инструментом формирования этой уникальности, но и способом ее объективации, общественного самоутверждения.

Если говорить об отсутствии эстетического вкуса у отдельной части студентов ГИИК Узбекистана (чаще всего у только поступивших, т.к. у учащихся более старших курсов у уже сформирована эстетическая и художественная «шкала» ценностей и подлинный эстетический вкус), то идет прежде всего речь о проявлении всеядности, т.е. присвоении человеком любых общепризнанных эстетических и культурных ценностей (а в эпоху тотальной глобализации и потерю аутентичности). Всеядность как раз характеризует недостаточность личностного отношения к миру, неспособность отобрать из богатства культуры те общемировые и специфическо-национальные ценности, которые в наибольшей мере развивают, дополняют, шлифуют природные задатки, способствуют профессиональному, гражданскому, нравственному совершенствованию личности. Не секрет, сегодня такая всеядность в экранном искусстве приводят к подражательству, слепому копированию, калькированию, упрощению, нивелированию и самое страшное, потере индивидуальности. Равно как и мелкотемье, вкусовщина и бытовое засилье, под прикрытием национальных псевдо-мотивов и неправильно трактуемого менталитетного вкусообразования. И здесь на первый план выход – совместный целенаправленный просмотр с последующим обсуждением. Особенно на первом, фундаментальном для вопросов эстетики, курсе. Но эстетический и художественный вкусы не остаются неизменными на протяжении всей жизни

человека. Возраст, жизненный путь, богатство художественного опыта личности не только оттачивают и шлифуют его вкус, но и способны консервировать его преимущества или наоборот делать его терпимым и многогранным. И здесь, конечно на первое место выходит именно педагогический коллектив кафедры «Режиссура кино, ТВ и радио», как основной фактор, который формирует эстетический и художественный вкус у студентов, а затем всё время его поддерживает и развивает. Для этого составляется и заранее анонсируется программа показов. Например, в программу прошлого году кураторами Киноклуба были рекомендованы такие эстетически значимые и высокохудожественные фильмы, как «Комиссар» А.Аскольдова, «Ты не сирота» Ш.Аббасова, «Молчание» М.Скорсезе, «Ночи Кабирии» Ф.Феллини, «Запретелье» Т.Сингха, «Угоняя лошадей» Х.П.Моланда, «По соображениям совести» М.Гибсона, «Тайная жизнь» Т.Малика, сериал «Мой Чаплин» от BBC и документальный проект «HUNANS». Студентами заранее готовятся доклады на соответствующие темы про режиссёров данных фильмов. Даже в условиях пандемии и массовых ограничений эти просмотры и обсуждения не прекращались, просто проходят в смешанной форме-просмотр самостоятельный, по составленной программе, а обсуждение – общее. В противном случае, если педагогический коллектив самоустраняется эта ниша – эстетическая и художественная, заполнится самостоятельно, всевозможными масс-подделками, кичем и поточным безвкусьем.

Мнение эстетического вкуса основано на особом интеллектуальном механизме – эстетической интуиции, которая включает такой способ познания, как творческое воображение, охватывающий образ «целого», не предвзято его логическому расчленению, аналитической действия ума. «Специфическая роль силы воображения в акте познания, – отмечал Э.В. Ильенков в своей книге «Роль воображения», – заключается в том, что она позволяет соотносить формально усвоенные знания (коллективные) с единичными (индивидуальными), еще никак не» формализованными» [4] (не выраженными еще в общих формулах, в категориях) фактами, данными в живом созерцании. Без нее одно с другим соотнести вообще нельзя.

Все вышеизложенное позволяет нам более глубоко начать понимать объективные основы спора о вкусах, поскольку в нем сталкиваются не просто личные или групповые страсти – здесь противостоят друг другу истинные и ложные ценности, отражающие сложность социальных процессов, своеобразие общественного развития, а также ошибочных поисков, мнимых верований. В бушующем ещё предстоит решать многочисленные вопросы, которые важны и неотложны при определяющей роли педагогических коллективов ВУЗов Узбекистана в процессе формирования настоящего эстетического и художественного вкуса у будущих кино-режиссёров.

#### Список использованной литературы:

1. Закон «О государственной молодежной политике», Узбекистан, 2016 г.
2. «Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах», 2017 г.
3. «Эстетика». Под ред. А.А. Радугина. – М.:, 1998
4. «Роль воображения» Э.В. Ильенков, – С.П. 2001

## “ALANGA” JURNALIDA TEATR MASALASINING YORITILISHI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada 1928-yil Samarqandda “Alanga” jurnalining 6-7-sonida Ch.o‘g‘li imzosi ostida nashr etilgan “Teatru masalasi” maqolasi tahlilga tortilgan. Uning o‘z davri hamda bugungi kun uchun ahamiyatini izohlangan. O‘sha vaqtda joriy etilgan lotin alifbosidan hozirgi lotin alifbosiga asoslangan o‘zbek alifbosiga o‘g‘irgan holda berildi.

**Kalit so‘zlar:** teatru, aktyor, artist, yozg‘uchi, tanqidchi, sahna, tomosha.

Зумринисо КАЗИМОВА,  
преподаватель кафедры “Узбекский язык и литература” ГИИКУз

## ОСВЕЩЕНИЕ ТЕАТРАЛЬНОГО ВОПРОСА В ЖУРНАЛЕ “АЛАНГА”

**Аннотация.** В 1928 году в Самаркандском журнале “Аланга” в № 6-7 была опубликована статья “вопросы театра” за подписью Ч.огли, проанализирован ее значение для своего времени и на сегодняшний день, было решено перевести ее с латиницы, введенной в то время, на современный узбекский алфавит, основанный на латинице.

**Ключевые слова:** театр, актер, артист, писатель, критик, сцена, спектакль.

Zumriniso KAZIMOVA,  
teacher of the chair “Uzbek language and literature” UzSIAC

## COVERAGE OF THE THEATRICAL ISSUE IN THE MAGAZINE “ALANGA”

**Annotation.** In 1928, the article “Questions of the theater” was published in the Samarkand magazine “Alanga” in No. 6-7, signed by Ch.ogli analyzed its significance for its time and today, it was decided to translate it from the Latin alphabet introduced at that time into the Uzbek alphabet based on the modern Latin alphabet.

**Keywords:** theater, actor, actor, writer, critic, stage, performance.



1928–1930-yillarda Samarqandda nashr qilingan oylik adabiy-badiiy jurnallardan biri – “Alanga” jurnali bo‘lgan. Bu jurnal lotin yozuvida bosilgan dastlabki jurnal hisoblangan. Unga biroz muddat Botu muharrirlik qilgan. Keyinchalik esa tahrir hay‘ati tomonidan nashr etilgan. Qisqa davr mobaynida jurnalning 32 ta sonini chiqarishga ulgurilgan. Jurnalda Botu, Shokir Sulaymon, Oybek, Hamid Olimjon, Mirtemirlarning she‘rlari, G‘ozi Olim, Fitrat, Bertels, Hodi Zaripov va boshqalarning adabiy-badiiy materiallari, adabiyotshunoslik, tanqidchilikka oid ilmiy-ommabop maqolalari chop qilingan. Shuningdek, jurnal sahifalarida “Yangi turk alifbesining muvaffaqiyati”, “O‘zbekistonda lotinchilik harakati”, “Eronda yangi alifbe”, “Bizning alifbo”, “Yangi alifbo to‘g‘risida”, “O‘zbekistonda yangi alifbo markaziy qo‘mitasi birinchi plenumi yakuni” kabi maqolalar orqali xalqimiz o‘rtasida yangi alifbo ham targ‘ib qilingan.

Maqola, hikoya va she‘r mualliflari Botu, Oybek,

Abdulhamid Majidiy, Hamid Olimjon, Sobir Abdullazoda, Rustam Po‘lat, G‘ayraty, Bekjon Rahmon o‘g‘li, G‘ozi Olim kabi ismi-sharifi yoki taxalluslari ostida qalam tebratishlari bilan birgalikda “Ishchi”, “Yog‘du”, “Jig‘ay”, “A.Amiriy”, “M.Murat”, “A.Alaviy”, “A.T.”, “B.A.”, “R.o‘g‘li”, “Ch.o‘g‘li” kabi taxalluslarini ham qo‘llaganlar.



Bizning e‘tiborimizni tortgan maqola jurnalning 6-7-sonida e‘lon qilingan Ch.o‘g‘lining “Teatru masalasi” maqolasi bo‘ldi [1, 19–21-b].

O‘zbek teatr tarixi va uni ilmiy asosda o‘rgangan, tahlil va targ‘ib qilgan, o‘zbek teatr tanqidchiligi, o‘zbek teatrshunosligi fanlari rivojiga ulkan hissa qo‘shgan olim M.Rahmonov “O‘zbek teatr tarixi”, “Hamza (O‘zbek davlat akademik drama teatri tarixi)” kitobida, “O‘zbek teatr tanqidchiligi tarixi” monografiyasida XX asr boshlarida faoliyat ko‘rsatgan gazeta va jurnallarda teatr masalalariga oid chop etilgan maqolalarni ilmiy o‘rganganligi hamda tahlil qilganligini ko‘ramiz. Ammo M.Rahmonov yoki yana bir yirik teatrshunos olim

M.Qodirov asarlarida Ch.o'g'li haqida, uning "Teatru masalasi" maqolasi yoki "Alanga" jurnali haqida hech qanday ma'lumotni uchratmaymiz. Biroq bu jurnalda ham teatr masalalariga oid maqolalar oz bo'lsada, chop etib borilgan.

Ch.o'g'lining mazkur maqolasida o'sha davr uchun muhim bo'lgan teatrning ahamiyati, dramatik asarlar mavzusi hamda tanqidchilik masalasi tahlil ostiga tortiladi. Maqolaning tili bugungi adabiy tilga juda yaqin va unda ishlatilgan so'zlarning 100 foizi bugungi kitobxon uchun tushunarlidir. Demak, bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, maqolada o'z qatlam so'zlari salmog'i juda yuqori, o'zlashma qatlam so'zlar ham hozirgi tilimizda qo'llanuvchi, ya'ni tilimizga o'zlashgan va singgan so'zlardir. Bu esa maqola tilining xalq jonli tiliga yaqinligini ko'rsatadi. Qolaversa, o'sha davr leksik tarkibida bo'lgan teatrga oid terminlarni ham ajratib ko'rsatishimiz mumkin bo'ladi. XX asrning 20-yillaridan iste'molga kirgan aktyor, artist, pyesa, sujet so'zlarini ham qo'llaydiki, bu atamalar ham xalqimizning jonli tiliga singib ulgurgan edi. Shuningdek, aktyor bilan birgalikda "artist", "o'ynag'uchi" so'zidan ham foydalanadi. "Teatru yozg'uchisi", "teatru kitobi", "teatru adabiyoti", "teatru asarlari" kabi terminlarning qo'llanilishi hali dramaturg, tragediya, komediya terminlarining kirib kelmaganligini, hatto "drama" terminining ham faol bo'lmaganligini ko'rsatadi. Bundan 14 yil oldin yozilgan Behbudiyning "Teatr nadur?" maqolasi bilan qiyoslaydigan bo'lsak (Behbudiyning maqolasida teatrga oid "mazhaka", "mushaxx", ijtimoiy turmush tarziga oid "sarrof", "ehtisob" kabi bugungi kunda iste'moldan chiqib ketgan arabcha so'zlarni o'qiymiz [2,174-176-b]), ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar natijasi o'laroq tilimizning lug'at tarkibida yangi so'zlarning paydo bo'lganligi, ko'pgina arabiy va forsiy so'zlarning iste'moldan chiqib ketganligi, shuningdek, badiiy adabiyotning ham yil sayin xalq jonli tiliga yaqinlashib borganligidan dalolat beradi. O'tgan asrning 27-30-yillaridan adabiyot va san'atga vulgar sotsiologizm nuqtayi nazaridan yondashuv, ya'ni adabiyotning ijtimoiy hodisa, undagi har bir harakat, har bir o'zgarish, har bir sifat ijtimoiy hayot bilan belgilanadi [3, 26-b], degan ta'limotga zo'r berishga intilish boshlangan, adabiyotning san'at sifatidagi ahamiyatini yo'qqa chiqarishga urinilayotgan bir davrda mazkur maqolada teatrning hamda "teatr adabiyoti"ning yuksak san'at namunasi ekanligi ta'kidlanadi. Uning teatr sohasidagi yondashuvi, ilmiy-nazariy qarashlari o'z davri uchun muhimligini tarixiy taraqqiyotning o'zi ham isbotlab turibdi.

Maqolaning tarkibiy qismini beshga ajratishimiz mumkin, ya'ni teatr, teatr adabiyoti (dramatik asar), teatru yozg'uchisi (dramaturg), aktyor hamda teatru tanqidchiligi masalasidir.

**Teatru.** Ma'lumki, teatr san'ati ma'naviyatning eng yorqin, ta'sirchan ko'rinishlaridan biridir. Zero, u tomoshabinlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Sahna bilan tomoshabinlar o'rtasida samimiy bog'lanish, muloqot hosil bo'lib, ham sahna ijodkorlarini, ham tomoshabinlarni ma'nan va ruhan boyitadi, ya'ni ikki tomonlama ta'sirlanish yuzaga keladi [4, 3-b]. Maqola muallifi ham teatrning ma'rifiy hamda tarbiyaviy ahamiyatini izohlaydi,

kishini o'ylashga, zehn ishlatishga majbur qilishi kerakligini aytadi. Ammo xalqimizning teatr san'atining asl mohiyatini hali-hanuz tushunib yetmaganligidan kuyunadi. Qadimdan o'lkamizda tomosha san'atining masxara hamda qiziqchilik turlari keng rivojlanib, unga nisbatan odamlarning qiziqishi yuqori bo'lganligi sababli zamonaviy teatr tomoshalaridan ham asosan hajviy mavzuni kutishgan. Shuning uchun muallif eng avvalo, xalqimizga bu san'atning mohiyatini tushuntirish hamda unga nisbatan rag'bat uyg'otish kerakligini ta'kidlaydi. Teatrni roman bilan qiyoslab, undan ta'sir kuchining bir necha barobar yuqorilgini aytadi. Ma'lumki, maqola chop etilgan davrda bor-yo'g'i ikkita milliy romanimiz ("O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon") bo'lganligini ham nazardan chetda qoldirmasligimiz kerak. Teatr asarlari soni esa yuzdan oshib, anchagina ommalashib ulgurgan edi.

**Teatru adabiyoti.** Bu mavzuda teatr asari teatrning jon tomiri ekanligini, yaxshi va nafis teatr asariga ega bo'la olmaguncha, teatrdan to'g'ri foydalanib bo'lmaganligini ta'kidlaydi. Yaxshi adabiyot bo'lmasa, har qancha tomoshalarining soni ko'paytirilgani bilan uning suvsiz cho'lda qumga singib ketadigan suvga o'xshashini, nafis teatr asarisiz san'at darajasiga chiqa olmasligini ko'rsatadi. Aslida teatr asari ijtimoiy o'zgarishlar bilan hamohang bo'lib, xalqning tumush sharoitidan olinishi kerakligini aytadi. Bu fikrlar bugungi kun dramaturgiyasi uchun yangilik bo'lmasa-da, o'z davri uchun, yangi janrlarni xalq orasida ommalashirish hamda san'at darajasiga ko'tara olish uchun muhim edi.

**Teatru yozg'uchisi.** Teatr yozuvchisi xayoliga kelgan fikrni yozib, qog'oz qoralashdan yiroq bo'lishi, teatrning na'shlanish va qah-qah urib kulish joyi emas, balki haqiqiy san'at namunasi, adabiyot sho'basi ekanligini isbotlab berishi, xalqning ruhiga mos asarlarni yaratishi kerakligini aytadi. Teatr yozuvchisini turmush yo'llarini chizuvchi rassomga o'xshatadi, davr uchun muhim bo'lgan mavzuni ko'tarib chiqa olishi kerak, deb hisoblaydi. Eng muhimi, maqolaning bu qismida muallif "sahna tili" terminini qo'llaydi hamda uni o'sha davr nuqtayi nazaridan izohlaydi.

**Aktyor.** Aktyorlik san'atiga doir ilk nazariy, estetik qarashlarni ham Behbudiyning "Teatr nadur?" (maqolada aktyor mushaxxis so'zi bilan ifodalanadi) maqolasidan o'qiymiz. Undan keyin Cho'lponning "Muhtaram yozuvchilarimizga", "Teatr – san'at" (artist so'zini qo'llaydi), Z.Rahmatning "Teatrni nechuk onglarga" (artist so'zini qo'llaydi) hamda Fitrat, Qodiriy maqolalarida ham aktyorga qo'yiladigan talablar, asar g'oyasini tomoshabinga yetkazishdagi ahamiyati haqida bayon qilinadi.



Ch.o'g'li "Teatru masalasi" maqolasida ham ushbu maqolalardagi fikrlarning uzviy davomi sifatida aktyorni teatr asari yozuvchisidan kam ko'rmaydi, aksincha o'rni kelganda undan yuqori turishini ham aytadi. Chunki har qanday sahna asari yozuvchining, qalami ostidan chiqqanda, hali u – bir xayol mohiyatida bo'lishini, uni

artistning tili haqiqat holiga aylantirib yuborishini aytadi. Yozuvchi asari orqali o'z fikrini o'rta qo'yadi, artist esa o'rta qo'yilgan bu fikrlarni boshqalarga kuchli hissiyot bilan, o'z ko'rinishidan ajralib, yozuvchining asarida qatnashuvchilarining xuddi o'zi bo'lib, ularning tilaklarini, fikrlarini, qiliqlarini va tuyg'ularini o'zida jonli qilib ko'rsatadi, deydi.

**Teatru tanqidchiligi.** Bu davrga kelib teatr tanqidchiligi ancha talabchan bo'lgan. Har bir spektakl va aktyorlar ijrosi talqini matbuotda yoritilgan. Ularda maqtovg'a nisbatan tanqidiy fikrlar ko'proq bayon etilgan [5, 55-b]. Ch.o'g'li ham tanqidchi tahlilni asar mavzusidan, ya'ni uni asar voqeasiga muvofiq yoki muvofiq emasligini tekshirishdan boshlashi lozim, deydi. Xalq teatr asari yozuvchisidan o'z turmushini jonli ravishda ko'rsatilishini kutar ekan, tanqidchi ham teatr asarining xalq ruhiyatiga muvofiq yoki muvofiq emasligini, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarni inobatga olgan yoki olmaganligini, turmush sharoitini ko'rsatgan – ko'rsatmaganligini kuzatishi, ya'ni teatr asarini qadam-baqadam tekshirib borishi zarurligini ta'kidlaydi. Asar bilan birgalikda aktyor ijrosi tanqidi haqida ham fikr bildiradi. Muallif o'z davridagi tanqidchilikdan ko'ngli to'lmaydi, sahnaga qo'yiladigan asarni avvalo, tanqid elagidan o'tkara olishi kerak, deb hisoblaydi. Asarning tili masalasiga alohida to'xtaladi. Har bir asarning o'z so'zlashib turgan tilimizda yozilishini, uning tabiiy va tushunarli bo'lishi muhim ekanligini aytadi. Yozuvchi bilimsiz kishilarni ilmiy, falsafiy so'zlar bilan gapirtirishga harakat qilsa, soxtalik bo'lib qolishini, unda tabiiylikdan yiroqlashib, o'z ruhini yashatishga urinish bo'lishini, tanqidchi esa har bir qahramon tilidan chiqayotgan so'zni nazardan chetda qoldirmasligi kerakligini bildiradi. Adabiy tanqidchilik qadimgi davrlardan adabiyotimizda rivojlangan sohalardan bo'lsa-da, ushbu maqoladagi tanqidchilik borasidagi yondashuv zamonaviy tanqidchilik ildizlaridan bo'lganligini ko'rsatadi.

Bir so'z bilan aytganda, maqoladan muallifning xalqimiz kamoloti va maorifi taraqqiyoti uchun jonkuyar, qalami o'tkir ijodkorlardan bo'lganligini ko'ramiz.

Biz bu maqolani joriy lotin alifbosiga o'girib, to'liq jurnalxonlar e'tiboriga havola qilmoqdamiz:

“Inqilobimizning bu shirin va yoqimli kunlarida bizni eng ko'p o'ylashqa majbur qilgan masalalardan bittasi bo'lsa, u ham teatr masalasidir. Biz hali ham teatr degan narsaning nima ekanligini tushunib olmag'on bir xalq orasidamiz. Mana shuning uchun bizning oldimizda ikki vazifa ko'ndalang bo'lib qoladi: xalqni teatr bilan tanishtirmoq, tanishtirilaturg'on bu teatrg'a xalqni rag'batlantirmoq.

Teatru turmush falsafasini bizga ochiq qilib ko'rsataturg'on bir bilimdir. U yerda (teatrda) biz o'z turmushimizni ko'ramiz. Teatru kundalik ishlarimiz orasida ko'zlarimizga ilinmagan va diqqatimizni o'ziga torta olmag'on eng yashirin nuqtalarni bizga jonli bir ravishda takrorlab turadi. Shuning uchun teatr asarlarining boshdan oyoqqacha tabiiy bo'lishi, turmushdan va ayniqsa, o'z turmushimizdan olinishi kerak. Teatru xalqning ermak qilib vaqt o'tkazaturg'on joyi emas. Teatru xalqni o'ylashqa va zehn ishlatishka majbur qilmasa, o'z ijtimoiy vazifasini o'tagan bo'lub hisob qilinmaydir.

Teatruni bundan ham aniqroq qilib ta'rif etkanimizda, uni talqin, ya'ni og'izdan ayta turub bir fikr yokim tushunchani o'zgalarga singdirish vositalari orasida eng kuchlisidir desak, yanglishqan bo'lmaymiz. So'ng zamonlarda xalqqa ayniqsa, leksiylar va maqolalar orqali tushuntirib bo'lmag'on ko'p mavzular, teatr kitoblari (pyesalar) orqali juda yaxshi qilib tushuntirila boshlag'ondir. Shuning uchun teatrning romandan ahamiyatliroq o'rinda turishi to'g'ri keladi. Teatru, kishilarning so'ng so'zlari, qat'iy fikrlari ochiqdan ochiq aytilaturg'on bir joydir. U yerda (teatrda) romanlarda bo'lg'oni kabi so'zlardan ma'ni chiqarib o'turish uchun tirishilib bosh qotirilmaydir. Balkim, bir fikrning tevarak – chetlarida bo'lub o'tkan voqealarning natijasi bunda tugal va qat'iy qilinib ko'rsatiladi. Shunday bo'lsa, teatrni turmushning ko'zi deb aytsaq mumkin. Buning g'oyasi turmushda, ya'ni jamiyat bilan birga bo'lg'on turmushimizda qo'pol va yaramas narsalarni ko'zga ko'rsatish, foydalanmoq uchun olinishi ham o'z oramizda ishka oshirilishi kerak bo'lg'on yaxshi fikrlarni tushuntirishdir. Bir teatr kitobi bilan bir roman orasida juda katta ayirmalar bor. Bir o'qig'uchi romanni o'z boshicha o'qiydi va u roman ham faqat o'shal o'qig'uchining bir o'ziga ta'sir etadi. Teatru bo'lsa, yolg'iz bir kishiga ta'sir etish bilangina qolmaydir. Uni tomosha qilgan kishi, u asarning ta'siri ostida yolg'iz bo'lub qolmasdan, teatr tomoshasig'a borg'on va u joyg'a to'lg'on xalqqa ham buning qanday ta'sir etib qolg'onlig'ini tekshirib tushina oladi. Buni tekshirgandan va ayniqsa, buning ustida jiddiy muhokama qilg'ondan keyin bulardan olinaturg'on natija ham albatta, romandan bir kishining yakka boshig'a muhokama yurguzishdan kuchlirak bo'lub chiqadi.

Teatrudan so'z ochqanimizda, aktyor va artistlarimizning eslash bilan qanoatlanib bo'lmaydir. Bular tomonidan o'ynalaturg'on pyesalarni, teatr kitoblarini ham o'ylashimiz kerak. Bir teatr asari teatrning jon tomiri demakdir. Yaxshi va nafis teatr adabiyotig'a ega bo'la olmasak, teatrdan sira foydalana bilmaymiz. O'shanda bu nafis san'at suvsiz bir cho'lda oqqan suvlar kabi qumlar orasida yo'qolib ketadi. Shu sababdan bu kungi jamiyatimizni va turmush sharoitimizni ko'z oldig'a keltirib, bizdagi teatr asarlarining qanday bo'lishi to'g'ri kelganligini aniqlab tekshirishimiz kerak. Buni yaxshilab aniqlash uchun esa ijtimoiy o'zgarishning nimaligini har narsadan ilgari o'ylashimiz zarurdir. Ijtimoiy o'zgarish ko'prak ommaning ruhlari va fikrlari bilan aylanishkani uchun juda qiyinlik bilan mavqe qozong'on va mahkamlangan o'zgarishdir. Mana shuning uchun, u o'zgarishni o'zida o'zlashtirgan ruhlarning va fikrlarning borish yo'lini sira almashtirib bo'lmaydir. Chunkim ijtimoiy o'zgarish xalqning ruhi va fikri bilan bog'liq bo'lmoq baravarida o'shal fikrlar qabul qiling'ach, ko'pchilikning o'z moli bo'lg'on o'rnidadir. Shunday bo'lsa, biz – teatr asarlarimizda ko'pchilikning eng tabiiy bir haq bilan o'zi uchun bir borliq va bir maslak qilib olg'ani sotsializm qurulish nazariyasiga erishishimiz zarur bo'lub qolishi turg'on gap, bir teatr sahnasida artistlarimizning og'izlaridan eshitila turg'on so'zlar bu o'zgarish uchun boraturg'on yo'llarimiz, o'zgarishdan kutilgan foydalar va bu kungi turmushimizdag'i yanglishliqlardan iboratdir.

Teatru ishlarining shunday qilib ilmiy va ruhiy nuqtalari borlig'ini bilib olg'andan keyin, teatru yozg'uchilari bilan o'ynag'uchilarni ustiga ayrim-ayrig' vazifalar tushib qoladir. Teatru yozg'uchisi deganda boshig'a kelgan bir sujet (mavzu)ni oq qog'ozlar betiga qoralab qo'yub bir talay voqea va hodisalar tug'dirish va tuzishni bila turg'an kishi deb anglashilmasin. Teatru yozg'uchisi hamma vaqt xalqning ruhini tekshirishka majbur bo'lg'on bir san'atkordir.

Boshqacha qilib aytqanda, roman yozg'uchisidan kattarak bir shaxsiyat bo'lub ayriladir. Chunkim roman yozg'uchisi o'z o'yi va o'z qarashinig'ina yozadir va shunig'ina yoqlaydir. Teatru yozg'uchisining yo'li esa, roman yozg'uchisining yo'lidan butunlay boshqa bir yo'ldir. Tomoshabinlarga kelsak, ular teatru yozg'uchisidan sahnada o'zlarining yashatilish va yashnatilishlarini talab qiladirlar. Mana shu sabablarga ko'ra, teatru yozg'uchisi bo'lg'on kishi xalqning tushunchalarini ko'z oldig'a keltira turub ularning yanglishliq va to'g'riliqlarini ko'rsatishga tegishlidir. Ayniqsa, bizda hali xalqning katta bir qismi teatruning nimaligini tushunmagan bir muhitda bu ishka ko'prak ahamiyat berish majburiyati ko'ndalang bo'lub yotadir. Bizda xalqning katta bir qismi teatruni bir san'at uyasi deb tanimaydir. Balkim nash'alanish va yalang qahqah urub kulish joyi deb o'ylaydir. Shunday qilib, xalqning bu yanglish tushunchasiga qarshi teatru yozg'uchisi teatruning chin bir san'at uyasi ekanligini, uning yuksak bir adabiyot sho'basi bo'lg'anlig'ini isbot qilishqa tegishlidir.

So'zning to'g'risini aytqanda, ijtimoiyyatning to'g'ri bir yo'ldan borishig'a teatru darajasida yordam qilg'uchi bir san'at yo'qdir. Turmush va ro'zg'orning eng achchiq falsafalarini, eng ahamiyatli voqealarini eng jonli qilib yasatqan bir muassasadir. Teatru yozg'uchisi esa bu joyni hamma vaqt, ya'ni ko'rinishlar va boshqa tuslar bilan bezashni bilguchi bir rassomdir. Biroq bu rassomning cho'tkasi chin turmush yo'llarini chizishqa tegishlidir.

Yozg'uchi degan kishi sahna tiliga ham diqqat qilishi kerak. Inqilobiy turmushning yuksakligini, inqilobg'a qilinaturg'an hurmatini, inqilob uchun toshgan va ko'pirgan sezgilarining har qanday qutqu va ta'malardan uzoq bo'lishini, jamiyat turmushining foydalarini ko'rishi hamda bularning hammasidan foydalanish yo'llarini bilishi lozimdir. Bundan boshqa sahna yozg'uchisi uchun eng ko'p foydalanilaturg'on bir nuqta bo'lsa, u ham o'z muhiti va shu muhitdagi turmush sharoitidir. Bizning bu kungi turmushimiz ichida bir teatru yozg'uchisi tomonidan axtarilib topilaturg'on nuqtalarning mana shular bo'lishi kerak: bizning o'z turmushimizdan va o'z rohatimizdan chiqqan fikrlar va bularning o'zgarishi bilan bo'lg'on munosabatlari...

Inqilobiy turmushimizda o'z-o'zidan chiqqan shunday voqealar bordir, kim bularning har bittasi o'z boshicha jonli va o'lmas sahna asarlari yuzaga chiqara oladirlar. Masalan, yaqin kunlarda Buxoroda teatru san'ati ham inqilobiy sahnemiz yo'lida, o'z eri tomonidan yertqichlarcha o'ldirilgan qimmatli artistkamiz Tursunoyning dahshatli turmushi, bizning sahnemiz uchun juda ibratli va nafis bir teatru asari bag'ishlay oladi. Bu asarda din va xurofotqa qarshi ko'rsatila turg'on isyonlar – ijtimoiy o'zgarishning himmati bilan yoshlar

uchun busbutun boshqa bir imon, bir aqida o'rnini tutadir. Bu jonli mavzu esa, buni yozib o'rtag'a qo'ya turg'on yozg'uchi uchun ham katta bir sharafdir. Bu sharafka men erisha bilganimda, o'zimni dunyoning eng baxtli va eng sharafli kishilari qatorida sanar edim. Teatru maydonida, artistlarning yozg'uchilardan ortig'raq qimmatlari va mavqelari bordir. Bilim va ma'lumot yuzasidan qaraganda, artistning ko'puncha bir yozg'uchidan pastlik qilmaslig'i kerak. Hatto bir sahna asarining yuksak ko'runa bilishi uchun, bir artistning teatru yozg'uchisidan ham yuksakrak bo'lishi matlub. Chunki teatru yozg'uchisining vazifasi, har xil tip va tabiatda bo'lg'on kishilarni bir-birlariga to'qnash ketirish va ularni ko'rishdir. Holbukim artist – yozg'uchining tub fikrini sezib uni orzu qiling'on bir shaklda yashata turg'on bir kishidir. Bir artistdan so'z ochqanda, bu so'zlarni aytib o'tadir: "teatru artisti, bir bolaning va bir yovvoyi kishining ruhiy hollarini (psixologiyasini) o'zida to'plab yashatishqa muvaffaq bo'lg'on bir kishi bo'lishi matlub".

Bu fikr juda to'g'ridir. Chunkim har qanday bir sahna asari yozg'uchining qalami ostidan chiqqanda, hali u – bir xayol mohiyatida bo'ladir. Uni artistning tili haqiqat holg'a aylantirib yuboradir. Undag'i hissiyotqa kelsak, ularning hammasi artistga tegishlidir. Yozg'uchi asari orqali o'z fikrini o'rtag'a qo'yadir. Artist esa o'rtag'a qo'yilg'an bu fikrlarni boshqalarg'a sezdirarlik bir ravishda o'g'izdan aytadir, qichqiradir va ko'pchilikka tushuntiradir.

Bundan boshqa artist – sahnadalik vaqtida o'z ko'rinishidan ajralib yozg'uchining asarida qatnashquchilarining xuddi o'zlari bo'lib ko'rinishka, ularning tilaklarini, fikrlarini, qiliqlarini va tuyg'ularini o'zida jonli qilib ko'rsatishka va bu ko'rsatqan narsalarining hammasini xuddi o'shal kishilar qilmoqda ekandek qilib jonlantirish va yashatishqa majburdir. Shuning uchun, kerak bo'lg'onda, joyg'a kelishtirish yig'laydi, kuladi, achchiqlanadi. Biroq bu hollarning tabiiy bir holda, o'z hollari ekandek kabi ko'rsatilishga tegishlidir.

Shu sababdan agar bir sahna artisti bir yozg'uchi tomonidan yozilg'on sahna asarini tuzatish kuchiga ega bo'lmasa, u hech bir vaqt chin bir artist bo'la olmaydi.

Bu yergacha biz sahna asarlaridan, ularni yozg'uchi va sahnaga qo'yub ko'rsakguchilaridan so'zlab keldik. Endida teatru san'atida shular bilan teng darajada muhim o'rin tutgan teatru tanqidchilig'idan so'z ochishimiz to'g'ri keladir.

Teatru san'atida sezgir bo'lg'on bir tanqidchining bir asarni tanqid qilib chiqa olishi uchun har narsadan ilgari ikki nuqtani ko'z oldida tutish kerak: asar va artistlar...

Tanqidchi uchun bir asarni tanqid qilishqa kirishmasdan ilgari ko'z oldida tutish lozim bo'lg'on nutqda – dastlab o'shal asarlarning so'rati, ya'ni mavzuning muhit bilan kelishib – kelishmaganligi, undan keyinda unda qo'llanilg'an tildir. Bunda har narsadan ko'prak asarning mavzuyiga ahamiyat berib qarash kerak. Biroq buning uchun tanqidchining o'z shaxsiy fikr va qanoatidan bir oz vaqt uchun ajralib o'zida jamiyat va muhitning fikr ham qanoatini yashatishi zarur. Agar bir teatru asarining mavzuyi ijtimoiy turmushqa foyda bera olmayturg'on va yanglishib ketidan yugurulan yaramas fikrlarni o'rtadan yo'qotishqa tirishmayturg'on bir ruhda bo'lmasa, uni sahna asari deb ayta olmaymiz. Mana shuning

uchun tanqidchi tomosha qilib turg'anida, o'z shaxsiy fikrlaridan, qanoatlaridan vaqtlicha ayrilishqa majburdir. Teatru asariga o'z teatru san'atiga, ijtimoiy turmushqa o'shal asarining qilaturg'on ta'sirlariga, xalqning ruhiy holatlariga qarab yaqinlashmoqqa tegishlidir. Shuning uchun bizda teatru tanqidchilari har narsadan ham ilgari teatru asarlarida inqilobiy ruhlarini izlashga majburlardir. Chunkim xalqning ruhiy holatlari shuni talab qiladir.

Bu mavzuda tanqidchi tomonidan axtarilaturg'on birinchi nuqtadir. Bundan keyin tanqidchi, mavzuning asar bilan bog'lanishi bo'lub, bo'lmag'onlig'ini, yokim o'shal mavzuning asarda durust ko'rsatilib – ko'rsatila olmaganlig'ini izlashga kirishadir. Har qancha og'ir bo'lmag'onda ham bir sahna asarida bo'lg'on mavzu xalqni zeriktirmasdan va chiqib ketishka majbur qilmasdan tushuntirilishka tegishlidir. Chunkim sahna leksiya joyi emas. Sahna – har qanday bir mavzuni xalqni zeriktirmasdan va chiqib ketishka majbur qilmasdan yaxshilab tushuntiradigan bir joydir.

Bundan keyin tanqidchi asarda qo'llanilg'on tilni e'tiborg'a olib qaraydir. Shuning uchunda sahna asarlari o'zimiz so'zlashib yurgan tilda yozilishi kerak. Teatru asarlarining adabiyot maydonidagi boshqa asarlardan juda ko'p farqlar bilan ayrilg'onliqlarini bilishimiz lozimdir. Masalan, bir romanda, bir hikoyada yaxshi ishlangan bir tasvirning sahnada buzuv va yomon bo'lib ko'rinishi mumkin. Buning sababi – tirikchilikda tabiiy bir ravishda borib turg'on so'zlashish ishlarini yasama bir shaklga kirgizish istagidir. Teatru asarlarining ko'pida yozg'uchilarning bu tabiiylikdan uzoqlashib, ayrilib ketkanliklarini ko'rub turamiz. Bular – fikri ishlatilmagan va bilimi oz bo'lg'on kishilar og'zidan, falsafiy va ilmiy fikrlar so'zlatishka urinadilar. Buning eng katta illati shundadir, yozg'uchi u asarni yozib turg'onida tabiiy hollarni esdan chiqarib o'z ruhining'ina yashatmoq istagan. Shu sababdan tanqidchi – sahnada har bir kishining og'zidan chiqqan so'zlarga diqqat qilishqa, aytilg'on gaplarni ijtimoiy va ilmiy vaziyatlari bilan birga tekshirib o'z tanqidchilarini ham shunga ko'ra yurgizishka tegishlidir.

Bir pyesaning o'ynalishi to'g'risida tanqid yozmoqchi bo'lg'onda, yozg'uchi jonlantirmoq istagan tipning artist tomonidan yaxshi o'ynalib o'ynalmaganlig'iga, artistning bu tipdagi xarakterni gavdalantirib – gavdalantira olmaganlig'iga, bu tipning o'zig'a yarasha kiyimlar bilan chiqib, chiqmag'onlig'iga va boshqalarga ayricha diqqat qilishi kerak.

Tanqid teatru san'atining eng ahamiyatli bir nuqtasidir. Chunkim hamma vaqt xalqning tilak va fikrlarini bildirguchi bir vositadir. Shuning uchun tanqidchi degan kishi teatru asarini odim-odim ta'qib etishi kerak. Undan keyin o'shal asarning moziysini, hozirg'i holini, istiqbolini diqqat bilan e'tiborg'a olib, o'z mutolaalarini xalqning hissiyotiga tarjimon bo'laturg'on bir ravishda yozishi lozimdir. Shuning uchun tanqidchi teatru asarining xalqning ruhiga muvafiq bo'lub – bo'lmaganlig'ini aniqlashqa, ijtimoiy

turmushda bor o'zgarish va yangiliklarning yozg'uchi tomonidan ko'rsatilib – ko'rsatilmaganligini tekshirishka tegishlidir. Shuning barovarida, u asarning turmush sharoiti bilan muvofiq bo'lub – bo'lmaganlig'ini chuqur tekshirishi zarur. Chunkim xalq – bir sahna yozg'uchisidan o'z turmushini jonli bir ravishda ko'rsatilishini kutadir.

Shunday qilib, tanqidchining bu yergacha ko'rsatilgan nuqtalarni ko'z oldida tutib shunga ko'ra harakat etishi, bir asarni shaxs uchun emas, balkim xalqning ruhi va sezgisi bilan ko'rishi, o'rganishi kerak.

Bu yerda bir necha satrluk so'z orqali yana ahamiyatli bir nuqtani ko'z oldig'a keltirib qo'yishqa majburman. U ham bo'lsa, teatru turmushida bizning tomonidan ta'qib etila turg'on yo'ldir. Agar biz tomosha turmushdagi va teatru san'ati maydonidagi mavqeyimizni yuksaltirmak, ilgarilatmak istasak, yuz-ko'zimizni to'ppa-to'g'ri Maskovga qaratishimiz kerak. Chindanda Maskovda inqilobiy pyesalar yaratishqa muvaffaq bo'lg'on va bu pyesalarni tanqid qilish san'atini yuksak darajada ko'rsatgan yozg'uchi va tanqidchilar juda ko'pdir va Maskov o'zining bu to'g'ridagi boylig'i bilan qancha iftixor qilsa, yana ozliq qiladir.

Biroq u yerdagi pyesalarni sira o'zgartirmasdan bizning turmushimizga tatbiq etib qo'yish ham to'g'ri bir ish bo'lub chiqmaydir. Sira inkor qilib bo'lmaydir, Maskov san'atining eng yuksak bir darajaga borib yetkan joyidir. Hozirda o'zi ega bo'lg'on bu boyligni undagi muhit yetarlik darajada emas, deb turg'on bir zamonda, u ishlarga biz endi boshlamogda va xalqqa yangi-yangi teatru san'atining chin ma'nosini anglatishqa endigina tirishmoqdamiz. Mana shuning uchun u yerning muhitiga, u yerning turmushiga muvofiq etilib yozilg'on asarlar bizning xalqimizning ruhida o'zlari loyiq bo'lgan darajada ta'sir ijro eta olmaydirlar. Biroq Maskovdagi teatru san'atidan va uning juda yuksak bo'lg'on taraqqiysidan boshqa bir yo'sinda foydalanishimiz mumkin. U ham bo'lsa, yozg'uchilarimizning o'shal asarlardagi yuksak ruhlarni o'zlarida o'zlashtirib, ulardan bizga, bundagi turmushimizga muvafiq, inqilobiy jonli, chin asarlar yaratishga tirishmoqlaridan iboratdir. Tanqidchilarimizning ham u yerdagi tanqid san'atlarini o'zlashdirishlari va bunda tomoshaga qo'yilgan asarlarni bu yerning turmushiga ko'ra o'shal tanqid elagidan o'tkazib tekshirishlari kerak, bunga erishqan kunimiz yelkamizda bu kungi ijtimoiy madaniyatimizga yarasharliq darajada bir teatru san'ati yaratishqa muvaffaq bo'lg'on hisob qilinamiz. Biz mana shuning orqasidagi ijtimoiy o'zgarishimizning bizdan kutkan eng muhim bir vazifani bajargan bo'lamiz.

Boshqarmadan. Nafis san'at sahnasining muhim bo'lagi bo'lg'on teatru masalasi to'g'risida ko'pkina, asoslig'ina musohaba, mubohasalar bizda haligacha bo'lmadi. O'rtoq Ch.o'g'lining maqolasini fikr olishish yo'li bilan bosilib, teatru ishchilarining va havaskorlarining istaklarini so'raymiz".

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ch.o'g'li. Teatru masalasi. "Alanga" jurnali. 6-7-son. Samarqand, 1928-yil, – B. 19–21.
2. M. Behbudiy. Teyotr nador? Tanlangan asarlar. Toshkent: "Ma'naviyat", 1999-yil, – B. 174 – 176.
3. O.Sharafiddinov. Cho'lponni anglash. Toshkent: "Yozuvchi", 1994-yil, – B. 26.
4. M.Qodirov. O'zbek teatr tarixi (XVIII–XIX asrlar). Toshkent: 2003-yil, – B. 3.
5. M.Umarov, T.Yo'ldashev. Rejissorlik va aktyorlik san'ati asoslari. Toshkent: 2016-yil. – B.

Manas ABDREYMOV,  
O‘zDSMI Nukus filialining “Texnogen va dramaturgiya san’ati” kafedrası o‘qituvchisi,  
Quvanish JUMANOV,  
O‘zDSMI Nukus filialining “Texnogen va dramaturgiya san’ati” kafedrası o‘qituvchisi

## QORAQALPOQ KINEMATOGRAFIYASI RIVOJIDA MUTAXASSIS KADRLAR TAYYORLASHNING DOLZARB JHATLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada qoraqalpoq kinematografiyasini rivojlantirish bo‘yicha yosh mutaxassislar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarning natijasiga binoan muayyan tavsiyalar berilgan. Sohaga oid ta‘lim jarayonlaridagi ayrim kamchiliklar yuzasidan fikr bildirilib, amaliyotga tatbiq etilishi zarur bo‘lgan istiqbolli loyihalar haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** kinematografiya, san‘at, asar, kino, innovatsiya, mahsulot, ta‘lim, rejissor, hamkorlik.

Манас АБДРЕЙМОВ,  
Преподаватель кафедры “Техногенное и драматическое искусство” Нукусский филиал ГИИКУЗ  
Куаньш ЖУМАНОВ,  
Преподаватель кафедрой “Техногенное и драматического искусство” Нукусский филиал ГИИКУЗ

## АКТУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ПОДГОТОВКИ СПЕЦИАЛИСТОВ В РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСКОГО КИНЕМАТОГРАФА

**Аннотация.** В статье даются конкретные рекомендации, основанные на результатах научных исследований молодых специалистов по развитию каракалпакского кинематографа. Ведется речь о недостатках образовательного процесса на местах, обсуждались перспективные проекты, которые необходимо реализовать.

**Ключевые слова:** кинематография, искусство, работа, кино, инновация, продукция, образование, режиссёр, сотрудничество.

Manas ABDREYMOV,  
Teacher, Technogen and Dramatic Art Nukus branch of the UzSIAC  
Kuuanish JUMANOV,  
Teacher, Technogen and Dramatic Art Nukus branch of the UzSIAC

## ACTUAL ASPECTS OF PREPARATION OF SPECIALISTS FOR THE DEVELOPMENT OF KARAKALPAK CINEMATOGRAPHY

**Annotation.** The article provides specific recommendations based on the results of scientific research of young specialists on the development of Karakalpak cinema. The shortcomings of the educational process on the ground were discussed, promising projects that need to be implemented were discussed.

**Keywords:** cinematography, art, work, cinema, innovation, product, director, collaboration.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-modasi 7-bandiga muvofiq, Prezidentimiz mamlakat tarixida uchinchi marotaba Oliy Majlisga hamda xalqimizga yo‘llagan Murojaatnomasida 2019-yil davomida barcha sohalarida amalga oshirilgan ishlar, hayotimizning turli jabhalarini qamrab olgan samarali islohotlarning natijalari, qolaversa, 2020-yilga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlar, davlatimizning ichki va tashqi siyosati uchun asosiy vazifalar bayon etildi. Eng muhim va dolzarb bo‘lgan qonunchilik tashabbuslarini ilgari surish, inson manfaatlarini himoya qilishni yanada takomillashtirish, xalqimizning turmush darajasini oshirishga qaratilgan samarali ishlarni bajarish, jamiyatdagi mavjud muammolarni tezkorlikda hal etish kerakligi aytiladi. Shuningdek, kinematografiya sohasida badiiy jihatdan yetuk asarlar yaratish, zamonaviy kinoindustriyani rivojlantirish, jumladan, yangi kinoteatrlar qurishni ta‘minlash lozimligi ham ta‘kidlandi. Bu esa o‘z navbatida, kinematografiya sohasida faoliyat yuritayotgan insonlarning, ijodkorlarning zimmasiga juda sharaffi, shu bilan birga, o‘ta mas‘uliyatli vazifa yuklatilganidan dalolat beradi.

Ta‘kidlash joizki, har bir mamlakat kinosi o‘ziga xos maktabiga ega. Chunki suratga olinadigan kinolarning syujeti shu millatning ruhiyati, an‘ana va uslublariga tayanadi. Xususan, ba‘zi xalqlarning filmlari dramatik keskinlikka moyil bo‘lsa, ba‘zi xalqlar esa kinosida romantik sahnalarga,

ijtimoiy ziddiyatlarga ahamiyat qaratishadi. Qayerda ishlab chiqarilmasin, har qanday kinoda u yoki bu g‘oya targ‘ib qilinadi. Jahon kino san‘ati tarixiga nazar tashlasak, noodatiy uslubga ega, falsafiy mushohadaga chorlovchi murakkab, ba‘zida sodda, ommabop, g‘aroyib hodisalar orqali kulgi uyg‘otadigan syujetlarni uchratamiz. Bular faqat badiiyat, ta‘sirchan voqelik yoki shunchaki tomosha emas, balki targ‘ibot va mafkuradir. Boisi, kino sohasi insoniyat madaniy merosi ichidan eng yaxshilari sayqal topgan namunalarni tarqatish, tashviq qilish kabi ulkan ijtimoiy vazifani bajaradi.

Darhaqiqat, Qoraqalpoq kinematografiyasi ham media sifati rivojlanish yo‘lidan borayotgan sohadir. Uning rivojlanishi hududda yangi kinoteatrlarga bo‘lgan talabning oshishiga turtki bo‘ldi. Dunyo san‘at media olami talablari darajasidagi asarlarni yaratayotgan paytimizda, zamonaviy kinoteatrlarni baporo etish, kinematografiya rivojida yanada yaxshi samara beradi.

XX asrning buyuk san‘ati kinorejissordek yangi ajoyib kasbni vujudga keltirdi. Dastavval, kinematograf rejissorni murakkab texnologiya, ijodiy chegara changalida mahkam ushlab turdi, uni oddiy kasb darajasidagina bo‘lishiga imkon berdi, tobora rivojlanishiga to‘sqinlik qildi. Ammo hayot o‘z ishini bajarib, san‘atkor to‘sqinliklarni yengib o‘tdi, yangi san‘atning keng imkoniyatlaridan foydalana oldi, bu bilan keng, rovon yutuqlar yo‘liga chiqish imkoniyatiga ega bo‘ldi [1: 6-b].

Demak, kinorejissura davrlar sinovidan o'tgan va sayqallanib kelayotgan soha hisoblanadi. Dunyo tajribasidan ma'lumki, kino sohasi nafaqat san'at, balki sanoat ham hisoblanadi. To'g'ri, san'atning tijoratlashuvi hamma vaqtlarda ham bo'lgan. Ammo haqiqiy san'at baribir o'zining yuksak saviyasi bilan tijoratlashuv jarayonini muntazam ravishda o'z mutanosibligi bilan boshqarib kelgan.

Shu o'rinda, davlat mablag'lari tomonidan tasvirga olingan filmlarning ma'naviy tarbiyaviy ahamiyati va saviyasi yuqori darajada ekanligini ham e'tirof etishimiz kerak. Lekin bu filmlarga qiyoslaganda xususiy studiyalar tomonidan yaratilgan filmlarga talab yuqori darajada ekanligini ham qayd etish joizdir. Xususiy filmlarda g'oyaviylikdan ko'ra hayotiy hajviya va yumor janriga ko'proq urg'u beriladi. Biroq yoshlar bunday filmlardan qay darajada ma'naviy tarbiya olishi mumkin? Bu ham kishini o'ylashga, mushohada qilishga chorlaydi.

Ayni paytda adabiy badiiy jarayonlarda ko'zga tashlanayotgan salbiy tendensiyalar, xususan, madaniyat sohasida tijoratlashuv, shaxsiy manfaatning birinchi o'ringa chiqayotgani, g'oyaviy-badiiy jihatdan sayoz asarlarning bozori chaqqon bo'lib borayotgani tashvish uyg'otmasdan qolmaydi. Afsuski, ijodiy uyushmalar tomonidan bunday holatlarga prinsipial baho berilmayapti, ularni bartaraf etish bo'yicha har tomonlama asoslangan amaliy takliflar o'rtaga qo'yilmayapti, – deya tanqidiy fikr bildirgan edi muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev.

Shu fikrlardan kelib chiqqan holda, qoraqalpoq kinematografiyachilar zimmasiga yangicha yondashuv va yangicha prinsipial baho berish mas'uliyati yuklandi. Hozirgi ijtimoiylashish davrida badiiy jihatdan sog'lom va yetuk, xalqimizning azaliy qadriyatlarini, ma'naviy-ma'rifiy hayoti, yoshlarimizning odob-axloqi, ta'lim-tarbiyasi xususida fikr yuritilgan, odamiylikni targ'ib qilgan juda chuqur mushohadalarga boy asarlarni tomoshabinlarga yetkazish juda muhim ishlar sirasiga kiradi.

Qoraqalpoq kinosida insonning ichki dunyosi, hissiyotlarini yuzaga chiqarish, tafakkur va ruhiyatini namoyon etish, mehr-oqibat, bag'rikenglik, ahdga vafo, sadoqat singari insoniy fazilatlarini tarannum etish yaxshi an'anaga aylangan. Qoraqalpoq kinematografiyasiga nazar solsangiz professional filmlar soni kamnamo. Bunga davlat tomonidan ajratiladigan mablag'lar yoki texnik jihozlarning yetishmovchiligi sabab bo'lishi mumkin. Lekin bu soha rivojiga bahona bo'la olmaydi. Chunki rivojlangan davlatlarda ham badiiy yetuk filmlar birdaniga ishlab chiqarilmagan. Asosiysi, sohada mohir kadrlarning faoliyat olib borishi bilan bog'liq bo'lgan.

Kino tasvirga olish esa ijodiy hamda ishlab chiqarish sohalarida keng ko'lamda qo'llanilmoqda. Shu bois bo'lajak kinematograflarda g'oyaviy badiiy madaniyat, yuqori darajadagi professional malaka hamda ko'nikma bilan bir qatorda kinematografiyaning o'ziga xos texnologiyasi va imkoniyatlarini o'rganish zarurati tug'ilmoqda. Bugungi kino jarayonda ko'plab katta-kichik rejissorlar syujetga an'anaviy yondashuvdan cheklanib, sof realistik, falsafiy-ramziy, eksentrik, fantastik, ruhiy-psixologik janrdagi filmlarni suratga olishga intilayotgani muhim hodisa. Talabalarni, ya'ni sohaning bo'lajak mutaxassislarining kelajakda kinematografiya va televideniya yuqori darajadagi did va badiiy tafakkurga ega asarlar yaratish qobiliyatiga ega bo'lishlari talab etiladi [2: 5-b].

Taniqli pedagog Abulqosimovanning kinematografiyaga oid ushbu mulohazalari juda o'rinni, nazarimizda. Bizga texnik jihozlar yetishmasligi emas, ularni o'rganib soha

ishlariga olib kiruvchi mutaxassislar ko'proq kerak. Buning uchun oliy ta'lim tizimida mutaxassis kadrlarni tayyorlashda barcha mukammal shart-sharoitlarni yaratishimiz zarur. Yosh kinorejissorlarni tarbiyalovchi nazariy amaliy ko'nikmalar po'ydevori oliy ta'limda talabalarga singdirib boriladi. Bo'lg'usi kinorejissor ko'p kitob o'qishi, tinimsiz izlanishi kerak. Badiiy adabiyotlarni o'qishi, o'z-o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lishi, jahon kinofilmlarini kuzatib borishi darkor. Talaba o'zini tinimsiz ijodiy mashg'ulotlar bilan charhlab borsa yaxshi natijaga erishish imkoniyati yuqori bo'ladi.

Yaratiladigan filmlar xalq e'tiboriga, mehriqga sazovor bo'lib, yaxshi estetik va axloqiy manba sifatida teletomoshabinlarning qalbini zabt etishi lozim. Adabiyot va kinematografiyaning birdamligi esa adabiy obrazlarga hayot bag'ishlab, ularni esda qoladigan va yana ham ishonarli darajaga olib chiqadi. Hozirda kino san'ati adabiyot asarini namoyish etish yo'lidan uni hikoya qilishga, o'z tasvir vositalari orqali syujetning o'ziga xos tomonlarini emas, uning uslubini ham berishga o'tgan.

Bu eng avvalo, kinodramaturg zimmasiga qiyin vazifa yuklaydi. Bunda kinodramaturg, ijodi o'ziga yaxshi tanish, tushunarli va sevimli bo'lgan muayyan bir yozuvchining asarini tanlaydi. Asar badiiy saviyasidan qolishmaydigan ssenariy yaratish endi yozuvchi emas, kinodramaturg mahoratiga bog'liq bo'ladi [3: 20-b].

Qoraqalpoq kinematografiyasida professional kinossenaristlar yetishmasligi bois dramaturgik asarlarga talab yuqori. Taniqli dramaturglarimiz sanoqli ekanligi soha vakillarini biroz cho'chitib qo'yishi mumkin. Masalan, ko'pchilik qoraqalpoq kinossenariylarning muallifi Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi Muratbay Nizanovdir. Yana boshqa bir qator kinossenariy yozadigan yozuvchilar ham bor, ammo kamchilikni tashkil etadi.

Zangori ekran uchun kinofilmlar yaratishda endilikda kinoteledramaturgiyaning ahamiyati ham oshib boradi. Ko'p qismli telefilm qahramonlarini bundan keyin ham "ishtirok etish samarasi" degan umumqoidaga muvofiq, tomoshabinlar uchun taniqli va aziz, obro'-e'tiborli shaxslarga aylanib qolaveradilar. Qolaversa, kinoasarlari mohiyatiga yuklangan yuk yanada vazminlashadi, muallifning film "xo'jayini" sifatidagi erkinligi oshadi. Serial filmlar "katta kino"da mavjud bo'lgan cheklovlarini yengib o'tib, o'zining tomoshabinlariga yanada kuchliroq ta'sir etish vosita va yo'llarni kasb etib boraveradi [4: 121-b].

Qoraqalpog'istonda istiqbolli dramaturglarni qo'llab-quvvatlash maqsadida, Yozuvchilar uyushmasi yoki "Qoraqalpoqfilm" tomonidan tizimli ravishda kinossenariylar tanlovi o'tkazilib borilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Chunki ijodkorni har tomonlama rag'batlantirib borish ham soha rivojida motivatsiya bo'ladi. Shu bilan birga, film yaratishda katta hissa qo'shadigan insonlarning ishlarini vaqtida inobatga olib, xorijlik hamkorlar bilan sheriklikni rivojlantirish, sohaga innovatsion loyihalarni qo'llash juda muhim jarayon hisoblanadi.

Kino san'ati asarlari yozuvchi, dramaturg, rejissor, aktyor, operator, rassom, kompozitor kabi ijodiy xodimlardan iborat jamoa mahsulidir. Kinoda rejissor yetakchi rol o'ynaydi. Qoraqalpoq rejissurasida kinorejissorlar uchun xorijiy tajriba almashish tizimini takomillashtirish, san'at oliygohida o'qiyotgan yoshlarning ko'nikma va amaliyotini oshirish maqsadida xorijiy grantlarga qatnashish tizimini qayta ko'rib chiqish zarur. Filmning bugun ijodiy jamoasi bir vazifani – g'oyaviy jihatdan teran, badiiy jihatdan yuksak kino asari yaratishdek ulug'

vazifani o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Agarda ijodiy jamoaga bir maqsad va maslakdagi odamlar yig'ilgan bo'lsa, rejissor va u boshliq guruhning ishi so'zsiz samarali bo'ladi. Biz ko'pincha "rejissor ishi" degan iborani ishlatamiz. Ha, chindan ham ish, lekin o'tin yorish kabi ish emas. Rejissor ishi murakkab ijodiy jarayondir. Rejissor ijodi dirijorniki kabi agar musiqa va orkestr bilan bog'liq qiyosimizni davom ettirsak, bu yerda ham ijod. U ilhom bilan, quvonchu-mashaqqatlar bilan bog'liqdir [5: 71-b]. Qoraqalpog'istonda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filialida professional mutaxassislar ta'lim olmoqda va ishlab chiqarish jarayonlarida ishtirok etib o'z tajribalarini oshirib kelmoqda. Ammo xorijiy hamkorlikni yuqori darajada va yangicha tizim asnosida rivojlantirish zarurati yuzaga kelgan.

Film yaratish ikki tomonni – ijod va ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Kino ishlab chiqarishning markazi – kinostudiya bo'ladi. Tayyor filmlar kinoprakat orqali tarqatiladi va ular kinoteatr, televideniya ko'rsatiladi [6: 7-b].

Kinoteatrlarda qo'yiladigan filmlarni Qoraqalpoq tiliga tarjima qilish orqali kinematografiya sohasini yangi asarlar bilan boyitib boramiz. Ammo sohada ancha kamchiliklar mavjud edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-iyuldagi "Milliy kinoindustriyani rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3880-son qarorida ham quyidagicha muammolar va ularning yechimlari yuzasidan aniq vazifalar berilgan. Jumladan:

- davlat buyurtmasi bo'yicha ishlab chiqariladigan kino mahsulotlariga ajratiladigan mablag'larning yetarli emasligi, kino ishlab chiqaruvchilarni soliqqa tortish tizimining samarasizligi va yuqori soliq yuki kino sanoati sohasining daromadlilikini cheklamoqda va kinematografiyaning umumjahon rivojlanish tendentsiyalariga muvofiq ilg'or innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirmayapti;

- kino sohasida kadrlarni tayyorlash tizimi zamonaviy talablarga javob bermaydi, ixtisoslashtirilgan, shu jumladan xorijiy davlatlarning oliy o'quv yurtlarida talab yuqori bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash, kino san'ati vakillarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlari tashkil etilmagan.

Nafaqat qoraqalpoq, balki ayni paytda o'zbek kinematografiyasida ham kinematografiya sohasini umumjahon kino san'ati tendentsiyalariga muvofiq rivojlanishiga oid ishlarni davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqish yuzasidan yangi davr boshlandi. Qoraqalpoq kinematografiyasini rivojlantirishda OTM bo'lgan O'zDSMI Nukus filiali va TATU Nukus filiali o'rtasida amaliyot almashuvini yo'lga qo'yish va innovatsion texnikalarni sohaga olib kirish zarur.

Texnolog san'ati uchun maxsus so'nggi texnikalar bilan jihozlangan o'quv amaliyoti xonasi va chet el grantlarini ajratishda ayrim imtiyozlarni qo'llash orqali ko'zlangan natijaga erishishimiz mumkin bo'ladi.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor Bahodir G'aniyevichning quyidagi fikrlarini keltirib o'tmoqchimiz:

"Texnika taraqqiy topgani sari, kinematografiyaning ifoda va tasvir imkoniyatlari ham yil sayin takomillashib, boyib bordi – ovozsiz kino ovozi san'atga aylandi; oq-qora ranglardan iborat bo'lgan kino uchun turfa ranglar kashf etildi; keyinchalik keng ekranli, keng hajmli filmlar yaratila boshlandi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, kino endilikda faqat tomosha qilish uchungina yaratilmaydi. Kino san'ati – bu hayot mazmunini ifodalash, jahonda ro'y berayotgan jarayonlarga o'z munosabatingni bildirish usuli, kino – bu mafkura, kino – bu falsafa".

Haqiqatan kino mafkurasida yillar davomida katta boshqarish va ta'sir ko'rsatish quroli bo'lib, xalq mafkurasiga xizmat qilib kelgan. Kino falsafasi esa yillar mobaynida insoniyatni o'ziga qaytarib, borliqning jumboqli savollariga javob izlashiga turtki bo'lgan. Kino falsafasi davr mafkurasida bog'liq bo'lib kelgan. Endilikda, kinolarni faqat tomosha qilish emas, uni tahlil qilish orqali tomoshabinning qiziqishini yanada oshirish lozim.

Masalan, "Qoraqalpoqstan" telekanali dasturlarining bir soat ko'lamidagi ko'rsatuvlaridan birini chet el serial va filmlarining va milliy serial, filmlarning mohiyatini tahlil etishga mo'ljallash maqsadga muvofiqdir. Mazkur dasturda soha arboblari, yosh rejissor va dramaturglar, kinematografiya sohasining barcha xodimlari ishtirok etishi va tomoshabinlar bilan to'g'ridan-to'g'ri fikr almashishi kerak. Tomoshabinlarning ehtiyojini o'rganish, tilak-istaklaridan kelib chiqqan holda asar yaratish tizimini ishlab chiqishimiz kerak.

Yangi O'zbekistonda kinematografiya o'zining mukammal va yetukligi, yangi janrlari, shakllari bilan xalqimizga xizmat qilishi soha vakillarining ustuvor vazifasidan hisoblanadi.

Film boshlanishida yoki oxirida (ayrim filmlarda prologdan so'ng) o'nlab ijodiy va ishlab chiqarish xodimlarining ism-familiyalarini o'qiyamiz.

Bular film ijodkorlari – ssenariy muallifi, rejissor, operator, musavvir, bastakor, ijrochi, aktyorlar, ma'muriy xodimlar, ijodiy kuchlarning yordamchilari, assistentlar va boshqa xodimlardir. Film yaratilishida yuqorida zikr etilgan ijodiy xodimlardan tashqari, yana o'nlab ishchi va xizmatchilar ishtirok etadilar. Har qanday film yaratilishida ularning har biri o'ziga yarasha hissa qo'shadi [7: 19–20-b].

Xulosa o'rnida aytish lozimki, film faqat rejissor yoki dramaturgning mehnat mahsuli emas, unda butun bir jamoa mehnat qiladi. Kino san'atining barcha tasviriy vositalari, inson omili, rejissura va dramaturgiyasini g'oyaviy jihatdan yangicha tamoyillarga asoslanib integratsiyalanadi. Ko'zlangan maqsadga erishish uchun kinematografiya sohasini emas, kadrlar tayyorlash sohasini yangicha dunyoqarash orqali isloh qilish kerak. Biz qoraqalpoq kinematografiyasining rivojlanishi uchun birinchi navbatda, mutaxassis kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish kerak deb, hisoblaymiz. Chunki sohaga yangi iste'dod egalari keladi va innovatsion o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu integratsiya jarayonida baribir kadrlarning mahorati asosiy kuch bo'lib qolaveradi. Qoraqalpoq kinematografiyasining yangi pog'onaga ko'tarilishida ham shu kuchlar katta ahamiyat kasb etadi.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmedov B. Kino: mahorat pog'onalari. – Toshkent: Akademiya, 2010. – B. 142.
2. Xidirova K. Kinoteleoperatorlik mahorati. – Toshkent: TDSI nashriyoti 2017. – B. 150.
3. Abulqosimova H. Kinoteleradio tarixi va nazariyasi. – Toshkent: TDSI nashriyoti 2008. – B. 79.
4. Ahmedov B. O'zbek televideniya kinosining rivojlanish tarixi. – Toshkent: Akademiya, 2007. – B. 212.
5. Abulqosimova X. Kino san'ati asoslari. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilimiy nashriyoti, – Toshkent: 2009. – B. 96.
6. Xidirova K. Kinoteleoperatorlik mahorati. – Toshkent: Fan va ta'lim poligraf, 2017. – B. 139.
7. Aliev M. Kino asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1993. – B. 157.



## *II BO' LIM*

**MUSIQA SAN'ATI**

## AKADEMIK YUNUS RAJABIY IJODINING O'ZBEK DAVLAT MUSIQALI DRAMA TEATRI TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston xalq artisti, akademik Yunus Rajabiyning hayoti va ijodi, Muqimiy nomidagi O'zbek davlat musiqali drama teatri sahna asarlari uchun yozgan musiqalari, xor, raqs kuylari, ariya, duetlar va ularning milliy talqini, haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** o'zbek musiqali dramasi, sulola, duet, ariya, xor, akademik, institut, bastakor, baletmeyster, dramaturgiya, adabiyot, badiiy, personaj, drama, nazariya, sahnaviy makon, xatti-harakat, uslub, an'ana, mumtoz, sahna, sistema, aktyor, rejissor, ssenariy, dramaturg, ijod, dekaratsiya, san'at, professional, tasavvur, spektakl, timsol, zamonaviy, musiqa, grim, tendensiya, tarix, teatr, ssenografiya, madaniyat, obraz, qahramon, xarakter, muhit.

Шерзод МУХАММАДИЕВ,

заведующий кафедрой "Музыкального драматического театра и кинематографии" ГИИКУЗ

## РОЛЬ ТВОРЧЕСТВА АКАДЕМИКА ЮНУСА РАДЖАБИ В РАЗВИТИИ УЗБЕКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО МУЗЫКАЛЬНО-ДРАМАТИЧЕСКОГО ТЕАТРА

**Аннотация:** В данной статье ведется речь о жизни и творчестве музыки, хоре, танцевальных мелодиях, ариях, дуэтах и их национальной интерпретации, написанных народным артистом Узбекистана, академиком Юнусом Раджаби для сценических произведений Узбекского государственного музыкально-драматического театра имени Муқими.

**Ключевые слова:** узбекская музыкальная драма, династия, дуэт, ария, хор, академический, институт, композитор, хореограф, драматургия, литература, искусство, персонаж, драма, теория, сценическое пространство, поведение, стиль, традиция, классика, сцена, система, актер, режиссёр, сценарий, драматург, декорации, искусство, профессионал, воображение, перформанс, эмблема, современный, музыка, грим, тренд, история, театр, сценография, культура, образ, герой, персонаж, окружающая среда.

Sherzod MUKHAMMADIEV,

"Musical Drama. Head of the chair of Theater and Cinematography UzSIAC

## THE ROLE OF THE WORK OF ACADEMICIAN YUNUS RAJABI IN THE DEVELOPMENT OF THE UZBEK STATE MUSICAL DRAMA THEATER

**Abstract:** This article is about the music, choir, dance tunes, arias, duets and their national interpretation, life and work written by the People's Artist of Uzbekistan, Academician Yunus Rajabi for the stage works of the Uzbek State Musical Drama Theater named after Muqimi.

**Keywords:** Uzbek musical drama, dynasty, duet, aria, choir, academic, institute, Obihayot, composer, choreographer, dramaturgy, literature, art, character, drama, theory, stage space, behavior, style, tradition, classic, stage, system, actor, director, screenplay, playwright, creation, scenery, art, professional, imagination, performance, emblem, modern, music, makeup, trend, history, theater, scenography, culture, image, hero, character, environment.

Muqimiy nomidagi O'zbek davlat musiqali drama teatri 1939-yil 30-noyabrda aktyor M.Mirokilov tashabbusi bilan Respublika komediya va satira teatr sifatida tashkil etilgan. Faoliyatini "Burungi qozilar yoki Maysaraning ishi" spektakli bilan boshlagan.

Shu o'rinda aytish lozimki, musiqali drama – sintetik san'at turi sifatida bir nechta elementlarni o'zida birlashtiradi. Jumladan, Drama teatrlarining faoliyatida dramaturg muhim o'ringa ega bo'lsa, musiqali drama teatrida esa nafaqat dramaturg, balki kompozitorning ham xizmati beqiyosdir. Ammo ushbu janrdagi teatr uchun yaratilgan asarda ba'zan ham dramaturgik, ham musiqali material mukammal darajada bo'lavermaydi. Birida dramaturgiya yaxshi bo'lsa, musiqiy qismda kamchiliklarga duch kelinadi yoki aksincha ham bo'lishi mumkin.

Demak, musiqali drama teatrida har tomonlama takomillashgan, yuqori saviyaga ega, tomoshabin qalbida bir umr muhrlanadigan sahna asarini yaratish, yuksak mahorat, chuqur bilim, katta tajriba talab qilinadi. Bu esa o'z navbatida, musiqali drama asarlari ishlash jarayoni qanchalik murakkab ekanligidan dalolat beradi.

Lekin har bir soha yoki tarmoqning rivojlanishi uchun samarali mehnat qilgan buyuk siymolar, arboblardan bo'lganligini ham mamnuniyat bilan e'tirof etish kerak.

Insoniylikni, ma'naviy xislat hamda fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan, amalga oshirgan ezgu ishlari bilan o'zlaridan boy madaniy va ma'naviy meros qoldirgan juda ko'plab buyuk shaxslar yashab o'tgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor"<sup>1</sup>.

Xalqimizning ardoqli farzandi, Rajabiy sulolasining yirik namoyandasi, atoqli bastakor, xonanda, sozanda, O'zbekiston xalq artisti, akademik Yunus Rajabiy hayoti va faoliyatini, qolaversa, o'zining yaratgan bebaho asarlaridan noyob ma'naviy xazinasini o'rganish, undan ma'naviy oziqa olish, shuningdek, O'zbek davlat musiqali drama teatrlarining rivojlanishiga qo'shgan katta hissasini tadqiq etish, yuksak marralarni ko'zlagan talaba-yoshlar hamda san'atni, musiqani qadrlagan har bir odam uchun ham juda muhimdir.

Mumtoz musiqa merosimizni asrab, sayqal topishida Yunus Rajabiyning fidokorona xizmatlarini eshitmagan, bilmagan insonni topish mushkul. Shu bilan bir qatorda, kuylar, qo'shiqlar, xor asarlari yozib, ushbu teatr

<sup>1</sup> Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi // <http://uza.uz/>. – 03.08.2017.

taraqqiyotining tamal toshini qo'yishga harakat qilgan. Uning "Bahor marshi", "Yoshlar marshi", "O'rtoqlar", "Hammamiz" (Jig'ay she'ri), "G'alaba" (Uyg'un she'ri), "Gulbog'lar" (Habibiy she'ri), "Yor ila" (Muqumiy g'azali), "Yor mehri" (A.Navoiy g'azali), "Hajringda" (Furqat), "Muhabbat dashti" kabi asarlari mashhurlikka erishgan. Hamid Olimjon so'zi bilan aytiladigan "Kuygay" ashulasi esa alohida e'tibor va e'tirofga loyiqdir.

Maqomlarga ijodiy yondashib, ular asosida ko'p ovoqli asarlar yaratish orqali musiqa madaniyatimizda ijodiy natijalarga erishilgan va teatr, konsert repertuarini boyitishga xizmat qilgan. "Maqomlarni xalq musiqa ijodiyotiga taqqoslab, ilmiy asosda chuqurroq o'rganish, o'zbek-tojik xalqlari musiqa madaniyati tarixida va musiqa ijodiyotida juda katta ijodiy ahamiyatga egadir. Shubha yo'qki, maqom yo'llarini chuqurroq o'rganib, ulardan ilmiy-ijodiy foydalanish masalasini to'g'ri hal etilishi o'zbek-tojik xalqlari musiqa madaniyatini yanada gullab yashnashiga va yuksak badiiy shakldagi, yirik janrlardagi musiqa asarlari yaratilishiga katta yordam beradi"<sup>2</sup>. Asrlar davomida ulug' shoir va olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning mashaqqatli mehnati va fidoiyligi, ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan ushbu noyob san'at nafaqat yurtimiz va sharq mamlakatlarida, balki dunyo miqyosida katta shuhrat va e'tibor qozongan. Maqom san'atining gultoji, yuksak badiiy estetik kuchta ega bo'lgan "Shashmaqom" Markaziy Osiyo xalqlarining ko'p asrluk madaniy-tarixiy taraqqiyotining mahsulidir. YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida e'tirof etilgani esa ijod ahlini behad quvontirib yubordi<sup>3</sup>.

Akademik Yunus Rajabiyning manaviy chashmalaridan bahra olish, yosh ijodkorlarning tafakkurini kengaytirishga, ma'naviyatini yuksaltirishga, iqtidorini o'stirishga mislsiz ahamiyatga ega, desak mubolag'a bo'lmaydi. Akademik Yunus Rajabiy xalq orasida o'tkir shirali ovoz egasi sifatida tan olingan. Shuningdek, mumtoz musiqa merosimiz namunalarini nafaqat yodida saqlagan, ularni notaga ham olib kelajak avlod uchun meros qoldirgan. Uning maqom yo'llarida ijod qilgan "Girya", "Nolish", "Ko'cha bog'i", "Eshvoy", "Kurd", "Qalandar", "Shahnozi Gulyor", "Bayot", "Qaro ko'zim", "Dugohi Husayin", "Chorgoh", "Miskin", "Nasrullovi" singari qo'shiqlari qayta tiklangan. "Subhidam", "Yolg'iz", "Sayqal", "Segoh", "Dugoh" kabi qadimgi o'zbek kuy va ashulalari hamon xalqimizga zavq bag'ishlab, kishi qalbiga orom bermoqda. "O'zbek milliy musiqa san'ati xilma-xil janrlar, yo'nalishlar va ijrochilik uslublarga boy bo'lib milliy qadriyatlar, an'analar hamda xalqning ma'naviy tafakkuri negizida zamon bilan hamohang tarzda sayqal topib kelgan. Bu bebaho meros o'tmishdagi hassos bastakorlar, mohir sozandalar va zabardast xonandalarning ijod mahsuli sanalib amaliyotda ularga xos ijrochilik an'analari, turli xil lokal (mahalliy) uslublarni paydo bo'lgan va rivojlanib kelgan".

Akademik Yunus Rajabiyning 1500 dan ortiq xalq kuy va ashulalari, yalla, lapar, terma va dostonlar, o'zbek maqomlari "Shashmaqom", "Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari"ning nota na'munalarini "O'zbek xalq musiqasi"

kitoblarida nashr ettirgan. Bastakorlik faoliyati bilan o'zidan mangu asarlar qoldirdi. "Millat qayg'usi bilan yongon Yunus Rajabiy mumtoz "Shashmaqom"ni saqlab qolish va undan kelgusi avlodni bahramand etish yo'lida yana bir bor jasorat namunasi ko'rsatdi, B.Zikriyev, M.Tolmasov, D.Ibodov, M.Toshpo'latov, Yo.Dovidov, M.Mullaqandov kabi ustozlar ijrosiga tayanib, oqilona yo'l tutdi. Bu jarayonda uning ilmiy-ijodiy salohiyati ham yorqin namoyon bo'ldi. Jumladan, maqom turkumlarida yetishmayotgan cholg'u va aytimlar o'rmini shu uslub doirasida yaratgan ijod namunalari bilan to'ldirdi, forsiy g'azallar bilan "o'qilgan" aytim yo'llariga turkiyda bitilgan mumtoz she'riyat namunalarini ham mazmun, ham aruz bahrlariga ko'ra to'g'ri tanlab bog'ladi hamda nozik did bilan zargarona ishlovlar berdi. Bu salmoqli ishning yakuni sifatida "Shashmaqom" majmuasi 1959-yili "O'zbek xalq musiqasi" nota yozuvlari turkumining beshinchi jildida "Buxoro maqomlari" nomi bilan nashr yuzini ko'rdi"<sup>4</sup>.

1920-yillarda O'zbek davlat musiqali drama teatriga poydevor qo'yilayotgan bir davrda Hamza bilan G'ulom Zafariy boshlagan zamonaviy musiqali drama va Xurshid boshlagan afsonaviy musiqali drama kabi ikki yo'nalish belgilandi. Yunus Rajabiy o'zbek musiqali dramasi an'analari davom ettirish maqsadida asosan, bastakor Shorahim Shumarov tanlagan yo'ldan borgan. Musiqali drama asarlarida O'zbek milliy musiqalaridan, maqom kuylaridan va sozlaridan keng foydalangan. O'sha yillarda, musiqali drama teatrlari orkestrida ko'proq, g'arb sozlari bilan spektakl musiqalari, qo'shiqlari, duetlari, ariyalari yozilar edi. Yunus Rajabiy "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Nodira", "Navoiy Astrobodda" musiqali dramalarida O'zbek xalq kuylaridan "Cho'li Iroq", "Munojot", "Tanovor", O'zbek xalq qo'shiqlari, marosim qo'shiqlari va xalq ohanglaridan keng foydalandi.

"San'atga aloqador boyliklar ma'naviy boylikni tashkil etadi. San'atsiz hayot nursiz, jilosiz, mantiqsiz va zerikarli bo'lib qolardi. San'at nima? San'at deganda badiiy ijodni tushunamiz, har bir san'at asari o'z janr xususiyatlariga ko'ra, hayot manzarasini ifodalaydi. Olam hodisalarini yorqin obraz orqali yoki tasvirini musiqa orqali ifodalashga erishadi. U (musiqa) insonning ma'naviy kamolotida faol ishtirok etadi, go'zallik, did haqidagi tasavvurlarining shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Necha ming yillardan beri insoniyat musiqaga, uning go'zal ohanglariga maftun bo'lib keladi, ustoz-shogird an'analari orqali ijrochilik mahoratlarini egallash borasida izlanishlar olib boradi. Bunda musiqiy meros asarlarining uslublarni ma'naviy tarbiya vositasi sifatida o'rgatish katta ahamiyat kasb etadi"<sup>5</sup>.

Akademik Yunus Rajabiyning ta'kidlashicha, "Nodira-begim", "Navoiy Astrobodda" musiqali dramalarining duet, ariyalarini milliy ohanglarsiz sahnalashtirib bo'lmaydi. Chunki milliy ohanglar va kuylar tomoshabinni teatrga yetaklaydi. Yu. Rajabiy musiqali drama teatri spektakllarida xor jamoalari, raqs ansambillari uchun "Fabrika yallasi", "Yor-yor", "Mirzacho'lda to'y", "O'zbekiston", "Qahramonlar haqida qo'shiq", "Bizning davron", "Xalqlar do'stligi", "Vatan haqida qo'shiq", "Bahor keldi", "Shodlik", "Dugonalarga", "Koshki", "Gulbargi", "G'alaba", "O'yin bayoti", "O'yin dugohi", "Paxta" singari raqs kuylarini, xor asarlarini, marsllarni yaratdi. Darhaqiqat, "chaqar mahallasidagi bog'bon Rajab ota hovlisida chaqaloq dunyoga keladi. Unga Yunus deb ism qo'yishadi. Rajab ota asli san'atni jon-dilidan xush ko'radigan kishi edi. U o'g'lini yoshligidan turli yig'inlarga, davralarga olib borar, jajji Yunus esa sozanda va xonandalar ijrosidagi diltortar kuy va qo'shiqlarni maroq

<sup>2</sup> Ishoq Rajabov. Maqomlar, Toshkent: "San'at" nashriyoti, 2006

<sup>3</sup> Qodirov N. Maqom cholg'u ijrochiligi (G'anijon Toshmatovning ijodi misolida). O'quv qo'llanma. – T.: "Musiqqa".2020

<sup>4</sup> Oqilxon Ibrohimov. Yunus Rajabiy haqida so'z, "Jahon adabiyoti" jurnali, 2017 yil, 1-son

<sup>5</sup> Toshmatov, Ergash. Dirijorlik: o'quv qo'llanma. / O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat instituti. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – B. 264.

bilan tinglab, o'rganishga harakat qilardi. Yunus Rajabiy dastlab akasi Rizqi Rajabiyga ergashib dutor sozida kuylar mashq qila boshlaydi. Keyinchalik esa andijonlik Mirzaqosim hofizdan Toshkent va Farg'ona vodiysida aytiladigan maqom parchalarini tinglab o'rganadi va dutor chalib ashula ayta boshlaydi. U sekin-asta Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Shorahim Shoumarov singari san'atkorlar nazariga tushadi. Ular ijro etgan maqom ashulalarini bor diqqat-e'tibori bilan o'rganishga bel bog'laydi. 1919-yilda u Toshkentda ochilgan xalq Konservatoriyasining milliy musiqi bo'limiga kirib o'qiydi va xalq musiqi merosi durdonalarini, ayniqsa, maqom yo'llarini sozanda va xonandalarga o'rgatishda ustozlar an'anasiga sodiq qoladi"<sup>6</sup>.

Xalqimizning musiqi boyliklari juda ham ko'p qirrali, sermazzun va rang-barangdir. Ohangdor ajoyib kuylarimiz kishiga quvonch, xursandlik bag'ishlaydi, og'ir damlarni yengil qiladi. U insonning olijanob fazilatlarini, his va tuyg'ularini ifodalab beruvchi kuchga ega. Musiqali drama teatri ko'p qirrali, sintetik san'at turi bo'lgani uchun ham badiiy xarakter va obraz yaratish jarayonida umumiy va mushtarak amal qilinadigan, qonuniyatlar bilan bir qatorda har bir davrga, dramaturgga, kompazitorga, rejissoraga, aktyorga, baletmesterga, rassomga xos bo'lgan xususiyatlar uyg'unlashib, yaxlit musiqali san'at asari dunyoga keladi.

Teatrshunos M.Hamidovning yozishicha: "Ozarbayjon musiqali teatri tajribasiga tayangan, O'zbekiston musiqali drama san'ati uchun maishiy yoki ertakona, afsonaviy, epik mavzuga murojaati, tipik holat bo'lib qoldi. Oddiy hayot ko'rinishlari, yorqin milliy liboslar, musiqi, raqs barchasi sahnaviy obrazlarga o'ziga xoslik bag'ishlagan". 1924-yilning 20-iyunida "O'lka" namuna teatri tomonidan "Kolizey" binosida ko'rsatilgan, Mannon Uyg'ur talqinidagi "Farhod va Shirin" (Xurshid) spektakli bunga yaxshi misol bo'lishi mumkin. U atqili sozanda va bastakor Shorahim Shoumarov (1876–1969-yil) tomonidan saralangan maqom kuylari bilan olib borilgan. Kolizey sahnasida o'ynalgani bois, spektaklni bezatish masalasiga alohida diqqat qilingan. Cho'lponning yozishicha, "Farhod va Shirin"ni sahnalashtirilishiga ikki rassom chaqirilib, dekoratsiyalar ishlatilgan sahna effektlari uchun nur apparatura sotib olingan. Asarni sahnaga qo'yishda Mannon Uyg'ur musiqali spektakllarni sahnalashtirishdagi tajribasini davom ettiradi. Spektaklda 50 dan ziyod Xitoy, Eron va Arman askarlari ishtirok etadi. Shirin O'rdasidagi ziyofat majlisida Arman raqsirlari ijro etiladi. Sahn bezaklari va kiyim kechaklarga alohida e'tibor berildi. Spektaklning afsonaviy, romantik ruhi talqin etilishida aktyorlik san'ati, maqom musiqasi, ariya va duetlar, umumiy raqs bilan bir qatorda dekoratsiya, liboslar alohida o'rin tutgan.

O'zbek musiqali dramasi o'z taraqqiyotida bir necha davrlarni bosib o'tdi. Dastavval, pyesaga mos musiqi materiali xalq ijodidan saralab olingan bo'lsa, 1930-yillarning boshida S.Abdullaning "Po'rtana", M.Muhammedov va K.Yashinning "Ichkarida" zamonaviy asarlari sahnalashtirilganida xalq musiqi merosi namunalarini qayta ishlashga urg'u berilgan. O'zbek bastakor va kompozitorlari musiqali drama musiqasining ifodaviy imkoniyatlarini kengaytirishdi. O'zbek musiqi merosini to'plashda akademik Yunus Rajabiyning xizmati nihoyatda katta. U 1935-yildan boshlab, kuy

va qo'shiqlarni, maqomlarni to'play boshladi. Shuning natijasida Y.Romanovskaya, I.Abramov 1939-yilda tuzgan "O'zbek xalq qo'shiqlari" to'plamidan Yunus Rajabiy tomonidan notaga solingan 29 ta ashula va qo'shiqlar o'rin olgan. "Yunus Rajabiy bir tinglagan musiqiy asarini hajmi katta yo kichik bo'lishidan qat'iy nazar, xotirasiga yozib olish va yoddan cholg'uda yoki ovozu bexato takrorlab berish salohiyatiga ega bo'lganki, bu hol musiqi tarixida kamdan-kam uchraydi"<sup>7</sup>.

Ijodkor umrini daryoga qiyoslashadi. Bu tushuncha falsafiy bo'lib, umrning tez o'tarliligini, uning har daqiqasidan unumli foydalanish zaruriyati nazarda tutiladi. El xizmatida kamarbasta iqtidor egalari, komil farzandlar o'stirib, munosib shogirtlar tarbiyalagan ustoz murabbiylarni xalqimiz orasida azm daryoga o'xshatishadi. Bu daryo o'zing tashqi sokinligiga qaramay, qudratli ichki kuchga ega. Shu bois uning qirg'oqlariga umid bilan kelgan har bir tashna qalb "Obi hayot"ga to'yib, san'at va hayot osmoniga parvoz qiladi.

O'zbek xalqi ulkan san'atkor Yunus Rajabiyning iste'dodli bastakor, mohir ijrochi, tashkilotchi, o'zbek musiqiy boyligining bilimdoni, murabbiy va musiqi jamoat arbobi sifatida taniydi. U 1955 – 1959-yilda I.Akbarov tahriri ostida 5 jildlik "O'zbek xalq musiqasi" to'plamini nashr ettirdi. Ularda turli janrlardagi mingga yaqin o'zbek, tojik, uyg'ur kuy va ashulalari, "Buhoro shashmaqomi", Toshkent Farg'ona maqom yo'llari, katta ashullalar, Hamza qo'shiqlari, o'nlab bastakorlarning qo'shiqlari kiritildi. Maqom ansambli bilan uzoq ishlashi natijasida 1966–1974-yillarda F.Karamatov tahririda "Shashmaqom"ning 6 jildlik yangi nashrini tayyorladi. Mazkur kitoblarda izoh sifatida 1976-yilda nashr etilgan "Musiqi merosimizga bir nazar" asari maqomchilarning ijro uslublarini o'rganishda muhim qo'llanma bo'ldi.

Akademik Yunus Rajabiy "Maqom" ansambli bilan ishlashi jarayonida Shashmaqomning 6 jildli yangi nashrini hamda 1970-yilda Toshkent grammyozuvlar studiasida gramplastinka yozuvlarini mukammal to'plamini tayyorladi. T.Sodiqov, D.Zokirov, D.Soatqulov, K.Mo'minov, O.Imomxo'jayev, B.Davidova, K.Ismoilova, O.Alimahsumov, T.Alimatov va boshqa ko'plab san'atkorlar akademik Yunus Rajabiyning shogirdlaridir. 1971-yilda O'zbekiston Davlat mukofoti laureati, 2000-yilda "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlangan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mamlakatimizda maqom san'atini o'rganish va rivojlantirish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston musiqi san'ati ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi yangi bosqichida milliy va jahon musiqi san'atining tajribaviy tendensiyalari asosida rivojlanib bormoqda. Bu borada keyingi yillarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining bir qator Qarorlari va Farmonlari dasturulamal bo'lmoqda. Ayniqsa, o'zbek "Shashmaqomi" nota matnlarining nashr etilishi va ularga muvofiq ravishda maqom kuy-qo'shiqlarining magnit lentalariga yozib olinishi ulkan ilmiy-madaniy ahamiyatga ega voqea bo'ldi. Musiqashunoslik fanimizning eng muhim vazifalaridan biri Shashmaqomni atroflicha o'rganib, uning badiiy-estetik qimmatini ochib berishdan va xalqimiz musiqi merosida maqomlarning tutgan mavqei har tomonlama ko'rsatishdan iborat. O'zbek davlat musiqali drama teatrining taraqqiyotida Yunus Rajabiyning qo'shgan hissasini o'rganish, bu borada erishgan yuksak natijalarini targ'ib qilish, kezi kelganida o'sha voqelikni sahnalashtirish va tomoshabinlarga taqdim qilish ham muhim vazifa hisoblanadi.

<sup>6</sup> Matluba Temur qizi. Musiqi ilmining xazinaboni, Jahon adabiyoti" jurnali, 2013 yil, 1-son

<sup>7</sup> Oqilxon Ibrohimov. Yunus Rajabiy haqida so'z, "Jahon adabiyoti" jurnali, 2017-yil, 1-son

## FORTEPIANO IJROCHILIGIDA TALABA DASTURINI TAKOMILLASHTIRISH XUSUSIDA

**Annotasiya.** Mazkur maqolada fortepiano ijrochiligi fanining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda talabaga ijro dasturini tanlash, dasturga kiritilgan asarlarning janrlariga oid tarixiy-nazariy ma’lumotlar berish masalariga doir taklif va mulohazalar ilgari suriladi. Shuningdek, talabalarga repertuar tanlashda o‘zbek kompozitorlarining milliy ruhdagi zamonaviy asarlarini kiritish bo‘yicha asarlar tavsiya qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** *Ijro dasturi, pyesa, sonata, etyud, polifoniya, ekspozitsiya.*

Нилуфар ХУДОЙКУЛОВА,

преподаватель ГИИКУз кафедры «Музыкально - теоретических дисциплин»

## ОБ УЛУЧШЕНИИ СТУДЕНЧЕСКОЙ ПРОГРАММЫ НА ЗАНЯТИЯХ ФОРТЕПИАНО

**Аннотация.** В данной статье представлены необходимые предложения и комментарии по созданию программы исполнения с учетом специфики фортепианной науки. В статье также дается краткое описание жанров фортепианных произведений. Автор рекомендовал современные произведения узбекских композиторов в национальном духе в выборе репертуара для студентов.

**Ключевые слова:** *Репертуар, пьеса, соната, этюд, полифония, экспозиция.*

Nilufar KHUDOYKULOVA,

lecturer of the State Institute of Culture and Arts of the chair “Musical - theoretical disciplines”

## THE IMPORTANCE OF FORMING A REPERTOIRE ON THE SUBJECT OF PIANO

**Absrtact.** This article presents the necessary suggestions and comments on the creation of a performance program, taking into account the specifics of piano science. The article also provides a brief description of the genres of piano works. The author recommended contemporary works of Uzbek composers in the national spirit.

**Key words:** *Repertoire, piece, sonata, etude, polyphony, exposition.*

Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va barcha sohalarida yuz berayotgan tub o‘zgarishlar xalq farovonligiga o‘zining beqiyos ta‘sirini o‘tkazmoqda. Xususan, milliy qadriyatlarimizni e‘zozlash, ezgulikka yo‘g‘rilgan an‘analar, urf-odatlarimizni qayta tiklash, ularni rivojlantirish, jahondagi ijobiy tajriba va tendensiyalar, yutuq va natijalarni har tomonlama chuqur o‘rganish asosida madaniyat va san‘at muassasalari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish, ularda faoliyat yuritayotgan kadrlar salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan ko‘plab xayrli ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz ta‘kidlaganidek: “Yoshlar huquqi deganda, biz, birinchi navbatda, ularning tinch va sog‘lom yashash hamda ta‘lim olishga bo‘lgan to‘laqonli huquqini tushunamiz. Shu bois, unib-o‘tib kelayotgan yosh avlodimizning barkamol bo‘lib voyaga yetishi, sifatli va mukammal ta‘lim olishini ta‘minlash biz uchun hamisha ustuvor vazifa hisoblanadi”<sup>1</sup>.

Shu o‘rinda aytish lozimki, O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutida intellektual salohiyatli, mustaqil fikrlovchi, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash maqsadida ta‘lim-tarbiya jarayoni samaradorligi borasida katta izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, vokal va cholg‘u ijrochiligi ta‘lim yo‘nalishida tahsil olayotgan yosh iste’dodlarni kasbga tayyorlash jarayonida ularning

fortepiano cholg‘usida ijro malakalarini yanada oshirish, umumkasbiy qobiliyatlarini tizimli shakllantirib borish o‘ziga xos muhim vazifalardan biriga aylangani mubolag‘a emas.

Ma‘lumki, talabalarining musiqiy tafakkurini faollashtirishda, ularning kelajakda malakali musiqachi ijrochi bo‘lib yetilishida fortepiano cholg‘usining o‘rni beqiyosdir. Shu bilan birga, musiqiy ta‘lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar o‘quv rejasiga muvofiq o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan Musiqa nazariyasi, Solfedjio, Garmoniya, Musiqa asarlari tahlili, Musiqa tarixi va Maqom asoslari kabi fanlarni o‘zlashtirishmoqda. Bu kabi fanlar esa o‘z navbatida Forteplano fani bilan ham bevosita chambarchas bog‘liqdir. Mazkur uzviylikni samarali olib borishda “forteplano” fani mashg‘ulotlarida eng avvalo, talabani haqiqiy musiqachi, sozanda sifatida tarbiyalash, uni har tomonlama rivojlantirish va dunyoqarashini kengaytirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish, har bir talabaning fan bo‘yicha ijro dasturini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, yetuk musiqachi-cholg‘uchini tarbiyalash ishida ijro dasturida o‘rin olgan har bir musiqiy asar cholg‘uchining qobiliyati, musiqiy-badiiy didi va yuksak aql-idrokini belgilovchi o‘ziga xos vositadir. Shu bois ham musiqa ta‘limida ijro dasturini belgilab olish har bir talabaga individual yondashgan holda amalga oshiriladi.

Ta‘kidlash joizki, talaba ijro dasturini shakllantirishda G‘arbiy Yevropa va rus kompozitorlarining asarlari bilan bir qatorda, talabani milliy qadriyatlar kesimida

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “1-oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi //Xalq so‘zi. – 2020. 30-sentabr.

faollashuvini ta'minlashga xizmat qiladigan o'zbek kompozitorlarining fortepiano uchun yaratgan asarlarini ham kiritish maqsadga muvofiqdir. Aynan milliy ohanglarga yo'g'rilgan asarlar bilan talabaniing ijro dasturini boyitish, o'zbek kompozitorlariga mansub asarlar bilan muntazam tanishtirib borish orqali milliy musiqamizni targ'ib qilish va talabaniing unga bo'lgan qiziqishini yanada o'rttirish bugungi kun musiqi ta'limi sohasi, xususan, zamonaviy pedagogning asosiy vazifalaridan biri desak, xato bo'lmaydi.

Shuni ham aytish lozimki, so'nggi yillardagi zamonaviy pedagogikada talabalar ijro dasturini shakllantirishda ko'proq erkinlik berish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Fortepiano cholg'u sozini o'zlashtirish bo'yicha fan dasturlarida belgilangan pedagogik maqsad va vazifalarga muvofiq, bir semestr davomida talabalarga berilgan ijro dasturining mazmunida belgilangan turli davr va uslublarga mansub musiqiy asarlar bilan keng tanishtirishga qaratiladi. Bu kabi masalalarning natijadorligiga erishishda esa har bir talabaniing individual xususiyatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Demak, ijro dasturini shakllantirishda nafaqat talabaniing ijro imkoniyatlari va musiqiy ko'nikmalari, balki, uning o'zlashtirish qobiliyati, psixo-emotsional holati, ma'naviy fazilatlarini, xarakter xususiyatlari, ijrochilik qobiliyatidan kelib chiqqan holda malakalarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladigan etyud, pyesa, polifonik va yirik turkumli asarlarni tanlab o'rganiladi. Shuningdek, ta'lim samaradorligini yanada oshirish uchun ijro dasturidan o'rin olgan asarlar haqida talabalarga ustoz tomonidan beriladigan informativ ma'lumotlar ham muhim jihatlardandir. Bunda har bir musiqiy asarga oid tarixiy va uslubiy ma'lumotlar talabaniing bilim doirasini kengaytiribgina qolmay, uning asar ijrosidagi sifatiga ham ta'siri katta. Masalan, talaba dasturga kiritilgan p'yesa kompozitorining ichki kechinmalarini ifodalovchi, kichik hajmdagi tugallangan lirik yoki mohirona, virtuoz xarakterda yaratilgan cholg'u asar ekanligi, uning barkarola, pastoral, kaprichchio, noktyurn, prelyudiya, ballada kabi janrlarining asar xarakteri, ijro uslubi, ritmik shakl va hissiy tarkibi jihatidan bir-biridan farqlanishini bilishi muhim. Shuningdek, ustoz tomonidan talabaga tanlanayotgan har bir asarning mazmun mohiyatini anglatib borishi, jumladan, pyesalar kompozitorning muayyan bir badiiy, falsafiy, mafkuraviy g'oyasiga tayangan holda yaratilib, estetik ahamiyatga ega bo'libgina qolmay, tarbiyaviy-ahloqiy ahamiyatga ega ekanligini talabaga singdirib borish zarur.

Bundan tashqari, talaba fortepiano cholg'u ijrochiligi jarayonida texnik ijro mahoratini shakllanishi va rivojida etyud janriga mansub pyesalarning o'rni haqida ham

ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Bu kabi ma'lumotlar qatorida etyud janrida yaratilgan asarlarning ijrochi barmoqlar, bilaklar, kaft va qo'llarning harakatlar "tarbiyasi"ga xizmat qiladigan mayda (yonmayon masofada, ketma-ketlikda joylashgan tovushlar, gammasimon passajlar, punktir ritm) va yirik texnik uslubda yaratilgan (keng joylashgan interval, akkord, arpedjio, qo'sh notali va b.) turlariga oid ma'lumotlarni talabaga qisqa tushuntirish ishlarini olib borish muhim. Etyud ustida ishlash jarayoni mashaqqatli bo'lib, uning jumllarini qayta-qayta to'xtovsiz ravishda takrorlab ishlash bilan texnik mahoratga erishish mumkinligini<sup>2</sup> talaba tushunib etishi kerak. Mashg'ulotlar jarayonida talaba mazkur etyud janrini faqat ma'lum mashqlar majmuasi emasligini, balki uning konsertlarda ijro etiladigan badiiy yuksak asarlar kabi turi ham mavjudligi haqidagi ma'lumotlarni bilib boradi. Shuningdek, etyud janrining shakllanishi va rivojiga salmoqli hissa qo'shgan kompozitorlar R.Shuman ("Simfonik etyudlar" op.13), Ferens List ("Paganini kaprislariga etyudlar", "Konsert etyudlari", "Yuqori mahorat etyudlari"), K.Debyussi ("12 ta etyud" 1915), K.Sen-Sans ("6 ta etyudlar", op.52), S.Raxmaninov ("Etyud-kartinalar" op.33), I.Kramer ("Katta amaliy fortepiano maktabi" ("Grosse praktische Pianoforteschool", 1815), M.Klementi ("Parnas sari yo'l" ("Gradus ad Paenassum", 1817-26), Karl Cherni ("Ravonlik maktabi" ("Schule der Gelaufigkeit", op 299, "Chaqqon barmoqlar san'ati" ("Schule der Fingerfertigkeit", op 740), Frederik Shopen (C-dur, F- dur. op. 10) kabi Evropa kompozitorlari qatorida o'zbek kompozitorlaridan Georg Mushel (B-dur Etyudi), Muhammadjon Otajonov ("Orol", "Voyaj", "Illyuziya" etyudlari), Akmal Safarov ("Etyud-kartina" fis-moll) singari nodir iste'dod sohiblari ijodlari bilan yaqindan tanishib borishi natijasida talabaniing bu janrga bo'lgan ishtiyoqini yanada oshirib, fortepiano ijrochiligida yaxshi natijalarga erishishga ko'mak beradi.

Talaba ijro dasturida polifoniya uslubida yaratilgan janrlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'p ovozli kompozitsiyalarni o'zlashtirish garmonik eshitish qobiliyatini rivojlantirishga ijobiy ta'sirini inobatga olgan holda vokal va cholg'u ta'lim yo'nalishi talabalarining o'quv dasturlariga polifoniya uslubida yaratilgan asarlarni ijro dasturiga kiritish belgilangan.

Kontrapunkt<sup>3</sup> uslubda yaratilgan asarlarda har bir ovoz kadanslarining<sup>4</sup> bir biriga to'g'ri kelmasligi natijasida tugallanmagan jumllarni hosil bo'lishi shu uslubning o'ziga xos xususiyatidir. Albatta, bir vaqtning o'zida ikki va undan ortiq melodik yo'llarning ohangdor eshitalishiga asoslangan ko'p ovozli polifonik asarni o'zlashtirish talabalar uchun bir muncha mushkul kechadi. Talaba polifoniyaning tarixiy negizi, ya'ni uning ilk ko'rinishi IX-X asrlardada organum, diafoniya atamalarini bilan ma'lum bo'lganligi va keyinchalik "erkin uslub"da A.Vivaldi (1678-1741), G.F.Gendel (1685-1759) I.S.Bax (1685-1750) kabi kompozitorlarning ijodida mukammallik cho'qqisiga yetganligi bilan tanishib chiqib, shu uslubda yaratiladigan invensiya, prelyudiya, fuga, kansona, motet, madrigal kabi janrlarda yaratilgan asarlarning jonli ijrosini, shuningdek, mp3 yozuvidagi namunalarni tinglab o'zlashtirsa, nafaqat mazkur uslubdagi asar ijrosida, balki sohaga oid boshqa fanlarni o'zlashtirishda ham ijobiy ta'sir

<sup>2</sup> Алексеев А.Д. Методика обучения игре на фортепиано. – Москва: Музыка.-1978. –Б. 210.

<sup>3</sup> Kontrapunkt (lotincha – contra punctum – nuqtaga qarshi nuqta) bir nechta mustaqil milodik yo'llarga ega bo'lgan tovushlarning o'zaro birikkanligi. Келдыш Г.В. Музыкально энциклопедический словарь. М., "Советская энциклопедия" 1990. – В 268.

<sup>4</sup> Kadensiya (italyancha – cadenza, lotincha – cadere – yig'ilaman, tugallanaman) – tartibli holatda eshitalayotgan musiqaning tugallanganligi. Akbarov I. Musiqi lug'ati T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti 1987. – B 136

ko'rsatadi. Chunki, yuqorida ta'kidlaganimizdek, ko'p ovoqli asarlarning kuy yo'llarini gorizont va vertikal o'zlashtirish bilan gamofon-garmonik eshitish qobiliyatini rivojlantirishga erishiladi<sup>5</sup>.

Talabalarning ijro dasturida o'rin olgan yana bir ahamiyatli asarlar majmui bu murakkab shakldagi asarlardir. Ma'lumki, bu turdagi asarlar talabani ijro mahorati, kreativ (ijodkorlik) salohiyatini shakllantiradi. Dasturda o'rin olgan murakkab shakl asarlari orqali o'qituvchi-pedagog talaba ijrosida aniqlik, ritmik barqarorlik kabi xususiyatlarni tarbiyalaydi. Talaba musiqa asarlari tahlili fanida egallagan bilimlari orqali asarning kompozitsion shakl tuzilishini tahlil qilib ijroda ijro natijadorlikka erishadi. Murakkab shaklli asarlar majmuasiga mansub variatsiya, rondo, syuita, sonata va cholg'u konsert kabi asarlarni o'zlashtirish ijodiy tafakkurni shakllantirish bilan birga talabani iqtidorini yanada o'stirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, sonataning klassik shakli hosil bo'lishiga salmoqli hissa qo'shgan Vena klassik kompozitorlari, xususan, Yozef Gaydn, Volfgang Amadey Mosart, Lyudvig Van Betxoven kabi kompozitorlar ijodi haqidagi ma'lumotlarni o'rganish esa o'z navbatida klassik uslub janrlarini to'laqonli anglab idrok etishda juda muhimdir<sup>6</sup>.

Ma'lumki, baholash mezoniga asosan kafedra professor-o'qituvchilari tarkibidan tuzilgan maxsus komissiya tomonidan belgilangan vaqtda fortepiano fani bo'yicha oraliq, yakuniy nazoratlar olib boriladi. Bunda talabani ijro dasturiga kiritilgan har bir asarning tarixiy, uslubiy, shakliy jihatlari haqidagi bilimi kollokvium savollari orqali aniqlanadi. O'qituvchi-pedagog tomonidan muntazam fanlararo aloqa shaklida olib borilgan qisqa ma'lumotlarni shogirdga berib borish tizimi oraliq va yakuniy nazoratlarda albatta o'z foydasini beradi.

O'zbek professional kompozitorlik san'atida yorqin ijodlari bilan milliy fortepiano ijrochilik san'ati ananalarini yaratgan buyuk o'zbek kompozitorlari G.Mushel, E.Qalandarov, I.Hamroyev, R.Vildanov, N.Zokirov, R.Abdullayev, A.Nabiyev, D.Sayidaminova, M.Otajonov, N.G'iyosov, E.Salixov, O.Abdullayeva kabi ustoz ijodkorlar qatorida F.Nazarov, A.Safarov, A.Abdusattorov, M.Muxtorov, J.Charshemov, Sh.Sobirov, R.Abatbayeva, A.Otegenov kabi yosh kompozitorlar yuqorida so'z yuritilgan barcha janrlarda milliy, o'ziga xos betakror asarlarni yaratish borasida samarali ijod qilmoqdalar. Yosh kompozitorlarimiz ijod namunalari o'rganishda zamonaviy kompozitorlik ijodiyotidagi o'ziga xos jihatlarni, xususan, yangi ohanglar tizimi va shakl-

shamoyillarni, ularni klassik an'nanalar asosida ijod etilgan asarlar bilan qiyosiy tahlil etish imkonini beradi.

Bundan tashqari, o'qituvchi-pedagog tomonidan tizimli, puxta ishlab chiqilgan talaba ijro dasturiga zamonaviy milliy uslubdagi asarlarni ham kiritish uning fanga bo'lgan qiziqishini yanada orttiradi. Masalan, M.Otajonovning "Qoradali" (Xorazm xalq kuyi), "Karvon" (forteplano uchun jaz-kompozitsiya), H.Rahimovning "Bayram", "Shum bola", "Bahor kayfiyati", R.Abdullayevning "Freskalar", A. Otegenovning "Yo'l", "Xojeli akshami", "Tushimda uyga y o'l", "Qara jo'rg'a" "Oroldan umid", J.Charshemovning "Dutor sozi", "Shabiz", A.Safarovning "Oq saroy", A.Abdusattorovning "Ko'chalar" forteplano uchun variatsiya va boshqalar shunday asarlar sirasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" to'g'risidagi PF-5847-sonli Farmoniga ko'ra "Respublikamizdagi oliy ta'lim muassalari faoliyatini isloh qilish, zamonaviy bilimni, yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalari asosida respublika ijtimoiy sohalari va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida"<sup>7</sup> barcha oliy ta'lim muassalari bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazilmoqda.

Ma'lumki, joriy etilgan yangi ta'lim tizimiga ko'ra, talabani umumiy o'qish yuklamasidan 60 foiz mustaqil ta'limga yo'naltirilgan. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda, to'g'ri tanlangan repertuar talabani musiqiy tafakkurini rivojlantirib, mashg'ulotlarni mustaqil o'zlashtirishga va ijodiy izlanishga undaydi. Demak, talabalar ijro dasturini shakllantirishda pedagog jiddiy yondoshuv orqali asarlarni har bir shogirdga oldindan loyiha sifatida tayyorlab olishi zarur. Bunda ma'lum bilim va malakaga ega bo'lgan talabaga beriladigan ijro dasturi uning iqtidorini, kompetent darajasini yanada o'stirib olishga imkon beradigan maqsadga xizmat qilishi lozim. Buning uchun fan bo'yicha qo'yilgan talablar ketma-ketligini to'g'ri taqsimlash, bosqichma-bosqich tamoyil ustivor bo'lishi kerak<sup>8</sup>.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, talaba ijro dasturini shakllantirishda soddadan murakkablikka o'tish tamoyilni to'g'ri rejalashtirish o'qituvchi-pedagogning zimmasidagi asosiy va muhim masaladir. Zero, har bir pedagog o'z vazifalariga ma'suliyat bilan yondoshsa, talabani mustaqil fikrlovchi, bilimni, salohiyatli, malakali kadr tayyorlashda o'z vazifasini sharaf ila bajargan bo'ladi.

<sup>5</sup> Reves I.G., Kapkayeva E.R Cholg'u ijrochiligi. – Toshkent: Musiqa, 2011. – B.7.

<sup>6</sup> Брянцева В. Музыкальная литература зарубежных стран. – Москва: Музыка, 2007. – В 21,22.

<sup>7</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz)

<sup>8</sup> Милич Б.Е. Воспитание ученика – пианиста. – Москва: Кифара, 2008. – С.74.

## SAVTI KALON SHO‘BASI XUSUSIDA

**Annotastiya.** Mazkur maqola Rost maqomi ikkinchi guruh sho‘balariga mansub Savti Kalon hamda uning Savti Kalon Talqinchasi, Savti Kalon Qashqarchasi, Savti Kalon Soqiynomasi, Savti Kalon Ufari nomli shoxobchalari xususida bo‘lib, unda mazkur turkumning tuzilishi, parda asosi, shakliy qismlari hamda kuy-ohanglari haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** savt, talqincha, qashqarcha, soqiynoma, ufar, qalandar, dunasr, avj, furovard, kalon.

Зохиджон ЯКУБОВ,  
Базовый докторант ИИАНРУЗ

## О ШУЪБЕ САВТИ КАЛОН

**Аннотация.** В статье исследуются внутреннее строение, ладово-мелодическая основа и циклические составляющие шубе Савти Калон и его ответвлений – Савти Калон Талкинчиси, Савти Калон Кашкарчиси, Савти Калон Сокийномаси, Савти Калон Уфари, относящихся ко второй вокальной группе Маком Рост.

**Ключевые слова:** савт, талкинча, кашкарча, сокийнома, уфар, каландар, дунаср, аудж, фурофард, калон.

Zohidjon YAKUBOV,  
doctoral student (PhD) of institute of art studies

## ABOUT SHUBE OF SAVTI KALON

**Annotation.** The article examines the internal structure, the melodic basis and the cyclical components of the Savti Kalon fur coat and its branches - Savti Kalon Talkinchasi, Savti Kalon Kashkarchasi, Savti Kalon Sokiynomasi, Savti Kalon Ufari, belonging to the second vocal group Makom Rost.

**Key words:** savt, talkincha, kashkarcha, sokiynoma, ufar, qalandar, dunasr, audj, furovard, kalon.

Buxoro Shashmaqomining aytim bo‘limidagi ikkinchi guruh sho‘balari musiqashunoslikda nisbatan kam tadqiq qilingan. Shu tufayli bo‘lsa kerak, mazkur sho‘balarning yaratilish tarixi va manbalari haqida turlicha qarashlar mavjud. Lekin shunisi aniqki, 18 asrda Shashmaqomning uzil-kesil qaror topishi jarayonida uning tarhida hali Savt va Mo‘g‘ulcha kabi sho‘balar bo‘lmagan<sup>1</sup>, balki bu turdagi aytilar keyingi davrlar mobaynida shakllantirilgan ikkinchi guruh sho‘balari tarkibidan o‘rin olgan.

Akademik Yunus Rajabiyning “Shashmaqom” nota to‘plamlariga muvofiq holda shuni aytish mumkinki, Savt sho‘balari bugungi kunga qadar quyidagi maqomlarda uchraydi: Buzruk maqomida – Savti Sarvinov; Rost maqomida – Savti Ushshoq, Savti Sabo, Savti Kalon; Navo maqomida – Savti Navo; Dugoh maqomida – Savti Chorgoh.

Bundan tashqari, alloma Abdurauf Fitratning “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” risolasida qayd qilinishicha, maqomdon ustoz Ota Jalol Segoh maqomi ikkinchi guruhiga mansub besh qisimli turkumni bastalagan va “Savti Jaloliy” deb nomlangan<sup>2</sup>.

“Savt” nomli maqom ashula namunalarini shakl jihatidan daromad, miyonxat, dunasr, avj va tushirim (furovard) kabi ichki tuzilmalardan iborat bo‘ladi<sup>3</sup>. Bularning muayyan

namoyon bo‘lish holatlarini Rost maqomi tarkibidagi Savt Kalon sho‘basi misolida ko‘rib chiqamiz<sup>4</sup>.

Mazkur sho‘ba Yunus Rajabiyning 1959-yilda nashr etilgan “O‘zbek xalq muzikasi” (V t., Buxoro maqomlari) hamda 1966-1975-yillarda chop etilgan olti jildlik “Shashmaqom” nota to‘plamlarida Rost maqomi turkumida keladi. Tojikistonda nashr etilgan “Shashmaqom” nota yozuvlarida (1959) esa Dugoh maqomi tarkibida keladi.

Savti Kalonning Tojikiston variantida Dugoh maqomi tarkibida kelishiga sabab, nazarimizda, asosiy tayanch ko‘rinishdagi “d” pardasi bosh omil bo‘lgan. Chunki Dugoh maqomi ham aynan ana shu pardadan boshlanadi. Biroq Dugohda “fis” bo‘lgani sababli ularning kalit belgilari o‘zaro farqlanadi. Tovushqator nuqtayi nazaridan olib qaralganda, Yunus Rajabiy varianti (ya‘ni Savti Kalonni Rost maqomi tarkibiga kiritgani) to‘g‘riroq ko‘rinadi. Shunga ko‘ra, Rost maqomidagi Savti Kalonning tovushqatori quyidagicha ko‘rinishga ega:



Bunda oltinchi bosqichning ikki xil balandlik bilan belgilanishi Yunus Rajabiy tomonidan quyidagicha izohlanadi: “Biz mulohaza yuritayotgan kitobning (ya‘ni “O‘zbek xalq muzikasi” to‘plamining beshinchi jildi, Buxoro maqomlari – Z.Ya.) 289-305-betlarida yozilgan “Savti Kalon” va uning Talqinchasi, Qashqarchasi, Soqiynomasi hamda Ufarlarida (bularning hammasi M.Mullaqandov ijrosida notaga olingan edi) miyonxatning birinchi aytilishida “si-bemol” bo‘lib, ikkinchi gal qaytarilganida bu belgi bekor qilinishi kerak”<sup>5</sup>.

Savti Kalon sho‘basi Uvaysiyning “Hazaji musammani solim” vaznidagi “Xirom aylar...” jumlasini bilan boshlanuvchi g‘azali bilan uyg‘un holda olti xatni tashkil etadi. Bunda birinchi xat quyidagi jumlar bilan boshlanadi:

<sup>1</sup> Rajabov I. Maqomlar (nashrga tayyorlovchi va maxsus muharrir Oqilxon Ibrohimov). – T.: “SAN‘AT” nashriyoti, 2006. – B 182.

<sup>2</sup> Fitrat A. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. T., “Fan” nashriyoti, 1993. – B 24.

<sup>3</sup> Ibrohimov O. Maqom asoslari. Oliy ta‘lim muassasalari uchun o‘quv qo‘llanma. T.: “TURON-IQBOL”, 2018. – B 82.

<sup>4</sup> Fors tilida “katta” so‘zini anglatuvchi “kalon” atamasi bu o‘rinda shu asarni ijod etgan bastakor taxallusiga nisbat berilgan. Bu haqda qarang: Rajabov I. Maqom asoslari (mas‘ul muharrir Ravshan Yunusov). – T.: 1992. – B 58.

<sup>5</sup> Rajabiy Y. Muzika merosimizga bir nazar. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. T.: 1978. – B 95.

*Xirom aylar guliston ichra u mastona-mastona,  
Tabassumdin namoyon aylabon durdona-durdona.*

Savti Kalon an’anaviy tarzda cholg‘u muqaddimasi bilan boshlanadi. Daromad sakkiz taktdan iborat bo‘lib, to‘rt taktili teng ikki nimxatga bo‘linadi. Asosiy tayanch – “d”. Birinchi nimxatning kuy tuzilmasi seksta intervali oralig‘ida rivojlangan bo‘lib, yuqoriga sekin-asta harakatlanadi va unda katta ohang sakramalari kuzatilmaydi:



Daromadning ikkinchi nimxati to‘rtinchi pog‘onaga tayangani holda kuy asosi yuqori tomon harakat qiladi va asosiy tayanchdan bir oktava yuqorida joylashgan nuqtaga erishadi. Kuyning keyingi davomiyligida pog‘onama-pog‘ona harakatlar orqali yana asosiy tayanchga qaytiladi. Mana shu keltirilgan daromadning ikkinchi nimxati ashula davomida qismlarning yakuni sifatida takrorlanib turiladi.

Ashulaning miyonxati bo‘lgan ikkinchi va uchinchi xatlari davomida kuy tuzilmasi dastlab “f” balandligidan, keyin esa “d2” balandligidan beriladi. Ashulaning eng yuqori nuqtalari tarzida qo‘llangan to‘rtinchi va beshinchi xatlarda Zebo pari avji kelib, so‘ngra oltinchi xatda miyonxatning kuy tuzilmasiga asoslangan furovardga ulanib ketadi.

Savti Kalon sho‘basi turkum sifatida o‘zining Savti Kalon Talqinchasi, Savti Kalon Qashqarchasi, Savti Kalon Soqiynomasi hamda Savti Kalon Ufari nomli shoxobchalariga ega. Mazkur shoxobchalar ham asosiy ashula yo‘li kabi tuzilishga ega. Binobarin, bu barcha shoxobchalar uchun “d” pardasi asosiy tayanch vazifasida kelishi umumiydir.

Shoxobchalar daromad bilan boshlanadi va ikkinchi xatda asosiy tayanchga nisbatan tersiya yuqori (“f”)dan boshlanuvchi miyonxat qismiga ulanadi. Uchinchi xat daromaddan bir oktava yuqorida boshlangan dunasr bo‘lib, unda miyonxat kuy tuzilmasining tabiiy davomi kuzatiladi. To‘rtinchi va beshinchi xatlarda Zebo pari avjidan mohirona

foydalanilib, oltinchi xatda furovard qismi namoyon bo‘ladi.

Savti Kalon kuy asosi xalqchilligi jihatidan Qalandar-I-II ashulariga yaqinligini atoqli olim Ishaq Rajabov ta’kidlab o‘tgan edi<sup>6</sup>. Bu namunalarning kuy negizlarini qiyosiy ko‘rib chiqqan holda ustoz olimning fikri to‘g‘ri ekaniga iqrar bo‘lamiz. Zero, kuy tuzilmasi va lad asosi jihatidan Qalandar-II Savti Kalonga mos keladi. Qalandar-II Muqimiyning “Hazaji musammani solim” vaznidagi “bordur” radifli g‘azali bilan aytiladi. Qalandar-II ikki xatga teng kuy tuzilmasiga ega bo‘lib, band shakliga to‘g‘ri keladi. Talqincha doyra usuliga solingan ashulaning asosiy tayanch pardasi “d” bo‘lib, uning tovushqatorini quyidagicha belgilash mumkin:



Qalandar-II ashulasining dastlabki kuy tuzilmasi g‘azalning birinchi baytini o‘z ichiga olgan holda cholg‘u jumlarisiz o‘n olti taktdan tashkil topgan. Mazkur birinchi kuy jumlasini Savti Kalonning daromad kuy tuzilmasiga ko‘p jihatdan o‘xshashdir. Savti Kalon asosan tovushlarning pog‘onama-pog‘ona ravon harakatiga asoslangan bo‘lsa, Qalandar-II da bu harakatlar ayrim joylarda ohang sakrashlariga almashtirilgan:



Bunday misollar Shashmaqom ashula bo‘limi ikkinchi guruh sho‘balarining barcha turkumlarida uchraydi, zero, “Savt va Mo‘g‘ulcha kabi sho‘balar Shashmaqom ashula bo‘limining birinchi qismiga kirgan sho‘balar asosida yaratilgan”<sup>7</sup>.

Shu bilan birga, Savt nomli sho‘balarining Farg‘ona-Toshkent mahalliy musiqa uslubidagi ashula yo‘llari bilan qay darajada aloqadorligi masalasi ham borki, bunga oydinlik kiritish uchun Shashmaqom ikkinchi guruh sho‘balariga mansub barcha turkumli namunalarni qiyosiy asosda tizimli o‘rganish talab etiladi.

<sup>6</sup> Rajabov I. Maqom asoslari (mas‘ul muharrir Ravshan Yunusov). – T.: 1992. – B 58.

<sup>7</sup> Rajabov I. Maqomlar (nashrga tayyorlovchi va maxsus muharrir Oqilxon Ibrohimov). – T.: “SAN‘AT” nashriyoti, 2006. – B 242.

## O'ZBEK MUSIQIY CHOLG'ULARINING TARIXIY TARAQQIYOTI MILLIY ANANAVIYLIKNING NEGIZI MISOLIDA

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek milliy madaniyatini negizidagi musiqiy cholg'ularning tarixiy taraqqiyoti va tarixiy davrida qad rostlagan ijrochilik san'ati sohasida yuzaga kelgan xilma-xil uslub va turfa yo'nalishlar, ohanglar tizimidagi qiziqarli jarayonlar, buyuk mutafakkir shoir, alloma va olimlarimizning asarlarida musiqiy cholg'ular ijrochiligi va taraqqiyoti haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, maqolada cholg'ushunoslik ijodiy izlanishlari natijasida cholg'u musiqasining yangi tamoyillari shakllangani ko'rib chiqilgan. Shu nuqtai nazardan, milliy musiqiy cholg'ularning an'anaviy ijrochiligiga turlicha ta'sir o'tkazayotgan rivojlanish taraqqiyotidagi o'zgarishlar ham o'z aksini topayotganligi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** milliy musiqiy cholg'ular, badiiy musiqiy risolalar, ilmiy izlanishlar, an'anaviy ijrochilik, talqin, cholg'ushunoslik, taraqqiyot.

Достонбек АБДУЛЛАЕВ,

преподаватель кафедры инструментального исполнительства и вокального искусства Каршинского государственного университета

## ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ УЗБЕКСКИХ МУЗЫКАЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ КАК ОСНОВА НАЦИОНАЛЬНОЙ ТРАДИЦИИ

**Аннотация:** В статье рассматривается историческое развитие музыкальных инструментов на основе узбекской национальной культуры и различных стилей и направлений в сфере исполнительского искусства, интересные процессы в системе мелодий, исполнение и развитие музыкальных инструментов в произведениях великих мыслителей, поэтов, и ученых. В статье также обсуждается формирование новых принципов инструментальной музыки в результате творческих исследований. В этом контексте анализируются также изменения в развитии, которые по-разному влияют на традиционное исполнение национальных музыкальных инструментов.

**Ключевые слова:** национальные музыкальные инструменты, брошюры о музыке, научное исследование, традиционное исполнение, интерпретация, инструментализм, разработка.

Dostonbek ABDULLAYEV,

Lecturer, Department of Instrumental Performance and Vocal Arts, Karshi State University

## THE HISTORICAL DEVELOPMENT OF UZBEK MUSICAL INSTRUMENTS IS AN EXAMPLE OF THE BASIS OF NATIONAL TRADITIONAL

**Annotation:** This article deals with the historical development of musical instruments based on the Uzbek national culture and various styles and trends in the field of performing arts, interesting processes in the system of melodies, performance and development of musical instruments in the works of great thinkers, poets and scientists, referred to. The article also discusses the formation of new principles of instrumental music as a result of creative research in instrumental studies. In this context, it is analyzed that changes in developmental development, which have different effects on the traditional performance of national musical instruments, are also reflected.

**Keywords:** national musical instruments, art music brochures, scientific research, traditional performance, interpretation, instrumentalism, development.

Tarixdan ma'lumki, o'zbek xalq cholg'ulari rang-barang tarzda, o'ziga xos shakllangan va musiqaning barcha tarmoqlariga mos cholg'u asboblari asrlar osha rivojlanib kelgan. O'tmish allomalari Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug' Tarxon (Al-Farobiy) (IX) o'zining "Katta musiqa kitobi"da, Safiuddin Urmaviy (XII) musiqiy risolasida, Abdulqodir Marog'iy (XIV) "Jami al-alhon fi-ilm al-musiqiy" risolasida, Ahmadiy (XIV) "Sozlar munozarasi" asarida, Zaynullobiddin Husayniy (XV) "Risola dar bayoni qonuni va amaliy musiqiy" risolasida, Abdurahmon Jomiy (XV) "Musiqiy risola"sida, Amuliy (XVI) "Musiqiy risola"sida, Darvesh Ali Changiy (XVII) "Musiqiy risola"larida musiqiy cholg'ularning o'rganib tadqiq etish masalalarining turli tomonlariga to'xtalib, o'z davrlarining musiqiy cholg'ulari tasnifotini bayon etganlar. O'tmishning zabardast shoiri o'z asarlarida musiqiy cholg'ular nomlarini zikr etishda sozlarga takror va takror murojaat etgan. Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy musiqiy ilmining eng nafosatli va mumtoz kerakli tarmoqlariga urg'u berganliklarini asarlaridan bilib olish mumkin. XX asrga kelib Abdurauf Fitrat, Viktor Belyayev kabi olimlar musiqiy cholg'ularni o'rganish xususida samarali harakatlarni amalga oshirganlar.

Tarixiy qo'lyozmalar, adabiy asarlar va musiqiy risolalarda O'rta Osiyo xalqlari san'atining ilk rivojida vujudga kelgan barcha cholg'ularning nomlari o'z ifodasini topgan. Musiqiy risolalarda esa cholg'ularga tegishli eng muhim ma'lumotlar keltirilgan.

Xususan, torli cholg'ulardan: borbad, ud, rud, qobuz, g'ijjak, navha, nuzxa, qonun, chang, rubob, tanbur, dutor; damli sozlardan: ruhafzo, shammoma, org'anun, sibizg'i, nayi anbon, chag'ona, bulamon, surnay, nay, qo'shnay, karnay; urma cholg'ulardan: daf, doyra, nog'ora, safoil kabi cholg'ular shular jumlasidandir.

Abu Nasr Al-Farobiy, Abdurahmon Jomiy, Amuliy, Darvesh Ali Changiy, Abdurauf Fitratlar o'z risolalarida cholg'u sozlari haqida va ularning amaliyotdagi tutgan o'rni, ayrim falsafiy xususiyatlari tasnifotini yoritganlar.

Davrlar o'tishi bilan jamiyat taraqqiyoti mezoniga cholg'u sozlar ham hamnafas tarzda rivojlanib, zamonaga mos takomillashib, mukammallashib borgan. Tarixiy manbalarda, Qulmuhammad Udiyning ud cholg'usiga to'rtinchi sim taqqanligi yoki g'ijjak cholg'usining avval ikki torli, keyin uchinchi va to'rtinchi torlari taqilganligi, kabi ma'lumotlar aynan cholg'ular takomillashishi bilan bog'liqdir. Takomillashish jarayonida cholg'ularning shakl va tarannum (ovoz) mezonlarini boyitishda katta ahamiyat kasb etgan. Bu ikki mezon cholg'ularning ma'nan va moddiy qiymatini ham belgilashga asos bo'lib xizmat qilgan.

XIX asr oxiri va XX asrning o'zida o'zbekona chang, qashqar ruboblari shakllanib iste'molga kirdi. Afg'on rubobi hamda kurd sozlari ham o'ziga xos jozibasi bilan amaliy jarayondan munosib o'rin oldi. Zamonaviy kompozitorlik ijodiyoti bilan bog'liq holda bir qator chang, rubob, dutor, g'ijjak kabi xalq cholg'ularining oilaviy namunalar yaratildi. Musiqiy cholg'ularning turli

yo'nalishlarga mos, xilma-xil tarkiblari yuzaga keldi. O'zbek an'anaviy cholg'ularining tarixiy shakllanishi ham bir qator xalq milliy an'analari negizida qaror topgan. Chunonchi, mumtoz ijodiyot cholg'ularning mukammallik xususiyatlarini namoyish etibgina qolmay, ularni rivojiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Cholg'ular va cholg'u musiqasi an'analari o'zining shakllanish davri, ya'ni qadim zamonlardan xalq musiqasi madaniyatining asosiy omillaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etgan.

Cholg'ushunoslik ilmi fanda "Organologiya" deb yuritiladi va cholg'u sozlarining shakllanishi, amaliyotda qo'llanilishi hamda rivojlanish mezonlarini ilmiy asoslab beradi. Ushbu fanni rivojida bir qator Sharq va G'arb olimlari qatorida o'zbek musiqashunos olimlari ham munosib tadqiqotlar olib borganlar. Qadimiy cholg'ular ko'proq tarixiy obidalar orqali kashf etilib, keyinchalik tarix, adabiyot va musiqiy risolalarda bayon etilgan.

Cholg'ularning ilk tasvirlari qadimgi odamlarning istiqomat joylari – g'orlarda, qoya toshlarda o'yib chizilgan imoratlarining peshtoqlari, saroylarning devoriy suratlari, sopol idishlarga chizilgan suratlarda va terrakota haykalchalarida o'z aksini topgan.

Markaziy Osiyo va O'zbekiston hududlarida Afrosiyob, Dalvarzintepa (Surxondaryo), Varaxsha (Buxoro), Ayritom, Zartepa, Qo'yqirilgan tepalar (Ko'hna Urganch), Panjikent kabi qadimiy joylar qazilmalaridan topilgan suratlarda arfa, ud, naysimon hamda urma cholg'ular aks ettirilgan.

Musiqiy cholg'ularning ta'rifi, shakl-tuzilishlari, tarkibiy jihatlari, nomlariga xos ijrochilari bilan bog'liq ma'lumotlar, asosan, O'rta asrlardan boshlab badiiy adabiyot asarlari hamda musiqiy risolalarida yoritilgan. Demak, O'rta asrlarga kelib qadimdan shakllanib takomillashib kelgan xalq musiqiy cholg'ulari ijrochilik amaliyotida o'z o'rnini topgan. Shu bilan birga nafaqat xalq balki olimlar e'tiborini qozongan. Bu jarayonni O.Matyoqubov "Maqomat" kitobida quyidagicha bayon etadi. "Cholg'ularga bunday atroflicha qiziqishlar zaminida musiqiy asboblari ijrochilik faoliyatining obyektiv aks ettirishdir, degan ilmiy tushuncha yotadi.

Abu Nasr Al-Farobiy ta'biri bilan aytganda, cholg'u asboblarning shakllanishi, avvalo, amaliyotda yuzaga keladi. Ularning tembr-akustik xususiyatlari parda va tovushqatorlari bevosita ijro jarayonida shakllanadi va takomillashadi. Shundan so'nggina cholg'ular olimlar kuzatuv va umumlashmalariga zamin bo'lishi mumkin"<sup>1</sup>.

Abu Nasr Al-Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abdulloh Al-Xorazmiy, Zaynullobiddin Husayniy, Safiuddin Urmaviy, Abdulkodir Marog'iylar o'z risolalarida cholg'ular va ularning bir qator sifat va xususiyatlari xususida mufassal bayon etganlar<sup>2</sup>. O'rta asr risolalarida cholg'ular takomillashishi hamda rivoji yo'lida qilingan o'zgarishlar, ijrochilik amaliyotida yaratilgan yangi sozlar va iste'moldan chiqqan cholg'ular tasnifotini ko'rish mumkin.

O'rta asrlarda musiqiy jarayonga ko'proq ahamiyat bergan adabiyot namoyandalari; Firdavsiy, Ro'dakiy, Hofiz, Sa'diy, Jomiy va Alisher Navoiylardir.

Jumladan: Firdavsiy "Shohnoma"da yozadi:

*"Yig'ildi akobir, cholg'uchi, raqqos,  
Podsho shodligidan sochar dur, olmos.  
Chiqar avjiga nay, childirma sasi,  
Chirillab aylanar qizlar galasi.  
Ulug'lar sha'niga qadah paydar-pay,  
Sahargacha tinmas tanbur, rubob, nay"*<sup>3</sup>.

Alisher Navoiy davriga kelib musiqiy cholg'ular va uning nafis ijrochiligi adabiy merosda mukammal ifodasini topa boshladi. Ayniqsa Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ijodiy

faoliyatlari buni yaqqol namoyon etdi. Alisher Navoiyning "Badoe' ul-vasat" asaridan g'azal:

*"Ey mug'anniy, chun nihon rozim bilursen-soz tuz,  
Tortibon munglig' navo sozing bila, ovoz tuz.  
Navha ohangi tuzub, og'oz qil mahzun surud,  
Ul surud ichra hazin ko'nglumga maxfiy roz tuz.  
Istasangkim, nag'mang ichra ko'p xaloyiq o'lmagay,  
Ul ikavdin ko'p vale mendin tarona oz tuz.  
Gar mening holim desang tuz barcha dostoni niyoz,  
Dilbarimdin nag'masoz etsang surudi noz tuz.  
Chun bu gulshanda nishiman qilg'ali qo'ymas hazon,  
Gul firoqi savtin, ey bulbul, qilib parvoz tuz.  
Bazm aro o'rtar Navoiyni nihon munglug' surud,  
Ey mug'anniy, chun nihon rozim bulursen-soz tuz"*<sup>4</sup>.

Ulug' mutafakkir shoir Alisher Navoiy, ushbu g'azalida musiqiy cholg'ular ijrosining sehriga ta'rif keltiradi. Zero, g'azalning o'zi ham bastakorlik amaliga xosdir. Bunday beqiyos ta'riflarni Alisher Navoiyning asarlarida ko'p uchratishimiz mumkin. Bu kabi ta'riflar, o'zbek milliy cholg'ulari ijrochiligi va unda yaratilgan asarlarning boy madaniy merosi qadimdan rivoj topib kelayotganidan dalolat beradi.

XV–XVI asrga kelib miniatura san'ati rivojlana boshlaydi. Firdavsiy, Nizomiy, Amir Xusrav Dehlaviy kabi shoirlarning asarlari chizilgan miniaturalarda o'z davrining mashhur cholg'ulari o'z aksini topgan.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, o'zbek an'anaviy cholg'ularini o'rganishga alohida ahamiyat berilgan. Markaziy Osiyo madaniyatiga qiziqish G'arb mamlakatlarida ortib borgan va uni o'rganish maqsadida mutaxassislar kela boshlagan. Marko, Polo, Vamberi, Ankomin, Leysek, Eyxgorn kabi sayohatchi etnograflar, tarixchilar, kopelmeysterlarining kundaliklarida zikr etilgan ma'lumotlar keyinchalik yirik-yirik maqolalar va kitob tarzida nashr yuzini ko'radi. Eyxgornning o'zi butun Markaziy Osiyo mamlakatlarini aylanib chiqib, olamshumul muvaffaqiyatga erisgan. Ilk bor cholg'ular kolleksiyasini yig'adi va bir qator shaharlarda namoyish etgan.

XX asrga kelib xalq ijrochilik amaliyotida ommalashgan cholg'ularni o'rganib, tadqiq etishga e'tibor kuchaygan. Buni Abdurauf Fitrat o'zining ijodida boshlab berib, qimmatli ma'lumotlarni bayon etgan. Shundan so'ng musiqashunos olimlar cholg'ushunoslik ilmini rivojida bir qator tadqiqotlar olib borgan. Shu jumladan, V.Belyayev, F.Karomatli, T.Vizgo, A.Malkeyevalar Markaziy Osiyo musiqasi cholg'ushunosligi sohasining rivojiga samarali hissa qo'shdilar.

XX asrning 30–40-yillariga kelib cholg'ularni takomillashtirish jarayonining yangi bosqichi boshlandi. Bu jarayon O'zbekistonda kompozitorlik ijodiyotining jahon andozalariga mos rivoji bilan bog'liq edi. Ijrochilik amaliyoti ham shunga moslashib, simfonik orkestr rsumi doirasida o'zbek xalq cholg'ulari orkestrini iste'molga kirib kelishi bilan xarakterlanadi. Orkestrning rang-barang ovozi tarannumini ta'minlash uchun rubobning – prima, alt, tenor; dutorning-prima, bas, kontrabas; g'ijjakning – alt, qo'biz bas, qo'biz kontrabas; changning-bas, tenor, alt namunalari yaratildi. Ushbu cholg'ular zamonaviy musiqasi ijrochilik jarayonida nafaqat orkestr, balki kamer va turli (duyet, trio, kvartet, kvintet,) cholg'ular tarkibidan tuzilgan garuhlarni tuzishga imkon yaratdi. Qolaversa, o'zbek musiqasi san'atining umumbashariyat andozalariga xos tarzda rivojlanishida hamda dunyoga chiqishiga katta yo'l ochib berdi. Xususan, bu borada o'zbek milliy cholg'ularimizdan biri Qashqar rubobi cholg'usi ijrochiligini keng targ'ib etishda Muhammadjon Mirzayevning xizmatlari kattadir. Shu bilan birga, o'zbek rubob ijrochiligi rivojiga o'z ijodlari bilan munosib hissa qo'shgan mohir san'atkorlar qatoridan Abbos Bahromov, Sulaymon Taxalov, Ari Boboxonov, Adham Xudoyqulov, Qobul Usmonov, Qobul Oripov, Toxir Rajabiy, Husan Nabiye, Shavkat Mirzayev, Rifatilla Qosimov, Shomahmud Shoraxmedov kabi mohir rubobchi sozandalar munosib o'rin olgan.

<sup>1</sup> Matyoqubov O. Maqomat. – Toshkent: Musiqi, 2004. – B. 272.

<sup>2</sup> Кароматли Ф. Узбекская инструментальная музыка. – Ташкент: Г.Гулям, 1972. – B. 103.

<sup>3</sup> Firdavsiy Shohnoma – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1984. – B. 260.

<sup>4</sup> Alisher Navoiy. Badoe' ul-vasat: mukammal asarlar to'plami. T. 5. – Toshkent: Fan, 1990. – S.160-161.

## AKTYOR IJODIDA XATTI-HARAKAT

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada aktyorlik mahoratining asosiy ifoda vositasi bo‘lgan xatti-harakat va uning aktyor ijodidagi o‘rni xususida fikr yuritilgan. Xatti-harakat aktyorning sahnadagi hayoti mobaynida eng muhim bo‘g‘inligi turli tahlillar va teatrshunoslar fikri va hayotiy tajribalarni sharhlash orqali olib boriladi. Xatti-harakat aktyorning o‘ziga xos quroli ekanligi haqidagi fikr ilgari suriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *xatti-harakat, obraz, rejissor, aktyor, spektakl, pantomima, drama, plastika, teatr, tomoshabin, tasavvur.*

Фаёза МАННОНОВА,  
Магистрант по специальности актерского искусства драматического театра и кино кафедры  
«Искусства драматического театра и кино ГИИКУЗ

## ПОВЕДЕНИЕ В АКТЕРСТВЕ

**Аннотация.** *Статья посвящена роли движения как основного средства выражения актерского мастерства. Движения-самая важная часть актерской жизни на сцене, которая осуществляется посредством различных анализов и интерпретаций опыта театральных критиков и артистов. Существует-представление о том, что действие-это оружие актера.*

**Ключевые слова:** *движения, образ, режиссер, актер, спектакль, пантомима, драма, пластика, театр, аудитория, воображение.*

Fayoza MANNONOVA,  
“Musical Drama. Master’s Degree at the chair of Theater and Cinematography UzSIAC

## BEHAVIOR MOVEMENT IN THE ACTOR'S WORT

**Annotation.** *This article is about behavior, which is the main means of expression of acting skills, and its role in the actor’s work. Behavior is the most important part of an actor’s life on stage, through various analyzes and interpretations of theatrical theories and life experiences. It is argued that behavior is an actor’s own weapon.*

**Keywords:** *action, image, director, actor, play, pantomime, drama, plastic, theater, audience, imagination.*

Tomoshabin Shekspirning “Richard III” asari asosida sahnalashtirilgan spektaklni tomosha qilmoqda. Endi, shu yerda tasavvur qiling: quloqlaringizni berkitib, dialog va monologlarni eshitmaysiz! Glosterni o‘ynayotgan aktyorni kuzating! Tabiiyki uning ovozi sizga eshitilmayapti. Lekin siz ko‘zlarinigiz orqali spektakl haqida axborot olyapsiz. Qahramonning cho‘loq, bukriligi aktyorning tashqi qiyofasida aks etmoqda. Uning salbiy xarakterga egaligi, yoshi, mansabi esa aktyorning plastik hamda pantomimik harakatlarida ifodalanganini ko‘rishingiz mumkin. Buni qarangi, sahnada ham asosiy “urg‘u” xatti-harakatga tushar ekan. Tadqiqotimizni sahnaviy “xatti-harakat” o‘zi nima ekanligini aniqlash bilan boshlasak.

“Inson tanasi – qo‘lqop, uning tafakkuri esa o‘sha qo‘lqopni harakatga keltiradigan barmoqlaridir! Xuddiki, haykaltarosh loyni har xil holatga solgani kabi, bizning tafakkurimiz ham shu tarzda badanimizni boshqaradi. Aql - kuchni ichkaridan yo‘naltiradi. O‘zgarish esa tashqarida sodir bo‘ladi”<sup>1</sup>.

Avvalambor, ifodaviy san’at turi (harakat san’ati) bu – teatrning asosiy elementi, unsuri hisoblanadi. Teatr san’atida xatti-harakat – aniq, ta’sirchan, maqsadli, jozibador va aytish mumkinki eng tushunarli til hisoblanadi. Chunki, tomoshabin spektakl yoki tomoshani ko‘rish jarayonida ko‘proq jo‘shqin va his tuyg‘uga to‘la harakatlarni ko‘radi. Ma’nodor harakatlar, tashqi ifodaviy vositalar tomoshabinni ko‘proq o‘ziga jalb qiladi. Shu bilan birga yengil va chiroyli xatti-harakatlar tomoshabinga hissiyotlarni bo‘lishish va o‘zini aktyor bilan his qilish imkoniyatini taqdim qiladi.

“Aktyorning sahnadagi ruhiy hayoti uning jismoniy hayoti bilan bog‘liqdir, ayniqsa, bu bizning san’at yo‘nalishimizda, deb ta’kidlaydi Stanislavskiy, – aktyor san’atning boshqa yo‘nalishlariga nisbatan kechinmalar jarayonida tashkil topgan ichki apparatlar to‘g‘risidagina g‘amxo‘rlik qilmasdan, tashqi, jismoniy apparat sezgi, ijodiy ishlarning natijalarini aniq yetkazib beruvchi – uning tashqi shaklini mujassamlashtirish to‘g‘risida ham fikr yuritish kerak”<sup>2</sup>.

Stanislavskiy o‘zining boy tajribalaridan kelib chiqib, jismoniy apparatning shakllanishida va teatr aktyorlarini tarbiyalashda o‘quv dasturida jismoniy tarbiya, badiiy gimnastika, akrobatika, qilichbozlik, raqs, plastika, pantomima va ritmika kabi fanlarni aktyorlik vazifalari nuqtai-nazaridan o‘tilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Mazkur fanlar teatr tizimida qo‘shimcha yoki mustaqil mashg‘ulot bo‘lmay, aktyorlik kasbining ajralmas qismidir.

Mixail Chexov “Aktyorning yo‘li” kitobida aktyor harakatiga quyidagicha ta’rif beradi:

“Shunday aktyorlar bo‘ladiki, o‘z rollarini chuqur tushunadilar, ammo sahnada tomoshabinga o‘z kechinmalarini to‘lig‘icha ko‘rsata olmay qiynaladilar. Ularning ichki hissiyotlari o‘z tanalarini noto‘g‘ri boshqarganliklari sabab ochilmay qoladi... Har qanday aktyor o‘z tanasi bilan qarama-qarshiliklarga duch keladi. Jismoniy harakatlar ustida ishlash kerak, lekin hozirgi odatiy teatr maktablaridagi mashqlar kabi emas... Ular tananing ruhiy kechinmalarini ko‘rsatishiga ba‘zan xalal beradi. Mashqlarning me‘yoridan oshib ketishi tanaga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, aktyorni ichki hissiyotlarni bera olmaydigan, qo‘pol ko‘rinishga kelishiga sabab bo‘ladi. Aktyor tanasi

<sup>1</sup> Eten Dekru. Word of mime. –New-York; 1962, – B. 30.

<sup>2</sup> Stanislavskiy K. Asarlar to‘plami. T. 2. – Moskva; 1954. – B. 374.

va ichki hissiyotlari o'zaro hamohanglikda, tengma-teng rivojlanishlari lozim"<sup>3</sup>.

Aktyordagi xatti-harakat qobiliyati u uchun qanchalik zarur bo'lsa, spektakl g'oyasini ochib berishda shunchalik muhim sanaladi. Teatrning – davrlar osha yashab kelayotganining uchta asosiy omili bor, ular dramaturgiya, aktyor va tomoshabin. Rejissorlik esa bu uchlikni bog'lovchi vazifasini bajaradi. Ushbu uchchala komponentlarning biri bo'lmasa, teatr faoliyati to'xtab qoladi. Dramaturg teatr asosi – pyesani yaratsa, aktyor uni sahnada talqin qiladi, dramaturg va rejissor g'oyasini tomoshabinga etkazadi. Dramaturg ham, rejissor ham o'ylagan maqsadini sahnada tomoshabinga quruq so'zlar bilan etkaza olmaydi. Bunga xatti-harakat, ifoda vositalari va asosiysi tom ma'nodagi aktyor kerak. Shunday ekan, bugungi kun aktyori juda ko'p xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Aktyorning ham jismonan, ham aqlan, ham ruhan kuchli bo'lishi davr talabiga aylangan. Demak, qunt bilan egallagan bilimlarini faoliyatida to'g'ri qo'llay bilishi, shuningdek, tana harakatini mohirona ishlatish qobiliyati aktyor uchun juda muhim xususiyatdir. Uning tanasi – sahnaviy harakatlarni nihoyatda noziklik bilan ijro etishi, muloyim egiluvchanligi, muskullar erkinligiga ega bo'lishi lozim. Spektakl davomida yurishi, yugurishi, sakrashi, balandlikdan o'tishi natijasida tanani tilga kiritishi, umuman gavdasini har maqomga solishi uning asosiy quroli hisoblanadi. Bu esa tinimsiz mehnat, jismoniy mashqlarda o'zini muntazam toblashni talab etadi.

Aktyorlik mahorati – ijrochi ichidagi his tuyg'ularni ko'rsatish evaziga boshlanar ekan, bunda yuz ifodasi, baqirish va yig'lash – harakatsiz o'z kuchini yo'qotadi, hech qanday ta'sirga ega bo'lmaydi.

Spektakllardagi xatti-harakat tahlillarini o'rganish jarayonlari Evropaning va Amerikaning avangard rejissorlari tomonidan asrning birinchi yarmida amalga oshirila boshlandi: Yevreinov, Tairov, Meyerxold, Vaxtangov, Kreyg, Shlemer, Kroyzberg, Mari Vigman, Marta Graham, Emil Buriyan, Artaid, keyinchalik esa Brext, Grotovskiy va Evgeniy Barbalar tomonidan ham ma'quullandi va rivojlantirildi. Xatti-harakatga asoslangan spektakllarga qo'l urish XIX asrdagi urfga aylangan romantik va naturalistik teatrga va undagi nutq (ifodaviy deklomasiya) ustunligiga qarshi reaksiya bo'lganmidi, yoki "vizual sivilizasiya" ning birinchi belgisi sifatida kino va fotografiya ixtirosiga javobmidi, yoki an'anaviy va maishiy mavzudagi spektakllardan ozod bo'lish, yoki bo'lmasam tanani erkinlashtirish natijasimi?

Ba'zan spektaklda shunday sahnalar bo'ladi, ularda so'z ishlatib bo'lmaydi. Aniqrog'i, aktyordan gaplarini so'zsiz tushuntirish talab etiladi. Gollivud kinofilm ijodkorlari tomonidan "Omon qolgan" filmi butun jahon kino ixlosmandlari sevib tomosha qilishgan. Unda bosh rolni o'ynagan mashhur aktyor Leonardo di Kaprio gavdalantirgan qahramon ham mana shunday gapira olmaydigan sharoitga tushib qoladi. Filmda bir o'zi o'rmonda qolib ketgan qahramon, kutilmaganda hindu qo'lga tushadi. Qahramon esa hindudan uni

o'ldirmasligini, qorni ochligi, yeyish uchun unga ham biror narsa berishini turli harakatlar orqali ko'rsatadi.

Haqiqatdan ham tushunmaslik, ajnabiy bilan gaplashish yoki birovni eshitmaslik holatlarida so'zlar ortiqcha bo'ladi.

"Nyu-York qiroli" filmida Charli Chaplin bu holatni ajoyib tarzda ko'rsatadi. Film qahramoni ofisiantga ovqat buyurmoqchi bo'ladi. Ammo jaz-orkestrining shovqinidan ofisiant o'z mijozini eshita olmaydi. Bu holat esa qahramonni so'zsiz gapirishga majburlaydi. U esa jest va mimika tilida zukkolik bilan ikra, toshbaqali sho'rva va boshqa eguliklarni buyuradi"<sup>4</sup>.

Mana shunday harakat bilan tushintiriladigan majburiy vaziyatlar odamlar hayotida juda ko'p uchraydi.

Mashhur o'zbek kinorejissori, O'zbekiston xalq artisti, professor Shuhrat Abbosov odatdagidek navbatdagi filmi dunyo miqyosidagi festivalga olib ketdi. Bu safargi kinofestival Braziliyaning mashhur shaharlaridan biri Rio de Janeyroda edi. Festivaldan so'ng Sh. Abbosov shahar yaqinidagi dengizni tomosha qilish uchun borganda kutilmagan voqea yuz beradi. Uning aytishiga qaraganda, sayyohlarning suvda mazza qilib cho'milishlari uni to'lqinantirgan. Shunda u ham suvga sho'ng'igan. Dengiz qirg'og'iga chiqqanida esa kiyimlari yo'qligini ko'radi. Nima qilishini bilmay atrofqa qaraydi. Hamma o'z ishi bilan ovora. Noiloj qolgan rejissor hammani sinchiklab kuzatadi. O'sha yerda o'tirgan bir odam negadir unga g'alati tikiladi. Shuxrat Abbosov esa uning bu qarashlari bekorga emasligini darrov fahmlagach, uning yoniga boradi. "O'shanda uni nimanidir bilishini nigohlari orqali payqadim. Braziliyaliklar portugal tilida gaplashishadi. Men bu tilni bilmasdim. Unga kiyimlarim ichida pullarim va eng asosiysi fuqarolikni tasdiqlovchi hujjatim borligini imo-ishoralar orqali tushuntirdim. Ularsiz ahvol tangligini uqtirishga harakat qildim. U meni tushunganday bo'ldi shekilli, qo'li bilan kiyimlarni o'g'irlagan o'g'ri qayoqqa ketganini ko'rsatdi. Men darrov o'sha tomonga bordim. O'sha odamni bir amallab topdim. Unga ham imo-ishoralar bilan narsalarimni qaytarib berishini so'radim. Keyin u biroz o'ylanib turdi. Gaplarimni tushunmayapti deb o'ylab, yanada faol tarzda unga tushuntira boshladim. Keyin u buyumlarimni qaytarib berdi. O'g'ri va men bir-birimiz bilan so'zsiz gaplashgan edik", – dedi.

So'zsiz gaplashish bu bevosita teatrning ma'lum bir san'ati bilan shug'illanish demakdir. Agar spektaklda san'atning barcha qonun qoidalaridan to'g'ri foydalanilgan bo'lsa, uni hattoki eng tajribasi yo'q tomoshabin ham tushunadi, ang'ay oladi. Bordi-yu, spektakl boshqa tilda o'ynalsa ham. Bu o'ziga xos qoida teatrning barcha shakllari uchun to'g'ri kelaveradi:

Harakat teatrning asosi ekan, so'z ikkinchi darajali element sifatida ko'rilishi kerak. Vaqtlar o'tishi bilan adabiyot san'ati teatrdan katta o'rin tuta boshladi. So'z san'ati – ifoda etish vositasi sifatida shu qadar katta ahamiyat kasb etib borgani sari harakatlar ahamiyatsiz bo'lib boraverdi. Harakatlar "qadrsizlanib", unga e'tibor berilmay qo'yildi.

<sup>3</sup> Чехов М. Путь актёра. – Москва: ТРАНЗИТ КНИГА, 2006. – Б. 62.

<sup>4</sup> Рудольф Е. С. Искусство пантомимы. – Москва: Искусство, 1962. – С.55.



# *III BO' LIM*

**SAN'AT TARIXI,  
FALSAFA VA  
NOMODDIY  
MADANIY MEROS**

## JIROV-BAXSHI VA XALQ QO'SHIQLARI, QISSAXONLIK SAN'ATI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada qoraqalpoq xalqining o'ziga xos boy xalq og'zaki ijodi xususida fikr yuritilgan. Qoraqalpoq millatiga xos bo'lgan folklor san'ati, folklor asarlari va dostonlarining ma'nosi hamda mohiyati haqida muhim ma'lumotlar taqdim qilingan. Xalq qo'shiqlarining ma'naviy-estetik ahamiyati, qoraqalpoq folklori na'munalari orqali barkamol komil insonni tarbiyalash hamda ko'p asrlik milliy xalq qo'shiqlari ijro usullari, musiqiy bilimlarining ayrim masalalari ilmiy tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** jirov, baxshi, qissaxonlik, qo'shiq, folklor, yoshlar, ma'naviyat.

Бибиайша КУДАЙБЕРГЕНОВА,  
старший преподаватель кафедры "Фольклор и этнография" ГИИК Уз

## ЖИРОВ-БАХШИ И ИСКУССТВО НАРОДНОГО ПЕСНОПЕНИЯ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается богатое устное народное творчество каракалпакского народа. Представлена важная информация о значении и сущности каракалпакского народного творчества, фольклорных произведений и дастанов. Научно проанализировано духовно-эстетическое значение народных песен, в воспитании гармонично развитого человека на примерах каракалпакского фольклора, приемы исполнения многовековых народных песен, некоторые вопросы музыкальных знаний.

**Ключевые слова:** жиров, бахши, рассказ, песня, фольклор, молодежь, духовность.

Bibiaysha KUDAYBERGENOVA,  
senior teacher of the chair "Folklore and Ethnography", UzSIAC

## THE ROLE OF KARAKALPAK JIROV, BAXSHI AND STORYTELLING, AS WELL AS FOLK SONGS IN EDUCATING YOUNG PEOPLE

**Annotation.** This article discusses in detail the very rich oral tradition of the Karakalpak people. Important information about the meaning and essence of Karakalpak folk art, folklore works and epics is presented. The spiritual and aesthetic significance of folk songs, the development of a harmoniously developed person through the examples of Karakalpak folklore, the methods of performance of centuries-old national folk songs, some issues of musical knowledge have been scientifically analyzed.

**Keywords:** jirav (type of music performed with the special karakalpak national musical instrument), baxshi, short story, song, folklore, youth, spirituality.

Dunyo xalqlari folklorining tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning o'rtasida ma'lum ma'noda, o'zaro mushtarak jihatlari mavjudligini anglaymiz. Xalq termalari, eposlari, dostonlari qaysi tilda qanday aytilmasin, ma'no-mazmuni hamda mohiyati bir xil. Ularning har birida mamlakat va millatning tarixi, milliy urf-odat va an'analari, ma'naviy-badiiy salohiyati, aholining kundalik hayoti, orzu umidlari, intilishlari tarannum etilgan. Ammo o'ziga xos ijro uslubi va sozlari bilan farqlanadi. Xalq qo'shiqlarini, dostonlarini asrlarga tatigulik bo'lishida hissa qo'shgan kishilar o'zbeklarda "baxshi", ozarbayjonlarda "oshig'", qozoqlarda "oqin", qoraqalpoqlarda "jirov", – deya tilga olinadi.

Jirov – qozoq va qoraqalpoq xalqlarida doston, terma ijod etib kuylovchi xalq shoiri. Qadimda katta jamoat yig'inlarida, to'y-ma'rakalarda jirovlar qo'biz jo'rligida termalar ijro etishgan. Xalq orasida katta obro' orttirgan. Ular urush va notinch vaqtlarda o'tkir so'zi, ta'sirchan termalari bilan ommani birlashtirib o'ziga ergashtirgan.

<sup>1</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Birinchi jild Toshkent: 2000-yil.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro baxshichilik san'ati festivali oshilishiga bag'ishlangan tantatali marosimdagi nutqi, T.: "Xalq so'zi" gazetasi, 2019-yil, 7-aprel.

Jirovlar o'zbek baxshilari kabi ustoz-shogird munosabatlari asosida yetishib chiqqan. Qoraqalpoqlarda Yesemurat jirov, Jiye jirov, Nurabulla jirov, Shanxay jirovlar xalq orasida keng tanilgan<sup>1</sup>. O'rni kelganda qayd etish lozimki, keyingi yillarda mamlakatimizda xalqimizning nodir bu san'atini asrab-avaylash va rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada bir necha hujjatlar qabul qilindi. Termiz shahrida Alpomish haykali, Samarqand shahrida atoqli baxshilarimiz xotirasiga bag'ishlab yodgorlik majmualari bunyod etildi. "O'zbekiston Respublikasi xalq baxshisi" faxriy unvoni ta'sis qilindi.

Termiz shahrida yangi tashkil etilgan baxshilar maktabida, respublikamizdagi bolalar musiqa va san'at maktablarida yuzlab yoshlarimiz milliy folklor san'atini mehr qo'yib o'rganmoqdalar. Yurtimizda 100 tomlik "O'zbek xalq ijodi yodgorliklari" majmuasi nashr etilmoqda. Uning 59 jildi aynan xalq dostonlaridan iborat ekanini qayd etish lozim. Shuningdek, ko'p tomlik "Qoraqalpoq folklori" to'plami ham chop etildi<sup>2</sup>. Albatta, Qoraqalpoq xalqining madaniy hayotidan tobora chuqur o'rin olib kelayotgan nomoddiy madaniy meros durdonalari hisoblangan o'ziga xos boy xalq og'zaki ijodi va xalq qo'shiqlari bor. Shu qo'shiqlarda aks etgan qahramonlik, insonparvarlik va mehr muhabbat tuyg'ularining tarannumi, g'oyaviy-mazmunini baxshi yoki jirov sozandalar

soz-cholg'u yordamida tinglovchilarga o'zlarining ijro uslublarida o'ziga xos ajib bir mahorat bilan yetkazib berishgan. Jirov-ijrochilar qo'bizlaridan taralayotgan ohanglar esa o'ta ta'sirchan bo'lgan. Ularni ijro etayotgan kishilar davrning zalvorli yuki va zamonning nafasini o'zida ifoda etgan. Qoraqalpoq xalq jirov – baxshi va qissaxonlik san'ati va xalq qo'shiqlari inson qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi sifatida qoraqalpoq madaniyati tarixidan chuqur o'rin olgan holda xalq ma'naviy kamolotiga xizmat qilib kelgan. Asrlar davomida yaratilib, avlod-dan-avlodga o'tib kelayotgan o'sha qo'shiqlar xalqning ma'naviy xazinasi hamda ma'naviy merosi sifatida yuksak darajada qadrlanadi. Ana shunday merosimizni o'rganish, undan bahramand bo'lish, yosh avlod, xususan, talabalar hamda tadqiqotchilarning oldida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi. "Folklor – so'z san'atining boshlang'ich namunasi bo'lib, u behad qadimiy so'z san'ati sanaladi, unda uzoq o'tmishda yashagan ibtidoiy ajdodlarimizning hali yozuvni bilmagan zamonlardagi turish-turmushi, dunyoqarashi va e'tiqodi, kurash va mag'lubiyatlari ifodalangan. Folklorida tasvirlangan voqelik vaqt (zamon) e'tiboriga ko'ra o'tmishga daxldor, undagi u yoki bu janr tabiatida, til xususiyatlarida buning izlarini ko'rish mumkin"<sup>3</sup>.

Shu o'rinda qayd etish joizki, Qoraqalpoq xalq og'zaki ijodining bizgacha yetib kelgan namunalarida orasida ajoyib lirik mazmundagi she'riy asarlarni ham, salmoqdor qahramonlik dostonlarini ham uchratish mumkin. Mehnat qo'shiqlari, Vatanni madh etuvchi qo'shiqlar, mavsumiy qo'shiqlar, urf-odatlar bilan bog'liq bo'lgan marosim qo'shiqlarida qoraqalpoq xalqining asrlar davomida shakllangan urf-odat, an'analari, milliy qadriyatlarini kundalik turmush hayoti, tarixiy tajribasi va g'oyaviy-badiiy orzu-istaklari o'z ifodasini topgan. O'tmishda yashab o'tgan tarixiy shaxslar faoliyati, xalq marosim qo'shiqlari, xalq ertaklari, xalqning hayot usuli va urf-odatlarini, turli xarakterdagi manbalar Qoraqalpoq xalq og'zaki ijodida dostonchilik janrining shakllanishiga turtki bo'lgan. Dostonlarning deyarli hammasida mehnatkash xalqning orzu-istaklari, vatanparvarlik g'oyalari, xalqning o'ziga xos bo'lgan xarakterli tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalarga munosabati, o'y va qarashlari yorqin ifodalangan. Odamlarning o'zaro munosabatlari va kechinmalarini keng ko'lamda tasvirlovchi, turli mazmunga ega bo'lgan yirik hajmdagi she'riy asar hisoblangan dostonlar xalqning o'zi tomonidan aytilgan dostonlar orqali xalq o'z orzu intilishlarini, his-tuyg'ularini ifodalagan. Qoraqalpoq dostonlar hajm jihatdan ham voqelikni aks ettirish obrazlar sistemasining keng va atroflicha talqin etilishi jihatidan ham folklorning boshqa janrlariga nisbatan ancha salmoqli o'ringa ega bo'lib, xalq og'zaki ijodining keng tarqalgan janrlaridan biri hisoblanadi. Doston so'zi forscha bo'lib "qissa", "hikoya", "shonu shuhrat", "sarguzasht" "ta'rif" va

maqto'v" ma'nolarida ishlatiladi. Qahramonlik, jangnoma, romantik, tarixiy dostonlarni odatida alohida mualliflar yaratgan. Biroq asrlar davomida og'izdan og'izga o'tishi natijasida ularning birinchi ijrochisi unutilib, umumxalq ijodiga aylanib qolgan. Keyinchalik, xalq dostonlarining turli versiyalari paydo bo'lgan.

Xalq og'zaki ijodidagi doston janri yozma adabiyotdagi dostonlardan farq qiladi. Bu farq doston mavzusiga ham g'oyaviy, mazmuniga ham, syujeti va kompozitsion qurilishida ham, obrazlar sistemasi va uslubida ham yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Ana shu xususiyat xalq dostonlarining asosiy mazmunini tashkil etadi. Dostonlarning tildan-tilga, og'izdan-og'izga o'tib, yashab kelishiga esa baxshilarning quvvai hofizasi hamda san'atkorlik iqtidori juda katta ahamiyatga ega bo'lgan. "Olimlarning e'tirof etishicha, "baxshi" so'zi ustoz, ma'rifatchi degan ma'nolarni anglatadi. Mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiyning "Munshaot" asarida bu so'z kotib, mirzo ma'nolarida qo'llanilgan. Baxshilar favqulodda kuchli xotiraga ega bo'ladi. Ular xalq dostonlarini soatlab, hatto bir necha kun mobaynida yoddan aytishi mumkin. Ushbu san'at, asosan, "ustoz-shogird" maktabi an'analari asosida rivojlangan. Baxshilar shogirdlarini ikki-uch yil, ayrim joylarda besh-olti yil beg'araz o'qitishgan. Vaqti kelib, ustoz shogird uchun maxsus sinov uyushtirgan: shogird saralangan auditoriya oldida butun bir dostonni maromiga yetkazib kuylab berishi lozim bo'lgan. Agar u ustoz talablariga mos ijro qila olsa, shundan so'ng tarbiyalanuvchi baxshi nomini olgan va mustaqil faoliyat boshlagan<sup>4</sup>.

Darhaqiqat, adabiyot, san'at, madaniyat bu – inson ma'naviy olamini boyituvchi asosiy vosita. Ular bevosita ham, bilvosita ham insonni tarbiyasi uchun xizmat qiladi. To'g'ri, muallim yoki ota-ona kabi bevosita tarbiya bilan shug'ullanmaydi, ammo tuyg'uni, didni, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi tasavvur chegarasini, ko'ngil va qalbni tarbiyalaydi. O'z navbatida, folklor san'atining vazifasi ham shunday, desak mubolag'a bo'lmaydi. Folklor badiiy adabiyotning ajralmas uzviy qismi sifatida xalqning uzoq asrlik turmushini, kurash va intilishlarni badiiy ifodalaydi. Biroq folklorning, yozma adabiyotdan farqlovchi o'ziga xos spetsifik xususiyatlari mavjud. Ular asosan quyidagilar: kollektivlik, og'zakilik, anonimlik, varinatlilik, an'anavilik. Qay bir millatning xalq og'zaki ijodini o'qisangiz, tinglasangiz ularning har birining vazifasi millatning, xalqning o'tmish hayotidan, tarixidan dalolat berib, ma'naviyat oshirish, milliy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilayotgani anglab yetiladi.

"Folklorida xalq optimizmi yengilmas qudratga ega pafos darajasiga ko'tarilgan. Folklor yuksak badiiyligi bilan ham ajralib turadi. Unda voqelikni ifodalashning doston, ertak, maqol, qo'shiq, topishmoq, afsona, rivo-yat va askiya singari xilma-xil janrlari shakllangan. Xalq ijodiyotining voqelikni badiiy umumlashtirish (prinsip) larida, shuningdek, bir qator kompozitsion usul (priyom) larida, chunonchi, syujet va uning uzvlari, obrazlilik, tasviriy vositalarida talay o'ziga xosliklar mavjud. Folklorida tasvirlangan voqelik vaqt (zamon) e'tiboriga ko'ra o'tmishga daxldor. Shu sababli u yoki bu janr

<sup>3</sup> Safarov, Oxunjon. O'zbek xalq og'zaki ijodi: pedagogika oliy o'quv yurtlari uchun darslik / O.Safarov; mas'ul muharrir T.Mirzayev; O'zR oliy o'rtamaksus ta'lim vazirligi, Buxoro Davlat universiteti. — T.: Musiqa, 2010. — B. 368.

<sup>4</sup> Azamat Haydarov, professor. "Xalqimiz madaniyatining noyob durdonasi" T.: "Xalq so'zi" gazetasi, 2019-yi, 3-aprel.

tabiatida, shuningdek, til xususiyatlarida o'sha qadimiy izlarga saqlanib qolgan"<sup>5</sup>.

Shu o'rinda qayd etish joizki, qoraqalpoq jirov-baxshilarining dostonlarini va qissaxonliklarini yod bilgan, ijro etayotgan va hattoki, xirgoyi qilib yurgan odamning ta'bi nozik bo'ladi, nazarimizda. Bunday qadimiy xalq ijodiyoti faqat ta'bga emas, inson ruhiyatiga ham, tarbiyasiga ham, dunyoqarashiga ham ta'sir qiladi. Bu inkor etib bo'lmas fakt. Xalq og'zaki ijodi iste'dodlar orqali qarashlarni, tafakkurni, tuyg'ularni, munosabatlarni yangilaydi, ya'ni didni va saviyani tarbiyalashda davom etaveradi.

Darvoqe, o'tmishda ham, hozirgi kunda ham qoraqalpoq xalq ijodiyoti, musiqa madaniyatida jirov, baxshi, qissaxonlik va qo'shiqchilik san'ati, yetakchi janr hisoblangan. Unutilib ketgan xalq san'ati qayta tiklandi, xalq ijodiyoti davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanib, ijodkorlar, folklor jamoalari, iste'dod sohiblari ma'naviy va moliyaviy jihatdan rag'batlantirilib, ularning yangi marralarni zabt etishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Shu bois, hozirgi paytda Toshkent shahrida bo'lib o'tadigan, Milliy bayramlarda Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq folklor jamoalari, jirov-baxshi va qissaxon ijrochilari san'atkorlarining chiqishlari betakrorligi, jozibadorligi bilan alohida ajralib turadi. Qoraqalpoq folklorining o'ziga xosligin hisobga olganda, jirov-baxshi va qissaxonlik an'anasi birinchidan ijrochi va musiqa bilan ijro etiladigan qo'shiqlar, ikkinchidan musiqasiz ijro etilgan qo'shiqlar deb atasa to'g'ri bo'lar edi. Sababi Qoraqalpoq xalq qo'shiqlari poeziya va prozaga bo'linadi. Ya'ni lirika va epika janri deb ikkiga bo'linadi<sup>6</sup>.

Demak, xalq qo'shiqlarining turlari rang-barang ekanligini unutmasligimiz kerak. Qoraqalpoq folklorining eng yirik janrlaridan biri jirov va baxshilar doston ijro etuvchi, mingdan ortiq matn yodda saqlovchi va xalqqa tarqatuvchi, shu bilan birga, ustoz shogird an'alarini saqlab qoluvchi san'at turi hisoblanadi. Ular o'z teoriyasi, mexanizmi, va an'alariga ega. Qoraqalpoq jirovi xalqning ruhiy madaniyati, falsafasi va donishmandligi ijodkorlaridir. Bir necha mingyillik tarixiy, hayot jamiyat

voqealarini so'z va soz orqali yetkazgan betakror san'at egasi bo'lib kelgan.

Jirov san'ati insonni og'zaki ijodga so'z va musiqa orqali go'zallikka insonparvarlik, vatanparvarlikni, kuy-lab kelgan va yoshlarga Vatanni sevish, halol va vijdonli bo'lishga undagan. Jirov san'atiga faqat eposni kuylash kirmaydi, u xalq miliy madaniyatining o'ziga xos akademiyasi, jirovlar xalqning asrlar davomidagi musiqa so'z madaniyatining ensiklopediyasi bo'lib hisoblanadi. Xalq qo'shiqlari namunalari ijrochilar musiqa asbobi bilan yoki asbobsiz ham to'y marosimlarda ijro etib kelgan. Masalan, dostonlar to'y marosimlarda qo'buz yoki dutor bilan ijro etilsa, qo'shiqlar dutor yoki dutorsiz miliy qochirim va nolalarda ijro etib kelingan. Qoraqalpoq xalqi o'zining qayg'uli kunlari, quvonchli kunlarida, qo'shiqsiz, soz kuyisiz, va og'zaki poeziyasiz yashay olmaganligi, inson tug'ilgan kundan boshlab, qo'shiq bilan yo'ldosh ekanligini ta'kidlab o'tgan edilar, – deb yozadi filologiya fanlari doktori N. Dao'qaraev<sup>7</sup>.

Qoraqalpoq xalq qo'shiqlari xalqning ma'naviy-ruhiy boyligi bo'lib, mustaqilligimizni mustahkamlashda muhim vosita bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Qoraqalpoq xalq qo'shiqlari xalq musiqa madaniyatida o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu qo'shiqlar insonni mehr-muhabbat, do'stlik, va qahramonlikka chorlaydi. Bu yurtning ijrochiligi uzoq yillar davomida sayqallanib, keyingi avlodlar tomonidan rivojlanib kelmoqda. Har bir ijrochi qalb tug'yonlarining bunday ijrolarga singib borishi, qo'shiqlar jozibasining yanada ortishiga sabab bo'ladi.

Xulosa qilib aytiladigan bo'lsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq qo'shiqlarida voqea-hodisalarda, shaxsning botiniy kechinmalari o'z aksini topadi va ular yoshlarni estetik, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Qoraqalpoq tilidagi xalq qo'shiqlaridan bo'lajak san'at va madaniyat kadrlarini tarbiyalashda unumli foydalanish ta'lim-tarbiyaning ta'sirini oshirishda yetakchi omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Qoraqalpoq ijrochiligi o'zining qadimiy ildizlari, va betakror uslublari, shevasi hamda yorqin jozibali kuy va qo'shiqlari bilan boy murakkab va musiqiy xazinadir.

<sup>5</sup> Safarov Oxunjon. O'zbek xalq og'zaki ijodi: pedagogika oliy o'quv yurtlari uchun darslik / O.Safarov; mas'ul muharrir T.Mirzayev; O'zR oliy o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Buxoro davlat universiteti. – T.: Musiqa, 2010. – B. 368.

<sup>6</sup> Maqsetov K. Qaraqalpaq jyra'j-baksylary. – Nökis, "Qaraqalpaqstan", 1983. – B. 208.

<sup>7</sup> Айымбетов Қ. Халық даналығы. – Нөкіс, "Qaraqalpaqstan", 1988. – B. 492.

## FOLKLOR SAN’ATI VA MUSIQA FOLKLORINING YOSHLAR MA’NAVIYATIGA TA’SIRI

**Annotatsiya.** Musiqa folklori milliy madaniyatimizning muhim bo‘lagi, xalqimiz turmushi va ijtimoiy hayotining o‘ziga xos ko‘rinishi hisoblanadi. Folklorning ushbu yo‘nalishi ming yillar davomida xalqimizning kundalik hayoti va ertangi kuni, orzu umidlari, intilishlarini aks ettirgan hamda milliy madaniyatimiz rivojida muhim o‘rin egallagan. Ushbu maqolada o‘zbek musiqa folklori tarixi, xalq og‘zaki ijodi namunalarini to‘plash va yozib olish borasidagi samarali ishlar, musiqa folklorining o‘ziga xos xususiyatlari va bugungi kundagi ahamiyati keng yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** folklor, folklor musiqa uslubi, qo‘shiq, lapar, terma, yalla, urf-odat, marosim.

Дилоромхон МУХАММЕДОВА,

старший преподаватель кафедры «Искусствоведение и культурология» ГИИКУз преподаватель  
кафедры «Фольклор и этнография» Государственный институт искусств и культуры Узбекистана

## ВЛИЯНИЕ ФОЛЬКЛОРНОГО ИСКУССТВА И МУЗЫКАЛЬНОГО ФОЛЬКЛОРА НА ДУХОВНОСТЬ МОЛОДЕЖИ

**Аннотация.** Музыкальный фольклор – важная часть нашей национальной культуры, уникальный образец общественной жизни нашего народа. На протяжении тысячелетий народная музыка отражала повседневную жизнь и будущее нашего народа, его мечты, надежды, и чаяния и играла важную роль в развитии национальной культуры. В статье освещается история узбекского музыкального фольклора, работа по сбору и записи образцов фольклора, особенности музыкального фольклора и его значение в наши дни.

**Ключевые слова:** фольклор, стиль народной музыки, песня, лапар, народный, ялла, традиция, обряд.

Diloromxon MUXAMMEDOVA,

senior teacher of the chair of “Folklore and Ethnography” of the UzSIAC

## THE EFFECT OF FOLKLORE ART AND MUSIC FOLKLORE ON YOUTH SPIRITUALITY

**Abstract.** Music folklore is an important part of our national culture, a unique way of life and social life of our people. For thousands of years, folk music has reflected the daily life and future of our people, their hopes and aspirations, and has played an important role in the development of national culture. This article covers the history of Uzbek music folklore, the work on collecting and recording samples of folklore, the peculiarities of music folklore and its significance today.

**Keywords:** folklore, folk music style, song, lapar, national, yalla, tradition, ceremony.

Bugungi kunda ta’lim tizimida qo‘llanilayotgan yuqori darajali texnika hamda texnologiyalar, axborot kommunikatsiyalari yoshlarning intellektual salohiyatini, aqliy qobiliyatini o‘stirishda katta hissa qo‘shmoqda. Bu inkor etib bo‘lmaydigan haqiqatdir. Muttasil ravishda yangilanib borilayotgan kommunikatsiyon texnologiyalarning imkoniyatlari tezkorlik bilan o‘rganilib, amaliyotga tadbiiq etilayotgani o‘zining kutilgan samaralarini bermoqda. Bu esa yanada quvonarli holat, albatta.

Ammo mana shunday texnika asrida turli salbiy g‘oyalarning dunyo bo‘ylab juda tez sur‘atlarda tarqalishini ham qayd etish o‘rinlidir. “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir”<sup>1</sup>. Ushbu vaziyatda odamlar, ayniqsa, yoshlar sog‘lom shakllangan dunyoqarashga ega bo‘lsa, bo‘layotgan voqealarning

asl mohiyatini anglab, ma’naviy tahdidlarga, xususan “omnaviy madaniyat” niqobi ostida targ‘ib qilinayotgan zo‘ravonlik, egotsentrizm g‘oyalarining ta’siriga bardosh beradi. O‘z madaniyati, axloqiy va ma’naviy qadriyatlarini sofligini o‘zga milliy madaniyatlardan himoya qilib, ularning sun‘iy yo‘l bilan kundalik hayotga kirib kelishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Buning uchun esa eng avvalo, xalqimizning bugungi kungacha saqlanib kelayotgan milliy madaniyati, an‘analari, urf-odatlarini, qadriyatlarini, xulq-atvori va axloqi haqida batafsil ma’lumotga ega bo‘lish lozim. Millatimizga xos bo‘lgan milliy madaniyatimiz, milliy qadriyatlarimizning ta’lim-tarbiya sohasida tutgan ahamiyatini oshirish, mamlakatimiz yoshlarida milliy ma’naviyatimizga nisbatan mehr va hurmatni shakllantirish kechiktirib bo‘lmaydigan eng dolzarb vazifa hisoblanadi.

Prezidentimiz tomonidan ta’kidlanganidek, “omnaviy madaniyat” ko‘rinishida kirib kelayotgan turli tahdidlar, g‘iyohvandlik, diniy ekstremizm, missionerlik kabi balo-qazolardan yoshlarimizni asrash, ularning ta’lim-tarbiyasiga har birimiz mas’ul ekanimizni hech qachon unutmasligimiz kerak. Bu borada biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an‘analarimizga, ajdodlarimizning boy ma’naviy merosiga tayanamiz”<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “Uzbekiston” NMIU, 2017. – B. 592.

<sup>2</sup> O‘sha manba.

Bilim darajasi yuqori, har tomonlama salohiyatli bo'lgan avlodni tarbiyalashda xalq qadriyatlarining tarkibiy qismi, milliy an'analarimizning o'zagi hisoblangan o'zbek folklori namunalari ham muhim o'rin tutadi. Chunki doston, ertak, qo'shiq, maqollarda ilgari surilgan g'oyalar asrlar davomida xalqimizning yosh farzandlarini tarbiyalash vositasi bo'lgan. Dunyo folklori namunalari bilan bemalol bellasha oladigan ulkan ma'naviy xazinamiz xalqimizning hamisha uyg'oq va boqiy tarixidir. Ushbu boqiy merosimiz birinchi navbatda, og'zaki ijodda kuylanib, ulug'lanib kelingan. U barcha san'atning boshlanishi, sarchashmasidir. "Hozirgi globallashuv davrida, tijorat vositasiga aylangan "ommaviy madaniyat", shou-biznesning salbiy ta'siri tobora kuchayib borayotgan murakkab zamonda har qanday milliy madaniyatning bulog'i bo'lgan folklor san'atiga e'tibor va qiziqish, afsuski, susayib borayotgani ham sir emas. Holbuki, folklor san'ati, ta'bir joiz bo'lsa, bu – insoniyatning bolalik qo'shig'idir"<sup>3</sup>. Uning mag'zida inson kamoloti uchun xizmat qiladigan g'oya mujassamlashgan.

O'rni kelganda aytish lozimki, Alisher Navoiy asarlarida ham folklorga nisbatan ijodiy yondashuvni, milliylikka suyanib, umumbashariy qadriyatlar ulug'langanini anglash mumkin. Bu an'ana bugungi kunda ijod qilayotgan adiblarimiz, shoirlarimizning izlanishlarida ham u yoki bu darajada davom etmoqda.

Ushbu noyob san'atning na'munalarini asrab-avaylash hamda rivojlantirish, uni keng targ'ib qilish, yosh avlod qalbida ushbu san'at turiga hurmat va e'tibor tuyg'ularini kuchaytirish va dunyo xalqlari o'rtasida xalqaro madaniy aloqalarni yanada mustahkamlash uchun xizmat qiladi. "Folklor atamasini 1846-yilda ingliz olimi Uilyam Toms taklif qilgan bo'lib, u "xalq donoligi" degan tushunchani ifodalaydi. Aslini olganda, folklor deganda, xalq tomonidan yaratilgan hamma san'at namunalari – me'morlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo'zlik, musiqa, raqs, og'zaki adabiyot namunalari tushuniladi"<sup>4</sup>.

O'zbek folklori asarlarining to'planishi va yozib olinishi tarixiga murojaat qilinganda, X asrda yashab ijod qilgan mashhur muarrix Abu Bakr ibn Ja'far Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida shahar va qishloq nomlari, tarixiy obidalar hamda o'tmishda bolib o'tgan voqea-hodisalar haqidagi xalq rivoyatlari, afsonalari keltirilganli xususida ma'lumot oldik. XI asrning buyuk olimi Mahmud Koshg'ariy<sup>5</sup> turkiy qavmlar diyoriini kezib, maqol, matal, qo'shiq, rivoyat va afsona singari folklor janrlariga oid boy materiallarni yozib olib, "Devonu lug'otit-turk" asarida bayon qilgan.

O'zbek xalq an'anaviy qo'shiqlarining uzoq tarixini

o'rganishda "Devoni lug'otit-turk"da tarqoq holdagi qo'shiqlar ko'plab uchrasada, bundan ming yil ilgari ham qo'shiqlarning rang-barangligi ko'rinishlarini oilaviy, mehnat, mavsumiy marosim va ishq muhabbat mavzusidagi qo'shiqlarning keng tarqalganligi, ularning til iboralari, vazn, qofiyalaridan qo'shiq ekanligini ko'rish mumkin.

Og'zaki ijod xalqning o'tmishi, buguni va kelajagini o'zida ifoda etuvchi, uning taqdiri bilan chambarchas bog'liq ijodiy jarayon bo'lgani uchun allomalarimiz uni el adabiyoti sifatida talqin etishgan. Qolaversa, u muttasil yangilanib, o'zgarib, mukammallashib, ko'plab variantlilikka ega bo'lib boravergani tufayli harakatdagi san'at hisoblanadi. Shuni aytish o'rinliki, "folklor qadim zamonlarda jamoaning ommaviy ijodi sifatida yuzaga kelgan edi. Ilk namunalariyoq hammabop hamda ommabop to'qilgan bo'lib, uning ijrosiga mo'ljallangan. O'sha zamonlarda shaxsiy ijodkor jamoadan hali to'la-to'kis ajralib chiqmagan edi. Ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning takomillashib borishi, xalq estetik tafakkurining o'sishi va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi jarayonida davrlar o'tishi bilan alohida ijrochilar – qo'shiqchilar, ertakchilar, baxshilar, qissasoz-u qissaxonlar, latifago'ylar (bazlago'ylar), hazzollar (hazilkashlar), qiziqchilar, xalfalar o'z mahoratlari bilan yarqirab ko'rina boshladilar. Ammo bu talantlar ham jamoa dahosi bilan ijodiy oziqlanib, og'izdan-og'izga, avlod-dan-avlodga, ustozdan shogirdga o'tib kelgan asarlarni kuylar, ijro etar va albatta, shu jarayonda o'zidan ham nimanidir qo'shib, individual mahoratlarini namoyon etar edi"<sup>6</sup>.

Xalq og'zaki ijodi namunasi bor-yo'g'i og'zaki ijro etilgani uchungina emas, balki og'zaki o'zlashtirilib, og'zaki ijro etilib, og'zaki tarzda meros qoldirilishi, boshqacha aytganda, har galgi ijro jarayonida qayta yaralishi bilan farqlanib turadi. Folklorshunos olimlar ta'kidlaganidek folklorida qo'shiq yo'q, balki qo'shiqning ijro holati, ijro jarayoni mavjud. Musiqa folklori esa milliy madaniyatimizning muhim bo'lagi, xalqimiz turmushi va ijtimoiy hayotining o'ziga xos ko'rinishi hisoblanadi.

U asrlar davomida xalqimizning kundalik hayoti va ertangi kuni, orzu umidlari, intilishlarini aks ettirgan. Bu janrdagi asarlar sodda, tinglovchiga hamda uni ijro etuvchi kishiga tez etib boradigan, musiqiy mavzular va motivlar engil idrok etiladigan xususiyatlarga ega. Xususan, yil fasllari yoki mehnat jarayoni bilan bog'liq qo'shiqlar keng omma orasida ijro etilgan. Ushbu qo'shiqlar uncha katta diapazonga ega emas, kuy ohanglari sodda, kishi yodida qoladigan darajada bo'ladi.

Uning o'ziga xosligi hammabopligi, insonlarning orzu-umidlari, intilishlari, quvonch va tashvishlarini, kundalik turmush tarzini aks ettirishi bilan izohlanadi. Bunday xususiyatlar folklor musiqasini boshqa barcha musiqiy janrlardan ajratib ko'rsatadi. E'tirof etish kerakki, musiqa folklorining muhim jihatlaridan biri, uning xalqchilligi bo'lib, unda xalqning dunyoqarashi, qiziqish va intilishlari, orzu-umidlari o'z aksini topgan. Musiqiy mavzular va motivlar engil idrok etiladigan xususiyatlarga ega. Qolaversa, xalq og'zaki musiqa ijodida mehnat yoki turli marosimlar bilan bog'liq bo'lmagan aytimlar ham yuzaga kelgan. Qo'shiq, lapar, terma, yalla kabi aytim janrlari milliy musiqa folklori namunalari sirasiga kiradi. Ular xalq

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro baxshichilik san'ati festivali oshilishiga bag'ishlangan tantatali marosimdagi nutqi. – T.: "Xalq so'zi" gazetasi, 2019-yi, 7-aprel.

<sup>4</sup> M.Jo'rayev, J. Eshonqulov. Folklorshunoslikka kirish. (o'quv qo'llanma). – T.: "Barkamol fayz media", 2017, 180 bet.

<sup>5</sup> M.Jo'rayev, J. Eshonqulov. Folklorshunoslikka kirish. (o'quv qo'llanma). – T.: "Barkamol fayz media", 2017, 180- bet.

<sup>6</sup> Oxunjon Safarov. "O'zbek xalq og'zaki ijodi", O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan universitetlar va pedagogika institutlari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan.

orasida keng yoyilgan bo'lib, ommaviy aytimlar qatoridan keng o'rin olgan. "Xalq og'zaki ijodi asarlari qaysi janrga mansub bo'lishidan qat'i nazar uni badiiy ijod qilish iqtidoriga ega bo'lgan yakka shaxs yaratadi. Yaratilgan asar omma tomonidan ma'qullangan taqdirda, boshqa ijodkor xalq vakillari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va ularga asta-sekinlik bilan ijodiy o'zgarishlar kiritiladi. Yaratilgan asar og'zaki shaklda vujudga kelgani tufayli turli o'zgarishga duch kelishi rasmiylashtirilmaydi, ya'ni ijod namunasining qaysi qismi kim tomonidan yaratilgani aynan qaysi o'rinlarga kim o'zgarishlar kiritgani qayd etilmaydi. Natijada ma'lum muddat o'tgandan so'ng, asarning dastlabki nusxasi juz'iy yoki muhim yangiliklarga ega bo'la boshlaydi. Shunday qilib, mazkur ijod namunasini birinchi yaratgan ijodkor o'z-o'zidan mualliflik da'vosini qilolmaydi"<sup>7</sup>.

O'zbek folklori qo'shiqlarining yaratilish davri, ijro o'rni va turi jihatidan xilma-xillik kasb etadi. Qo'shiqlar xalqning ijtimoiy hayotining hamma tomonlari bilan bog'langan bo'lib, ular muayyan tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan, insoniyat tafakkuri darajasiga qarab turmushni o'ziga xos obrazlarda badiiy jihatdan aks ettirgan noyob san'atdir. Yoshlarga musiqa folklori borasida ma'lumotlar berganda, avvalo, ularga milliy madaniyatimiz tarixi, o'tmish ajdodlarimizning madaniy va badiiy-estetik didi xususida batafsil ma'lumotlarni taqdim etish lozim.

G'oyaviy-badiiy jihatdan yuksak xalq qo'shiqlarida xalqning turmushi, tirikchiligi, ko'nglidagi orzu-armonlari, dard alami, shod-xurramligi va kelajakka ishonchi ifodalangan. Shuningdek, zo'ravonlik, erkinsizlik, adolat-sizlikka qarshi kurashishning qudratli ovozi eshtilib turgan. Qo'shiqlarning mazmuni voqealarning lirik g'oyasini badiiy o'zlashtirib, ya'ni yuz bergan hodisa va voqealarga munosabat, his-tuyg'u va kayfiyat orqali ifodalanadi. Qo'shiqchilik madaniyatining o'ziga xos an'analari mavjud. Ma'lumki, an'anaviy xalq ijrochiligi turlarga boy. Turli mavsumiy sayllarda yigit va qizlar guruh-guruh bo'lib, qo'shiq aytishgan.

Xalqimiz orasida mashhur bo'lgan laparlarda raqs xarakteriga ega doyra usullari ham qo'llanib, bu holat goho laparlarning navbatma – navbat raqsqa chorlab, aytim kuylashlariga sabab bo'ladi. Tarafma- taraf aytishuv holati muhim bo'lgani uchun she'r, kuy va raqsning mushtarakligi nisbatan barqarordir. Yalla ko'pgina xususiyatlari, jumladan, raqsbopligi, ijroda ko'pchilik ijro etishi bilan laparga yaqin bo'lgan janrdir. Lekin yallalar laparlardan farqli o'laroq, band-naqarot shaklida bo'ladi. Bunda yallachi (yakkaxon) raqs o'yinga tushib, bandlarni kuylasa, naqarotni ko'pchilik birgalikda aytadi. Yallalarda raqsbop doyra usullari va turfa cholg'ulardan iborat ansambl jo'rliqi qo'llaniladi. Yil fasllari yoki mehnat jarayoni bilan bog'liq qo'shiqlar keng omma orasida ijro etilgan. Ushbu qo'shiqlar uncha katta diapazonga ega emas, kuy ohanglari sodda, tez esda qoladigan darajada

namoyon bo'ladi. Ushbu xususiyatlar folklor musiqasining o'ziga xosligini bildirib turuvchi omillardir.

Darhaqiqat, inson qadimdan atrof-muhitda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirgan. Bu munosabat, avvalo, turli xatti-harakatlar, ovozlar vositasida amalga oshgan. Keyinchalik his-tuyg'ularni so'zlar, qo'shiqlar, raqslar ifodalagan. Xalq ming yillar mobaynida ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va mavqei, xursandchiligi, dardu-alamini qo'shiq va kuy orqali namoyish qilishga harakat qilgan. Qabila-urug'ning mard va jasur yigitlari haqida, ularning g'aroyib qahramonliklari haqida afsona va rivoyatlar paydo bo'lgan. Bularning hammasi hali yozuv madaniyati vujudga kelmasdan oldin jamoa-jamoa bo'lib yashayotgan aholi o'rtasida shuhrat topgan. "Musiqiy folklor san'at morfologiyasining bir qismi sifatida madaniyatning ilmiy-falsafiy tushunchalari tarkibiga kiradi va bir butun tizim sifatida tan olingan. Mamlakatimizning har bir g'o'shasida o'ziga xos marosimlar, oilaviy-maishiy va mehnat bilan bog'liq an'analar, momolarimizning mehr bulug'idan qaynab chiqqan orombaxsh alla-yu, olqishlar mavjud. Xalq marosimlari jo bo'lgan asriy qadriyatlar, ma'naviyat ko'zgisiga aylangan qanotli orzular, folklor ijrochilarining kop asrlar davomida yaratgan ijodiy faoliyati natijasida sayqallanib, barkamollashib kelgan qadimiy urf-odatlar va an'analarimizni o'rganish, milliy qadriyatlarimizni mohiyatini yanada teranroq anglashga imkon beradi"<sup>8</sup>.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, alla, lapar, terma, qo'shiq janrlaridagi musiqiy namunalar o'zbek folklor musiqasining asosiy janrlaridan hisoblanadi. Folklor musiqasi milliy urf-odatlarimiz, marosimlarimizning ohanglardagi ifodalanishi, desak bo'ladi. Bu namunalar xalqimizning kundalik hayoti, mashg'uloti, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. San'at va madaniyat sohasi vakillari bugungi kunda asosiy e'tiborni Vatan, vatanparvarlik, burch, milliy g'oya, milliy mafkura, milliy g'urur masalalariga qaratishlari lozim. Bastakorlarimiz oldidagi vazifa – butun O'zbekiston xalqi jo'r bo'lib, birgalikda ayta oladigan va mazmuni Vatan tuyg'usi bilan yo'g'rilgan qo'shiqlardan yana ham ko'proq yaratishdir.

Musiqa folklorini o'qitish metodikasi va pedagogikasi ta'lim va tarbiya jarayonida qo'llaniladigan eng ilg'or, ta'sirchan, amaliyotda sinalgan va samarali natijalar bergan metod va vositalardan foydalanishni ta'lim mazmuni va sifat darajasini belgilashda muhim omil hisoblanadi. Musiqa folklori ta'limida yangi-yangi pedagogik, innovatsion o'qitish texnologiyalarini kirib kelishi, fan-texnika sohasidagi shiddatli o'zgarishlar ta'lim sohasida ham o'ziga xos yangilanishlarni taqozo etmoqda. Musiqa folklori darslarini tashkil etish va o'qitishda aynan bir xil bo'lmagan usul hamda metodlardan ustalik bilan foydalanish, darslarning noan'anaviylik va ta'sirchanligiga birlamchi e'tibor qaratish davr talabidir.

<sup>7</sup>O. Madayev, T. Sobirova. Xalq og'zaki poetik ijodi. Akademik litsey uchun darslik. "Sharq" nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. –Toshkent: – 2010.

<sup>8</sup>H.Nurmatov, N. Yo'ldoshev. "O'zbek xalq musiqasi ijodi" –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2007.

## O'ZBEK MILLIY IJROCHILIGIDA SOZ VA OVOZ UYG'UNLIGI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek milliy ijrochiligida soz va ovoz uyg'unligining o'rni va ahamiyati, milliy qo'shiqchilikka mamlakatimizda berilayotgan e'tibor haqida qisqacha ma'lumot, soz va ovoz birgalikda shakllanishi va rivojlanishi hamda taniqli sozanda va ijrochilarning hayoti va ijrochilik faoliyatlari tahliliy bayon etilgan. Shuningdek, maqolada o'zbek milliy sozlarining paydo bo'lishi va takomillashuvining boy tarixi bilan bog'liq bilimlar yosh ijrochilarga soz va ovoz qonuniyatlarini o'rganish borasida muallifning taklif va tavsiyalari bilan tanishasiz.

**Kalit so'zlar:** ovoz, madaniyat, o'tmish, kelajak, milliy, an'anaviy, cholg'u, soz, hofiz, bastakorlik, sozandalik.

Шухрат АЛМАТОВ,

преподаватель кафедры "Национальное пение" факультета народное творчество ГИИКУз

## ГАРМОНИЯ МУЗЫКИ И ПЕСНИ В УЗБЕКСКОМ НАЦИОНАЛЬНОМ ИСПОЛНЕНИИ

**Аннотация:** В статье дается краткий обзор роли и значения гармонии музыки песни в узбекском национальном исполнении, внимания, уделяемого национальному пению в нашей стране, формирования и развития слов и звуков, а также о жизни и творчестве известных музыкантов и исполнителей. Также в статье вы можете ознакомиться с богатой историей возникновения и развития узбекских национальных слов, авторскими предложениями и рекомендациями для юных исполнителей по изучению законов речи и звука.

**Ключевые слова:** звук, культура, прошлое, будущее, национальный, традиционный, источник, инструмент, слово, народный, хафиз, композиция, исполнительское творчество.

Shuhrat Almatov,

"National Singing" teacher of the chair UzSIAC

## HARMONY OF MUSIC AND VOICES IN UZBEK NATIONAL PERFORMANCE

**Annotation:** This article provides a brief overview of the role and importance of word and sound harmony in Uzbek national performance, the attention paid to national singing in our country, the formation and development of words and sounds, as well as the life and performance of famous musicians and performers. Also in the article you will learn about the rich history of the emergence and development of Uzbek national words, the author's suggestions and recommendations for young performers to study the laws of speech and sound.

**Keywords:** sound, culture, past, future, national, traditional, source, instrument, word, folk, hafiz, composition, music.

Mamlakatimizda keyingi yillarda san'at va madaniyatga bo'lgan e'tibor natijasida milliy o'zligimizni anglash, madaniyatimizni har tomonlama rivojlantirish, xalqimiz, avvalo, yosh avlodimizni yuksak insoniy tuyg'ular ruhida tarbiyalash, ularning estetik didi va tafakkurini shakllantirishda o'zbek milliy musiqa san'atining keng imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanish imkonini bermoqda. Sohadagi mavjud kamchilik va muammolarni bartaraf etish, o'zbek musiqa san'atini chuqur o'rganib, o'ziga xos ijro maktablari va an'analarni yangi bosqichda ravnaq toptirish, uning "oltin fondi"ni yaratish va boyitish, xalqaro nufuzini oshirish va keng targ'ib qilish maqsadida 2017-yil 17-noyabrda Prezidentimizning "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi<sup>1</sup> Qarori qabul qilindi.

Mazkur hujjat ushbu san'atga doir chuqur ilmiy-nazariy tadqiqotlar, o'quv-uslubiy adabiyotlar yaratish, soha olimlari va mutaxassislari, iqtidorli va istiqbolli yosh ijrochilar faoliyatini qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada kuchaytirishga turtki bo'ldi. Ushbu qaror nafaqat tarixga, balki xalqimiz qalbiga muhrlandi. Keyingi uch yilda

<sup>1</sup> "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori// Xalq so'zi. -2017. -18 noyabr.

musiqa san'atiga e'tibor yuksak bosqichga ko'tarildi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Prezidentimizning qarori negizida, avvalo, xalqimizning ma'naviy boyligi bo'lgan milliy san'atning qadrini yanada oshirish, milliy musiqa bilimdonlari bo'lgan ustozlarni izlab topish, ushbu san'at namunalaridan xalqimizni bahramand qilish, sog'lom avlodni tarbiyalash, kelajakda ulug' mutafakkir, allomalarning yangi avlodini voyaga yetkazish g'oyasi o'z aksini topadi.

Bizning nazarimizda o'zbek milliy ijrochiligida soz va ovoz uyg'unligi bir necha asrlk tarixga, nazariy va amaliy asoslarga, shaklu shamoyili, ijodiyoti va amaliyotiga, eng muhimi, buyuk xalqning milliy ruhiyatini anglatuvchi jozibaga egadir. Bu borada soz va ovoz orqali xalqimiz o'tmish hayotining ulkan musiqiy qomusi yaratilgan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbek milliy ijrochiligida soz va ovoz uyg'unligini ta'minlashda har ikki yo'nalishning bir-biri bilan chambarchas bog'liqligi haqida to'xtalmasdan ilojimiz yo'q. Bevosita xonandani ovoz imkoniyatini hisobga olgan holda ma'lum bir parda va ohang tizimiga xos asarlar yaratilganligi va cholg'u yordamida ohang tizimiga yo'nalishiga boshlab borishi va asar ijrosining yuksak bo'lishiga katta hissa qo'shadi. Xonandalarning ko'pgina milliy cholg'ular jo'rligida badiiy asarlar ijro etishini

yaxshi bilamiz. Jumladan: tanbur, dutor, rubob, tor, g'ijjak, doyra sozlari xalqimiz o'rtasida necha asrlardan beri ardoqlanib, mohir sozandalarimiz qo'lida yangrab, ma'naviy rivoji uchun xizmat qilib kelyapti.

O'zbek milliy sozlarini mahorat bilan chalgan xalqimizga manzur bo'lgan va qalblardan chuqur joy olgan sozandalarimizdan Sulton Xakimov, Maqsudxo'ja Yusupov, Yoqub Dovurov, Asatqori Lutfullayev, Marufxo'ja Toshpo'latov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar – Risqi Rajabiyar, Jo'rabek Saidaliyev, Abdumutal Abdullayev, Shobarat Tanburiy, Ro'zimatxon Tanburiy, Otavali Nuriddinov va shular kabilarning nomlarini faxr bilan tilga olamiz<sup>2</sup>. Xonandalik faoliyatida sozandalikning o'rni alohida ahamiyatga ega. Inson qalbi bolalik chog'laridanoq san'atga oshufta bo'lib, u o'zida kuyga, ohangga ehtiyoj seza boshlaydi. Insonda ilk bor bu ikki yo'nalishdan qay biriga havas erta uyg'onadi degan savolga turlicha yondashish mumkin. Ba'zi insonlarda kuyga, ohangga bo'lgan muhabbat avvalroq, ba'zilarida esa qo'shiq, ashula aytishga ishtiyoq ertaroq namoyon bo'la boshlaydi.

Hozirgi zamon texnikasi rivojlangan davrda talabalarimiz uchun har qanday sharoitlar mavjud. Musiqa ijodiyotimizning har qanday namunalari CD disklarda, internet tarmoqlarida mavjud bo'lib, bu ta'lim olayotgan yoshlarimizga o'z faoliyatlarida benazir yordamchi vazifasini o'taydi. Bundan tashqari, har kuni televideniye va radio to'lqinlari orqali ham san'atimiz namunalari tinmasdan berib boriladi. Shu bilan bir qatorda, bu san'at namunalarining talay qismi mutaxassislarimiz tomonidan notaga olinib, qo'llanma, darslik tarzida nashr qilingan. Xonandaga ijrosida endi tayanch nuqta sifatida o'z sozi ko'makchi vazifasini bajaradi. Xonanda ham ashula ham sozni hamohanglikda olib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. Milliy qo'shiqchiligimizda ashulaga jo'r bo'luvchi bir qator sozlarimiz mavjud. Jumladan: tanbur, dutor, rubob, g'ijjak, doyra kabi sozlarni sanab o'tishimiz mumkin.

O'zbek milliy ijrochiligida soz va ovoz uyg'unligini ta'minlashda qo'shiq kuylashga moyilligi, qiziqishi bo'lgan odam har qanday san'at namunasini maromiga yetkazib ijro eta olishi mumkin. Keyingi paytlarda ustozlar bisotida kuylangan kuy-qo'shiqlarni o'zgartirib ijro qilish, sayqallash "aranjirovka" qilish odat tusiga kirdi. Albatta, ustozlar aytgan qo'shiqni kuylash, uni zamonga moslashtirish, zamonaviylashtirishning yaxshi tomonlari ham bordir. Lekin bundan kim yutadi? Avvalo, qo'shiq ixtirochisining mahoratiga tasannolar aytiladi. Shu bois har bir san'atkor ijroga emas, qo'shiq yaratish yo'lidagi izlanishlarga katta ahamiyat qaratishi kerak.

Milliy ijrochilikda soz va ovoz uyg'unligi bo'lmasa, sohada rivojlanish va taraqqiyot bo'lmaydi. Qolaversa, yangi san'at asari o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. U yillar davomida olib borilgan izlanishlar, mashaqqatli mehnat, ustozlar o'giti va maslahatlari asosida yaratiladi. Shu sababdan ham qo'shiqchilikda har bir taniqli san'atkorning o'ziga xos ijro yo'li bor. Jumladan,

Ma'murjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozov, Sherali Jo'rayev, G'ulomjon Yoqubov, Kamoliddin Rahimov singari hofizlar tomonidan yaratilgan ashulalarda o'ziga xos ravishda soz va ovoz uyg'unligi ta'minlangan deya e'tirof etiladi. Ustoz Kamoliddin Rahimovning "Nargiz" qo'shig'ini bir xonanda ustozdan so'ramay, zamonaviy kuyga solib kuylaydi. Afsuski, bizda bundaylarga aksariyat hollarda qonun doirasida chora ko'rilmaydi. Bu ishga mas'ul bo'lgan shaxslar ham "Sen menga tegma, men senga" qabilida ish tutishga odatlanib qolishgan. Axir bundan uyalishimiz kerak.

Yaxshi qo'shiq yaratish, ijro qilish bir qaraganda oson ishdek ko'rinadi. Ovoz va soz uyg'unligi ijro mahoratining o'zaro mushtarakligi bu jihatdan qo'l keladi. Lekin uni umrboqiy ashulalar sirasiga kiritish mushkul vazifa. Buning uchun ijodkor mehnati, izlanishi, bilim va dunyoqarashining kengligi alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda sozandalar va xonandalar bilan ijodiy hamkorlikning o'rni katta. Chunki soz va ovoz uyg'unligi, milliy musiqamiz jozibasini ta'minlaydi. Ovoz ko'ngilga quvonch ulashsa, soz uning kamchiliklarini to'ldiradi. Demak, umrboqiy qo'shiqlar yaratilishda ovoz va sozning uyg'unligi, ijrochining yaratuvchilik borasidagi qobiliyati muhim hisoblanadi. Yana bir jihati, bugun yaratilgan biror san'at asarini umrboqiy ashula bo'libdi, deb baho bera olmaymiz. U yillar davomida shakllanib, xalq mehrini qozona olsagina, ana shunday yuksak e'tirofqa sazovor bo'la oladi.

Nazarimizda, yaratilayotgan qo'shiqlarda soz va ovoz uyg'unligi ta'minlanmayapti. Milliy qo'shiqchiligimizni rivojlantirishda soz va ovoz uyg'un bo'lsa xalqimiz ko'ngliga manzur bo'ladigan sara qo'shiqlar yaratiladi, buning isbotini ustozlarimiz ijodida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Soz va ovoz uyg'unligini ta'minlay olish xonandaning mahorati, qobiliyati va haqiqiy iste'dodini ko'rsatib beradi. Bugun xonandalarga jonli ijro bo'yicha qo'yilayotgan talablar bevosita soz va ovoz bilan bog'liq. Xalqni to'plab, bir bora o'z ovozi bilan xonish qila olmagan, o'z yo'lini topolmay sarson bo'lib yurgan xonanda faoliyatini tasavvur qilib ko'ring. Bu bilan kim kimni aldayapti? Zero, o'zbek qo'shiqchilik san'ati o'ziga xos talablari, ohang va qochirimlari bilan boshqa xalq qo'shiqlaridan ajralib turadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning<sup>3</sup> mamlakatimiz ijodkor ziyolilari, san'at ahli bilan qilgan ochiq muloqotida el sevgan ustoz san'atkorlarning musiqa maktablarida faoliyat olib borishlari yuzasidan bergan ko'rsatma va vazifalaridan so'ng, milliy musiqa, an'anaviy ijrochilik yo'nalishida yangi ovoz sohiblari, iqtidorlarni tarbiyalash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash yo'lida katta ishlar qilinmoqda.

Ustozlardan meros qolgan ulkan musiqiy merosdan unumli foydalangan holda ushbu yo'nalishni rivojlantirishga xizmat qila olsak, o'ylaymizki, oldimizga qo'yan marralarni zabt etishimiz, shubhasizdir.

<sup>2</sup> Ibrohimov O., Sadirov J. Musiqa. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. – B.25.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning madaniyat va san'at faollari bilan uchrashuvidagi ma'ruzasi //Xalq so'zi. –2017. 8-avg.

## MILLIY QADRIYATLARNING JANRLARARO MUNOSABATLAR MASALASIDA FOLKLORNING O‘RNI VA AHAMIYATI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada janrlararo munosabatlarda ijro va badiha masalasiga hozirgi paytdagi ommaviy axborot vositalari, madaniy tadbirlarda namoyish qilinadigan janrlar bilan bog‘liq ayrim jarayonlar (doston ijrosi, kuy, musiqa, badiha kabilar) xususida mulohazalar yuritilgan. Jamiyatning rivoji, tafakkurning o‘zib borishi qonuni ayrim folklor janrlarining boshqasi tarkibiga singib ketishi, ayrimlarining esa jonli ijrodan asta-sekin murakkab syujetli eposlarga diffuziyalanishi hodisalari sodir bo‘lishi haqida muhim ma‘lumotlar taqdim qilingan.

**Kalit so‘zlar:** “Allomalar ibrati”, “Asotirlar va rivoyatlar”, “Laylak keldi, yoz bo‘ldi” “Nay navosi”

Дилноза ИРИСБОЕВА,

магистрант по специальности история искусства и культурология ГИИК Уз

## РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ФOLKЛORA В ВОПРОСЕ МЕЖЖАНРОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

**Аннотация.** В статье рассматривается проблема перформанса и бадихи в межжанровых отношениях в современных медиа, некоторые процессы, связанные с жанром (культурный перформанс, мелодия, музыка, бадиха и др.), представляемым на культурных мероприятиях. Дается важная информация о развитии общества, законе роста мысли, включении одних жанров фольклора в другие жанры и постепенном переходе некоторых живых выступлений в эпосы со сложными сюжетами.

**Ключевые слова:** «Пример ученых», «Мифы и легенды», «Аист пришел, лето пришло», «Най навоси».

Dilnoza IRISBOYEVA,

Master of Degree in UzSIAS Majoring in Art History and Cultural Studies

## THE ROLE AND IMPORTANCE OF FOLKLORE IN THE ISSUE OF INTER-GENERAL RELATIONS OF NATIONAL VALUES

**Annotation.** This article discusses the issue of performance and badiha in inter-genre relations in the modern media, some of the processes related to the genre (cultural performance, melody, music, badiha, etc.) presented at cultural events. Important information is provided about the development of society, the law of growth of thought, the incorporation of some genres of folklore into other genres, and the gradual diffusion of some from live performance into epics with complex plots.

**Keywords:** “Example of scholars”, “Myths and legends”, “The stork has come, summer has come” “Nay navosi”

Tarixiy afsona, rivoyat, naql, matal va maqollar bizga yetib kelgunga qadar, hayot haqiqatini badiiy tasvirlash usul va vositalarida qator o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Ya‘ni turli yashash joyiga ko‘ra guruhlash, mahalliyashtirish, va etnik guruhlari jonli ijrosida turli variant, versiyalarida yashab kelyapti. Kundalik hayotda avlodlaridan meros bo‘lib kelayotgan turli folklor janrlari jonli ijroda faol qo‘llaniladi.

Lekin jamiyatning rivoji, tafakkurning o‘zib borish qonuni ayrim folklor janrlarining boshqasi tarkibiga singib ketishi, ayrimlarining esa jonli ijrodan asta-sekin murakkab syujetli eposlarga diffuziyalanishi hodisalari sodir bo‘lishini inkor qilib bo‘lmaydi. Folklorshunos E.V.Pomeranseva janrlar o‘rni almashunuvi va unda sodir bo‘ladigan transformatsiyaga to‘xtalib: “Folklorning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uning doimiy o‘zgaruvchanligidir. Undagi an‘anaviy asoslarning u yoki bu unsurlari saqlanishi hamisha ham izchil emas”, degan fikrni aytganida, jonli ijroda yashayotgan folklor janrlarini nazarda tutgan edi. Haqiqatdan ham O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan aholining aksariyati ishlatib kelayotgan kichik epik janrlar (ayrim joylarda ertak janri ham jonli ijroda intensiv ijro etiladi) qadimgi syujet, motiv va obrazlarini o‘z dunyoqarashlariga moslab, joy sharoiti taqozosiga ko‘ra

ijro etiladi. Buning misoli sifatida so‘nggi yillarda nashr etilgan “Allomalar ibrati”, “Asotirlar va rivoyatlar”, “Laylak keldi, yoz bo‘ldi” afsona, rivoyat va naql namunalari o‘rin olgan to‘plamlarni ko‘rsatish mumkin. Ushbu to‘plamlarga ommaviy axborot vositalarida juda yaxshi fikr va munosabatlar bildirildi. Shu bilan birga, ayrim mutaxassislar o‘rtasida bahsli munozaralar ham uyg‘otdi. Bahslar, asosan, to‘plamga kiritilgan folklor namunalari janr qirralari chegaralanmasdan, struktural-tipik xususiyati e‘tiborga olinmay kiritilgan, degan da‘vo atrofida bo‘ldi. Ammo to‘plam folklor mutaxassislari emas, balki madaniyat sohasidagi oliy ta‘lim muassasasida dars beruvchi, mashg‘ulotlardan bo‘sh vaqti hisobiga xalq ijodiyoti masalalari bilan shug‘ullangan folklor havasmandlari tomonidan to‘planganligi aksariyat olimlarning e‘tiboridan chetda qolgan edi.

To‘plovchi Malik Murodov umrining asosiy qismini mamlakatimizdagi chekka viloyatlarda, qishloqlar, tog‘toshlar kezib, xalq og‘zaki ijodi namunalari to‘plashga sarflagan edi. U to‘plagan folklor materiallarining salmoqli qismi O‘zbekistonda FA A.Navoiy nomli adabiyot instituti folklor arxivi va H.Sulaymonov nomli qo‘lyozmalar instituti folklor bo‘limi arxivida saqlanadi. 1978–1980-yillar ekspeditsiyalarida to‘plagan materiallar

asosida esa yuqorida nomi zikr etilgan xalq prozasi janrlari namunalari to'plamlari maydonga keldi.

Janrlar munosabati masalasini tadqiq etayotgan izlanuvchiga to'plam, uning nashri, chop etuvchisi faoliyati nima uchun kerak, degan savollar ham tug'ilishi tabiiy. Biz shuni unutmashimiz kerakki, xalq merosi ilmiy-nazariy tadqiqotchilari folklor arxivlari yoki nashr etilgan folklor materiallarining arxivga tushishidan tortib, to kitob holida (yoki matbuot sahifalarida) chiqishigacha bo'lgan eng mashaqqatli, ayni chog'da, folklorshunoslik uchun muhim yangiliklar bera oladigan jarayonlarini ham e'tibordan chetda qoldirmasligi kerak.

Janrlararo munosabat masalasiga tegishli folklorshunoslik sohasidagi ayrim muammoli masalalarni yechishda boshqa xalqlar folklorshunoslari ko'rsatib bergan yo'ldan emas, balki milliy folklorshunosligimiz yutuqlariga suyanish, jahon ilm-fanidan tanqidiy foydalanish lozim.

Binobarin, folklorshunoslikda biz tasavvur etayotgan tub burilishning sodir bo'lishi birdaniga ro'y bermaydi. Milliy folklor merosi tabiati, uning o'ziga xos ichki qonuniyatlari bilan tarixiy-folkloriy jarayon o'rtasidagi dialektik munosabatlardan kelib chiqib, jahon xalqlari folklori, etnografiyasi, madaniyati tarixi fanlari xulosa va qarashlaridan tanqidiy foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bizga qadar yaratilgan, hozirgi kunda ham jonli ijroda yashayotgan folklorning kichik epik janrlari va ular orasidagi o'zaro munosabatlarda badiha san'atining roli masalasi arzimagan muammo bo'lib tuyulsa-da, biroq bu ilmiy-nazariy mohiyatiga ko'ra folklorshunoslik, san'atshunoslik sohalari taraqqiyotiga xizmat qiluvchi masalalardan biri, deyish mumkin. Chunki jonli ijroda yashayotgan kichik epik janrlar ijodkori (abstrakt bo'lsa ham) xalq, omma orasida xalq "nomidan" so'zlovchi, aytuvchi iste'dodlar qadimdan bo'lgan va hozir ham mavjud. Ular ijro jarayonida afsona, rivoyat, naql yoki latifa janrlari tinglovchisiga qay tarzda yetkazib beriladi, ijrodagi epik asar mazmun syujeti qay darajada badiha qilindi yoki qanday transformatsiyalanadi, degan qator savollar ko'ndalang turadi. Bu savollarga javob topish uchun, avvalo, janrlar munosabatiga murojaat qilish kerak.

O'zbek folklorshunosligi yangi taraqqiyoti tarafdorlaridan biri, professor T.Mirzayev biz tadqiq qilayotgan masalalarni hal etishda nazariy jihatdan yordam beruvchi muhim fikrlarni bayon qilib: "Folklor ijodkorlari va ijrochilarning shaxsiyati, ijod va ijro usullari xalq og'zaki ijodi namunalari jonli ijro etish sharoitlarida aytish, kuylash, ko'rsatish va boshqarish tartiblari, aytuvchilikdagi umumiylik va o'ziga xosliklar, traditsion tekstni qayta ijod va ijro qilish mexanizmi, professional ta'lim berish yo'llari, bundagi e'tiqod va rasm-rusumlar, ustoz va shogird munosabatlari kabi qator masalalar doimo tekshiruvchilarning diqqat markazida bo'lishi zarur", degan edi. Darhaqiqat, fidoyi folklorshunos ko'rsatgan masalalarini hisobga olmay ish tutuvchi tadqiqotchi xalq og'zaki ijodiyotining aksariyat ichki qonuniyatlaridan ham bexabar qoladi. Xususan, xalq og'zaki jonli

ijrosida yashayotgan kichik epik janrlar munosabatidagi improvizatsiya, interpretatsiya va transformatsiya hodisalarini ochib berishda ijrochilik, an'anaviy uslub, ijrochi shaxsi, jonli ijrodagi folklor asarining estetik funksiyasi kabi qator masalalarni chetlab o'tib bo'lmaydi.

Zero, asrlar mobaynida mavjud kichik epik janrlardan ayrim namunalari ustida olib borgan kuzatishlarimiz ana shu masalalarning ilmiy qiymati naqadar ahamiyatli ekanligini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, jonli ijroda yashayotgan ibratli, sermazmun, xalqchil motivlarda yaratilgan afsona, rivoyat, naql, latifalar muayyan millatning badiiy ko'zgusi hamdir. Aforistik janrlarning ahamiyati to'g'risida folklorshunos V.P.Anikin bejiz: "Aforistik folklorning milliy xususiyati, eng avvalo, har bir xalqning dunyoqarashi, ijtimoiy va poetik umumlashtiruvchanlik xususiyatiga bog'liqdir", – deb alohida ta'kidlamaydi. Shuning uchun ham, xalq jonli ijrosidagi ibratli folklor namunalari o'zbek xalqining o'ziga xos ma'naviy boyliklaridan biri, desa mubolag'a bo'lmaydi. Masalan, Xiva ekspeditsiyasi payti jonli ijroda yozib olingan Feruz bilan bog'liq rivoyat syujeti hayotiy turkumdagi xalq ertaklarida ham uchraydi. Rivoyat "Feruz va dono chitkar" deb nomlanadi. Uni ijro etgan roviy-baxshi avlodiga mansub kishidir. Uning xalq og'zaki ijodi an'analariga munosabati samimiy bo'lib, ijro jarayonida voqelikni hikoya qilish uslubi, ovoz pardalarini goh ko'tarib, goh pasaytirish, dialogli epizodlarni dramatik ohang usuli yo'lida ifodalab, bayoniy tasvirni XIX asrlar tarixiy hayoti ruhida ta'riflashi guvohi bo'ldik. Rivoyat syujeti voqealaridan chiqadigan epik g'oya – Xivaning XIX asrlar oxirida yashab o'tgan xalqparvar, ilm-ma'rifatni hurmat qilgan, adolatli hukmdori, shoir Muhammad Rahimxon – (Feruz) shaxsini ulug'lash, shu bilan birga, xalq idealidagi dono, tadbirkor, mehnatsevar kosib obrazi orqali esa mehnat ahliga nisbatan hurmat tuyg'usini ko'rsatishdan iborat. Mazkur rivoyat Xiva shahri va uning yaqin atrofidagi qishloqlarda istiqomat qilayotgan so'zga chechan kishilar tomonidan turli variant va versiyalarda ijro etilishiga qarab, xalq o'z idealini og'zaki ijodiyoti bag'rida qanday avaylab-asrashga yana bir karra ishonch hosil qildik.

Yuqoridagi rivoyat syujeti versiyasida hayotiy ertak ham mavjud. Uni aytgan baxshi Norbek Abdullayev ijro jarayonida ertak janri elementlaridan ham foydalandi. Buni "bir kuni", "ko'rib qolibdi", "so'rabdi", "o'tirgan ekan", "kutib yurgan ekan", "saroyda olib qolibdi", "Chitgar xonning vaziri bo'lgan ekan" qabilidagi III shaxs o'tgan zamon fe'lidagi so'zlar yordamida tuzilgan sintaktik birikmalardan bilsa bo'ladi. Bundan tashqari, savol-javob epizodlari ham o'sha davr ruhini ifodalovchi gaplardan iborat bo'lib, ijrosida doston janri (Xorazm maktabi) uslubiga monand ohang mavjud.

Biz bevosita ijro etilayotgan paytda yozib olgan "Absattor sayis"<sup>1</sup>, "Gandmiyon"<sup>2</sup>, "Shohsanam ko'shki", "Pahlavon Mahmud va hind shohi" kabi o'nlab rivoyatlar ijrosi hamda badiha jarayoni yuqorida ko'rib o'tilgan rivoyat singari tipologik xususiyatga ega.

Demak, jonli ijroda yashayotgan yoki rivojlanish jarayoni tugab, turg'un holga kelib qolgan ayrim afsona, rivoyat, naql, latifa, ertak janrlari ijro payti badiha qilishga qulay va boshqa janrlar bilan tez munosabatga kirishib keta olish xususiyatiga ega. Bunday folklor namunalari boshqa xalqlar og'zaki ijodiga badiha qilinish, oson moslanishi

<sup>1</sup> Rahmonov N. Ko'hna bitiktoshlar. – Toshkent: G'.G'ulom nashriyoti, 1991. – B. 30.

<sup>2</sup> To'xliyev B. Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asari. – Toshkent: O'zbekiston, 1991. – B.26.

kabi barqarorlikka ham egadir. Fikrimiz dalili uchun O'zbekistonning qo'shni hududlarida istiqomat qiluvchi o'zbek millatiga mansub etnik guruhlarga taalluqli afsona, rivoyat, naql, matal, ertak latifa, maqol, topishmoq kabi (ayrim paremiologik) turga mansub janrlarning boshqa milliy jumhuriyatlar folklorida interpretatsiya qilinib, transformatsiyaga uchragan variantlarini misol tariqasida ko'rsatish mumkin. Bunday tipdagi folklor namunalari tarixiy shaxslar, avliyolar, toponimik, kosmogonik, etnonimik, etiologik afsona, rivoyat kabi turkumidagi kichik epik janrlari mansubdir. Bu tipdagi janrlar yuqorida ta'kidlaganimizdek, ko'proq jonli ijroda yashashi tufayli, bugungi hayot bilan o'tmish hayotini, hozirgi axloqiy-ma'naviy qarash bilan o'tmish avlodlar ma'naviy-axloqiy tushunchalarini tarixiy-tipologik qiyoslash orqali tinglovchi yoki eshituvchida muayyan mushohada uyg'otish, fikrlashga yordam beradi. Fikrimizni tasdiqlash uchun buriyat folklorshunosining afsona va rivoyatga bag'ishlangan ishidagi ayrim o'rinlarga murojaat qilamiz: "Og'zaki hikoyalarni (kichik epik janrlarni) deyarli hamma vaqt jonli ijroda tez-tez eshitish mumkin. Bunday proza asarlari hamisha muomalada bo'lib, axloq, odob normalarini saqlashda muhim vosita hisoblanib, ijro jihatidan cheklanmagan holda yashab keladi". Mazkur tezisini bevosita o'zbek folklorining jonli ijrodagi janrlariga ham qo'llasa, xato bo'lmaydi. Chunki xalqimiz mehnat jarayonidami, uy-ro'zg'or tashvishlaridami, marosimlardami, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faoliyatlardami, xullas, qanday holatda bo'lmasin, ijobiy hodisalarni tasdiqlovchi, salbiy narsalarni inkor qiluvchi tushunchalarga birorta ibratli folklor namunasi bilan javob berib kelmoqda.

Xalq og'zaki ijodi kichik epik janrlari ijrosining yuzaga kelishi vaziyati ham tabiiy bo'lib, odatda, so'zlovchi yoki biror fikrni uqtiruvchi tinglovchiga o'z gapi, fikrining naqadar to'g'ri, hayotiy ekanligini va tinglovchi shu naqlga (aytilgan biror folklor namunasi) rioya qilsa, albatta, ishlari doimo yaxshi bo'lishi, jamiyatda munosib kishi bo'lib yetishishda yordam berajagini asoslash, dalillash maqsadida bayon qilinadi. Kichik epik janrlar tabiiy ijroda vaziyatga qarab (auditoriyaga qarab), o'zi hikoya qilayotgan afsona, rivoyat naql, matallarning syujeti, motivi, obrazlarini interpretatsiyalashi ham mumkin. Chunonchi, tinglovchi hayot ko'rgan, tajribali kishi bo'lsa, uning saviyasiga moslanadi, yoxud tinglovchi maktab o'quvchisi, o'smir yoshda bo'lsa, unda iloji boricha g'oyani yana ham kuchaytirishga yordam beradigan qo'shimcha motiv va obrazlar kiritilib, improvizatsiya qilinadi.

Akademik Amosovning bu sohada olib borgan uzoq yillik tajribalari, ilmiy kuzatishlari va tahlillari natijalariga ko'ra inson tafakkuri faoliyati bilan bog'liq, san'at asarlariga odamzodning biologik yashash uchun kurash qonuniyatlari, nasl qoldirish qonuniyatlaridan kelib chiqib baholash to'g'ri ekanligini ilmiy asoslab berdi. Agar mazkur xulosalar asosida xalq og'zaki ijodi rivoji, undagi iste'dodli kishilar shaxsiga sinchiklab nazar solsak, biz uchun klassik hisoblangan xalq afsona, rivoyat, naql, matal, ertak, tarixiy qo'shiq, doston, lirik va paremiologik janrlar o'z-o'zidan so'nggi avlodlarga yetib kelmasligi ma'lum bo'ldi. Bu faqat og'zaki ijod an'analari emas, balki xalq milliy xususiyati, etnogenezi belgilovchi turli marosim, urf-odatlar va ular bilan tadbirlarni

omma orasidagi qandaydir iste'dodi bor, atrof-muhitni boshqalarga qaraganda sezgirlik bilan idrok eta oluvchi jo'shqin shoirlik tuyg'ulariga ega bo'lgan so'zga chechan, xotirasi kuchli, tabiatan xalqparvar, hayotbaxsh ruhdagi va xarakterli kishilar tomonidan davom ettirilayotgani ma'lum bo'ladi.

Epik mazmunning improvizatsiya san'ati vositasida estetik funksiyasi va g'oyaviy ahamiyati kuchayishini Samarqand viloyati Nurobod tumanida istiqomat qiluvchi Hikmat baxshi Mamarahim o'g'lidan yozib olingan "Murod to'ba" va "Nay navosi afsonalari" misolida ko'rsatish mumkin. Folklorshunoslikda "Murod tepa" tipidagi toponomik afsonalar to'g'risida fikrlar yuritilganligi, geografik makon, joy bilan bog'liq folklor asarlari yaratilishi masalasida ko'pgina qarashlar mavjud. Biroq bu o'rinda afsona, rivoyat, naql, matal, ertak kabi epik janrlarning syujeti, motivlari asosida dostonlar ham yaratilganligini ko'rsatib o'tish lozim.

Nurobodning "Karnob" xo'jaligi, Tim qishlog'i aholisi orasida qadimdan aytib kelinadigan "Nay navosi" afsonasi hozirgi jonli ijroda yashayotgan kichik epik janrlardan biridir. Chunonchi, bunday tipdagi afsonalar turli mavzularda bo'lib, biz syujet, motivlari, obrazi, baxshi badiyasi natijasida kengaytirilgan, ya'ni doston janriga aylangan "Nay navosi" haqida fikr yuritimiz. O'zbek folklorshunosligida baxshilar va baxshichilik san'ati an'analari bilan shug'ullangan olimlarning e'tirof etishlaricha, "Epik repertuari o'zlashtirish darajasi, dostonchilik san'atini qay darajada egallanganliklariga qarab, a) professional, b) professional bo'lmagan baxshilarga ajratilgan. Shular orasida ham ijodkorlik, soz vositasida kuylash, badihago'ylik va ijroga qarab uch tipi mavjud. "Nay navosi" afsonasi syujetini doston janri shakliga transformatsiya qilib ijro etgan baxshini shular orasidagi havaskor-badihago'y tipiga kiritisa bo'ladi. Bu o'rinda "havaskor-badihago'y baxshi"ning qishloq xalqi tarixiy lavhalarini keyingi avlodlarga og'izma-og'iz yetib kelishiga xizmat qilgan bu kichkina afsona syujetini doston janri tabiatga xos-epik mazmun salmog'ini kegaytirib, xalq fantaziyasi asosida afsonadagi obrazni umumlashgan obrazlar darajasiga ko'targani va xalqning ijtimoiy adolat haqidagi g'oyalari bilan boyitganligiga e'tibor berish zarur. Afsona syujetini so'zlab bergan baxshi, uni doston janri uslubida qayta kuylaganida, biz badihalash jarayonida xalq dostonlari uchun xos bo'lgan epiklikdan tashqari, syujet voqealaridagi izchillik, kompozitsion tuzilishiga ko'ra murakkablik kabi xususiyatlarni kuzatdik. Epik turga mansub folklor janrlarning genetik ildizlari umumiy ekanligiga yana bir karra ishonch hosil qildik.

Havaskor-badihago'y baxshi Hikmat Mamarayim o'g'li mana shu afsona syujeti asosida doston ijro etganida, unda xalq an'anaviy dostonchiligi elementlari, she'riy, nasriy bayonlarning umumiy syujet voqealariga mantiqan moslashtirilganligi, doston tabiatiga xos sintaktik formulalar, ibratli she'riy ifodalar, poetik vositalar, me'yoriga qarab ishlatilganligi va xalq idealidagi romantik g'oyaning hayotbaxsh ruhdaligi bilan namoyon bo'lishi kuzatildi. Janrlar munosabatiga doir tipologik qiyoslash natijasida chiquvchi bu xulosa, ijro va improvizatsiya jarayonlarining epik janrlar orasida sodir bo'ladigan holatlarga oid fikrlarimizni tasdiqlovchi faktlar boshqa baxshilar repertuaridagi ayrim dostonlarga ham taalluqlidir.



# *IV BO' LIM*

**PEDAGOGIKA,  
PSIXOLOGIYA**

## IJTIMOYIY-MADANIY MUHITNI YARATISHDA MENEJMENTNING O'RNI

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-madaniy muhitni yaratishda menejmentning o'rni va ahamiyati haqida tahliliy fikr-mulohazalar yuritilgan. Ayniqsa, madaniyat va san'at muassasalarining ijodiy ishlari bilan ijtimoiy-madaniy muhitda tarbiyaviy ishlarni olib borish va bu jarayonlarda menejerlarning faoliyati xususida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Shuningdek, Yangi O'zbekistonda ijtimoiy madaniy muhitni yanada takomillashtirishda menejmentni rivojlantirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** menejment, muassasa, muhit, san'at, rivojlantirish, nazariya, jarayon, menejer, vazifa, maqsad.

Абдулазиз НУРУЛЛАЕВ,

Проректор по учебной работе ГИИКУз, кандидат экономических наук, доцент

## РОЛЬ МЕНЕДЖМЕНТА В СОЗДАНИИ СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНОЙ СРЕДЫ

**Аннотация:** В статье представлен аналитический обзор роли и значения менеджмента в создании социокультурной среды в Новом Узбекистане. В частности, проводились научные исследования творческой деятельности учреждений культуры и искусства, воспитательной работы в социокультурной среде и деятельности менеджеров в этих процессах. Также были внесены предложения и рекомендации по развитию менеджмента в дальнейшем улучшении социокультурной среды в Новом Узбекистане.

**Ключевые слова:** менеджмент, институт, среда, искусство, развитие, теория, процесс, менеджер, задача, цель.

Abdulaziz NURULLAYEV,

Vice Rector for Academic Affairs of the UzSIAC Candidate of Economic Sciences, Associate Professor

## THE ROLE OF MANAGEMENT IN CREATING OF SOCIO-CULTURAL ENVIRONMENT

**Abstract:** This article provides analytical feedback on the role and importance of management in creating a socio-cultural environment in New Uzbekistan. In particular, the creative work of cultural and art institutions, educational work in the socio-cultural environment, and scientific research on the activities of managers in this process. Also, suggestions and recommendations were made for the development of management in the further improvement of the socio-cultural environment in New Uzbekistan.

**Keywords:** management, institution, environment, art, development, theory, process, manager, task, goal.

Aholini milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ijtimoiy madaniy muhitni yuksaltirish orqali madaniyat siyosatini yangicha dunyoqarash negizida shakllantirishda san'at menejmentining ham o'rni kattadir. Ayniqsa, ijtimoiy-madaniy muhitni takomillashtirishda menejment kasbiga san'at bozorida tobora talab ortib bormoqda. Yoshlarimiz orasida o'zining kreativ g'oyasi va loyihalari bilan menejmentning rivojlanishida innovator bo'lib maydonga chiqayotgan iqtidorli yoshlarimiz ham talaygina.

Bugun yosh avlodning xalqlarimiz hayoti va taqdiridagi o'zaro munosabatlarimiz rivojidadagi o'rni tobora ortib bormoqda. Ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kreativ g'oya va loyihalarini rag'batlantirish, milliy qadriyatlarimizga yot bo'lgan ta'sirlardan asrab-avaylash barchamizning asosiy vazifalarimizdan biridir [1: 1 b].

Haqiqatan ham yoshlarimizni milliy qadriyatlarimizga yot unsurlardan asrashda ijtimoiy-madaniy muhitni milliy qadriyatlarimiz bilan sug'orilgan asarlar bilan boyitish va sohani yangicha kreativlik asosida rivojlantirishda menejment o'ziga xos o'rin tutadi.

Ijodiy ishlab chiqarish, tijoratni yoki ijtimoiy-madaniy faoliyatni boshqarish, mehnat samaradorligini oshirish, foydani ko'paytirish yoki jamiyat taraqqiyoti yo'lida ma'naviy islohotlarni amalga oshirish maqsadida ishlab chiqilgan va qo'llaniladigan boshqaruv tamoyillari, usullari, vositalari va shakllarining majmuasi – bu zamonaviy tilda menejment deyiladi.

Madaniyat va san'at muassasalari ham ijodiy ishlab chiqarish tadbirlarini amalga oshiruvchi faoliyatdir. Bugungi

kunda ijtimoiy-madaniy muhitda menejment unumdorligining natijasini ko'rsatish uchun uning zamonaviy imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish zarur. Binobarin, Yangi O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasi menejmentining ahamiyati yuqori hisoblanadi.

Madaniyat va san'at sohasidagi menejment ko'p jihatdan xizmat ko'rsatish menejmentiga o'xshab ketadi. Ushbu soha menejmentining o'ziga xos xususiyati shundaki, u asosan madaniyat va san'at yo'nalishidagi davlat tashkilotlarida, shuningdek, to'yxonalarda, kafe-barlarda, xususiy uylarda, diskotekalarda o'tkaziladigan tantanalarda madaniy xizmat ko'rsatishni tashkil etadi [2: 62].

Yangi O'zbekiston madaniyat tashkilotlari va madaniy xizmat ko'rsatishda ham yangicha iqtisodiy munosabatlar, xalqaro hamkorliklarni, davlat-xususiy sheriklik islohotlarini yo'lga qo'ydi. Chunonchi, xususiy sheriklik tizimida keng imkoniyatlar yaratilib, madaniy muhitda yangicha iqtisodiy integratsion jarayon vujudga keldi. Madaniy muhitda tadbirkorlik faoliyatiga imkoniyatlar kengaydi. Intellektual salohiyatning qadri yuqoriladi, chunki madaniy muhitimiz ma'naviy emas, moddiy jihatdan yangicha tizimga muhtoj edi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev bu jarayonlarning xususiyati haqida quyidagicha ta'kidlab o'tgan edi. "Barchamiz bir haqiqatni chuqur anglab olishimiz kerak: tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash – fuqarolar, xalqimiz farovonligini oshirishning eng samarali yo'li, Yangi O'zbekistonni barpo qilish pirovard maqsadidir. Binobarin, biz endi aqlimizni, intellektual salohiyatimizni, bilim va tajribamizni oshirishimiz, aynan ana

shu omillarni iqtisodiy o'sish nuqtalari va resurs manbalariga aylantirishimiz shart" [3: 26,27].

Bu islohotlar o'z navbatida, madaniy muhitda menejmentning yangicha nazariy asoslariga suyanish lozim ekanligini anglatdi.

Jahon bozoridagi iqtisodiy vaziyat murakkablashdi, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tabiati tubdan o'zgardi. Iqtisodiy raqobat nihoyatda kuchayib, tobora keskin va shafqatsiz tus olmoqda [4: 127].

Iqtisodiy munosabatlar qaysi sohada bo'lmasin, taraqqiyotning yangi bosqichiga chiqishimiz uchun shu sohada avvaldan tahlil qilingan ilmiy asoslarga suyanishni taqozo etadi.

Tarixdan ma'lumki, biron bir jamiyat o'zining milliy-ma'naviy, axloqiy-ruhiy imkoniyatlarini odamlar ongida azaliy qadriyat sifatida shakllantirishda asosiy vositalardan biri bo'lgan madaniyat va san'atni rivojlantirmay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi [5: 6-bet].

Madaniy muhitda menejmentning muhim ahamiyat kasb etishi haqida yaqin davrda yozilgan ilmiy manbalarda o'rganib chiqilgan va atiroficha bayon qilingan. Jumladan, falsafa fanlari doktori, professor V. Alimasovning "O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy soha: nazariya va amaliyot" asarida quyidagicha ilmiy prognoz keltirilgan:

"Bugun ma'naviy-ma'rifiy muassasalar aholiga madaniy xizmatlar ko'rsatib, o'ziga qo'shimcha mablag' ishlab topish huquqiga ega. Kelgusida iqtisodiy boshqarishning, ijara va ijara pudrati, ichki xo'jalik hisobi, yakka tartibda madaniy xizmat ko'rsatish kabi ko'rinishlari ham mavjud bo'ladi. Bu usullarning qaysi biridan foydalanishni mahalliy aholi, uning qiziqishi va ehtiyojlari hal etadi. Fuqarolarning qiziqishi va ehtiyojlarini qondirish o'zaro manfaatdorlik asosiga quriladi. Taraqqiyot tarixi ko'rsatadiki, kishilar o'z mehnatiga, talantiga yarasha haq olganida va taqdirlanganida jon kuydirib ishlaydi, ixtirolar qiladi va betakror san'at asarlari yaratadi. Shuning uchun kelgusida ma'naviy-ma'rifiy sohaning pragmatizm qonunlariga muvofiq rivojlanishini tan olishimiz, uni fojia deb emas, balki tadbirkorlikning bir ko'rinishi sifatida qabul qilishimiz zarur" [6: 111].

Professor V. Alimasov tahlil qilgani kabi madaniy-ma'rifiy soha pragmatizm qonunlariga muvofiq rivojlanadi va tadbirkorlikning, ya'ni kreativ tadbirkorlikning bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. Bunda o'z-o'zidan menejmentga ehtiyoj va zaruriyat yuzaga keladi. Ilmda xulosaning to'g'ri bildirilganining o'zi ham madaniy muhitda menejmentning kelajakdagi istiqboliga ehtiyoj yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Menejment insonlarni ongli mehnatga, tadbirkorlikka qiziqtirish, ishga mas'uliyatligini nazorat qilish, ularning faoliyatida bilim va ko'nikmalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'minlash, rag'batlantirishni tashkil etishdir [7:18].

Menejment ma'lum turdagi tizim bo'lib, uning samarali ishlashi tizimning har bir elementi tomonidan muayyan funksiyani bajarishi bilan ta'minlanadi.

Bunda o'zaro bog'liq bo'lgan elementlar yoki tuzilmalar tizimi sifatida menejment haqida ko'proq yoki kamroq adekvat g'oyani shakllantirish muhimdir. Boshqaruv jarayonining tarkibiy qismlari orasida ko'pincha qonuniyatlar, boshqaruv tamoyillari, usullari, mexanizmlari, funksiyalari va boshqalar ajralib turadi.

Menejment fani – bu boshqaruvchiga tanlovni to'g'ri amalga oshirishni va ishchan qarorni qabul qilishni o'rgatuvchi fandır. Shundan kelib chiqqan holda bu fan quyidagilarni o'rganadi:

- boshqarish nazariyasi va amaliyoti;
- boshqarish obyekti va subyekti;
- boshqarish tamoyillari va usullari;
- boshqarish madaniyati;
- menejer va uning kategoriyalari;
- menejer reytingi;

- boshqarishda kirishuvchanlik va qaror qabul qilish;
- boshqarish funksiyalari;
- xodimlarni boshqarish;
- ishlab chiqarishni boshqarish;
- samaradorlikni boshqarish;
- o'z-o'zini boshqarish;
- hududiy boshqarish va hokazolar [8:18,19].

Boshqaruv shakllari – bu boshqaruv faoliyati elementlari o'rtasidagi nisbatan barqaror munosabatlarni aks ettiruvchi doimiy takrorlanadigan tendensiyalardir. Boshqaruv jarayonida dolzarb bo'lgan menejment qonuniyatlari orasida eng muhimlari qatorida mutaxassislar quyidagilarga e'tiborni qaratadilar:

- iqtisodiyotni tashkil etish shakllari va usullarini o'zgartirishga muvofiq boshqaruv nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqish;
- tashkilotning boshqaruv tizimini tanlash va shakllantirishda tashqi muhit holatining aniqlovchi ta'siri;
- boshqaruvning ijtimoiy mazmunining tashkilot mulkiga egalik shakllariga muvofiqligi;
- boshqaruv va boshqariladigan quyi tizimlar (subyekt va boshqaruv obyekti) o'rtasidagi munosabat;
- asosan ongli (rejali) boshqaruvdan foydalanish;
- tashkilotdagi boshqaruv funksiyalarining zichligi va dinamik o'zgarishi;
- tashkiliy boshqaruv darajalarini optimallashtirish (ratsionalizatsiya);
- boshqaruv jarayonlarida nazorat, hisob va tahlil funksiyalaridan oqilona foydalanish.

Bu kabi funksiyalar madaniy muhitda menejment tushunchasini belgilash uchun unga kiruvchi ba'zi bir holatlarni, hammadan avval maqsadli mazmunni aniqlab olish kerakligini anglatadi. Shuningdek, madaniy muhitni yaratishda menejmentning roli ko'p jihatdan boshqaruv tamoyillarini, ya'ni menejment funksiyalarini amalga oshirish uchun boshqaruvning asosiy g'oyalari va qoidalarini belgilaydi. Umumiy tamoyillar orasida ko'pincha quyidagilar ajralib turadi:

- qo'llanilish prinsipi (rahbar barcha xodimlar uchun harakatlar uchun ko'rsatmalar ishlab chiqadi);
- izchillik prinsipi (tashkilotning tashqi va ichki omillarini va tashkiliy tuzilmaning alohida elementlarining munosabatlarini hisobga olgan holda butun boshqaruv tizimini qamrab olish);
- ko'p funksiyalilik prinsipi (rahbar tomonidan faoliyatning turli jihatlarini, shu jumladan, tashkilotning moddiy zahiralari, mehnat sharoitlari, ijodiy resurslari va yakuniy maqsadlarni hisobga olish);
- integratsiya prinsipi (xodimlarning turli xil munosabatlar usullari va qarashlarini tashkil etish doirasida integratsiyani ta'minlash);
- qiymatga yo'naltirilganlik prinsipi (menejmentning mehmondo'stlik, halol xizmat ko'rsatish, xizmatlarning narxlari va sifatining qulay nisbati va boshqalar kabi qadriyatlarga yo'naltirilganligi);
- boshqaruv samaradorligi prinsipi (rahbar zarur qarorlarni tezda qabul qila olishi, bir turdagi ishni bajarishdan ikkinchisiga tezda o'tishi, o'zgaruvchan sharoitlarda samarali harakat qilishi kerak);
- xolislik prinsipi (rahbar xolis bo'lishi, voqelikni xolis baholashga asoslanishi, boshqaruvchining xatti-harakatlari boshqaruv obyektlari va subyektlari irodasi va xohishiga bog'liq bo'lmasligi kerak).

Ijtimoiy-madaniy muhitni yaratishda bu kuch ma'lum maqsad asnosida barqaror madaniy muhitning poydevori bo'ladi. Ijtimoiy madaniy muhitda ommani tarbiyalash menejmentning maqsadga erishishi bilan tasniflanadi.

Buning uchun madaniyat muassasasi, boshqa tashkilotlar singari, harakat dasturini ishlab chiqadi, bu jarayonda aniq

vazifalar belgilanadi, ularga erishish yo'llari aniqlanadi va tadbirlar rejalashtiriladi. Madaniyat muassasasining maqsadi unga yuklatilgan vakolatlariga asoslanadi va tanlangan strategiya va taktika yordamida amalga oshiriladi. Masalan, madaniyat markazida madaniy tadbir tashkil etilsa, unga aholi taklif etiladi. Bu orqali ijtimoiy madaniy muhit yuzaga keladi.

Biroq maqsadlarni belgilashda har qanday tashkilot yoki muassasa rahbari boshqaruv tizimida qabul qilingan umumiy tamoyillarga amal qilishi, ya'ni:

- vaziyatni tavsiflash;
- ustuvorliklarni aniqlash;
- umumiy maqsad sifatida eng muhim ustuvor yo'nalishlardan birini tanlash;
- yakuniy natijalar nuqtai nazaridan maqsadlarni shakllantirish;
- “maqsad – resurslar – natijalar” tizimida maqsadning bo'laklanishi;
- maqsadlar daraxtini (tarkibini) yaratish;
- kichik maqsadlar tarkibining to'liqligi, ularning bo'ysunishi (ierarxiyasi) va xaziralar bilan ta'minlanishi uchun maqsadlar daraxtini baholash;
- maqsadli vazifalarni maqsadlar va kichik maqsadlar bo'yicha shakllantirish.

Ijtimoiy-madaniy muhitda menejmentga ta'sir ko'rsatadigan omillar faqat birgina ko'rinishda bo'lmaydi. Chunki madaniyat va san'at sohasi inson ijodining mahsulidir. Ijtimoiy-madaniy muhitda insonlarning qiziqishi vaqt nuqtayi nazardan har soniyada o'zgarishi mumkin. Madaniyat va san'at menejmentning boshqa sohalardan farqli tomoni ham shunda. Bu jarayonlarni taqsimlash, tahlil etish, mutanosibligini ushlab turish menejmentning vazifasi. Menejer – madaniy muhit menejmentining asosiy ijrochisi. Ijtimoiy-madaniy muhit esa globallashtirish bosqichlarida har xil ziddiyatlarga duch kelmoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarga globallashtirish ziddiyatlari ta'sir etmay qolmayapti. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti va uning iqtisodiy integratsiyaga keng yo'l ochib berayotgani jahon standartlariga mos keluvchi faoliyat turlarini, kasb-korlarni, o'quv yurtlarini, moliyaviy aloqalarni, informatsiya tizimlarini, adabiyot va san'atda yangi oqimlarni yuzaga keltirmoqda. Masalan, biznes, menejer, konsalting, monitoring, internet shular jumlasidandir [9:92].

Ijtimoiy-madaniy muhitni vujudga keltirishda menejmentning mas'uliyati yuqori darajadagi vazifalardan iborat bo'ladi. Ijro vazifalari esa pog'onalariga qarab yuqori ko'tarilib, murakkablashib boraveradi. To'g'ri, korxonani boshqarish bevosita mulk egasining vazifasi deyishimiz mumkin. Ijodiy muhitni boshqarish uchun mulk egasi yoki ijodkor shaxs bo'lish shart emas. Ya'ni prodyuserlar san'atkor yoki musiqashunos bo'lmasa ham, tijoriy faoliyatini amalga oshiraveradi. Boshqarish vazifasini san'at va madaniyat muassasalarida menejer bajaradi. Iqtisodiy ko'rsatgichlar pasaygani sari va aloqalar murakkablashgan sari, menejerlik xizmatiga talab oshadi.

Ijtimoiy-madaniy muhitni yaratishda menejment vazifalari – bu ma'lum bir vaqt ichida muayyan harakatlarni bajarish orqali erishiladigan kichik maqsadlar. Tashkilotlar va madaniyat muassasalarida topshiriqlarning bajarilishi xodimlarning qabul qilingan rasmiy vazifalariga muvofiq taqsimlanadi. Tashkilot faoliyati samaradorligiga ta'sir qilish xususiyatiga ko'ra, boshqaruv vazifalarini bir necha guruhlariga bo'lish mumkin.

Birinchi guruh vazifasi – natijasi tashkilot samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan vazifalarni o'z ichiga oladi. Madaniyat sohasida bunday vazifalar madaniy faoliyat samaradorligini oshirishga, ijtimoiy-madaniy muhitning yaxshi shakllanishiga, madaniy xizmatlar sifatini oshirish (madaniyat markazlari, kutubxonalar, teatr, ko'rgazma va boshqalar)ga qaratilgan bo'ladi.

Ikkinchi guruh muayyan tashkiliy shakllar orqali muassasa faoliyatiga ta'sir qiladigan vazifalarni o'z ichiga oladi. Bunga ijtimoiy-madaniy marketing, madaniy muassasa resurslarini taqsimlash, madaniy faoliyatni nazorat qilish va boshqalar kiradi.

Menejment vazifalarining uchinchi guruhini yordamchi sifatida tavsiflash mumkin, chunki ular birinchi va ikkinchi guruh vazifalarini hal qilishga qaratilgan bo'lib, madaniy faoliyatni hisobga olib, tahliliy tadqiqotlar, madaniyat muassasalari auditini o'rganib, ijtimoiy-madaniy muhitni yaratishda katta ahamiyatga egadir.

Madaniy muhitda menejment roli xodimlarning ishi bilan chambarchas bog'liq. Texnologiya mahsulotlarni, ya'ni zamonaviy ijod mahsulatlarini yaratish, tarqatish, ishlatish, ularning o'sishi, sifatini oshirish, xizmatlarni ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish va boshqalarga qaratilgan usullar, jarayonlar, materiallar, chora-tadbirlar yoki operatsiyalar majmuasini joriy etishni o'z ichiga oladi. Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-madaniy muhitni yaratishning mohiyati ham shu, aslida.

Yangi O'zbekiston strategiyasi, oliyanob niyatlarni amalga oshirish, yangi hayot qurish yo'lidagi beqiyos o'zgarishlar hammamizdan fidoyilik va bunyodkorlikni, yanada katta jonbozlik va kreativ g'oyani talab etmoqda.

Biz o'z oldimizga O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya orqali erisha olamiz. Buning uchun, avvalo, islohotlarning amaliy natijadorligini oshirish, joylarda yangi tashabbuslarni ilgari surishda aholimizning yanada faol, yanada tashabbuskor bo'lishiga erishmog'imiz lozim [10: 20,23].

Ijtimoiy-madaniy muhitni yaratish axborot almashuv jarayonlari natijasida amalga oshirilmoqda. Buning oqibatida madaniyat va san'at mahsulotlari jahon iqtisodiy ko'rsatkichlariga o'z ta'sirini ko'rsatadigan darajaga erishdi. Bizning madaniy muhitimiz ma'naviy salohiyati orqali shakllanganligini hisobga olsak, dunyo media makoni va madaniy muhitiga asta-sekin maxsus dasturlar orqali kirib borishimiz kerak.

Ochiq aytish kerak: agar biz yurtimizda barqaror iqtisodiyot qurmoqchi bo'lsak, dunyodagi rivojlangan mamlakatlar kabi boy va farovon yashamoqchi bo'lsak, chala-chulpa, yuzaki emas, balki qanchalik qiyin va murakkab bo'lmasin, haqiqiy bozor iqtisodiyotiga o'tishimiz shart [10: 71].

Madaniy muhitda boshqaruv funksiyalari boshqaruv jarayonining mazmunini ochib beradi. Har qanday ishni bajarish uchun oxir-oqibat nima olish kerakligini, biznesni qanday tashkil qilish, uni amalga oshirishni rag'batlantirish va nazorat qilishni oldindan aniqlash kerak.

Rejalashtirish madaniyat va san'at muassasalarining maqsadlari va ularga erishish yo'llarini aniqlash uchun faoliyat jarayonida zarurdir. Rejalashtirishda madaniy muhitning istiqboliga tayyorgarlik ko'riladi, qanday zahiralalar talab qilinishi va bunga qanday yo'llar bilan erishish mumkinligi aniqlanadi. U uzoq muddatli (strategik) va qisqa muddatli, operativ bo'lishi mumkin.

Tashkillashtirish rejalashtirilgan maqsadlarga erishish uchun aniq shart-sharoitlarni yaratishni o'z ichiga oladi. Tashkillashtirish madaniyat va san'at muassasasining, firmaning ish jarayonini tizimlashtirishga, uning faoliyatining iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy-psixologik jihatlarini tartibga solishga qaratilgan.

Ijtimoiy-madaniy muhitda menejment rivojlanishining hozirgi bosqichida rag'batlantirish xodimlarni boshqarish jarayonining asosini tashkil etuvchi harakatlarni bajarish uchun xodimlarni ichki rag'batlantirish tizimiga aylanib ulgurdi. Rag'batlantirish tashkilot xodimlari uchun xodimlarni boshqaruv jarayonida ko'rsatilgan harakatlarni bajarishga undaydigan bunday

sharoitlarni yaratish bilan bog'liq. Xodimlarni rag'batlantirish – bu ularning manfaatlarini hisobga olish va ularning ijodiy salohiyati, qobiliyatlarini va iste'dodlarini ro'yobga chiqarish uchun qulay muhitni ta'minlashdir.

Ijtimoiy-madaniy muhitni yaratish menejmentida qaror qabul qilish – bu qanday va nimani rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish va nazorat qilishni tanlashdir.

Ijtimoiy-madaniy muhitni yaratishda ham menejment jamiyatning qonuniyatlari, ehtiyojlari va talablari negizida sayqallanib boradi. Yuqorida muhokama qilingan ijtimoiy-madaniy muhitda madaniyat va san'at sohasida menejmentning vazifalarini hisobga olgan holda, quyidagilarni madaniy muhitning o'ziga xos boshqaruv funksiyalari deb atash kerak:

– ijtimoiy sheriklikka yo'naltirilganlik, ya'ni madaniyat va san'at muassasalarining ta'lim tashkilotlari, fan, din, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar bilan yaqindan hamkorlik qilishi, bu esa shaxs, hudud, aholi va boshqalarni rivojlantirish bo'yicha kompleks dasturlar, chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi;

– madaniyat muassasalarida mulkchilikning turli shakllarini amalga oshirish (davlat, xususiy sheriklik, nodavlat va natijorat v.h.k.);

– rejalashtirishda, madaniy muassasalarning vazifasi, maqsad va yo'nalishlarini belgilashda davlat va mintaqaviy darajadagi madaniyat siyosatining asosiy tamoyillarini, mintaqalarda ishlab chiqilgan madaniy rivojlanish strategiyalarini, madaniy mohiyatlarni, dasturlarni va boshqalarni hisobga olish;

– madaniyat va san'at sohasidagi hududiy, davlat va xalqaro hamkorlikni muvofiqlashtirish.

Ijtimoiy-madaniy muhitning o'zi yangi davrning ijtimoiy-siyosiy tuzilishiga mos kelishi shart. Madaniyat va san'at sohasida yangi tizim va tuzilmalar, tashkilot va muassasalarning shakllanishi uchun madaniy muhit menejmenti mezonlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishimiz kerak. Yangi O'zbekistondagi madaniy muhitning bosh missiyasi ham shu. Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: "Aminmanki, yuksak salohiyatli xalqimiz o'zining g'ayrat-shijoati va fidokorona mehnati bilan yurtimizda Yangi O'zbekistonda yangi uyg'onishni – Uchinchi Rennessansi bunyod etishga, albatta, qodir. Bugun biz yagona xalq, yangona millat bo'lib, ko'zlagan yuksak maqsadlarimiz sari dadil bormoqdamiz. Vujudimizda, qonimizda ajdodlarimizdan meros buyuk qudrat jo'sh urayotgan ekan, biz ezgu orzu va maqsadimiz bo'lmish Yangi O'zbekistonni, albatta bunyod etamiz", – deya ta'kidlab o'tganidek, yurtimizdagi madaniy muhitni yaxshilashda faqat soha xodimlari va mutasaddilar emas, barchamiz harakat qilishimiz kerak.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-madaniy muhitni yaratishda menejmentning o'rni va rolini oshirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

– madaniyat va san'at muassasalarini infratuzilmasini xalqaro standartlarga muvofiq rivojlantirish uchun zamonaviy internet resurslarini yaratish va O'zbekistonda "yangona ijodiy bozor" elektron platforma ishlab chiqish;

– madaniyat va san'at sohasida Toshkent shahar va viloyatlar uchun o'tkaziladigan tadbirlarga buyurtmalar beriladigan va mavjud vakansiyalarga oid bazalarni shakllantirishda axborot texnologiyalarini keng amaliyotga joriy etish;

– madaniy tadbirlarning ssenariy, rejissyorlik ishi, aktyorlar, baletmeysterlar va h.k. ijodiy mehnat mahsulini va ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirishda onlayn menejerlar faoliyatini qo'llab quvvatlash zarur;

– xorijiy art menejerlarining amaliyotda muvaffaqiyatli sinovdan o'tib kelayotgan usullarini O'zbekiston sharoitida qo'llash;

– madaniyat va san'at sohasida ochiq auksion va ijodiy tenderlar o'tkazish;

– madaniyat va san'at muassasalariga menejer faoliyati lavozimlariga ochiq tanlovlar o'tkazish va Respublika miqyosida "Ijodkor menejer" tanlovini o'tkazish rejasini ishlab chiqish;

– ijtimoiy-madaniy muhitni ommalashtirishda oilaviy havaskorlik jamoalar faoliyatiga keng e'tibor qaratish;

– banklar tizimida madaniyat va san'at menejerlar faoliyatini rivojlantirish uchun foizsiz kreditlar ajratishni yo'lga qo'yish;

– ijtimoiy-madaniy muhitni yaratishda imkoniyati cheklangan shaxslarning foalligini oshirish;

– oliy ta'lim muassasalarida madaniyat va san'at sohasida ta'lim olayotgan yoshlarni xorijdagi art menejment tashkilotlariga tajriba orttirishga yuborishni yo'lga qo'yish va xalqaro hamkorlikni yanada soddalashtirish tizimini yaratishi lozim.

Uchinchi Rennessansning ijtimoiy-madaniy muhitini shakllantirishda menejment rivoji uchun tashlangan amaliy qadamlar, yuksak madaniy muhitimizning kafolatidir. Chunki, sohaga qaratilayotgan e'tibor, soha vakillarining kuchiga-kuch, g'ayratiga-g'ayrat qo'shadi. Zero, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: "Ijodkor ziyolilarga doimiy e'tibor qaratish, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga, mehnat va yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan ishlarni ushbu sohadagi siyosatimizning muhim yo'nalishlari sifatida davom ettiramiz [11: 4]", – deya ta'kidlab o'tganidek, Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-madaniy muhitini yaratishda katta hissa qo'shadigan ijodkor menejerlar ham qo'llab-quvvatlanib yangi ijtimoiy-madaniy muhitni yaratishga muvaffaq bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Yangi O'zbekiston" ijtimoiy-siyosiy gazetasining № 228 (484), 2021-yil 13-noyabr, shanba soni. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Turkiy tili davlatlar hamkorlik Kengashi sammitidagi nutqi.
2. A.Haydarov. Madaniyat va san'at sohasini boshqarish asoslari. (o'quv qo'llanma) "Kamalak" nashriyoti. Toshkent – 2019. 192 b.
3. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. Toshkent – 2021-yil. "O'qituvchi" MChJ matbaa uyi. 182-bet.
4. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent. "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 464-bet.
5. A.H.Haydarov. Madaniyat – milliy yuksalish poydevori (matn) "Oltin meros press" nashriyoti. Toshkent – 2021. 478 bet.
6. V.Alimasov, Yu.Manzarov. O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy soha: nazariya va amaliyot (falsafiy-sotsiologik tadqiqot). "Navro'z" nashriyoti. Toshkent: 2014. B-120.
7. D.S. Qosimova. Menejment nazariyasi. Darslik. – Toshkent, "Tafakkur-bo'stoni". 2011. 336-bet.
8. M.B.Bekmuradov., X.X.Shodiev. "Menejment nazariyasi va amaliyoti". Magistrlar uchun o'quv qo'llanma. Toshkent – 2021 y. "Zamon poligraf" OK nashriyoti. B-272.
9. V.A.Alimasov, B.X.Xodjayeva. Ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotda tarixiy shaxslarning roli. – T.: "Fan va texnologiya", 2016, – B. 120.
10. Sh.M.Mirziyoyev. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2019. – B. 400.
11. "XXI asr" ijtimoiy-siyosiy gazetasi. 2021-yil 10-sentyabrdagi soni 35(929). Yangi O'zbekiston – inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlatdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga ko'rsatilgan nomzod Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston liberal-demokratik partiyasining X syezdidagi nutqi. – B. 6.

## TIL – TARAQQIYOT TIMSOLI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek tilining shakllanish tarixi, adabiyot ahli hioblangan mashhur adiblarning tilimiz rivojiga qo'shgan o'ziga xos hissalar va ularning asarlarining til xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** o'zbek(turkiy)tili, turkiy xalq, adabiy til taraqqiyoti, dramaturgiya, publitsistika, lug'atshunoslik.

Хамдам ИСМОИЛОВ,

кафедры "Мировых языков и литературы" доцент ГИИК Уз, кандидат филологических наук

## ЯЗЫК – СИМВОЛ ЦИВИЛИЗАЦИИ

**Аннотация.** В данной статье речь ведется об истории формирования узбекского языка, о своеобразном вкладе известных поэтов и писателей в его развитие и языковой специфике их произведений.

**Ключевые слова:** узбекский(туркский)язык, туркский народ, развитие литературного языка, драматургия, публицистика, словарь.

Khamdam ISMOILOV,

"Word language and literature" Assistant of Professor of UzSIAC, Candidate of Philological science

## LANGUAGE – SIGN OF CIVILIZATION

**Annotation.** This article discusses the history of the formation of the Uzbek language, the contribution of artists to its development throughout the history of literature and the linguistic features of their works.

**Keywords:** Uzbek (Turkish) language, Turkish people, literary language development, dramaturgy, journalism, lexicography.

O'zbek xalqi qadimgi davrlarda yashagan turkiy xalqlarning bir bo'g'ini hisoblangan. Keyinchalik, tabiiy ravishda, bu bo'g'indan ajralib chiqib, mustaqil xalq sifatida o'z tiliga, mavqeyiga ega bo'ldi. Prezidentimiz ta'бири bilan aytadigan bo'lsak: "Xalqimizning ko'p asrlik madaniy, ilmiy-ma'rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo'lgan o'zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir. Turkiy tillarning katta oilasiga mansub bo'lgan o'zbek tilining tarixi xalqimizning ko'p asrlik kecmishi, uning orzu-intilishlari, dard-u armonlari, zafarlari va g'alabalari bilan chambarchas bog'liqdir. Istiqloq yillarida ona tilimiz tom ma'noda davlat tiliga aylanib, xalqimizni yurtimizda erkin va ozod, farovon hayot qurishdek buyuk marralarga safarbar etadigan beqiyos kuch sifatida maydonga chiqdi"[1].

Qadimgi o'zbek(turkiy) tili eng avvalo xalq og'zaki ijodida vujudga keldi. Onalar allasi xalq og'zaki ijodining bosh bo'g'ini va kishilik taraqqiyotining eng avvali hisoblanadi. Shu sababli onalar allasi orqali ona tili go'dakning qulog'iga kirib, uning ongiga singib boradi va yuragiga o'rnashadi. Natijada, kishi ulg'aygan sayin ona tili haqidagi tuyg'u tobora mustahkamlanib boraverdi, imyon-e'tiqodi butun kishigina o'zbek tilimizni e'zozlaydi, asrab-avaylaydi, unga nisbatan fidoyi bo'ladi.

Qadimdan turkiy(o'zbek) til fidoyilari tufayli tilimiz toshbitiklarda o'z aksini topdi. Xususan, O'rxun-Enasoy toshbitiklarida qadimgi turkiy tilda qadimgi ajdodlarning qimmatli pand-nasihatlarini o'qib-o'rganib kelinmoqda. Bular dastlabki turkiy til sohiblarining tilimizga bo'lgan e'zozlaridan qalbimizni g'ururga to'ldiradi. Prezidentimizning nutqida shunday so'zlar keltiriladi: "Ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz aynan ona tilimiz orqali jahonga o'z so'zini aytib kelganlar, shu tilda buyuk-madaniyat namunalari, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratgan"[1]. Shu tufayli Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, al-Xorazmiy kabi buyuk olim-u fuzalolar avlodlarga bebaho ma'naviy ilmiy meros qoldirdilar. Garchi, ularning asarlari o'sha davrlar taomiliga ko'ra arab tilida yaratilgan bo'lsa-da, ularni turkiy til sohiblari tomonidan yaratilganligi cheksiz faxr-g'urur tuyg'ularini bag'ishlaydi. Negaki, ularning asarlari butun jahonda hamon

qiziqish bilan o'qib o'rganilmoqda, oliy o'quv yurtlaridagi dars jarayonlarida foydalanilmoqda. Yuqorida nomlari keltirilgan turkiy olimlarning turli sohalardagi faoliyati tufayli jahonda matematika, fizika, geometriya, astronomiya, meditsina, mexanika fanlari rivojlanib, hozirgi kunlarga takomillashgan holda yetib keldi.

Vatanparvar, elparvar ajdodlarimiz o'z yurti, ona tilini himoya qilib zarur bo'lganda shu yo'lda o'z jonini ham ayamaganlar. Shu ma'noda Prezidentimizning quyidagi so'zlari ibratlidir: "O'tmishda o'lkamizni bosib olgan turli yovuz kuchlar bizni avvalo o'z tilimizdan, tariximiz va madaniyatimizdan, din-u diyonatimizdan judo qilishga urindilar, ular el-yurtimiz boshiga qanday azob-uqubatlar, kulfat va musibatlar solgani tarixdan yaxshi ma'lum"[1]. Darhaqiqat, yurtimizning qadim tarixida ma'lum va mashhur bo'lgan elparvar, ozodlikparvar qahramonlari bo'lgan To'maris va Shiroq haqida afsonalar yuradi. Ular ham qadimgi turkiy tilda muloqot qilishgan va ish yuritishgan. Buyuk sarkarda Amir Temur o'z yurti, o'z tilini saqlab qolish uchun ulug'vor ishlarni amalga oshirdi. O'z tilida ulug'vor bunyodkorlik ishlarini amalga oshirish yuzasidan farmoyishlar bergan. O'z tili, o'z yurtini yanada qudratli qilish maqsadida ulkan imperiyaga asos solgan va tarqoq turkiy xalqlarni tili va dilini birlashtirgan.

Dastlabki o'rta asrlardayoq o'lkamizda Mahmud Qoshg'ariy turkiy tilda "Devonu lug'otit turk" asarini yaratdi. Og'ir mehna evaziga lug'atshunos olim turkiy tilning naqadar boyligi, rang-barangligini ko'rsatib qo'ydi va ilmiy jihatdan asosladi. Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" asarida turkiy tilda ilmning naqadar qudratli kuch ekanligini isbotladi va xalqni, yosh avlodni ilm olishga va unga sodiq bo'lishga chorladi. Bilim kishining o'ziga va uning avlodlariga ham saodat keltirishi, tilini burro, o'zini dono qilishini ta'kidladi. Ahmad Yugnakiy o'zining turkiy tilda yozilgan "Hibatul haqoyiq" asarida ham tarixiy tilimizning naqadar tashbehlariga boyligini namoyon qildi. Hazrat Ahmad Yassaviy "Devoni hikmat" asarida islom dini arkonlarini turkiy tilda badiiy jihatdan talqin etdi. Dunyoning o'tkinchiligi, berilgan qisqa sinov vaqtida ko'p savob ishlarni amalga oshirish kerakligi o'zbek tilida badiiy ifodalab berildi"[4].

O'zbek tili, jumladan, o'zbek adabiy tilining shakllanishi Alisher Navoiy nomi bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asari bilan o'zbek (turk) tilining buyuk bilimdoni va homiysi bo'lib maydonga chiqdi. Bu tilning boshqa tillardan mutlaqo qolishmasligini amalda isbot qilib bergan shoir mazkur asarida bu muhim xulosasini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab ko'rsatdi. Navoiy o'z ijodiy faoliyati davomida "Sab'ati abhur" ("Yetti dengiz") nomli lug'atshunoslikka oid asar yozib tilimizni lug'aviy jihatdan yanada boyitdi. Shunga ko'ra Navoiy o'zbek adabiy tiliga asos solib, uni amalda nihoyatda boyitgan tilshunos sifatida tarixga kirdi.

Tilimizning keyingi davrlardagi ravnaqi shoir, shoh, sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi bilan bog'liq bo'ldi. Boburning tili hozirgi tilimizga yanada yaqinlashdi. Bobur o'z asarlarida qo'llagan tashbehlari, badiiy unsurlari bilan tilimizni yanada boyitdi, tilimizga yangi so'zlar olib kirdi. Bobur qo'llagan til o'zining go'zalligi, munisligi, musiqaviyligi bilan ajralib turadi. Bu buyuk sarkarda, olim, shoir bobomiz o'zbek-turkiy tilning rivojlanishi va yanada takomillashuviga katta hissa qo'shdi.

XVIII – XIX asrlarda ijod qilgan Munis Xorazmiy, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira, Muqimiy, Zavqiy, Furqat kabi shoirlar ham o'z ijodlari bilan o'zbek tilining boyishiga xizmat qilgan, o'zbek tilidagi so'zlarning keng imkoniyatini ochib bergan. Bu davrlarda adabiyotga yangi janrlarning kirib kelishi, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar tufayli o'zbek tiliga anchagina so'zlar o'zlashdi va tilimiz sezilarli boyidi. Bu o'z navbatida tilimizning keying ravnaqiga o'z ta'sirini o'tkazdi.

XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi o'zbek tili tarixi jadidlar ijodi bilan bog'liq bo'ldi. Mahmudxo'ja Behbudiy o'zbek tilida o'sha davrgacha mavjud bo'lmagan drama janrida asar yozdi. Bu bilan o'zbek tilida nasriy janrdagi asarlar yaratish mumkinligini isbotladi. Yana bir e'tiborli tomoni shundaki, adib o'zining ushbu asari bilan tilimizni sahnada jaranglashiga erishdi. Shu asnoda Behbudiy o'zbek dramaturgiyasiga asos solib, XX asr boshlarida o'zbek madaniyatida yangi voqelikni vujudga keltirdi. Nashr ishlarini tashkil etib, o'zbek publitsistikani boshlab berdi, o'zbek publitsistikasi bu bilan mustaqil rivojlanish yo'liga o'tdi [3].

Abdurauf Fitrat XX asr boshlaridagi o'zbek milliy uyg'onish adabiyotining jarchisi va asoschilaridan biri, o'zbek milliy she'riyati, prozasi, adabiyotshunosligi, tilshunosligi, maorifi, jamiyatshunosligi singari o'nlab sohalarning oyoqqa turishiga, rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Fitrat ona tilini mukammal egallashida onasining xizmati katta bo'ldi. Shu sababli butun umri davomida ona tili rivojiga katta hissa qo'shdi. O'zbek adabiyoti tarixida birinchi bo'lib o'zbek tilida "Abulfayzxon" fojia sahna asarini yozdi. Uning xizmatlari tufayli maktablarda "O'zbek tili" darslari o'tildi. Umuman olganda, Fitrat o'zbek tili rivojiga ulkan hissa qo'shdi.

Mashhur yozuvchi Abdulla Qodiriy o'zbek tilini nihoyatda qadrladi. Uning imkoniyatlari ulkan, so'zlarga boy, badiiy tasvirlari keng ekanligini o'zining epik asarlarida ko'rsatib qo'ydi. Uning romanlari va hikoyalarning tili shirali, sermazzmun, qochirimlarga va milliy unsurlarga boy

ekanligidan o'zbek kitobxonlarining bir necha avlodlari ularni hamon sevib o'qib kelmoqda.

A. Qodiriy o'z tarjimalari bilan ham o'zbek tili badiiy ifodaviy tasvirda boshqa tillardan qolishmasligini isbotladi. Yozuvchi asarlari qahramonlarining o'zaro muloqotdagi gaplari madaniy kishilar muloqotining yuksak darajadagi namunasiga aylandi. U milliy tilini o'z millatidek e'zozladi, qadrladi.

Shu o'rinda, taniqli yozuvchi va tarjimon Abdulhamid Cho'lponning o'zbek tili bilimdoni ekanligini ham ta'kidlash o'rinlidir. Bu holatni uning ham nazm, ham nasr asarlarida kuzatish mumkin. U o'zbek tilining matbuotdagi keng imkoniyatlarini ko'rsatdi. Rus tilidan o'zbek tiliga tarjima asarlari uning ijodida salmoqli o'rin egalladi. Hikoya janri ustasi Abdulla Qahhorning ham tilimiz taraqqiyotida o'z o'rni bor. Uning hikoyalarda qisqalik va lo'ndalikka intilish bilan bog'liq hodisa o'zbek tilidagi so'zlar yordamida chuqur tagma'noga ega bo'lgan sermazzmun asarlar yaratish mumkin ekanligining isboti bo'ldi. O'zbek tilida "qahhorcha" iboralar, qochirimlar vujudga keldi. Bular ham tilimizning o'ziga xos boyligiga aylandi.

O'tgan asrning so'nggi yillarida ijod qilgan Abdulla Oripov va Erkin Vohidov kabi shoirlar ham tilimizni yanada boyishiga va mustahkamlanishiga ulkan hissa qo'shishgan. Ularning nihoyatda nazokatli, o'zbekona, ba'zan esa tanqidlarga boy she'rlari tilimizga o'zgacha ruh bag'ishladi va ma'lum darajada milliy tilimizga yanada sayqal berdi.

Keyingi davrlarda yashab ijod qilgan yosh shoirlar ham o'zbek tiliga o'zgacha ruh bag'ishladi. Ularning she'rlarida qo'llangan zamonaviy so'zlar tilimiz zamon bilan hamqadam ravishda rivojlanayotganidan darak beradi. Shu o'rinda O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning ijodi diqqatga sazovordir. Shoir butun ijodi davomida soddalikka, xalqonalikka intilib keldi va bu bilan she'riyatda katta muvaffaqiyatga erishdi. Uning soddagina so'zlar yordamida yaratgan she'rlari kitobxonning qalbiga singib, unda tilimizga bo'lgan muhabbatni yanada mustahkamlaydi.

O'zbek tili XX asrda jiddiy to'siqlarga qaramay, o'ziga xos tarzda ham nazariy, ham amaliy jihatdan rivojlandi. Asr boshlaridayoq bir qator tilshunos olimlar o'zbek tili sohasida jiddiy ilmiy tadqiqotlarni boshlab yubordi. So'ngra bu an'anani tilshunoslarning keyingi avlodi hisoblangan yosh olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borib, tilimiz nazariy jihatdan pishiq-puxta til ekanligini isbotladilar va boshqa jahon tillari bilan bema'lol bahslashga oladigan boy til ekanligini ham ko'rsatib berdilar. Shu bilan birga, o'tgan asrda "O'zbek tilining izohli lug'ati", "Ruscha-o'zbekcha lug'at", "O'zbekcha-ruscha lug'at" va boshqa lug'at kitoblarini chop etilganligi o'zbek tilining naqadar boy til ekanligini ko'rsatib turadi.

Umuman olganda, milliy tilimiz qanchalik qadimiy bo'lgan bo'lsa, shuncha asrlar davomida jiddiy to'siqlarga qaramay rivojlandi va taraqqiy etdi. O'zbek tilining taraqqiyot davri bevosita adabiyot taraqqiyoti bilan bog'liq bo'ldi. Negaki, til ham, adabiyot ham bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining Davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. – Toshkent. "O'zbekiston ovozi" gazetasi, 2019-yil 22-oktabr.
2. Hozirgi zamon o'zbek tili. – Toshkent: Fan, 1957.
3. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 1966.
4. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
5. O'zbek tili grammatikasi. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1975.

## MADANIYAT VA SAN’AT SOHASIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**Annotatsiya.** Ushbu maqola madaniyat sohasidagi menejment xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Samarali boshqaruv faoliyatini amalga oshirish yo‘lidagi muammoli masalalar va to‘siqlar yechimiga alohida e’tibor qaratilgan. Asosiy vektorlar ham aniqlanib, ularning amalda qo‘llanilishi va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari va bozor mexanizmlarining maqbul usullari orqali boshqaruv samaradorligini oshirish borasida bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar xususida ma’lumotlar beriladi.

**Kalit so‘zlar:** samaradorlik, menejment, madaniyat, moliyalashtirish, innovatsiya.

Турабек ФАЙЗИЕВ,  
ГГИК Уз и.о.заведующий кафедрой “Организация и управление учреждениями культуры и искусств”  
кандидат технических наук, доцент

## ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ В СФЕРЕ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА

**Аннотация.** Статья посвящена изучению особенностей управления в сфере культуры. Особое внимание уделяется проблемным вопросам и препятствиям на пути осуществления эффективной управленческой деятельности. Определены и ключевые векторы, практическое применение которых позволит повысить эффективность управления за счет оптимальных методов мер государственной поддержки и рыночных механизмов.

**Ключевые слова:** эффективность, управление, культура, финансирование, инновации.

Turabek FAYZIYEV,  
candidate of Technical Sciences, associate professor

“Organizations and management of institutions culture and arts” acting heads of the chair UzSIAC

## IMPROVING THE EFFICIENCY OF MANAGEMENT IN THE FIELD OF CULTURE AND ART

**Annotation.** The article is devoted to the study of the peculiarities of management in the field of culture. Special attention is paid to problematic issues and obstacles to the implementation of effective management activities. The key vectors have also been identified, the practical application of which will increase the efficiency of management through optimal methods of state support measures and market mechanisms.

**Keywords:** efficiency, management, culture, financing, innovation.

Har qanday mamlakatning jahon makoniga integratsiyalashuvi madaniyat va san’at sohasida milliy boshqaruv tizimini doimiy takomillashtirishni, raqobatbardosh ta’lim muhitini yaratishni, san’at va ijod sohasidagi xizmatlar sifatini yaxshilashni talab qiladi [1].

Ta’kidlash lozimki, o‘tgan asrning 80-yillarida Sharqiy Reyn Vestfaliya yerida ko‘plab sanoat tarmoqlari inqirozga uchrab, odamlar ishsiz qolgan edi. Hukumat va xususiy investorlar yordamida oxirigi o‘n yil ichida bu sanoat xarobasi madaniyat o‘lkasiga aylandi. Shaxta konlaridan muzeylar, terrikon (konlardan chiqqan yaroqsiz jinslar uyumi)dan mashhur haykaltaroshlar ishlari bilan bezatilgan parklar, ilgari sexlardan balet va spektakllar hamda o‘qish va ko‘rgazmalar uchun maydonchalar barpo etildi. Soliq imtiyozlari yordamida bu yerga turli dizaynerlik byuro va internet firmalar jalb etildi, musiqiy studiyalar, reklama agentliklari ochildi va bularning barisi turistlarni o‘ziga jalb qildi. Madaniyat va san’at sohasining iqtisodiy ahamiyatligini namoyon etuvchi ushbu misol butun bir viloyatni restruksizatsiya qilinishi nafaqat madaniyat va san’atga, balki boshqa bunyodkorlik va turizm kabilarga naf keltirishini ko‘rsatdi.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi madaniyat va san’at sohasini rivojlanishini ta’minlashda ham yangicha yondashuv talab etilmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlis deputatlari va O‘zbekiston xalqiga qilgan murojaatnomasidagi ma’ruzalarida gapirib o‘tdilar. Bu xususida xorijiy davlatlarning san’at sohasi boshqaruvida

ilg‘or tajribalarini o‘rganish va milliy nazariya va amaliyotga tadbir etish foydadan holi emas. Zamonaviy boshqaruv texnologiyalaridan biri art menejment va art marketing madaniyat va san’at sohasida olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirishi mumkin. Bugun marketing boshqaruv nazariyasi va amaliyotida yangi tushuncha emas, balki faoliyat zaruriyatiga aylangan [2].

Ishlab chiqarishda uning samarasini texnika va texnologiya, unumdorlik va rentabellik aniqlasada, san’atda tashkilot faoliyati mohiyatining har bir xodimining ijodiy qobiliyati, iste’dodi va g‘oyalari tashkil qiladi. Shundan kelib chiqqan holda, notijorat tashkilotlarda personalni boshqarish ishlab chiqarish jarayoni boshqaruvidan ahamiyatliroqdir. San’at muassasasida personalni boshqarish san’at mahsulotining sifati va tarqatish masshtabini aniqlaydi.

Muassasa rahbari resurslardan oqilona foydalanish masalasi yechimining eng optimal variantini qabul qilishi lozim. Mehnat resurslari muassasaning eng muhim resursi bo‘lib, uni ijodkor xodimlar tashkil qiladi. Ularni boshqarishda motivatsiya alohida ahamiyatga ega.

Xodimlarni tanlash va ishga qabul qilish jarayoni san’at muassasasida boshqa tashkilotlarga qaraganda murakkabroq kechadi. Chunki buning uchun ma’lum obyektiv o‘lchovlar mavjud emas. San’at muassasasida ishga qabul qilish tanlov asosida yoki mehnat bozorida monitoring bilan shug‘ullanuvchi maxsus bo‘limlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Ishga qabul qilingan xodimni muassasa faoliyati

konsepsiyasiga va mehnat usuliga ko'niktirish bu rahbarning keyingi vazifasidir. Opera teatri yoki muzey kabi yirik kompleksli muassasa haqida so'z yuritilgan, bu vazifa yanada murakkab bo'lishi ehtimoli yuqori. Masalan, shuhratparastlik kabi nozik masalalar e'tiborga olinishi kerak. Har bir xodimning maksimal darajada o'z qobiliyatini namoyon etish uchun sharoitlar yaratish va shu bilan birga, mehnatga motivlashtirishning eng yuqori pog'onasiga erishish ham personal boshqaruvning muhim vazifalaridan biridir. San'at menejmenti motivatsion muammolarga ancha sezgir bo'lib, kadrlarni bazaviy joylashtirish motivatsiyaga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etadi.

Bu esa ijodiy jarayon samaradorligini aniqlaydi, shuning uchun motivatsion jarayonni dasturlash murakkab va strategik jihatdan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda xorijiy mamlakatlarda qonun chiqarish va sud amaliyoti motivatsiyani boshqarish bo'yicha dasturlarini amalga oshirish jarayonida xodimlarga ta'sir ko'rsatishda ularning huquqlarini himoyalab ish beruvchilarni chegaralaydi. Motivatsiyani boshqarish xodimning manfaati, maqsadlari hamda oilaviy vaziyatiga qaratilgan bo'lib, bunda nozik masalalardan biri bu xodimning oilaviy ahvoli va shaxs sifatida uning shaxsiy hayotiga aralashmay o'rganishdir. Fransiyada qabul qilingan qonun asosida mehnat shartnomasi xodimning shaxsiy qadrini himoyalaydi. Sud amaliyoti xodimlar tomonidan ish joyida qoldirilgan shaxsiy yozuvlari bilan ma'muriyatning tanishishini man etadi. Ish vaqtida xodimlarning xizmat telefoni orqali gaplashishini nazorat qilishi uchun maxsus qoidalar ishlab chiqilgan. Ilgari ish vaqti kompaniya boshqaruvining "shaxsiy mulki" sifatida ko'rilgan bo'lsa-da, bugungi kunda, aksincha, xodimning o'ziga tegishli bo'lib qolmoqda va ish vaqti ustidan o'ta qat'iy nazorat diskriminatsion tadbir sifatida ko'rilmog'da.

Ayrim mamlakatlarda xodimlarni audio va video apparatura orqali kuzatish chegaralanmog'da yoki umuman taqiqlanmog'da. Bu esa o'z o'rnida rotatsion dasturini amalga oshirish jarayonida monitoringga xalaqit bermog'da. Rotatsion dasturi bir iyerarxik pog'ona miqyosida xodimlar o'rnini almashtirishga qaratilgan rejali tadbirlar tizimidir. U san'at menejmentida personalni boshqarish bo'yicha samarali tadbir sifatida qabul qilinishi mumkin.

Yaponiyaning mehnat munosabatlari modeli xodimning oilasiga g'amxo'rlik qilishga qaratilgan va bu xodimning shaxsiy hayotiga aralashish sifatida qabul qilinmaydi.

Hozir ishlab chiqarishda o'ziga xos psixologik baxtsiz hodisa sifatida baholanayotgan mobbingni man etishga qaratilgan mehnat qonunchiligining yangi yo'nalishi shakllanmog'da. Mobbing bu xodimga ma'muriyat va hamkasblari tomonidan o'tkaziladigan psixologik ta'sir ko'satishdir [3].

G'arbiy Yevropa mamlakatlari iqtisodiyot va madaniyatning o'zaro bog'liqligini, shuningdek, har qanday mamlakatning iqtisodiy rivojlanishining asosi uning madaniy qadriyatlarini yaratish va saqlashdir. Mamlakatdagi iqtisodiy o'zgarishlarning asosiy vosita va ko'rsatkichlaridan biri – bu chorak asr oldin madaniyat sohasidagi tadbirkorlikning dastlabki nihollari sifatida faoliyatlarini boshlagan, mustaqil musiqiy markazlari, dizayn ustaxonalari, badiiy studiyalar va boshqalarni qo'llab-quvvatlay boshlagan san'at sohasiga qaratilgan siyosatdir [4]. Britaniyalik mutaxassis Charlz Landri Vashingtondagi Amerika tarixi milliy muzeyi direktori Mark Paxter bilan birgalikda zamonaviy sharoitda madaniyat dunyosi o'z maqsadlarini qayta ko'rib chiqishi va moslashishga qisqartirilmaydigan pozitsiyani rivojlantirishi kerak, degan fikrni olg'a suradi. Bu fikr esa mutlaqo yangi

ijtimoiy va iqtisodiy landshaftda madaniyatning muhim o'rin tutishi lozim ekanligini ta'kidladi [5]. Natijada, ushbu tendensiyalar bugungi kunda ko'plab Yevropa mamlakatlarining madaniy va iqtisodiy siyosatini va shunga mos ravishda ushbu sohaning moliyalashtirish modellari, shuningdek, ushbu sohadagi boshqaruv samaradorligini aniqlashga xizmat qildi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, bugungi kunda madaniyat va san'at tashkilotlarini strategik boshqarish va rejalashtirish asosida mahalliy va davlat vertikal darajasida muhim o'zgarishlarga ehtiyoj borligini e'tirof etish lozim. Bu madaniyat va san'at sohasidagi boshqaruv jarayonlarining hozirgi holatini o'rganishni talab qiladi hamda maqolaning tanlangan mavzusining dolzarbligini belgilaydi. San'at sohasida menejment ta'lim, pedagogik va boshqa yo'nalishlardagi menejmentdan farqlanadi. San'at menejmenti umumiy menejment fanida tor va nisbatan "yosh" yo'nalishdir. Madaniyat sohasidagi institutlarni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari va algoritmini o'rganish rus tadqiqotchilari A.Bezgin, L.Danilenko, G.Yelnikova, V.Maslov, A.Ovcharuk, G.Padalka, V.Pikelnaya, T.Rojnova, V.Rojkov va xorijiy olimlar Ye.Kriz, R.Renshtler, I.Robertson, S.Sidorov, G.Xagurt tomonidan olib borilgan. YUNESKO tomonidan ham bu borada salmoqli ishlar amalga oshirilgan bo'lib, uning natijalari "madaniyatni moliyalashtirish, xavfni boshqarish" nomli ma'ruzalarda belgilangan. Bu masala fanning turli sohalari vakillari tomonidan predmet izlanishlarining xilma-xil prinsiplari orqali ham ko'rib chiqildi. Misol uchun, madaniy muassasalarni moliyalashtirishni davlat tomonidan tartibga solish A.Visand, K.Jorj, R.Fisher, M.Shuster tomonidan o'rganildi. Shunday qilib, yaqinda jahon hamjamiyati olimlarining madaniy masalalarga, xususan, milliy, mintaqaviy va institusional darajadagi madaniy muassasalarni boshqarishni takomillashtirish masalalariga, madaniyat sohasida boshqaruv sifati va samaradorligini oshirish vazifalariga qiziqishi ortganini kuzatishimiz mumkin. Biroq madaniy muassasalar uchun boshqaruv rivojlanishlariga yetarlicha e'tibor berilmaydi, ularning o'ziga xos xususiyatlari to'liq hisobga olinmaydi, ushbu turdagi tashkilotlarda boshqaruv tizimining aniq rasmiylashtirilgan algoritmi yo'q. Bundan tashqari, ma'lum bir hududda madaniy sohani rivojlantirish uchun moliyalashtirish manbalari va madaniy muassasalar faoliyati har bir hududning o'ziga xos xususiyatlariga mos ravishda ta'sir qiluvchi iqtisodiy omillar e'tiborsiz qoldirishdi, bu davlat byudjeti xarajatlari darajasiga aniq ta'sir qiladi. Shunday qilib, madaniyat sohasidagi menejment xususiyatlari va uning samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash dolzarb bo'lib qolmog'da. Bugungi kunga kelib, xalqaro tajriba va amaliyot shuni ko'rsatadiki, madaniyat va san'at muassasalarining asosiy tarmog'i bevosita davlat moliyasiga bog'liq, buni, albatta, ijobiy hodisa deb bo'lmaydi [6]. Iqtisodiy va siyosiy beqarorlik holatida bu holat bilan mamlakat madaniy ulushining rivojlanishini to'liq qo'llab-quvvatlay olmaydi, natijada bu sohada davlat sektori pasayishiga olib keladi. Shunday qilib, madaniyat va san'at sohasidagi samarali boshqaruv amaliyotlarini tizimlashtirish – umumlashtirishning turli asoslarini va umumiy boshqaruv konturining muayyan muhim elementlaridan foydalanishda tanlash imkoniyatini nazarda tutadi. Shunday qilib, madaniyat va san'at sohasidagi samarali boshqaruv amaliyotlarini tizimlashtirish umumlashtirishning turli asoslarini va umumiy boshqaruv konturining muayyan muhim elementlarini foydasiga tanlash imkoniyatini nazarda tutadi. Dunyo bo'ylab madaniyat sohasidagi boshqaruv

samaradorligining umumiy mezonini madaniy muassasalar faoliyatining subyektiv individual – ijodiy paradigmasiga aniq belgilangan tarkibiy va funksional komponentlar (maqsad, faoliyat subyektlari, faoliyat mazmuni va usullari) bilan qo'llab-quvvatlash va yo'naltirishdir, bu ijobiy yutuqlarga asoslanadi[7]. Eng yaxshi xalqaro tajribani o'rganar ekanmiz, madaniyat va san'at sohasida boshqaruv samaradorligini oshirish uchun muhim salohiyat madaniyat bo'yicha byudjet xarajatlarini kamaytirish va byudjetdan tashqari mablag'larni jalb qilish mexanizmlarini joriy etishda ekanligiga guvoh bo'lamiz. Jumladan, Buyuk Britaniyada 1979-yil Margarit Tetcher hukumati hokimiyatga kelishi bilan davlat xarajatlari madaniyat va san'at sohasida kamaya boshladi. Polshada esa 1989-yildan boshlab, madaniyat sohasini byudjetdan moliyalashtirish keskin kamaydi. Avstriyada bu tendensiya 2002-yildan buyon keng tarqalgan edi [9]. Demak, bozor iqtisodiyoti sharoitida madaniy soha faqat davlat moliyasiga tayanishi mumkin emas. Madaniyat va san'at menejmentining rivojlanish tendensiyalari tahlili shuni ko'rsatadiki, AQSH, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida davlat nafaqat byudjetni moliyalashtirishga, balki, eng avvalo, byudjetdan tashqari mablag'larni jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan madaniyatni qo'llab-quvvatlash strategiyasiga amal qiladi. Shu nuqtai nazardan, u madaniyat va san'at sohasida boshqaruv samaradorligini oshirish uchun asosiy yo'nalishlarini aniqlash mumkin:

- madaniy va biznes tashkilotlari (fandrayzing – ehson yig'ish) o'rtasida aloqalarni yo'lga qo'yish;
- “o'ziga xos” soliqlarni (parafiskal manbalar) joriy etish;
- nodavlat, notijorat tashkilotlari yangi tashkiliy – huquqiy shakli yordamida;
- madaniy muassasalari va boshqa tashkilotlar o'rtasida shartnoma munosabatlarini joriy etish;
- byudjetni moliyalashtirish mexanizmini o'zgartirish [9].

Hech shubha yo'qki, madaniyat sohasidagi samarali boshqaruvni faqat yetarli boshqaruv usullaridan foydalanish, jumladan, maqsadlarni belgilash, strategiyani ishlab chiqish, zarur resurslarni aniqlash va tashqi muhit bilan munosabatlarni madaniy muassasalarning raqobatbardoshligini qo'llab-quvvatlash bilan ta'minlash mumkin. Bundan tashqari, zamonaviy madaniy kenglikda, boshqaruv tizimini modernizatsiyalash tubdan muayyan madaniy tadbirlar amalga oshirish asoslarini yangilash zarurligi, shuningdek, tegishli infratuzilma va muassasalari faoliyatining asosiy jihatlarini kengaytirish zarurligi bilan bog'liq [10]. Shunday

qilib, bu holatlar bozor va davlat tomonidan tartibga solishning kerakligini aniq ko'rsatib turibdi, birinchi bosqichda madaniyat va san'at korxonalarini moliyalashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini isloh qilish kerak. Faoliyatning muqobil strategiyasini izlash madaniyat sohasida boshqaruv samaradorligini oshirishga va natijada madaniy muassasalarni rivojlantirishga yordam beradi. Muqobil strategiyalarni ishlab chiqishda quyidagi tavsiyalarni hisobga olish kerak:

- boshqa tashkilotlar allaqachon ishtirok etayotgan dasturlar sonini ko'paytirish tavsiya etilmaydi, tavsiya etilgan dasturlar original, innovatsion, noyob bo'lishi kerak;
- dasturlarni ishlab chiqishda tashkilotlarning afzalliklaridan foydalanish tavsiya etiladi va ular asosida mijozlarga takliflarni ishlab chiqish;
- potensial mijozlaringizning ehtiyojlarini hisobga olish kerak. Mijozlar uchun dolzarblik va jozibadorlikni yo'qotgan yo'nalishlar va xizmatlarni o'z vaqtida tark etish muhimdir[11].

Har bir muqobil strategiya variantini kutiladigan samaradorlikni tavakkalchilik darajasi nuqtai nazaridan baholash kerak. Madaniy sohani boshqarish tizimiga bozor mexanizmlarini joriy etishga qaramasdan, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yaxshilashga e'tibor qaratish tavsiya etiladi. Davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish uchun katta salohiyatga ega bo'lib, uni amalga oshirish yuridik yoki jismoniy shaxslar, xayriya tashkilotlari, homiyar ishtirokida madaniy muassasalarni moliyalashtirishda tegishli qoidalar asosida, soliq imtiyozlarini o'rnatish orqali madaniy sohani rivojlantirishga hissa qo'shishi mumkin. Bundan tashqari, qonunchilik darajasida ijtimoiy-madaniy sohani tashkil etishda mablag'lar xayriya maqsadlariga yo'naltirilgan taqdirda, metsenatni o'z kompaniyasiga soliq yukini kamaytirish imkoniyatini beruvchi me'yorlarga tuzatishlar kiritish mumkin. Xulosa o'rnida aytish lozimki, madaniyat sohasida boshqaruv samaradorligini oshirish uchun keng yo'nalishlar va vositalar mavjuddir. Ya'ni:

- ko'pgina madaniy va san'at muassasalarning o'zini-o'zi ta'minlash va mustaqilligini oshirishga urg'u beradi;
- jamoatchilik institutlari, madaniy loyihalar uchun imtiyozli moliyaviy va soliq ta'minoti tashkil qilinadi;
- boshqaruvni markazsizlashtirish tendensiyasi rivojlantiriladi.

Madaniyat sohasida boshqaruv konturini qurishning asosiy tamoyillari “davlat-xususiy sheriklik” tamoyili va “yetarli masofa” tamoyili bo'lishi kerak.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Noskova N. A. Madaniyat sohasidagi loyihalarni boshqarish amaliyotini tahlil qilish// Sankt-Peterburg iqtisodiy jurnali. – 2018. № 4-son, 50-56-betlar.
2. U.G'. Zunnunova, T.R.Fayziyev. Art marketing. O'quv qo'llanma. //Toshkent: “Kamalak” 2019-yil, – B. 9.
3. M.Sh.Qayimov, A.S.Umarov, U.G'.Zunnunova. San'at menejmenti. O'quv qo'llanma. // Extremum-Press. 2012-yil, 72-73-betlar.
4. Mixaylina A.V. Ijtimoiy-madaniy sohadagi xizmatlar sifatini boshqarish tizimi// Iqtisodiyot va menejment: muammolar, yechimlar. – 2018. - Jild. 2. - 79-83 betlar.
5. Paxter M. Madaniyat chorrahasida. XXI asr madaniyati va madaniyat muassasalari// Mumtoz XXI asr, jurnal. 2003. – B. 96.
8. Zamaxova V. O. Madaniyat sohasini boshqarish: mintaqaviy jihat // Ilmiy-uslubiy elektron jurnal . – 2017. № T.: 39. – son, 3746-3750-betlar.
9. Shurupova A. C. Madaniy faoliyatni boshqarish bo'yicha mintaqaviy hokimiyat organlarining faoliyati // Ilmiy-uslubiy elektron jurnal Konsept. – 2017. № T.: 15. – son, 1281-1285-betlar.
10. Breusova YE. A. Zagorulko A. V. Madaniyat sohasini boshqarishdagi ustuvor yo'nalishlar// Ilmiy-uslubiy elektron jurnal Konsept. – 2016. № T. 17. – son, – B. 254-256-betlar.
11. Pestyakova T.Mintaqaviy darajada madaniyat sohasini boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish // Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy sheriklik. Jurnal. – 2016. № 1-son. – B. 28-37.

## "PADARKUSH" DRAMASIDA YOSHLARNI ILMSIZLIKDAN QUTQARISH G'OYASI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyning Turkiston o'lkasi xalqlarining ilm yo'lida amalga oshirishi kerak bo'lgan masalalari xususida atroflicha fikr yuritilgan. Ilmsiz millat jaholatga borishi muqarrar ekanligi ko'rsatiladi. Dramadagi o'qimagan bola va o'qitishni istamagan otaning holati Turkiston o'lka yoshlarini fojiga olib kelishi tasvirlanadi.

**Kalit so'zlar:** ilm, ma'rifat, jaholat, illat, yoshlar, Turkiston, drama, fojia, tarbiya, millat, himmat.

Normurod AVAZOV,

доцент кафедры «Узбекский язык и литература» кандидат филологических наук, ГИИК Уз.

## ИДЕЯ СПАСЕНИЯ МОЛОДЕЖИ ОТ НЕВЕЖЕСТВА В ДРАМЕ «ПАДАРКУШ»

**Аннотация.** В статье речь ведется о проблемах, которые Махмудхожа Бехбуди должен был реализовать на пути получения знания народов Туркестанского региона. При этом утверждает, что основная цель молодежи - получить образование. Показано, что нация без знаний неизбежно впадет в невежество в драма изображается ситуация необразованного ребенка и отца, который не хочет получать образование, как общая трагедию молодежи Туркестана.

**Ключевые слова:** наука, просвещение, невежество, пороки, молодежь, Туркестан, драма, трагедия, образование, нация, щедрость.

Normurod AVAZOV,

Associate Professor of "Uzbek language and literature" candidate of philological sciences UZSIAS

## THE IDEA OF SALVING YOUTH FROM THE IGNORANCE IN THE DRAMA "PADARKUSH"

**Abstract.** In the article, the author writes about the issues that Mahmudhoja Behbudi should implement in the path of science of the people of Turkestan region. At the same time, it is said that the main goal of young people is to get education. It is shown that a nation without knowledge will inevitably go into ignorance. The drama depicts the situation of an uneducated child and a father who does not want to teach that will lead to a tragedy for the youth of Turkestan.

**Keywords:** science, enlightenment, ignorance, vices, youth, Turkestan, drama, tragedy, education, nation, generosity.

Mazkur dramada Mahmudxo'ja Behbudiy barchani ilm ma'rifatli bo'lishga chaqirish, ilmsizlik balosidan qutulishni qalamga olgan. Ya'ni muallif ilmsizlik, jaholat, axloqsizlik kabi illatlarni sahna orqali ko'rsatib, xalqni ma'naviy inqirozdan qutqarish kerak, degan g'oyani bosh masala qilib qo'yadi.

Dramada o'qimagan bola-yu, ma'rifatni istamagan otaning ayanchli taqdiri ko'rsatiladi. Shuning uchun ham pyesa "Padarkush" (yoxud o'qimagan bolaning holi) deb nomlanadi.

Behbudiy ma'rifatsizlikning oldini olish masalasida boylarning diqqatini jalb etmoqchi bo'lgan. Boylar, ya'ni badavlat otalar orqali jamiyat ikki narsani yutishi mumkin: birinchidan, xalq farzandlarini boylar aralashuvi orqali ma'rifatli qilish bo'lsa, ikkinchidan, boylarning o'z farzandlarini o'qitishi ham millatning taqdiri va kelajagiga xizmat qilishini ta'minlash.

Boylarning boylikka ruju qo'yishi, birinchidan jamiyatning katta zarari bo'lsa, ikkinchidan farzandlarning tarbiyasi uchun ham nihoyatda salbiy ta'sir kuchiga egadir. Dramada xuddi shu holat asosiy voqea qilib olingan. Boylikka ruju qo'yan boyning boyligidan boshqa narsani tan olmasligi uni bir tomonlama fikrlashga, bir tomonlama qarashga olib kelgan. Muallif bu jihatlariga e'tibor bilan qaraydi. Aslida u millatning kelajagi va taqdiri boylar va yoshlar qo'lida deb bilgan. "Yoshlardan himmat va g'ayrat, boylardan shafqat va marhamat kerakdur"[1] deganida ham shuni nazarda tutgan edi.

Oiladagi ahvol jamoaga ta'sir etmasdan qolmaydi. Oilaning boshlig'i boy. Boyning oilada olib borgan ishi farzandlari uchun bajarilishi shart bo'lgan vazifalardir. Toshmurod shu oilaning yakka-yu yagona farzandi. Ya'ni boyning kelajakdagi

vorisi. Otaning ishongan tog'i, ko'zining oqu – qorasi. Boy undan hech narsani ayamaydi. Shuning natijasida Toshmurod voyaga yetgan bo'lsa ham haligacha oilaning erkatoyi. Chunki boy: "dunyoning sababi, izzati – boylik. Oxiratga bo'lsa, xudoning qilgan taqdiri bo'lur. Chunonchi, biz ko'ramizki odamlar boyni mullodan ziyoda izzat qiladurlar", – deyishi uning hamma narsani boylik bilan o'lchashini ko'rsatadi. Bugina emas, o'g'lining o'qitish va o'qitmaslik borasidagi so'zlari uning ma'naviy qiyofasini yanada to'laroq ko'rsatadi. U hech ikkilanmasdan: "Men o'g'limni o'qitmoqg'a o'ylaganim yo'q", – deb javob beradi. Zero, uning maqsadi shunday edi: "...o'qimoqni lozim bilmayman, chunki ani mufti yo imom va muazzin qilmoqchi emasman, azbaski davlatim anga yetar".

Ko'rinayapdiki, boy nihoyatda o'ziga bino qo'yan shaxs. U atrofida bilan hech ishi yo'q. Millatning, Vatanning taqdiri uni qiziqitirmaydi. Butun hayot u uchun boylikka aylangan. Boylik oldida ilmni, kishilarni nazariga ham ilmaydi. Ularga past nazar bilan qaraydi: "Oy domullo! Siz menga tahqiqchimi? O'g'il meniki, davlat meniki, sizga nima? Nasihat qilursiz. Xayrulla! Mehmonxonani qulfla, uyqum keldi".

Boyning bu fikrlari uning o'z jaholatiga bergan "baho"sidir. Boy nihoyatda qaysar shaxs. Uning ilm to'g'risidagi fikrlari ham o'zgarasdir. Go'yoki hayot boylik orqasidan ergashib ketaveradi. Uni ertangi kun, ya'ni o'g'lining taqdiri qiziqitirmaydi. Yuqoridagi fikrlarning tasdig'ini quyidagi satrlarda ham ko'rish mumkin: Domullaning "xat va savodg'a na dersiz? Holbuki savodi yo'q odam hech nimaga yaramaydi", degan fikrga qarata. Boy: "Bu fikringiz g'alat, chunki meni savodim yo'q, bavujud shu shahrimizning katta

boylaridandurman va har ishni bilurman", – deb javob qiladi. Boy ilmni foydasini eshitishdan ham ko'ra uyquni afzal biladiganlardan.

Dramaturg asarni fojia deb ataydi. Chindan ham Turkiston xalqining maishiy hayoti aks etgan bu dramaning fojiali yakuni o'sha davr uchun va hozir ham tipik hamda achinarli holat. Asrlar davomida mehnatkash ommani jaholatda, qullik va tobelikda ushlab kelgan mustamlakachilik, qoloq urf-odatlar, bid'at-hurofatlar kishilarning ongini, ma'naviy-ruhiy olamini zaharlagandi. Behbudiy shuning uchun ham buning oldini olish maqsadida dramada ma'rifatdan foydalanish lozimligini uqtiradi.

Dunyo voqealaridan, taraqqiyotdan batamom xabarsiz, jaholat ichida qolgan boy o'g'liga o'qishni ham ravo ko'rmaydi. Behbudiy boy va uning oilasida ro'y berayotgan ahvolga befarq qarab turolmaydi. Uni Toshmurod va uning otasi o'rtasidagi munosabatlar shunday davom etaversa, Turkiston xalqlari fojialarga uchrayverishi tashvishlantiradi.

Pyesada Behbudiy yoshlar va kattalar o'rtasidagi munosabatlarni badiiy ifoda qilish orqali o'ziga xos yo'l tutadi. Asosiy masala bo'lgan xalq ta'limi muammosini ko'ndalang qo'yadi. Asarda ota-onalar bilan bolalar o'rtasidagi g'oyat jiddiy, nozik, qaltis munosabatlar davr ta'lim-tarbiyasidagi bosh masala tarzida talqin qilinadi.

Dramadagi asosiy g'oyani ochishda birinchi o'rinda boy tursa, ikkinchi o'rinda uning o'g'li Toshmurod turadi. 16-17 yoshli erkatoiy Toshmurod otasiga, uning boyligiga qattiq ishonadi. Bu bilan g'ururlanadi. Ammo uning aqli zamonada yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni tahlil qilishga ojizlik qiladi. Uning ma'naviy olami ham nihoyatda nochor. Bularning barchasiga sabab uning savodsizligidir. Uning bekorchiligi, o'z atrofiga bezori bolalarni to'plashga imkoniyat yaratadi. Toshmurodning bu yo'lga kirishida oilada hech kim monelik ko'rsatmagan. Boyning maqsadi butun boyligini Toshmurodga topshirish. Toshmurodning niyati otasining mulkini qo'lga kiritish, uni sovrish va ko'cha bolalari bilan ko'ngilxushlik qilish xolos.

Toshmurod dastlab dramaga quyidagi nutqi bilan kirib kelgan:

Toshmurod – "Ota! Tomoshag'a boraman, pul bering".

Domulla bilan boy gaplashib o'tirganida dab-durustdan kirgan Toshmurod salom ham yo'q, hurmat ham yo'q shu fikrni aytadi. Bu domullaga ham qattiq ta'sir qiladi. Bunday xatti-harakatning urf-odatga umuman to'g'ri kelmasligini muallif qisqacha diologlarda ma'lum qiladi. Toshmurodning beodobligini ko'rgan domulla boyga qarata shunday deydi: "Xo'b, xo'b, boybachcha katta bo'lubdur, xudo umr bersin, usuli jadida maktabig'ami, yoyinki eski maktabg'a?"

Domulla, "o'g'lingiz o'zi o'qiydimi yoki yo'qmi? Bunday beadabku?" deyish o'rniga odob bilan gapiradi. Buni o'quvchi to'g'ri anglaydi.

Toshmurod obrazi misolida Turkiston yoshlari orasida o'qishga imkoniyati, mablag'i bo'lgan ammo rag'batli bo'lmagan yoshlarning tipik vakili gavdalanitirilgan. Bu oila tarbiyasi bilan bog'liq holda tasvirlangan. Chunki dramaturg maktab tarbiyasi bilan oila tarbiyasi, ular orasidagi chambarchas bog'lanish masalasini ko'taradi.

Muallifning fikricha, Turkiston boylari, avvalo, o'zlari ilm-ma'rifatga ega bo'lishlari, madaniyatga, taraqqiyotga hurmat bilan qarashlari, uning bolalari (Toshmurodlar) ham zamona talablariga javob beradigan darajada tarbiyalanib, uyg'onishlari lozim.

Boy va Toshmurod obrazlarini keng ochish maqsadida muallif tomonidan dramaga Domulla va Ziyoli obrazlari

kiritilgan. Domulla boyning xonadoniga uning o'g'lini o'qishga targ'ib qilish uchun kelgan. Biroq nima uchundir hurmatli olimimiz M.Rahmonov bu haqida shunday xulosa chiqaradi: "Bu obraz eski feodal tartib va diniy urf-odatlarini saqlash tarafdoridir"[2].

Bu yerda tadqiqotchining fikriga qo'shilib bo'lmaydi. Domulla bu yerda faqat diniy ilmni egallashni targ'ib qilib qolmaydi. U boyning o'g'lini (umuman barchani) savodli bo'lishga chaqiradi. Savodsiz odamni hech ishga qodir bo'lmasligini tushuntiradi: Domulla emas, agar domulla faqat shariat targ'ib qilganda u quyidagicha fikrlarni ham aytmas edi: "Siz ilgari zamonda bir navi ila boy bo'lubsiz, ammo endi boy bo'lmoq nari tursin, faqat ro'zg'or o'tkarmak uchun ham ilm kerak".

Domulla hayot taraqqiyotidan xabardor, ilmi kishi. U shariat ilmni chuqur bilishi bilan birga, dunyoviy fanlardan ham xabari bor. Ijtimoiy hayotni, atrofn kuzatadigan shaxs. Bugungi kunning rivoji, shu bilan birga tanazzulga ketishini ham ilm va ilmsizlik oqibati deb biladi. U nafaqat anglab, tushunib qolmasdan iqtisodimiz, ma'naviyatimizning orqada qolganligidan, boshqalarning qo'lga o'tayotganligidan qattiq qayg'uradi: "Ko'ramizki, yigirma – o'ttiz yildan beri barcha savdo ishlari armani, yahudiy va boshqa ajnabiylar qo'lga o'tdi, shuni sababi bizlarning o'qimaganimizdur. O'qimagan boybachchalarni ko'ramizki ota molini barbod etar va oxiri xor va zor bo'lur..." Bu so'zlar ayni paytda Toshmurodning kelajagiga bashorat kabi yangraydi.

O'zida tarbiya bo'lmagan kimsa birovga tarbiya berolmaydi. Shuning uchun bolalar bilan birga ularning ota-onalarini ham tarbiyalash zamonaning eng katta muammosi sifatida kun tartibiga qo'yiladi. Bu jihatdan asardagi domla timsoli muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Domla boydan nihoyatda ranjib, oxiri uning huzuridan ketayotganida yoshlar tarbiyasiga oid fikrlarni shunday izohlaydi: "O'qimoq va mulla bo'lmoq uchun pul kerak, badavlatlarimiz holi bul, bas bu ketish ila, navzambuloh, dunyo va oxiratga rasvo bo'lurmiz, o'qimoq barcha musulmonga erkak - xotin bo'lsin, farz edi. U qayda qoldi? Oh, voy bizni holimizga men sizga amri ma'ruf etdim. Va menga shariat bo'yincha lozim bo'lgan ishni bo'ynimdan soqit qildim. Inshoolloh, mo'ylab chiqarib alifni tayoq demayturgan o'g'lingiz holini ko'ramiz va ham o'qitmaganingiz uchun gunohkor bo'lursiz"[3].

Bundan salkam bir asr avval aytilgan bu gaplar hozirgi zamondoshlarimizni ham o'ylashga, mushohada qilishga undaydi. Muallif Turkiston aholisi orasidagi kaltabin, o'jar, o'zbilarmon boylarni g'aflat uyqusidan uyg'otishga, ularni yangi zamon taqozosi bilan yetuk shaxslar doirasiga ko'tarishga butun kuchi, imkoniyatlari, qobiliyatini sarflaydi.

Dramada davr bilan bog'liq muammolar timsollarning munosabatlari bilan asta-sekin ochila boradi. Zamonaviy ahamiyati jihatidan hozir ham o'z qimmatini yo'qotmagan domlaga nisbatan ham ilg'or mulohazalarni bayon qiladi. U Yevropacha ta'lim olgan va uning tashqi qiyofasi, kiyimlari, gap-so'zlari ham yangicha, zamonaviy ruhni ko'rsatib turadi. U domlaning fikrlarini kengroq tarzda davom ettiradi.

Behbudiy Ziyoli tilidan Turkiston xalqi uchun ikki yo'nalishdagi olimlar zarur, degan fikrni ilgari suradi. Biri, diniy yo'nalishdagi ulamolar bo'lib, ular xatib, imom, mudarris, mufti va boshqalardir. Bular xaloyiqning diniy va axloqiy ishlarini boshqaradi. Ular Turkiston va Buxoroda diniy ta'lim olgach, hattoki, rus tilini ham o'rganib, so'ng Makka, Misr va Istambulda tahsilni davom ettirishlari kerak. Ikkinchisi esa zamonaviy yo'nalish egalari, muallif fikricha, avvalo, albatta, musulmoncha xat va savodni chiqarib diniy

jihatdan ham muayyan tahsil olib, “o‘z millatimiz tilini biladurg‘ondan, so‘ngra” dunyoviy yo‘nalishdagi maktablarga borishi kerak.

Dramada mustamlakachilik siyosati tufayli mahalliy aholi va ayniqsa, yoshlar o‘rtasida ichkilikbozlik, maishiy buzug‘lik ham tarqala boshlaganligini ko‘rsatadi. Bu masalani dramada ko‘rsatish maqsadida muallif bir qancha ikkinchi darajali obrazlardan foydalanadi. Bunday obrazlardan biri armani Artun kazzob bolalarining ko‘payishiga bosh sababchi. Chunki u ochgan mayxona yoshlarni tarbiyasizlikka yetaklaydi. Liza singari “qabiha” ayollar mahalliy millatga mansub yoshlarni ergashtira boshlagan. Bunday buzilishlar yoshlar tarbiyasini izidan chiqarib, ularni halokatga sudrab borayotgani Behbudiy kabi taraqqiyparvarlarni tashvishga solgan.

Mayxona tufayli tanishgan, jo‘ravoz bo‘lgan yana bir nechta obrazlar bor. Ular Artun mayxonasi atrofiga yig‘ilgan lo‘ttibozlar – Tangriqul, Davlat, Nor, Boyning o‘g‘li Toshmurod pyesada ularning xatti-harakati orqali voqea ichiga kirib boriladi. Bu bir to‘da yoshlar Artun mayxonasida ichkilikbozlik qilib o‘tirishadi. Ichimlikning kuchi bilan ko‘ngillariga kelgan be‘mani, beparda gaplarni aytishadi. Hammasi “Oh Lizajon, oy Lizajon, qaydasan!” deb baqirishadi. Kazzob bolalar Toshmurodni maqtab, uning salomatligiga ketma-ket ichishadi. Unga yasama muomala qilib, yolg‘ondan “Ey boybachcha, bizlarku kambag‘al. Sizga nima? Kissangizdan pul chiqmaydur”, – deya, Toshmurodni battar qo‘zg‘aydilar va gerdaytirib yuboradilar.

Pivoxonada o‘tirgan kazzob, oliftalarning Lizaxonni keltirishlari uchun pullari yetmaydi. Ularning yolg‘iz umidi boyning o‘g‘li Toshmuroddan edi. Davlat shu guruhning boshlig‘i Toshmurodga o‘g‘irlik g‘oyasini bergan. Boyning uyidan pulni o‘g‘irlashni birinchi u taklif qiladi. Rejani tuzgan ham u. Birinchidan bo‘lib Lizani eslagan ham Davlat.

Liza obrazida ma‘naviy, axloqiy buzuq xotin mujas-samlashgan. Bu obraz kengroq talqin etilishi kerakligi seziladi, ammo dramaturg senzurani o‘ylagan bo‘lsa kerak. Lekin qisqa ko‘rinishlarda ham bu obraz qanday xususiyatlarga ega ekanligi ko‘rinib turibdi.

Bezori bolalarni bir joyga yig‘ib turgan kuch – Artun axloqiy buzuqlikning boshida turuvchi shaxs. Artun omi oliftalarni aldaydi. Bu ham yetmaganday qo‘shmachilik ham qiladi. Boylik o‘rttirish maqsadida Lizaxondan buyum sifatida foydalanadi. Yoshlar tarbiyasi buzilayotgani Artun va Lizani mutlaqo qiziqitirmaydi. Oliftalar Artun va Lizaxonlar talab qilgan pulni topish uchun o‘g‘irlik yo‘liga o‘tishga majbur bo‘lishadi.

Behbudiy har bir bola o‘z ota-onasi va oilasiga dushman demoqchi emas, unda ota-ona bilan bola o‘rtasiga rahna solish maqsadi yo‘q. Ammo bola tarbiyasida ota-ona mas‘uliyati, bolaning jismoniy-ma‘naviy kamolotida ota-onaning tanlagan tarbiya usulining o‘rni alohida ahamiyatga molik ekanligini ta‘kidlash bor. Dramada faqat ilmsizlik, ma‘rifatsizlik, savodsizlik orqasidan kelib chiqadigan johillik va ongsizlik tufayli ro‘y beradigan jinoiy ishlarga qarshi nafrat uyg‘otish, odamlarni ogohlantirish ko‘zda tutilgan. Agar Ziyoli va

Domla so‘zlariga amal qilib, boy o‘z bolasini o‘qitganida, Toshmurod, avvalo yomon doiraga, ya‘ni Nor, Davlat, Tangriqul kabi kazzoblarga qo‘shilmas, mayxonalarga bormas, Artun va Lizalarga duch kelmasdi.

Toshmurod maishat yo‘lida o‘z uyida o‘g‘irlikka tushishga birdaniga ko‘nib qo‘ya qoladi. Chunki uning ongi bezori bolalarning tarbiyasiga ko‘nikkan. U Tangriqulni o‘g‘irlik uchun uyiga boshlab boradi. Toshmurodning ko‘rsatmasi bilan Tangriqul boy yotgan xonaga kirib, uning pullari va boyliklarini oladi. Otasi o‘yg‘onib qolganini ko‘rgan Toshmurod to‘pponchadan yuqoriga qarab o‘q uzadi, qo‘ni-qo‘shnilar qiy-chuv bo‘lib qolishadi. Tangriqul shu orada boyga pichoq sanchib o‘ldiradi. Boylikni olib, ikkalasi qochib uydan chiqadilar, ular yana mayxonaga borishadi. Go‘yo hech narsa bo‘lmaganiday Toshmurod ham kayf-safo qilib o‘tiradi. Bundan ortiq beparvolik, bag‘ritoshlik bo‘lmas kerak. Bu sahna har qanday kitobxon (tomoshabin) dilida nafrat hislarini uyg‘otishi tabiiy.

Mayxonada ulfatlarining hammasi Lizaning salomatligiga ichishadi, kayf-safoning ayni avjida tashqaridan shov-shuv eshutilib, mirshablar bostirib kelishadi. Liza qochib qoladi. Boyning o‘g‘li Toshmurod, kazzoblar: Davlat, Tangriqul, Nor qo‘lga olinadi. O‘qimaslikning, tarbiyasizlikning oqibati shu bo‘ladi, degan xulosa dramada ko‘ndalang turadi.

Drama so‘nggida muallif Ziyoli obrazi orqali fojidan qutulishning yo‘llari to‘g‘risida o‘z mulohazalarini aytadi: “ilm va tarbiyasiz bolalarni oqibati shuldir. Agarda bularni otasi o‘qitsa edi, bu jinoyat va padarkushlik alardan sodir bo‘lmas edi va bular ichkilikni bo‘yla ichmasdi, xun bag‘ayri haq qilmas edi. Umri boricha Sibir va bandg‘a va qiyomatg‘a, jahannamg‘a qolmas edi. Agarda bular ichkilik ichmasa edi, dunyo va oxiratda ila alal-abad ozob va mehnatda qolmas edi. Oh, haqiqatda boyni o‘ldirgan va bu yigitlarni azobi abadiyga giriftor qilgan beilmlikdir. Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bevatan va bandi qilg‘on tarbiyasizlik va jaholatdir; bevatanlik, darbadarlik, asorat, faqir va zarurat va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikni mevasi va natijasidir. Dunyog‘a taraqqiy qilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi. Asir va zabun bo‘lganlarda beilmlikdan. Modomiki, bizlar tarbiyasiz va bolalarimizni o‘qitmaymiz, bul tariqa yomon hodisalar va badbaxtliliklar oramizda doimo hukmfarmo bo‘lsa kerak. Bu ishlarni yo‘q bo‘lmog‘iga o‘qimoq va o‘qitmoqdan boshqa iloj yo‘qdur”[4]. Bu fikrlar drama mazmunining cho‘qqisi hisoblanadi. Bu fikrlarni tadqiqotchi Ahmad Aliyev o‘ziga xos ravishda tadqiq qiladi: Behbudiy ta‘lim-tarbiyasi buzilgan bolalar tufayli hayotda sodir bo‘lish mumkin bo‘lgan fojialar dahshatini iloji boricha kishilar qalbiga chuqurroq ta‘sir ettirish uchun boyning talon-taroj bo‘lishiyu, hatto o‘ldirilishiga ham o‘z bolasi boshchilik qilganini ko‘rsatadi. Sodir bo‘lgan jinoyatning ikki dunyodagi oqibatlarini ham izohlab o‘tadi. Ziyolining keyingi so‘zlarida Behbudiy mustamlakachilar keltirgan va keltirayotgan salbiy ta‘sirlardan qutulish uchun ham aholi saviyasini ko‘tarish, o‘zligini anglashga o‘rgatish lozmligini uqtiradi. Tadqiqotchining fikricha, “Padarkush” asarida ta‘limni oiladan boshlash zamonaning bosh masalasi qilib qo‘yiladi.

#### Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Behbudiy M. O‘quchilarga yoram kerak. “Oyna” jurnali, 1914-yil.
2. Rahmonov M. O‘zbek teatr tarixi. – Toshkent: – 1968. – B. 409.
3. Behbudiy M. Padarkush yoxud o‘qimagan bolaning holi. Tanlangan asarlar. Birinchi jild. – Toshkent: 2018. – B. 95–106.
4. Behbudiy M. Padarkush yoxud o‘qimagan bolaning holi. Tanlangan asarlar. Birinchi jild. – Toshkent: 2018. – B. 95–106.

Темур РАШИДОВ,  
профессор ГИИК Уз, кандидат искусствоведения, член Общественного Совета СНГ по образованию в области культуры и искусства

## ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В ВУЗАХ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ

**Аннотация:** Настоящая статья посвящена вопросам совершенствования образовательного процесса по специальностям культуры и искусства на основе разработки и внедрения образовательных программ, адаптированных к мировым стандартам.

**Ключевые слова:** искусство, культура, наука, образование, специфика, реформа, модернизация.

Temur RASHIDOV,  
O‘zDSMI professori, san’atshunoslik fanlari nomzodi, MDHning madaniyat va san’at ta’limi bo‘yicha Jamoatchilik kengashi a’zosi

## MADANIYAT VA SAN’AT OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA O‘QUV JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY OMILLARI

**Annatsiya:** Ushbu maqola jahon andozalariga moslashtirilgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish asosida madaniyat va san’at mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv jarayonini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan.

**Kalit so‘zlar:** san’at, madaniyat, fan, ta’lim, islohot, modernizatsiya.

Temur RASHIDOV,  
professor of the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan, PhD, member of the CIS Public Council on education in the field culture and arts

## WAYS OF IMPROVING THE EDUCATIONAL PROCESS IN UNIVERSITIES OF CULTURE AND ARTS AT THE CONTEMPORARY STAGE

**Annotation:** this article is devoted to the issues of improving the educational process in the specialties of culture and art based on the development and implementation of educational programs adapted to world standards.

**Key words:** art, culture, science, education, specificity, reform, modernization.

Университетская система образования наших дней – наследница великой традиции, и терминология, и структура, и методы во многом сохранили свою неизменность вплоть до начала XXI века. Перелом, вызванный в педагогической практике переходом на новые стандарты образования, совпал с прорывом в области информационных технологий, преобразившим мир, и породившим трансформацию классической структуры лекционного курса.

Стандарты подготовки историка искусства, бакалавра и особенно – магистра, страдали нечеткостью формулировок, что в целом отражает непростую ситуацию с данной дисциплиной в системе гуманитарного знания. Например, музейный работник, сотрудник библиотеки или архива, гид и организатор экскурсий формально оказываются вне сферы образования искусствоведа, область деятельности которого охватывает преимущественно историко-художественные процессы в их художественных, культурных, социокультурных, формально-стилевых, семантических измерениях и их отражение в памятниках архитектуры и искусства, теории и методологии истории искусства, эстетических концепциях и т.д. Таким образом, выпускник должен ориентироваться преимущественно на аналитическую научно-исследовательскую деятельность, изучение произведений искусства и отстраненное наблюдение за художественными процессами.

Но найдет ли подобный «созерцатель» применение в реальной жизни, учитывая процессы реорганизации и объединения, затронувшие большинство научно-исследовательских институтов, связанных с изучением истории искусства в мире. Каковы перспективы подобного образования, не окажется ли, что кроме преподавательской деятельности, возможность применения подобных знаний будет исчерпана «работой в стол», тщетным поиском адекватной работы и получением второго высшего образования в иной сфере? При этом, если научно-исследовательский аспект деятельности магистра искусствоведения оправдан его статусом и званием, то «прикладная» в своей основе подготовка бакалавра не дает ему возможность вести изыскательскую деятельность вплоть до получения более высокого уровня про-

фессионального образования. Во многом неопределенность формулировок стандарта предопределена проблемой методологии искусствоведения, ставшей краеугольным камнем многих гуманитарных дисциплин на рубеже веков.

Современная наука, базирующаяся на междисциплинарных подходах и стремлении к синтезу, ставит вопрос целостных представлений о мире, рассмотрении картины мира как единого процесса. Расширение методологической базы, масштабное единство научной методологии, возможность применения смежных дисциплин, а не узкий «тоннель» профессиональной специализации позволяет преодолеть косность традиционных приемов. Искусствоведение, теряя четкие границы дисциплины, вливается в широкий поток социогуманитарного знания, позволяя рассматривать явления художественной жизни в широком историко-культурном контексте.

Размышляя о месте истории искусства в системе гуманитарных наук, Э.Панофский указывает на сложную систему взаимоотношений дисциплин в контексте единой сферы изучения произведений искусств: «Если мы сравнивали знатока с лаконичным историком искусства, а историка искусства с красноречивым знатоком, то отношения между историком и теоретиком искусства можно уподобить отношениям между двумя соседями, которые имеют право охотиться на одной территории, но в распоряжении у одного из них только ружье, а у другого – патроны. И неплохо бы было обоим сторонам прислушаться к доброму совету и установить отношения партнерства. Ибо правильно было сказано, что, когда теорию не пускают на порог дома эмпирическая дисциплина, она, как привидение, пробирается через дымовую трубу и начинает по-своему переставлять мебель. Но не менее верно и то, что, если историю не пускают через дверь, предоставленную теории, которая занимается теми же явлениями, первая проникает в дом, подобно стае мышей, и подтачивает фундамент» [2. С. 115]. Попытка искусственно разграничить дисциплины, имеющие дело с произведением искусства, приводит к отсутствию четко сформулированной идеи подготовки специалиста, профессионализм которого должен базироваться на умении воспринимать произведе-

ние искусства в контексте и выбирать методологию анализа, исходя из конкретных задач и обстоятельств.

Возможно ли сохранить выработанный и подтвержденный многолетней успешной работой метод обучения в условиях современной системы образования? Однозначного ответа на подобный вопрос не может быть, изменившиеся условия диктуют новые подходы.

Педагогическая система современного университета ставит перед преподавателем ряд вопросов, по сути своей восходящих к общим методологическим проблемам современного образования, и шире – к концепции современной культуры. Дилемма scientизма (от лат. scientia – знание, наука) – идейная позиция, в основе которой лежит представление о научном знании как о наивысшей культурной ценности и определяющем факторе ориентации человека в мире), альтернатива технократического и гуманитарного стилей мышления, проблема «непонимания» в глобальном онтологическом смысле приводят к переносу на гуманитарное знание закономерностей естественных наук, имеющих четкий «законодательный» принцип и систему однозначных ответов на корректно сформулированные вопросы. «Возникает угроза, что в искусстве исчезнет не только дисциплинирующее, но и содержательное ремесленное образование, в науке – опирающееся на смысл целого обучение в области знания и исследования; в философии – передающаяся от лица к лицу традиции. Вместо всего этого сохранится традиция технической рутины, умения и форм, усвоения точных методов и, наконец, ни к чему не обязывающая болтовня» [2. С. 117]. Политехнизм порождает трансформации гуманитарной сферы, потерю внутреннего содержания, ориентацию на примитивное заучивание, перечисление, «начетничество» (знание дат или имен всех второстепенных героев романа не может быть приравнено ни к постижению основ истории, ни к осознанию содержательного аспекта в литературе).

Переставшая быть единственной целью образования информация (ее объем, скорость обновления и доступность ныне совершенно иные) уступает место парадигме целостного видения проблемы в условиях глубинного понимания изучаемых процессов. Достижение поставленной цели возможно лишь при ориентации на «проблему» (что требует существенной корректировки программ), активизации самостоятельной работы студента и использовании технологий контроля знаний в рамках занятий. Не традиционный лозунг «научить учиться», но призыв «поставить проблему» должен лежать в основе новой образовательной системы, что, в свою очередь, требует обновления всей базы – методические и практические рекомендации, проработка на конкретных примерах, моделирование ситуаций и case study, организация дискуссий. В основе всех предложенных интерактивных технологий лежит диалог, понятий как принцип отношений, как метод анализа, как универсальный код, осознающий двуединство культуры, специфику ее языков и риторический характер самого процесса, учитывающий возможность преобразования и сосуществования нескольких альтернативных решений.

Таким образом, отказ от авторитарной схемы «преподаватель–студент», отношение к каждому участнику диалога как к равноправному партнеру, чье мнение имеет значение для достижений полноты видения проблемы, приводит к осознанию целостности гуманитарного знания. Категории вероятности и неопределенности, как меры превращения возможности в действительность, исключающие принцип однозначного и точного суждения, позволяют выстраивать диалог в форме отдельных эссе-высказываний, самостоятель-

ный авторский пафос которых провоцирует активизацию диалога, построенного на основе равноценности и равнозначности мнений. Не преподавание дисциплины и передача конкретной информации, но – обучение приемам постановки целей, разработки стратегии разрешения проблем.

Размышляя об университетском курсе гуманитарных наук, Ханс Ульрих Гумбрехт акцентирует внимание на «переживании» как принципе погружения в материал, ибо, по его мнению, сфера «Humanities & Arts», наследница средневековой системы «Свободных искусств», основана скорее «на вдохновении и воображении, чем на системе и методе» [1. С. 135]. «Ибо хорошо преподавать в университете – значить продемонстрировать сложность вещей, привлечь внимание студентов к сложным явлениям и проблемам, а не предписывать им, как следует понимать те или иные проблемы и как, в конечном счете, относиться к ним. Иными словами, хорошее академическое преподавание должно быть действенным, а не толковательным и нацеленным на решение». Переориентация гуманитарного знания с дисциплин на проблемы, осознание его целостности и обращение к диалогу как методу, приводящему к пониманию сложности явлений – вот те существенные аспекты современной системы обучения, сформулировать и решить которые помогают интерактивные технологии в образовании.

В тоже время в условиях реформирования и модернизации национальной системы художественного образования главное — сохранить ценные художественные традиции, которые развивались и разрабатывались поколениями специалистов в области культуры и искусства на протяжении веков. Невозможно в эпоху перемен разрушить накопленный опыт и систему профессионального художественного образования «школа — училище — вуз». Ценность творческого образования заключается именно в его непрерывности.

В современном мире происходит перекодирование структуры образовательных процессов в сфере культуры и искусства за счет глобализации общественной духовной жизни. Содержательный код, определяемый сочетанием фундаментальности, художественности и рациональности, принадлежностью к национальной профессиональной школе обретает иную смысловую нагрузку, вызывает прикладную направленность подготовки бакалавров, которая становится модернизационным «ответом» на «вызов» массовой потребности в высшем образовании. Выработываемые общемировые ценности образования в сфере культуры и искусства утверждают межкультурный диалог, направленный на поиск истины в науке и художественно-творческом процессе, на проявление своего «Я» в общении с другими субъектами. Модификации процессуального кода обуславливают принцип двойного соответствия: необходимость образования отвечать мировым трендам при сохранении национального характера культуры. Структурно-функциональный код отражает трансформацию образования в сфере культуры и искусства посредством смещения его структуры с национального на глобальный уровень. Происходящее заимствование зарубежных образовательных образцов и практик не должно оказаться болезненным, сопрягаться с культурологическим разломом, нарушением традиционализма структуры образования в сфере культуры и искусства, что может привести к пренебрежению «коллективной памяти» культуры, а шире - к утрате этнокультурной идентичности.

Таким образом, развитие образования в сфере культуры и искусства призвано обеспечить решение многих задач, оказывающих комплексное влияние на культурную политику и развитие современного общества в целом.

#### Использованная литература:

1. Гумбрехт Г.Х. Humanities & Arts. – М: Искусство, 2017. – 355 с.
2. Панофский Э. Idea. К истории понятия в теориях искусства от античности до классицизма – М: Искусство, 2002. – 237 с.
3. Юлдашев И.Ж. Культура – уникальный феномен // Народноое слово. – 2021. 3-ноября. – Ташкент: <https://xs.uz/ru/66833>.

## OLIV TA'LIM TIZIMIDA YEVROPA RENESSANS DAVRI SAN'ATINING O'QITISHDAGI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR

**Annotatsiya.** G'arbiy Yevropaning Renessans davri san'ati – bu chuqur izlanishni talab qiladigan tasviriy san'at tarixidagi bosqich. Ushbu maqola G'arbiy Yevropada Renessans davri san'atning kelib chiqishining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. Ilmiy izlanish natijasida G'arbiy Yevropaning Renessans davri san'atining barcha jihatlarini bosqichma-bosqich ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** renessans, asr, afsona, davr, san'at. tarixiy obida, tarix,

Дилноза ТУЛАНОВА,

И.О. доцент кафедры «Изобразительное искусство» ТГПУ им. Низами.

Азиза РАХИМОВА,

Магистр Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами

## ОСОБЕННОСТИ ЕВРОПЕЙСКОГО ИСКУССТВА ВОЗРОЖДЕНИЯ В ОБУЧЕНИИ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Аннотация.** Искусство европейского Ренессанса – это область знаний искусствоведения, которая требует наиболее глубокого исследования. Данная статья направлена на исследование предпосылок и специфических особенностей возникновения искусства Возрождения в Западной Европе. Автор поэтапно рассматривает все составляющие аспекты возникновения искусства Возрождения в Европе.

**Ключевые слова:** Ренессанс, век, легенда, искусство, исторический памятник, история.

Dilnoza TULANOVA,

Associate Professor of "Fine Arts" TSPU named after Nizami, etc.

Aziza RAXIMOVA,

Master of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

## SPECIFIC FEATURES OF EUROPEAN RENAISSANCE ART IN TEACHING IN HIGHER EDUCATION SYSTEM

**Annotation.** The art of the European Renaissance is a field of art history that requires more in-depth research. This article is aimed at researching the preconditions and specific features of the emergence of the art of the Renaissance in Western Europe. The author examines step by step all the aspects of the emergence of Renaissance art in Europe.

**Keywords:** Renaissance, century, legend, art, historical monument, history, architecture.

**Uyg'onish yoki Uyg'onish davri** (Frans. Renaissance – Uyg'onish davri, ital. Rinascimento – lat. Renascidan "qayta tug'ilish") – O'rta asrlarni almashirib, ma'rifat va yangi davr oldidan Evropa madaniyati tarixida jahon ahamiyatiga ega bo'lgan davr nazarda tutilib, ushbu insoniyat xayotidagi oliy davr alohida o'rganishni talab etadi. **Renessans davri** Italiyada – XIV asrning boshlarida (Yevropaning hamma joyida – XV–XVI asrlardan) XVI asrning so'ngi choragi va ba'zi hollarda XVII asrning birinchi o'n yilliklariga to'g'ri keladi. Uyg'onish davrining o'ziga xos xususiyati – madaniyatning dunyoviy tabiati, uning insonparvarligi va antroposentrizmidir (ya'ni, birinchi navbatda, odamga va uning faoliyatiga qiziqish). Qadimgi madaniyatga qiziqish kuchayadi, uning "tiklanishi" sodir bo'ladi va so'ngra atama paydo bo'ladi. Hozirgi vaqtda Uyg'onish atamasi madaniy gullab-yashnash uchun metafora bo'lib qoldi. Uyg'onish davri insoniyat taraqqiyotidagi muhim bosqich edi. Dunyoviy san'at va madaniyat misli ko'rilmagan

darajada rivojlandi. Ikki yuz yil davomida Yevropa rassomchilik, haykaltaroshlik va me'morchilikning hayratlanarli darajada jonlanishiga guvoh bo'ldi. Uyg'onish davri markazi – Italiya edi.

Italiya Uyg'onish davri G'arb san'atining mumtoz yunon san'ati, ayniqsa haykaltaroshlik va rassomchilik san'atining prinsiplariga muvofiq qayta tikladi. XIV asrning boshlaridan boshlab badiiy qadriyatlarning yangi to'plamini izlash va Gotika uslubiga javob topish uchun, italiyalik ustalar va mutafakkirlar qadimgi Yunoniston va Rim g'oyalaridan ilhomlanishni boshladilar, ular universal va olijanob badiiy shaklni yaratish va o'sha davrning kayfiyatini ifoda etish istagi kabilarni maqsad qildilar. Uyg'onish davri san'atining asosiy belgilovchi jihati – gumanizm (insonparvarlik) bo'lib ushbu tushuncha mavjud yutuqlarga (masalan, demokratik yutuqlarga) asoslangan **"insonparvarlik"** falsafiy tushunchasi bilan belgilanadi.

Tasviriy san'atda **gumanizm** quyidagilarni anglatadi:

1. Stereotip va ramziy tasvirlar o'rniga noyob kompozitsiyani yaratish.

2. Realizm va tafsilotlarga e'tibor, chiziqli perspektiva nazariyasini rivojlantirish. Ushbu yondashuv mumtoz haykallarga ehtirom va Vizantiya an'analaridan chiqish yo'llarini ochib berdi.

3. Amaliy harakatni rivojlantirish va rag'batlantirishga urg'u berish. O'sha davrning yetakchi san'at nazariyotchisi Alberti<sup>1</sup>: "Baxtga yaxshi, adolatli va solih amallarsiz erishib bo'lmaydi" deb ta'kidlagan.

<sup>1</sup> Alberti (Alberti) Leon Battista (1404.18.11, Genuya - 1472.25.4, Rim) — italiyalik olim, me'mor, yozuvchi va musiqashunos. Uyg'onish davrida yashab ijod etgan. Paduya va Boloniyada ta'lim olgan. Rim va Florentsiyada yashab ijod etgan. Italiyan tilida "Haykal haqida", "Rassomlik haqida", lotin tilida Me'morlik haqida chop etilgan nazariy risolalarida ilg'or ilm yutuqlarini zamonaviy san'at bilan boyitib, umumlashtirgan, "Ojla haqida"gi axloqiy risolasida har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni talqin qilgan.

Tarixga murojaat qilsak, kuyidagi soʻzlarni oʻqiyimiz: “Yevropa uchun qorongʻu asrlar tugadi va xristian cherkovlari XII-XIII asrlarda qayta tugʻilishni boshdan kechirdilar, ekinlar, vabo epidemiyasi va Angliyaning Fransiya bilan urushi XIV asrda yuz berdi”. Shu sababli, ijoddagi muvaffaqiyatlar, shubhasiz, bir qator omillar va tarixiy voqealar aksi edi. Oʻsha paytda Italiyada ijobiy rivojlanish tendensiyalari kuzatilgan. Venetsiya va Genuya Sharq bilan savdo-sotiqda boy boʻlib, Florensiya zargarlik buyumlari, jun va ipakning markaziga aylandi. Obodlik asta-sekin Shimoliy Evropaga keladi, buni **Gansa ittifoqining**<sup>2</sup> yaratilishi tasdiqlaydi. Yangi gʻoyalarning tarqalishiga ming yillik madaniy va intellektual ochlikdan, qayta tugʻilish istagidan keyin tipografiyani ixtiro qilish yordam beradi. Yuqorida taʼkidlab oʻtilganidek, antik davr merosiga murojaat qilish, ayniqsa, Italiyada, Uygʻonish davri sanʼatining rivojlanishini sezilarli darajada tezlashtirdi va maʼlum darajada uning bir qator xususiyatlarini, shu jumladan qadimgi mifologiya va tarix voqealarida yozilgan koʻp asarlarni oʻrganishga olib keldi. Ushbu harakatlar haqiqiy dunyoni barcha hissiy jozibasini bilishning istagi edi. Inson yashaydigan va harakat qiladigan fonda va uning yaqin oʻzaro bogʻliqligida ushbu atrof-muhitning (tabiiy yoki kundalik) batafsil tasviri, avvalgi avlodlarga qaraganda, Uygʻonish davri sanʼatkorlari uchun juda katta ahamiyatga ega edi. Uygʻonish davrida boshidanoq inson qiyofasi qadimgi mumtoz sanʼatidan oʻziga xoslik va psixologik aniqlik bilan ajralib turardi. Qadimgi realizmga murojat qilish va uni ijodiy qayta koʻrib chiqish, oʻz davrini ijtimoiy rivojlanishining ichki ehtiyojlaridan kelib chiqqan va ularga boʻysungan. Italiyada qadimgi asori atiqalarni koʻpligi bilan antik davrga daʼvat ayniqsa osonlashtirildi va keng rivojlandi. Oʻrta asrlarda Italiyaning Vizantiya bilan yaqin aloqasi katta ahamiyatga ega edi. Vizantiya madaniyatining soʻngi shukhi boʻlsa ham, koʻp adabiy va falsafiy anʼanalar saqlanib qolgan edi. Qadimgi merosni rivojlantirish va qayta ishlash jarayoni, 1453-yilda turklar tomonidan bosib olingan Vizantiyadan yunonistonlik olimlarning Italiyaga koʻchirilishi bilan tezlashdi. “Vizantiyaning qulashi paytida saqlanib qolgan qoʻlyozmalarda, Rim xarobalaridan qazilib olingan qadimgi haykallarda Gʻarbn hayratga solgan - Yunonistonning antik dunyosi paydo boʻldi; Italiyada sanʼatning misli koʻrilmagan gullab-yashnashi boshlandi, bu klassik sanʼatning yorqin koʻrinishi edi”. Italiyalik gumanistlar, shoirlar, rassomlar orqali bu bilim butun Evropaning Uygʻonish davri madaniyatiga aylandi<sup>3</sup>.

**Uygʻonish davri** titanlari *Jotto, Van Eyk, Mazachcho, Donatello, Leonardo da Vinchi, Rafael, Mikelanjelo, Titsian, Dyurer, Gujon* kabi asarlarining gʻoyaviy va hayotiy mazmuni mislsiz darajada keng va chuqurroq edi. Uygʻonish davri sanʼatining gumanistik yoʻnalishi, uning qahramona nekbinligi, odamga magʻrur ishonchi, uning obrazlarining keng milliyligi nafaqat burjua jamiyati manfaatlarini xolisona ifoda etdi, balki umuman jamiyat rivojlanishining progressiv tomonlarini ham aks ettirdi. Cherkovning aniq pozitsiyasi rivojlanish uchun qoʻshimcha turtki berdi. Bu gumanistik qarashlarning oʻsishiga olib keladi va ruhoniylarni maqbaralar va cherkovlarni bezatishga, meʼmorlar va haykaltaroshlar bilan

<sup>2</sup> Gansa Ligasi, shuningdek, Gansa ittifoqi (nemis: Deutsche Hanse yoki Dudesche Hanse, dr. German. Hansa – tom maʼnoda “guruh”, “birlashma”, lotincha Hansa Teutonica) – shimoliy savdo shaharlarining yirik siyosiy va iqtisodiy birlashmasi. XII asr oʻrtalarida paydo boʻlgan Gʻarbiy Evropa. U XVII asrning oʻrtalariga qadar mavjud boʻlgan. Gansa reyestriga 130 ta shahar kiritilgan boʻlib, ularning 100 ga yaqini portlar boʻlgan va uning taʼsiri ostida uch mingtagacha aholi punktlari boʻlgan. XV asr boshlariga kelib Gansa 160 ga yaqin shaharni birlashtirdi.

<sup>3</sup> Всеобщая история искусства. Том 3. Под общей редакцией Ю.Д.Колпинского и Е.И.Ротенберга – Москва: Искусство, 1963. <http://artyx.ru/books/item/f00/s00/z0000015/index.shtml>

ishlashga undaydi, ushbu reaksiya XVI asrning oxirigacha davom etdi. Uygʻonish davri, shuningdek, Gʻarbiy Yevropada buyuk kashfiyotlarning boshlanishi bilan xarakterlangan. Yevropaliklar yangi dengiz yoʻllarini, qitʼalarni kashf etadilar va yangi koloniyalarni yaratadilar. Fan, tabiat va dunyo bilan bogʻliq boshqa sohalar ham yangi tadqiqotlar olib borildi. sanʼat ustalari yangi usul va bilimlarga boʻlgan oʻzlarining xohish-istaklarini namoyish etadilar. Italiyalik rassom, meʼmor va tarixchi Giorgio Vasarining (1511–1574) soʻzlariga koʻra: “...nafaqat mumtoz qadimgi sanʼatni hurmat qilish, balki tabiatdan oʻrganish, unga taqlid qilish istagi kuchaymoqda”.

Uygʻonish davrining belgilovchi asosiy xususiyat – *gumanistik* (humanus (lot.)) – insonparvarlik) dunyoqarash gʻoyat yuqori darajada namoyon boʻlib inson haqidagi tasavvurni belgiladi. Inson koinotning markazi deb eʼlon qilindi va hamma narsaning oʻlchovi, oʻzi yaratuvchisidir kabi gʻoya olgʻa surildi. Uning buyukligi daʼvo qilingan edi – maqsadlar, afzalliklar va qiymat, uning cheksizligi deb belgilandi. Ideal uygʻun, kuchli, ozod, maʼnaviy boy, har tomonlama rivojlangan (homo universale – universal shaxs) shaxs siymosi gavdalantirildi. Erkinlikda insonning eng qimmatbaho yutugʻi, ozodlikka erishish istagi, inson tabiatining tabiiy mulki deb tan olingan. Oʻrta asrlar gʻoyasida olgʻa surilgan **asketizm** (insonning zavqlanish huquqi) rad etildi va dunyoviy quvonchlar eʼlon qilindi. Falsafa sohasida yangi mazmun va rivojlanishga ega boʻldi: stoizm (F.Petrarka) kabi epikureistik taʼlimotlar, epikureizm (L.Valla), neoplatonizm (M.Ficino, Pico della Mirandola), panteizm (N.Kuzanskiy, T.Paracelsus, T.Kampanella, J.Bruno). Uygʻonish davrida fan taraqqiyotida yangi bosqich boshlanadi: rivojlanib kelayotgan bilim sohalarini ajratish – shakllantirilgan zamonaviy maʼnoda ilm sohasida, ayniqsa katta yutuqlarga erishildi: astronomiya (Nicolay Kopernik, Jordano Bruno, Yoxannes Kepler, Galileo Galiley); geografiya (Hristofer Kolumb, Vasko do Gama, Amerigo Vespucci, Magellan); anatomiya (Andreas Vazaliy, Paracelsus); matematika (L.B.Alberti, A.Dyurer, Viet). Uygʻonish davrida fan rivojlana boshladi. 1603 yili Rimda Fanlar akademiyasi tashkil qilindi va 1605 yili ingliz faylasufi Frensis Bekon fanlarning tasnifini bayon qildi. Sanʼatdagi tub oʻzgarishlar avvalambor tasvirning tamoyillariga taʼsir koʻrsatdi. Ijodkorlar erkin, rassomlarga aylandi shon-sharafdan zavqlanishdi, ular haqida kitoblar yozildi: “Eng mashhur rassomlar, haykaltaroshlar, meʼmorlar xayotidan” Giorgio Vazari (1550), Karel van Manderaning “Rassomlar haqida kitob” (1604) – bu sanʼatdagi birinchi tadqiqotlar edi. Sanʼatkorlarning oʻzlari ham izlanishdi: L.B.Alberti “Rangtasvir haqidagi oʻnta kitob”, Leonardo da Vinchi “Rangtasvir haqida risola” va boshqa risolalar yaratildi.

Uygʻonish davri tufayli quyidagi holatlar yuzaga keldi:

1. *Apennin yarim orolida boshqa Evropa mamlakatlariga qaraganda ancha oldinroq yangi iqtisodiy munosabatlar shakllanishi boshlandi;*

2. *Koʻpchilik Italiya shaharlari oʻzining geografik joylashuvi tufayli xalqaro savdo markazlari, ishlab chiqarish, bank ishini rivojlantirishga olib keldi;*

3. *Mamlakatning siyosiy tuzilmasi bir-biri bilan doimo urushda boʻlgan mustaqil tumanlar va shaharlardan tashkil topgan edi;*

4. *Qadimgi meros qayta kashf va qayta koʻrib chiqish masalasi olgʻa surildi.*

Bu kichik ilmiy izlanishimizdan maqsad, hozirgi davrgacha tasviriy sanʼatning barcha turlari – haykaltaroshlik, rangtasvir, amaliy bezak sanʼati, grafika, meʼmorchiliklardagi keng tarqalgan tasviriy sanʼat anʼanalarining klassik koʻrinishi aynan shu davrdan boshlanganligini yana bir bor isbotini topishdir, shu bilan bir qatorda aynan Uygʻonish davrida ijod qilgan buyuk usta-rassom va haykaltaroshlarni barcha zamonaviy ijodkorlar oʻz ustozlari deb atashidir.

## ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ КУЛЬТУРЫ И ДОСУГА В ЭПОХУ ЦИФРОВИЗАЦИИ

**Аннотация.** В статье исследуется проблема влияния цифровых технологий на сферу культуры и досуга. Обоснована необходимость понимания цифровизации как важного ресурса социально-культурного развития. Цифровизация приводит к возникновению новых тенденций в образе жизни, формах проведения досуга, в функционировании учреждений культуры и развлечений. Происходящие изменения приводят к фундаментальным социальным трансформациям и могут иметь не только положительные, но и негативные последствия. Выявлены проблемы цифровизации культуры и досуга, связанные с доступностью информационных и коммуникационных технологий для населения.

**Ключевые слова:** цифровизация, цифровые технологии, коммуникация, цифровое неравенство, культура, досуг.

Manzura YULDASHEVA,  
O'zDSMI dotsenti

## RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA MADANIYAT VA DAM OLISH SOHASINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya:** Maqolada raqamli texnologiyalarning madaniyat va dam olish sohasiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Raqamlashtirishni ijtimoiy-madaniy rivojlanishning muhim manbai sifatida tushunish zarurati oqlandi. Raqamlashtirish turmush tarzi, dam olish shakllari, madaniyat va o'yin-kulgi muassasalari faoliyatida yangi tendentsiyalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Mavjud o'zgarishlar asosiy ijtimoiy o'zgarishlarga olib keladi va nafaqat ijobiy, balki salbiy oqibatlariga ham olib kelishi mumkin. Aholi uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining mavjudligi bilan bog'liq madaniyat va bo'sh vaqtni raqamlashtirish muammolari aniqlandi.

**Kalit so'zlar:** raqamlashtirish, raqamli texnologiyalar, aloqa, raqamli tengsizlik, madaniyat, bo'sh vaqt.

Manzura YULDASHEVA,  
associate Professor UzSIAC

## FEATURES OF DEVELOPMENT OF CULTURE AND LEISURE IN THE AGE

**Abstract:** The article contains the problem of the influence of digital technologies on the sphere of culture and leisure. The necessity of understanding digitalization as an important resource of socio-cultural development is substantiated. Digitalization leads to the emergence of new trends in lifestyle, leisure activities, and the functioning of cultural and entertainment institutions. These changes lead to fundamental social transformations and can have both positive and negative consequences. The problems of digitalization of culture and leisure related to the availability of information and communication technologies for the population are identified.

**Keywords:** digitalization, digital technologies, communication, digital inequality, culture, leisure.

В настоящее время актуальность приобретают исследования, касающиеся влияния цифровых технологий на образ жизни и досуговые предпочтения, а также на выбор предложений в сфере культуры и развлечений. Безусловно, многие предприятия сферы услуг используют современные цифровые технологии для повышения своей конкурентоспособности на рынке. Технологические инновации помогают учреждениям культуры стать более привлекательными для потребителей, предлагая новые возможности культурно-досуговой деятельности.

Процесс цифровизации характеризуется тем, что ключевым фактором производства становится цифровая информация, что позволяет повысить эффективность различных видов производства, технологий, процесса реализации и потребления товаров и услуг. Можно выделить два уровня цифровизации: первичный, который предполагает наличие и доступность сервисов, и вторичный, означающий интенсивность и характер использования существующей инфраструктуры. Так, с позиции «первичной» цифровизации, с учетом современных реалий и тенденций Узбекистан также начал переход к цифровизации. Утверждена стратегия «Цифровой Узбекистан 2030». В данную стратегию вошло более 220 приоритетных проектов, предусматривающих совершенствование системы электронного правительства, развитие отечественного рынка программных продуктов и информационных технологий.

Цифровизация оказывает влияние на разные аспекты качества жизни:

- уровень благосостояния и занятость: благодаря цифровизации создаются новые рабочие места в сфере услуг, предоставляется возможность удаленной работы и доступ к новым рынкам труда;
- уровень расходов: развитие цифровых технологий стимулирует потребление новых товаров и услуг;
- уровень образования и человеческого капитала: доступ к образовательным и информационным ресурсам позволяет совершенствовать знания и навыки пользователей;
- наличие и характер использования свободного времени: цифровые сервисы экономят время людей путем предоставления информации в любом месте в любое время;
- наличие и качество социальных связей: цифровые технологии создают новые способы коммуникации, а также объединяют людей по разным критериям, например, по месту проживания или по общим интересам;
- общая удовлетворенность жизнью: цифровизация способствует увеличению ассортимента услуг, повышению их качества, скорости и безопасности получения.

Цифровизация в сфере культуры предполагает развитие учреждений культуры нового поколения, которые ориентированы на цифровой формат восприятия информации. Развитие информационных технологий приводит к трансформации в восприятии времени и пространства. Интернет-ком-

муникации дают возможность приобщиться к важным культурным событиям независимо от местонахождения человека. Цифровые технологии расширяют рекреационные и досуговые возможности, что может отчасти нивелировать социальные разрывы. Возникают новые форматы социальных пространств с новыми возможностями социальной идентификации, а также формируются условия для вовлеченности в различные мероприятия. Цифровые технологии позволяют не только увидеть фестивали и концерты, посетить виртуальные музеи, но и благодаря интерактивным инструментам в определенном смысле стать их участниками. И иногда зритель, наблюдающий за событием в Интернете, имеет больше преимуществ, чем люди, сидящие в концертном зале.

Использование цифровых технологий способствует росту интереса к интернет-трансляциям. Такие трансляции становятся способом продвижения различных видов искусства, а также определенного образа жизни и определенных видов рекреации и досуга.

Влияние цифровых технологий на досуговые предпочтения выражается в выборе цифровых форматов в занятиях по самообразованию и личностному росту. Востребованными являются платформы, обеспечивающие доступ к образовательным ресурсам, библиотекам, мастер-классам, вебинарам по различной тематике, а также коммуникационные сервисы (социальные сети, мессенджеры и пр.).

В Минкультуры Узбекистана подчеркивают, что цифровизация является одним из драйверов для культурной среды. Например, виртуальные концертные залы предлагают онлайн-трансляции. Активно развиваются электронные библиотеки, виртуальные музеи, мультимедийные гиды и другие проекты с использованием цифрового пространства. При этом Минкультуры связывает цифровизацию и развитие культурной среды с ростом качества жизни и социально-экономическим благополучием страны.

По данным опроса, интерес и фактическое потребление населением культурных продуктов и услуг растет. Так, в последние годы в Узбекистане происходит музейный бум: наблюдается большое количество выставок, продаются электронные билеты. Растет популярность музеев [4]. На это, несомненно, повлияли оцифровка коллекций и внедрение виртуально-информационных пространств, показывающих для аудитории богатство музейных коллекций и экспозиций.

Реализуются проекты по созданию единой информационной инфраструктуры в области культуры и досуга. В сфере культуры основными задачами по развитию цифровизации являются развитие материально-технической базы учреждений культуры, расширение информационных ресурсов о культуре в Интернет, формирование электронных баз данных, создание информационных порталов и виртуальных музеев, использование технологий дополненной и виртуальной реальности.

Однако цифровизация имеет и обратную сторону. Одной из проблем гуманитарного характера, возникающих под воздействием цифровых технологий, является искаженное понимание значимости информации и информационная безответственность. Цифровые технологии создают открытые виртуальные площадки. Легкость доступа к информации, ее избыток и отсутствие цензуры, а также низкий уровень обра-

зования участников обсуждений способствуют формированию «информационного шума». Здесь важным является то, что эти действия сами по себе становятся формой рекреации и досуга. Так возникают селфи-зависимость или зависимость от блоггерства.

Возможность распространять информацию, обмениваться впечатлениями, влиять на вкусы и образ жизни, способствует формированию моды на новые виды досуговых практик. Уход от действительности в виртуальную реальность становится устойчивым социальным трендом. Зачастую в связи с популярностью интернет-общения и меньшей доступностью профессионального знания, а также формированием интернет-субкультуры, видео-блоги могут в какой-то мере выступать альтернативой профессиональному мнению. С другой стороны, чтобы избежать цифрового давления, некоторые выбирают такие досуговые практики, как, например, организация «туров тишины», медитации «Погружение в тишину» и пр.

Следует отметить, что усиливается и социальное неравенство между группами с различной степенью включенности в цифровое взаимодействие. Как отмечал еще М.Кастельс: «дифференциация между «интернет-имущими» и «интернет-неимущими» добавляет еще один фактор раскола к уже имеющимся источникам неравенства и социальных ограничений» [1; с. 98]. Социологические исследования показывают, что на формирование цифрового разрыва большое влияние оказывают уровень дохода и образования. Возможность доступа к цифровым технологиям, приобретение навыков их применения, формирование профессиональных компетенций, связанных с их использованием, становятся новыми факторами социальной стратификации, создавая социальные группы, исключенные из профессиональной коммуникации [3; с.83]. Использование цифровых технологий в производственных процессах и в сфере услуг приводит к сокращению рабочих мест и росту безработицы. Из-за того, что оказание многих видов услуг переходит в виртуальное пространство, людям, не имеющим цифровых компетенций, становится сложнее найти работу.

Нельзя не отметить и последние тенденции, связанные с пандемией коронавируса в мире. В последние месяцы, когда многие страны находятся на карантине или в самоизоляции, цифровые сервисы играют особую роль. Интернет дает возможность не только продолжать работать и приобретать различные товары и услуги, но и общаться, находить развлечения и проводить досуг. Наблюдается очевидный рост потребностей в цифровых услугах. В таких условиях цифровизация особо важна для учреждений культуры, которые открыли бесплатный онлайн доступ к своим ресурсам. А в существующих условиях это имеет еще и важное психологическое значение для граждан, находящихся в самоизоляции.

Таким образом, цифровизация сферы культуры и досуга призвана повысить качество жизни населения. Несмотря на ряд негативных моментов и возможные отрицательные последствия, эффективное управление всеми аспектами социально-досуговой деятельности уже невозможно представить без современных цифровых технологий, а цифровизация сферы культуры и повышение доступности информационных и коммуникационных технологий для граждан является ключевым направлением развития.

#### Список литературы:

1. Кастельс М. Галактика Интернет: размышления об Интернете, бизнесе и обществе. - Екатеринбург: У-Фактория, 2004. - 385 с.
2. Культура в «цифре» [Электронный ресурс]. - URL: <https://plus.rbc.ru/specials/kultura-v-cifre> (дата обращения: 10.04.2020).
3. Попов М.В., Коблова Ю.А., Мурыгина Н.В. Институты виртуального пространства: механизм, закономерности формирования и новые угрозы // Вестник Саратовского государственного социально-экономического университета. - 2017. - № 3 (67). - С. 82-86.

## AKTYORLIK FANLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNING O'RNI VA AHAMIYATI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada aktyorlik fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyati, an'anaviy ta'lim o'qitish texnologiyalari tarixidan qisqacha ma'lumot, aktyorlik fanining shakllanishi va rivojlanishi hamda taniqli aktyorlarning hayoti va ijodiy faoliyatlari tahliliy bayon etilgan. Shuningdek, maqolada aktyorlik fanining paydo bo'lishi va takomillashishining boy tarixi bilan bog'liq bilimlar yosh aktyorlarga mahoratli rollarni yaratish yo'llari va zamonaviy pedagogik texnologiyalar imkoniyati, zamonaviy usullarsiz aktyorlarni yetkazib berish mumkin emasligi, ularni shu pedagogik texnologiyalardan foydalanish borasidagi muallifning izlanishlari natijasi bilan tanishasiz.

**Kalit so'zlar:** Aktyor, drama, opera, zamonaviy, pedagogika, texnologiyalar, balet, metodlar, qo'g'irchoq teatri, sirk, teatr, kino, insenirovka, rol, mahorat, postanovka, montaj, televideniya rollari ijro etuvchi shaxs, artist, madaniyat, o'tmish, kelajak, milliy, an'anaviy, manba.

Behzod МИРЗАЕВ,

старший преподаватель кафедры «Музыкально-драматический театр и кинематографии» ГИИКУЗ

## РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ АКТЕРСКИМ ПРЕДМЕТАМ

**Аннотация.** В статье анализируются роль и значение современных педагогических технологий в обучении актерскому мастерству, краткая история традиционных образовательных технологий, становление и развитие актерского мастерства, а также жизнь и творческая деятельность известных актеров. Также в статье рассказывается о богатой истории возникновения и развития актерского мастерства, способах создания мастер-ролей для молодых актеров и возможности современных педагогических приемов, без современных методов подачи актеров, результата авторских исследований. по использованию ими этих педагогических технологий.

**Ключевые слова:** актер, драма, опера, современность, педагогика, технология, балет, приемы, театр кукол, цирк, театр, кино, постановка, роль, мастерство, постановка, монтаж, телеактер, артист, культура, прошлое, будущее, народное, традиционный, исходный.

Bekzod MIRZAYEV,

Senior Lecturer of the chair of Cinematography UzSIAC

## THE ROLE AND IMPORTANCE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING ACTOR'S SCIENCES

**Abstract.** This article analyzes the role and importance of modern pedagogical technologies in the teaching of acting, a brief history of traditional educational technologies, the formation and development of acting and the life and work of famous actors. Also in the article you will learn about the rich history of the emergence and development of acting science, ways to create masterful roles for young actors and the possibility of modern pedagogical techniques, without modern methods, the delivery of actors, the results of the author's research on their use of these pedagogical technologies.

**Key words:** Actor, drama, opera, modern, pedagogy, technology, ballet, methods, puppet theater, circus, theater, cinema, staging, role, skill, staging, editing, TV actor, artist, culture, past, future, national, traditional, source.

Bugungi kunda O'zbekistonda san'at va madaniyatga e'tibor – ijtimoiy islohotlarning bosh mezoni sifatida ko'rilyotgani hech kimga sir emas. So'nggi yillarda mamlakatimizda sohaga doir chiqarilayotgan farmon va qarorlar bevosita san'at va madaniyat sohasini yanada taraqqiy toptirishga xizmat qilmoqda. Tarixdan ma'lumki, har bir jamiyatning taraqqiyot darajasi o'sha jamiyatda san'at va madaniyatning rivoji bilan belgilangan.

O'tmishda yashab o'tgan har bir hukmdor yoki davlat arbobi faoliyati davomida fan, madaniyat va san'at sohasini qadrlagan bo'lsa, o'sha yurtda tinchlik obodonchilik hamda farovonlik bo'lgan. Zero, san'at va madaniyat o'zbek xalqi, avvalo, yurt yoshlari ongiga milliy istiqloq g'oyalari sadoqat, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, ona Vatanga muhabbat tuyg'ularini singdirishda katta ta'sir kuchiga ega. So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan soha rivojini ta'minlashga qaratilgan huquqiy-normativ hujjatlar ishlab chiqildi. Ularning samarasi o'laroq mamlakatimizda bu yo'nalishda ko'plab yutuqlar ko'zga tashlanmoqda.

Shu o'rinda alohida qayd etish lozimki O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 7-aprel-

dagi "Kino san'ati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6202-sonli Farmoni hamda 2021-yil 6-apreldagi "Kinematografiya sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish hamda soha vakillarining ijodiy faoliyati uchun munosib sharoit yaratish to'g'risida"gi Qarori o'zbek kino sanoati tarixida yangi davrni boshlab bergan muhim hujjatlar bo'ldi. Ushbu farmon va qarorlarga asosan hozirda 2021–2022-o'quv yilidan boshlab, O'zbekiston Kinomatografiya agentligi huzurida "O'zbekiston Kino Akademiyasi"ni tashkil qilish ishlari amalga oshirilmoqda.

Aktyorlik sohasining asosiy vazifasi inson tafakkurining mahsuli bo'lgan asarlarga jilo berib uning mazmun-mohiyatini ochish va inson ma'naviy ruhiyatiga ta'sir etishdan iborat ekanligi ko'p bor takrorlanadi. Bu esa aktyorlardan yuksak ma'naviyatni talab qiladi. Har bir aktyorni tarbiyalayotgan ustoz (pedagog) oldida talabalar tarbiyasiga qaratilgan ikki muhim vazifa turadi:

1. Talabani ijodkor shaxs sifatida shakllantirish.
2. Talabani ichki layoqatini yuzaga chiqarish.

Birinchi vazifa: bo'lajak ijodkorni siyosiy, g'oyaviy, intizomiy, ma'naviy, mafkuraviy jihatdan tarbiyalash, dunyoqarashini shakllantirish.

Ikkinchi vazifa: professional tarbiya vositalari orqali talaba ongida ijodkor shaxs tuyg'usini shakllantirish, qobiliyatini ro'yobga chiqarish<sup>1</sup>.

Yuksak ma'naviyatli ijodkor shaxs tarbiyasida, kecha, bugun va bundan keyin ham davom etadigan ma'naviyatimizning yuksalish jarayonida, ayniqsa, yoshlar tarbiyasida Alisher Navoiyning ijodi, uning umr saboqlari asosida yaratgan hikmatlarining o'rni beqiyos, deb o'ylaymiz. Vatanparvar, xalqparvar, tengsiz shoir, olamshumul faylasuf bobokalonimiz kelajakka-avlodlariga ulkan umid bog'lagan zot edi. Alisher Navoiy o'zining butun umri davomida insonni, uning eng go'zal fazilat-u xislatlarini o'ziga xos, betakror bo'yoqlarda kuyladi. Bugungi avlod tarbiyasida aynan Navoiy asarlariga, ularda ko'tarilgan fikrlarga tayanib ish ko'rish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Navoiyni birgina adabiyotchilar emas, barcha sohalarida ta'lim olayotgan talabalar jumladan, bo'lajak aktyorlar ham o'rganishi zarur<sup>2</sup>.

Aktyorlik yo'nalishida tahsil berayotgan pedagog zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib ta'lim berish barobarida, Navoiyni ham yonma-yon o'rgatish lozim. Bu komil inson tarbiyasi yo'lidagi eng muhim manbaalardan biridir. Navoiyshunos olim Ibrohim Haqqul tili bilan aytganda, "Navoiyni zo'rma-zo'raki o'rgatish emas, uni o'rganishni shavqqa aylantirish kerak". Chunki uning ijodida olam va odam haqidagi barcha bilimlar jamlangan. Birgina "Xamsa" asaridagi "Hayrat ul-abror" dostonini olaylik, insonning tug'ilishidan boshlab, to qarilik davriga qadar qanday bo'lishi komillikka qay yo'llar bilan erishish mumkinligi mukammal tarzda bayon etilgan. Beixtiyor yuqorida misol keltirganimiz, shoir satrlari yodga tushadi: "Ellikda qilmadi taraqqiy kishi, Oltmishu borcha tanazzul ishi", – deydi Alisher Navoiy. "Hayrat ul-abror" dostonining har bir bobi bugungi kunimizga aloqador.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ta'limga berilayotgan e'tibor har qadamda sezilmoqda. Shuningdek, kinosanoati aktyorlik fanlarini o'qitish bugun zamon bilan hamnafas bo'lishni talab qiladi.

Bugun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tish zaruriyat. Buni Prezidentimizning yoshlarimizni qo'llab-quvvatlashlariga qaratilgan besh tashabbuslarining birinchisi san'at va madaniyatga oidligidan ham bilish mumkin.

Aktyorlik tushunchasi haqida uning mazmun-mohiyati, kishilikning kamolotidagi o'rni haqida, talabning aktyor bo'lib badiiyati shakllanishi omillari, xususan, aktyorning professional etikasi haqida J.Maxmudov va H.Maxmudovalarning "Aktyorlik mahorati" kitobida shunday fikrlar mavjud: "San'at tushunchasi keng qamrovli bo'lib, inson va jamiyatning rivojlanish va taraqqiyotida o'ta muhim o'rin egallaydi. Bastakor, haykaltarosh, rassom, sozanda,

aktyor, rejissor, raqqos, qo'shiqchilar o'zbek tilimizda bir so'z bilan *ziyolilar* deb ataladi. Ziyoli so'zining lug'aviy ma'nosi *ziyonur*, yorug'lik taratuvchi demakdir. Aktyor ham nafaqat o'z san'ati bilan, shaklu-shamoyili, muomilasi, xulqu-odobi bilan keng omma o'rtasida ziyo tarqatuvchi hisoblanadi.

Aktyorlik mahorati yuzasidan o'tkaziladigan imtihon mohiyat jihatidan boshqa yo'ldosh fan uchun ham imtihon hisoblanadi. Chunki talaba badiiy siymo yaratish jarayonida o'z imkoniyatlarini har tomonlama namoyish etadi. O'quv jarayonida talabalar nazariy darslarga jiddiy e'tibor berishi, shubhasiz, mahorat sirlarini o'rgatadigan o'qituvchilarga bog'liqdir. Ular amaliy mashg'ulotlar paytida nazariy bilimlarning qanchalik ahamiyatli ekanligini talabalar ongiga singdirishlari lozim. Nazariy fanlardan saboq beruvchi o'qituvchilar esa o'z navbatida, nazariya amaliyot bilan chambarchas bog'liq ekanligini o'z tinglovchilariga yetkazishlari zarur<sup>3</sup>.

Ko'p holatlarda aktyor unga berilgan personajning tashqi qiyofasi o'rtasidagi mavjud va o'xshashlikni ko'ramiz. Ammo ijroda o'sha mutanosiblikni anglolmaymiz. Natijada nomutanosiblikning guvohi bo'lib qolamiz. Sahna aktyordan ijodiy- g'oyaviy fikrni tomoshabinga yetkaza olish uchun nafaqat qobiliyatni, shuning barobarida, ma'naviy, mafkuraviy jihatdan yetuk, har tomonlama professional tayyorgarlik ko'rgan va shakllangan shaxs bo'lishlikni talab etadi<sup>4</sup>. Chunki aktyor ijodiy-g'oyaviy fikrni o'zining butun borlig'i bilan namoyon etishdan oldin, aynan shu fikr uning ongida paydo bo'lishi, tafakkur ko'zgisidan o'tishi, so'ngra siymo qiyofasida namoyon bo'lishi kerak. Bunday vazifani mufassal ado etish uchun tashqi qiyofaning o'zi kamlik qiladi. Hamletni o'ynayotgan aktyor tafakkur va dunyoqarash jihatidan hech bo'lmasa unga yaqinlashishi zarur. Shundagina uning his-tuyg'ulari jonli va ishonarli bo'ladi. Chunki aktyorning o'zini dardlari bo'lmasa, ijro etayotgan rolining so'z va fikrlari ostida hayotiy haqiqat asoslari yotmasa, bunday ijro tomoshabinni o'z ortidan ergashtira olmaydi. "Tanasi boshqa dard bilmas", degan naql bejiz aytilmagan. Yana bir naql bor: "Yaxshini – yomon bo'libdi, desa ishon, yomonni- yaxshi bo'libdi, desa ishonma!" Demak, sohaga doir zamonaviy pedagogik texnologiyalar chuqur o'rganib kamol topgan aktyor har qanday holatda vaziyatdan chiqib keta oladi.

"Bo'lg'usi aktyorlarga ta'lim berish jarayonida, ikki qutbdan bir-biri tomon intilayotgan amaliy va nazariy bilim beruvchi o'qituvchilar ijodiy jarayon kechadigan sahna maydonida har ikki bilimning uchrashishi uchun zamin yaratishlari zarurdir. Bo'lg'usi aktyorlarning ijodiy izlanishlari jarayonida har bir talaba zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, mustaqillik davrida jamiyat hayotida, insonlar ongida ro'y berayotgan ruhiy va mafkuraviy o'zgarishlarni chuqur anglab yetishi, his qilishi muhim ahamiyatga ega<sup>5</sup>. Bu jarayonda bo'lajak aktyorning badiiy didi, badiiy saviyasi to'g'ri shakllanishi katta ahamiyatga ega.

Bo'lajak aktyor o'quv dargohida ta'lim olar ekan, ustozlar jamoasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar mahorati axborot kommunikatsiya vositalari va nihoyat, o'z oldidagi mas'uliyatni unutmashligi lozim. Aktyorlikning o'ziga xos tabiati, uning jamoaviy san'at ekanligi aktyor oldiga nafaqat o'zi va jamoasi, balki umumbashariyat an'anasi bilan bog'liq yuksak burchni yuklaydi. Bu jarayonda aktyor bir o'zi hech narsa qila olmasligini, uning to'laqonli badiiy ijod bilan shug'ullanishi va ma'lum natijalarga erishishida u ishlayotgan jamoaning muhim o'rni borligini har doim his qilib turishi, jamoa esa har bir aktyorning kerakli "vint" ekanligini unutmasligi lozim<sup>6</sup>.

<sup>1</sup> Maxmudov J., Maxmudova H. Aktyorlik mahorati: darslik. – Toshkent; 2010. – B.7.

<sup>2</sup> Umarova G.B. Rejissura asoslari va aktyorlik mahorati: ma'ruzalar matni. – Toshkent; 2017. – B.38.

<sup>3</sup> Maxmudov J., Maxmudova H. Aktyorlik mahorati: darslik. – Toshkent; 2010. – B.7.

<sup>4</sup> Ungboeva B.O'. O'zbekistonda 1920 – 1956-yillarda kino va teatr san'ati tarixi: avtoreferati. – Toshkent; 2018. – B.23.

<sup>5</sup> Maxmudov J., Maxmudova H. Aktyorlik mahorati: darslik. – Toshkent; 2010. – B. 8.

<sup>6</sup> Коппола Ф. Живое кино: секреты, техники, приемы. – Москва; 2018. – Б. 136.

Shu nuqtai-nazardan ham buyuk darg'alar yosh aktyorlarni tarbiyalashda zamonaviy pedagogik texnologiyalarga alohida ahamiyat berganlar. Teatr asari – spektakl shakllanishida juda ko'plab ijodkorlar ishtirok etishadi. Rassom-ssenografiya bo'yicha, chiroq ustasi – yoritish moslamalaridan ustalik bilan foydalana olishi, ovoz rejissyori-musiqa va shovqinlarni to'g'ri tanlay olishi, kiyimlar bo'yicha rassom – har bir davr etnografiyasini yaxshi bilishi orqali aktyor va rejissorlarning eng yaqin ko'makchisiga aylana olishi zarur. Shuning uchun biz yuqorida sanab o'tilgan kasb egalarini ham albatta, ijodkorlar sirasiga qo'shamiz. Agar ana shu ijodkorlar ansamblida birdamlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash, ijodiy ko'mak berish xislati bo'lmasa, yaratilayotgan sahna asari "sifatsiz tikilgan kiyim" singari chok-chokidan so'kilib ketaveradi.

Afsuski, ba'zan dars o'tish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanmay talabalarni dars mobaynida o'z manfaatini ko'zlab ish tutuvchilar ham uchrab turadi. Bunday insonlar Stanislavskiy ta'biri bilan aytganda, o'zidagi san'atni emas, san'atda o'zini sevadigan "ijodkor" ustozlardir. Bundaylar nafaqat bo'lajak aktyorning to'laqonli shakllanishiga, balki guruhdagi ishchan va ijodiy kayfiyati yuksak talabalarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadilar. Aktyor, avvalo, komil shaxs bo'lib yetishishi, intellektual salohiyatli ijodkor bo'lib shakllanishi zarur. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar har doim davr, zamon, muhit ta'sirida o'zgarib boradi. Ammo uning zamirida yotgan asosiy g'oya, oliy, ezgu maqsad – xalqchillik xislati, badiiy did, badiiy saviya o'zgarmaydi, aksincha, yanada sayqallanib, rivojlanib boraveradi.

Aktyorlikda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'rni va ahamiyatini biz quyidagilar asosida ko'rsatib o'tamiz:

Birinchi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib aktyorlikning asl mohiyatini tushinib olasiz. An'anaviy pedagogik vositalardan ham foydalanishi mumkin. Ya'ni tekshirishib ko'rishi, aniqlik kiritishi, maslahat berishi mumkin. Biroq dars o'tish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanganingizdan keyin, mushohada qilib ko'ring.

Ikkinchi, aktyorlik yo'nalishida dars beradigan ustoz sifatida talabani shu sohaga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishingiz mumkin. Shu bilan birga, talabalarga zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib, sohasiga asqotadigan bilimni berishingiz kerak. Shuning uchun har bir texnologiyani o'rgatishda zamonaviylikni ko'zdan qochirmaslik lozim.

Darslarni boshidanoq havaskor ustoz sifatida emas, texnik tayyorgarlikka ega, professional ijodkor sifatida talabalarni o'ziga jalb qila olish ham bu zamonaviy pedagogik texnologiya, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Aktyorlik fanlarini o'qitishda foydalanilayotgan har bir zamonaviy texnologiyalar talabani badiiy saviyasi, axloq-odobi, ma'naviy qiyofasi g'oyaviy tamoyillardan hosil bo'ladi. Ayrim hollarda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan ham ortda qolgan bo'lishi mumkin. Ba'zan pedagog aktyorlar badiiy asarni a'lo darajada tahlil etganlari holda shu asarda tasvirlangan qahramonlarning g'oyaviy saviyasini tahlil etishga ojizlik qiladilar. Shu paytda ularga zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamga keladi va ularning ahamiyati muhim ekanligini anglab yetadilar. Demak, aktyorlikdan dars berayotgan pedagog zamonaviy pedagogik texnologiyalardan xabardor bo'lib, ular bilan hamohang qadam

tashlamog'i kerak. Buning uchun o'qish, o'rganish, mashq qilish va yana o'qish lozim.

"Bo'lg'usi aktyorlarda badiiy did va saviyani o'stirish uchun o'qituvchilar ixtiyorida rag'batlantirish hamda tanbeh berish kabi pedagogik vositalar ham mavjud. Har ikkala vosita ham nozik va o'tkir qurol bo'lib, ulardan unumli foydalanish o'qituvchidan sezgirlik va ehtiyotkorlikni talab qiladi. Bu qurollardan o'z o'rnida mohirona foydalana olmaslik talabalarni ijodiy saviyasizlikka olib kelishi mumkin.

Masalan, "aktyorlik mahorati" mashg'uloti vaqtida, o'qituvchi o'z ustida kam ishlaydigan, ammo tabiatdan qobiliyatli talabaga qarata: "Siz hozir qoyilmaqom qilib o'ynadingiz", deyishi mumkin. Turgan gapki, bunday o'rinsiz maqtashning talaba uchun foydasidan ko'ra ziyoni ko'proq bo'ladi. Talaba o'zicha: "Garchand, ishlamagan bo'lsam-da ustoz mahoratimga tan berdi", – degan xulosaga kelishi mumkin va yanglish xulosani chiqarib, o'zi kirib borayotgan bu noto'g'ri yo'ldan ortga qaytmaydi. Teatr san'atidagi eng muhim jihat bu – iqtidor, mahorat va layoqatdir, degan tabiiy xulosa talaba uchun dasturulamal bo'lib qoladi.

Agar sahna san'atida o'z ustida tinimsiz mehnat ko'nikmasi hosil qilinmasa, ijod uchqunlari vaqt o'tishi bilan so'nishi muqarrar. Boshqa bir holatda esa, ustoz talaba ijrosidagi haqiqatnamo arzimagan harakatni ko'rib, "hayotiy haqiqatga yaqin", deya baholab, qoniqish hosil qilsa, talaba "sahna haqiqati hayotiy haqiqat bilan bir ekanda", degan yanglish xulosa chiqarishi mumkin. Aktyorlik yo'nalishi talabalarini imtihonlarini birida yuz bergan etyud fikrimizga dalil bo'lishi mumkin:

"N" kurs talabalari quyidagicha etyud namoyish etishdi: Ular yaxshi tayyorgarlik ko'rmagan imtihondan qutilib qolish uchun betobliklarini bahona qilib, "tez yordam" chaqirishadi. Birinchi talaba o'zining "betob" ekanligiga shifokorni ishontiradi. Ikkinchi talaba shifokor tomonidan beriladigan kasallik to'g'risidagi ma'lumotnoma qog'ozini o'g'irlyaydi va uni o'zi to'ldiradi. Ular o'ylab topgan hiylalaridan xursand bo'lib, sakrashadi.

Mazkur etyud, hajviy janrda emas, hayotiy haqiqat tarzida talqin etiladi. Mahorat o'qituvchisi esa talabalarning yaxshi ijrosini inobatga olib, "ko'rik imtihoni"ga tavsiya etadi. Natijada, badiiy haqiqat bilan hayotiy haqiqat o'rtasida tafovut paydo bo'lgan. Bunday hol o'z navbatida, tarbiyada muhim o'rin tutgan g'oyaviy dunyoqarash, ma'naviy va mafkuraviy tarbiyaga salbiy ta'sir o'tkazishini o'qituvchi inobatga olmag'an<sup>7</sup>.

Xulosa qilib aytganda, aktyorlikda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati o'ta muhimdir. Hozirgi zamon aktyorlik san'ati, har bir aktyordan, har tomonlama chuqur bilimga ega bo'lishini, o'z kasbining eng nozik tomonlarini mukammal bilib olishini talab qiladi. San'at haqida sodda, tushunarli qilib yozmoq, so'zlamok kerak. Donishmandlarga xos gaplar o'quvchini cho'chitib yuboradi. Bunday so'zlar yurakni emas, fikrni uyg'otadi. Shu sababli ijod davrida aql artist tuyg'usini va beixtiyor ijodni bosib ketadi. Bizning san'atimizda ijod va tuyg'uga katta ahamiyat beriladi.

Ammo murakkab ijodiy proses haqida "sodda" qilib gapirish va yozish qiyin. G'oyat nozik sezgilarni beixtiyor ijodni ifoda qilish uchun so'zlarning ma'nosi torlik va qo'pollik qiladi. Shunday paytda zamonaviy pedagogik texnologiyalar doim yordam berishini yuqorida bir necha misollar bilan keltirib o'tdik. Aktyorlik sohasi ongimiz va irodamizga bo'ysunish qobiliyatiga ham ega. Mana shu xususiyat zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashsa, kelajakda, albatta, bizning aktyorlarimiz o'zlarining nelarga qodirlikini dunyoga ko'rsatishlari shubhasizdir.

<sup>7</sup>Maxmudov J., Maxmudova H. Aktyorlik mahorati: darslik. – Toshkent; 2010. – B.10.

## KINO JANRLARINI INGLIZ-RUS-O‘ZBEK TILLARIDA NOMLANISHINING QIYOSIY TAHLILI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek tilida kinematografik terminologiyaning shakllanishi, qo‘llanilishi, kino janrlarini ingliz, rus va o‘zbek tillarida nomlanishining qiyosiy tahlili haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** til, termin, kinematografiya, kino janr, kino terminlar, lingvistik, tarjima, ingliz kinoleksikasi, rus kinoleksikasi.

Зулхумор НАРКУЗИЕВА,  
преподаватель кафедры “Узбекского языка и литературы” ГИИКУЗ.

## СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ НАЗВАНИЙ КИНОЖАНРОВ В АНГЛИЙСКО-РУССКО-УЗБЕКСКИХ ЯЗЫКАХ

**Аннотация:** В этой статье рассматриваются вопросы формирования и использования кинематографической терминологии в узбекском языке и сравнительный анализ наименования жанров фильмов на англо-русском и узбекском языках.

**Ключевые слова:** язык, терминология, кинематография, жанры кино, термины кино, лингвистика, перевод, английская кино лексика, русская кино лексика.

Zulxumor NARKUZIYEVA,  
Teacher the chair of “Languages and Literature” UZSIAC

## COMPARATIVE ANALYSIS OF FILM GENRE NAMES IN ENGLISH-RUSSIAN-UZBEK LANGUAGES

**Abstract:** This article discusses the formation and use of cinematic terminology in the Uzbek language and a comparative analysis of the names of film genres in the English-Russian and Uzbek languages

**Keywords:** language, terminology, cinematography, cinema genre, cinema terms, linguistics, translation, English cinema vocabulary, Russian cinema vocabulary.

Bugungi integratsiyalashuv jarayonida O‘zbekiston hamda jahon xalqlarining umumiy jihatlari yoki jahon xalqlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bu tadqiqotlar tilshunoslik va boshqa sohalarini yangi daliliy materiallar bilan boyishga xizmat qiladi. Til yuzasidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ilmiy tadqiqotlarga xalqning madaniy-ma‘naviy merosini, adabiyoti va folklorining tarixiy hamda hozirgi rivojlanishini har tomonlama tadqiq qilish muhim vazifalardan biridir. “Til – bu madaniyatni ilmiy o‘rganishda yetakchilik, boshlovchilik qilishi bilan muhim ahamiyatga egadir”<sup>1</sup>.

Hozirgi bosqichda ona tili lug‘at tarkibining asosini turli tuman terminologik tizimlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. O‘zbek tilshunosligida, xususan, uning terminologiyasida ko‘plab doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalar, bir qancha monografiya, to‘plam va risolalar hamda ilmiy-ommabop maqolalarning e‘lon qilinganligi bilan bu yo‘nalishning dolzarbligi susaygani yo‘q.

O‘tgan asrlardan to hozirgi kungacha bo‘lgan davrda olib borilgan ilmiy ishlarda mutaxassislar tarjimaning leksik, grammatik, stilistik va boshqa bir qancha dolzarb muammolari to‘g‘risida fikr yuritishgan. Terminlarni o‘rganishdan asosiy maqsad chet tillaridan kirib kelayotgan so‘zlarni o‘z ona tilimizdagi muqobiliga almashtirish va tarjima qilishdir.

Til va jamiyat o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, jamiyatda sodir bo‘layotgan barcha o‘zgarishlar uning tilida namoyon bo‘ladi. Jamiyat hayotiga kirib kelgan yangi tushunchalar, voqeahodisalar jamiyatning lingvomadaniy konseptosferasidan joy olishi uchun o‘z til zahirasi bilan bir qatorda o‘zga tillarga ham murojaat qilinadi va so‘zlar o‘zlashtiriladi<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – Москва: Прогресс, 2001. – С.132

<sup>2</sup> Sirojiddinov Sh. So‘z o‘zlashtirish omillari xususida //O‘zbek tili va adabiyoti, 2017. -№ 4. – B.83.

<sup>3</sup> Ким В.Н., Ким Т.С. Социально-политическая терминология. – Ташкент; 2009. – С. 5.

Kino sohasiga oid chet tillardan kirib kelgan terminlarning o‘zbek tiliga tarjima qilish va tarjima jarayonida uchraydigan muammolarni bartaraf etishda o‘zlashgan terminlarni o‘zbek tiliga aynan mos tushadigan muqobil variantlarini topish muhimdir. Chunki kinoga oid ko‘pgina terminlar o‘zbek tiliga rus tilidan, rus tiliga esa asosan ingliz, fransuz va boshqa bir qancha tillardan kirib kelgan. Bu kabi terminlarni o‘rganish tilshunoslikning oldiga qo‘yilgan muhim masalalaridan biridir.

Turli tipdagi, ya‘ni bir tilli, ikki yoki undan ortiq tilli, umumfilologik yoxud terminologik lug‘atlar nashr etilgan bo‘lsa-da, kino sohasida bunday lug‘atning yo‘qligini qayd etish lozim.

Boshqa til va uning kino sohasidagi terminlari, til madaniyatidagi o‘rni bilan tanishish uchun lingvistik sohasi yuqori o‘rinda turadi. Tilshunoslik orqali biz ingliz, rus va o‘zbek tilidagi kino terminlarining strukturasi, semantikasi, konseptual tahliliga ega bo‘lamiz. Kino terminlarni til madaniyati bilan uzviy bog‘lashning o‘ziga xosligi shundaki, mavjud bo‘lgan terminlarning nafaqat o‘z ma‘nosida xizmat qilishi, balki madaniyat ta‘sirida ko‘chma ma‘noda ham qo‘llanilishi, ularning etimologik jihatdan chambarchas bog‘liqligini kuzatish imkonini yoritib beradi.

Terminologiya – maxsus leksikani o‘rganuvchi fan bo‘lib, terminlarning kelib chiqishi, shakli, ma‘nosi, vazifasi va qo‘llanilishi kabilarni o‘z ichiga qamrab oladi. Terminologiya zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning aktual yo‘nalishlaridan biridir. Hozirgi vaqtda terminologiya masalasining o‘ziga borishi, bir tomondan, ilm-fanning dinamik rivojlanishi tufayli yangi tushunchalarning ko‘payib borishi sababli deb qaralsa, ikkinchi tomondan, terminlarning shakllanish jarayoni, rivojlanishi va funksiyasi kabi masalalarning yetarli darajada o‘rganilmaganligi bilan bog‘liq hodisa deb izohlanadi<sup>3</sup>.

Terminologiyaning leksik birliklar bilan tez boyib borayotgan sohalaridan biri kino terminologiyasidir. Mustaqillikdan so‘ng o‘zbek tiliga kino terminlarining turli tillardan o‘zlashish jarayoni faol kechmoqda.

Ilmiy terminologiyaning tarkibiy qismiga aylanib borayotgan kino terminologiyasi terminlarining shakllanishi va rivojlanishida lingvistik, ekstralingvistik omillarning ta'siri muhim rol o'ynaydi.

O'zbek tili kino terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishida quyidagi nolisoniy omillar mavjud:

- o'zbek kinosi sohasiga e'tiborning davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi;
- o'zbek kinosi sohasini rivojlantirish bo'yicha qonun va qonunosti hujjatlarining qabul qilinayotganligi;
- turli davlatlar bilan kino sohasidagi hamkorlikning rivojlanishi;
- kinoning yangi turlarini paydo bo'lishi;
- kino sohasida malakali kadrlarni tayyorlash uchun xalqaro hamkorlikning yo'lga qo'yilishi;
- chet ellik kino sohasi namoyondalarining mamlakatimizga jalb qilinishi va ularning tashrifi.

Umuman olganda, kino terminologiyasi yoki kinematografiya terminlar (kadr tipi, kamera harakati) nafaqat kinoda, balki video qator haqida so'z boradigan boshqa sohalarda ham – televideniye, axborotlarda ham qo'llaniladi.

Kino terminologiyasi turli maxsus sohalar chegarasida – 3D texnologiyalar va kompyuter grafikasi sohalarda rivojlanadi, chiroq, grimm, kinematografik jarayonni boshqarish, tasvirga olish uchun zarur asbob-uskunalar, aktyorlik mahorati kabi sohalarni o'z ichiga oladi. U yoki bu yondashuvga ko'ra, kinoterminlar tizimlari chegarasi o'zgarib boradi. Aynan kino ko'plab texnologiyalarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, aynan kino tanqidchiligi, umuman kino san'atida yangi texnologiyalar, badiiy g'oyalar va tamoyillar vujudga keladi, binobarin, kino sanoati chegaraviy sohalar terminlar fondini to'ldirib boradi.

Inglizabon, rusiyabon va o'zbekzabon lingvistik madaniyatlarda kino terminologiyasining shakllanishi rivojlanishning o'xshash yo'nalishlari bo'yicha bormoqda. Bu kinosanoatining va umuman kinoning baynalmillalashuviga asoslangan hamda o'ziga xos jihatlarga egaki, buni kinojanrlar nomlanishi misolida ko'rsatish mumkin.

Kino san'atning sintetik ko'rinishi hisoblanadi, shuning uchun janrlarni ekvivalent nomlanishining bir qatori ingliz, rus va o'zbek tillarida adabiy janrlar kabi avtonom ravishda vujudga kelgan: *historyfilm* – *исторический фильм* – *tarixiy film*, *comedyfilm* – *кинокомедия* – *kinokomediya*, *sciencefictionfilm* – *научно-фантастический фильм* – *ilmiy-fantastik film*, *documentaryfilm* – *документальный фильм* – *hujjatli film*, *fairytalefilm* – *фильм-сказка* – *film-ertak (ertak film)*, *tragicomedy* – *трагикомедия* – *tragik komediya*, *detectivefilm* – *детектив* – *dedektiv film*, *melodrama* – *мелодрама* – *musiqiy drama*. Bunday janrlarning ba'zilar ingliz tilida turli motivatsiyaga ega bo'lgan variantlarga ega:

- *history film* – *historical film* – *period film* – *costume film*;
- *documentary film* – *record film* – *actuality film* – *non-fiction film*;
- *tragicomedy* – *dramedy* – *comedic drama* – *comedy-drama* – *seriocomedy*.

Bundan tashqari, nomlanishlarning keltirilgan variantlari turli motivatsiyaga ega, turli davrda vujudga kelgan, turli funksional-stilistik birikmaga, ba'zi hollarda turli semantik hajmga ega. *Costumefilm*, *actualityfilm*, *recordfilm*, *seriocomedy* kabi janr nomlanishlarining paydo bo'lganiga

ko'p vaqt bo'lmadi, ularning vujudga kelishi nomlanishning motivatsiyasini "aniqlashtirish" va adabiyot terminologiyasidan kinematografiyaning maxsus terminologiyasini ajratib olishning umumiy tendensiyasi bilan bog'liq. Bu nomlanishlar kasbiy jargon sifatida paydo bo'lgan. Ularning ba'zilar *documentaryfilm*, *historyfilm*, *tragicomedy* nomlanishlari kabi umum qabul qilgan terminologiya sifatida maxsus adabiyotda muqim o'ringa ega bo'ldi. Tragicomedy va detectivefilm terminlari ustun ravishda sohaviy adabiyotda qo'llaniladi va ommaviy axborot vositalarida deyarli foydalanilmaydi. Dramedy nomlanishi o'zining jargon tabiatini saqlab qolgan, maxsus adabiyotda ustun ravishda qo'shtirnoq bilan ishlatiladi. Keltirilgan har bir guruhlariga tegishli terminlarning ma'nosi asosiy maxsus tushunchaning alohida farqlovchi belgilariga ko'ra farqlanadi. Masalan, *actualityfilm* termini *documentaryfilm* terminidan farqli ravishda aniq tuzilmaga, umumiy ssenariyaga ega emas, dramedy termini asosan seriallarga nisbatan qo'llaniladi (masalan, M\*A\*S\*H seriali). Terminlar ma'nosining ushbu jihatlari terminologik guruhning asosiy (yadroviy) terminining ma'nosini belgilaydi, shuning uchun ularni qat'iy terminologik yondashuv doirasida aniqroq (xususiyroq) tushunchalar, binobarin, gipertermin bilan umumiy munosabatda bo'lgan mustaqil terminlar sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Asosiy kinojanrlarning bir qator nomlanishlari rus, o'zbek tiliga ingliz tilidan kirib kelgan: *familyfilm* – *семейный фильм* – *oilaviy film*, *horrorfilm* – *фильм ужасов* – *dahshatli film*, *western* – *вестерн* – *vestern*, *thriller* – *триллер* – *triller*. Rus tili milliy korpusi (RTMK) ma'lumotlariga ko'ra, *фильм ужасов* va *вестерн* nomlanishlari birinchi marta 1966-yillarga kelib qo'llanilgan. Shuni qayd etish kerakki, "фильм ужасов" qo'shtirnoq ichiga olingan. Триллер termini kino janri nomlanishi sifatida 1980-yillarda yuzaga chiqqan. "Семейный фильм" ommaviy axborot vositalarida faol qo'llaniladi, ammo RTMK bu birikmani kirib kelganini biror marta qayd etmagan. Bu qoidadan istisno – bu "боевик" janridir. Bu "asl" terminga mos o'xshash adabiy janr mavjud emas. "Боевик" termini, RTMK ma'lumotlariga ko'ra, birinchi marta 1927-yillarga kelib ishlatilgan: "Мировая драма в 6.000 метров! Лучший боевик сезона! Масса трюков!"<sup>4</sup>. Bu janrning nomlanishi odatda *actionfilm* terminini rus tiliga tarjima qilishda qo'llaniladi. Ammo bu kategoriya faqatgina "боевик"ning o'zini, ya'ni zo'ravonlik sahnalari, ta'qib qilish, otishma, janjallarning ko'plab epizodlari bo'lgan filmlarni emas, balki qahramonlardan doimiy ravishda faol bo'lishni, atrof-muhit va sharoitlarga qarshi turishni talab qiladigan syujetning doimiy, jadal va keskin rivojlanishi bilan ajralib turadigan filmlarni ham o'z ichiga oladi.

Umuman olganda, rus tilida kino janrlarining nomlanishi ustun ravishda adabiy janrlarga qaratilgan, buni quyidagi terminlar ham ko'rsatib turibdi: *кинороман*, *кинопоэма*, *киноповесть*, *киноновелла*, *киноэпопея*. Ushbu an'ana alohida subjanrlarning nomlarida ham namoyon bo'ladi: *лирическая комедия*, *сатирическая комедия*, *лирическая новелла*, *психологическая драма* va hokazolar. Kino janrlarining ingliz tilidagi nomlanishlarida faqat *epic (epicfilm)*, *epicwestern*, *goonagoonaepic* va *satire* komponentlari shunga o'xshash tarzda ishlatiladi. Oxirgi komponent faqat satira belgilarini o'z ichiga olgan har qanday filmning umumiy tavsifi sifatida ishlatiladi. Satire alohida kinojanr nomlanishi sifatida faqat Vikipediya qayd etiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, masalan, *satiricalcomedy*, *lyricalcomedy* kabi janrlar tadqiqot adabiyotida<sup>5</sup> alohida ajratib olinmagan bo'lsa ham, bunday ta'riflar ko'pincha ma'lum bir filmning o'ziga xos xususiyati sifatida tez-tez uchrab turadi. Masalan, kinoga bag'ishlangan umume'tirof etilgan uch jildli lug'atda yuqorida keltirilgan nomlanishlar filmlarning janr xususiyatlari sifatida ishlatiladi. "Film novel"ning janr xususiyati kino tanqidiga bag'ishlangan

<sup>4</sup> Грин. А. С. Серый автомобиль / А. С. Грин. Гладиаторы: рассказы. – Москва: Нива, 1925. – С. 212.

<sup>5</sup> Langford B. Film Genre. Hollywood and Beyond. Edinburg: Edinburg University Press, 2005. 310 p., Grant K. Film Genre. From Iconography to Ideology. Wiltshire Wallflower Press, 2007. 144 p., Schatz T. Hollywood genres. New York: Random House, 1981. 297 p.

tarjima asarlarida ahyon-ahyonda uchrab turadi, masalan, Rene Klerning “Kino kecha va bugun” monografiyasida<sup>6</sup>. “Film novel” ifodasi orqali ingliz tiliga “across pollinated genre between screen play and ordinary fiction” sifatida tavsiflanuvchi Xitoy kino janri o‘g‘irilgan<sup>7</sup>. “Psychological drama” termini M.Frich filmlariga nisbatan qo‘llaniladi: “Trie’s creation is the work of a solid and honest artist who demonstrated his talent in diverse genres from psychological drama to madcap comedy”<sup>8</sup>.

Darhaqiqat, kino janri nomlanishlarining ingliz tilidagi tizimi yanada mobil va batafsilroq deb ayta olamiz. Buni asosiy janrlar nomlanishining yadroviy komponenti sifatida qo‘llaniluvchi subjanrlar misolida ko‘rsatish mumkin:

- comedy – comedy-drama – comedyofremarriage
- romanticcomedy – horrorcomedy — mafiacomedy – screwballcomedy – comicfantasy – comicsciencefiction;
- thriller – psychological thriller – romantic thriller – erotic thriller – legal thriller – political thriller;
- drama – melodrama – legal drama – supernatural drama
- courtroom drama – cup-and-saucer drama – domestic drama – cop drama;
- horror-psychological horror – body horror;
- documentary – pseudo-documentary – semidocumentary
- travel documentary – animated documentary.

Asosiy janrning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatadigan bir qator bunday nomlanishlar rus tiliga o‘zlashtirilgan va kino tanqidchisi va kino tomoshabinlari tilining uzusiga (lotincha usus – qo‘llash, odat, qoida) kiritilgan. Masalan, rus tilida romantik komediya, dahshatli komediya yoki psixologik triller (романтическая комедия, комедия ужасов или психологический триллер) haqida gapirish tabiiydir. Romantik triller, huquqiy triller, siyosiy triller, huquqiy drama va boshqa (романтический триллер, юридический триллер, политический триллер, юридическая драма и т. д.) semantik kalkalar (lingvistikalar) ancha kam ishlatiladi va ushbu subjanrlarning muqobil tarjima variantlari bo‘lishi mumkin (masalan, yuridik/ huquqiy/sud dramasi (юридическая/правовая/судебная драма)). Ko‘rsatib o‘tilgan subjanrlarning aksariyati rus tiliga faqat vaziyatli ravishda uzatiladi; lug‘atlarda va glossariylarda bu ekvivalentlar qayd etilmagan. Buning sababi, subjanrlarning bunday nomlanishlari asosan tijorat saytlarida filmlarni tasniflash uchun yoki filmlarning qisqacha mazmunini aks ettirishda ishlatiladi.

Murakkab so‘zlar va aralashmalar bilan ifodalangan janr va subjanrlarning nomlanishlari haqida ham xuddi shu fikrni aytilish mumkin. Bugungi kunda bu janrlarni ingliz tilida nomlashning eng samarali usullaridan biridir. Yuqorida aytib o‘tilgan janrlar (semido cumentary tragicomedy, dramedy)ga qo‘shimcha ravishda *paracinemapsychotronic*, *ethnofiction*, *psychodrama*, *docudrama*, *docufiction*, *mockumentary*, *mexploitation*, *blaxploitation*, *ozploitation*, *sexploitation*, *swashbuckler*, *psycho-biddy* kabi janrlarni keltirish mumkin. Keltirilgan ro‘yxatda faqatgina psychodrama (психологическая драма) janri barqaror ekvivalentga ega. *Docudrama* va *docufiction* subjanrlariga barqaror bo‘lmagan muvofiqlik variantlari mavjud (*полудокументальный фильм*, *доку-драма*, *доку-драма*, *художественно-документальный фильм*, *докумен-*

*тальная драма; телепеса на документальной основе, документин).* *Docudrama* va *docufiction* janrlarining farqi shundaki, birinchisi haqiqiy voqealarga asoslangan va hujjatli uslubga taqlid qiluvchi radio, televidenie yoki teatr asarlarini aks ettiradi. *Docufiction* janri aynan kinematografik janr bo‘lib, directcinemaning umumiy yo‘nalishlarini ifoda etadi va tabiiy va fantastik unsurlarni birlashtirishni nazarda tutadi. Bu terminlarning yuqorida keltirilgan bir qator ekvivalentlari nafaqat termin komponentlarining ko‘rinishi va semantikasidagi janrga oid farqlarni qayd etmaydi, balki har ikki nomlanishni tarjima qilishda birday qo‘llaniladi. Bundan tashqari *полудокументальный фильм* va *художественно-документальный фильм* nomlanishlari rus tiliga *semidocumentary* va *mockumentary* terminlarini o‘g‘irish uchun ishlatiladi.

*Paracinema* va *psychotronic* nomlanishlar faqat vaziyatga asoslangan tarjimalarga ega – *паракинематограф* (paraliteraturaga o‘xshashligi bo‘yicha) va *психотронное кино*. *Psychotronicfilm* termini butun bir janr yo‘nalishini ifoda etadi (M.Veldon tomonidan muomalaga kiritilgan)<sup>9</sup> va inglizabon tanqidchiligi va OAVda keng qo‘llaniladi. Rus tilida shunga o‘xshash tushuncha paydo bo‘lmagan va hozirgi kungacha o‘zlashtirilmagan. *Mexploitation*, *blaxploitation*, *ozploitation*, *sexploitation*, *swashbuckler*, *psycho-biddy*, *mockbuster* kabi janrlarning nomlanishi vaziyatga qarab biror bir tarjima variantiga ega yoki umuman olganda “ekspluatSION kino” sifatida tarjimaga ega emas. Bu rusiyabon lingvistik madaniyat uchun subjanrlarni bunday toifalashtirish ahamiyatli emasligi bilan bog‘liq. Ko‘pchilik holatlarda bu nomlanishlar aynan tarjima qilinadi (*мокбастер*, *блексплойтейшен*, *мексплойтейшн*) yoki so‘zning birinchi qismi saqlab qolingan gibrid tarjima variantlari qo‘llaniladi (*блексплуатация*, *мексплуатация*).

Ingliz va rus tiliga boshqa tillardan olib kiritilgan janr nomlanishlari (*chopsocky*, *cinemanovo*, *bouekas-film*, *filmaclef*, *filmnoir*, *giallo*, *heimatfilm*, *heistfilm*, *masala* — *синема ново джалло*, *фильм нуар*), hudud jihatdan yorliqlangan janrlar (*Floridawestern*, *nothern*), taniqli rejissyorlar nomini o‘z ichiga olgan nomlanishlar (*bressozusian*, *hitchcockenbergian*, *peckinwoodiari*) va hokazolar ham alohida e‘tibor qaratadigan mavzu bo‘lishi mumkin.

Umuman olganda ingliz tilida janr nomlanishlari nisbatan rivojlangan va qismlarga ajratilgan tizimni ifoda etadi va u faol rivojlanib bormoqda. Kino janrlari va subjanrlari nomlanishining rus tilidagi tizimi o‘zaro bog‘liq san‘at turlaridan janr nomlanishlarini (eng avvalo, adabiy janr nomlanishlari) o‘zlashtirgan holda ingliz tizimi bilan parallel rivojlanib bordi. 1980-yillardan boshlab rus tiliga ingliz tilidan janr nomlanishlari faol olib kiritildi, 1990-yillarning o‘rtalariga kelib bu holat o‘zining tizimli tabiatini yo‘qotdi va asosan kino mahsulotlarini vaziyatga qarab tasniflash usuliga aylandi.

Bugungi kunga qadar janrlarning ingliz va rus tillaridagi nomlanishlarining umumiy nomenklaturasi yaratilmagan va terminlarni shakllantirish modellarining rivojlanishidagi umumiy tendensiyalar aniqlanmagan. Kinoning janr nomlanishlarini qiyosiy tahlil qilish mustaqil terminologik tadqiqot mavzusiga aylanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi paytda jahon kino terminologiyasida qo‘llanilayotgan terminlarning bir qismigina o‘zbek kinosi sohasiga kirib kelgan. Kirib kelgan terminlar ham asosan ingliz yoki rus tilidan o‘zlashtirilgan holda foydalanilmoqda. Ularga mos keladigan o‘zbekcha variantlarni ishlab chiqish zarur. Inchunon, ko‘targan muammomiz o‘ta dolzarb bo‘lib, u bir maqola doirasida hal etiladigan vazifa emas. Bu masalalarga keyingi tadqiqotlarimizda qaytamiz, deb umid qilib qolamiz.

<sup>6</sup> Clair R. *Cinema Yesterday and Today*. -New York: Dover Publications, 1972. -P.132.

<sup>7</sup> Zhen Z. *Cosmopolitan Projections: World Literature on Chinese Screens // A Companion to Literature and Film*. 2006. P. 157-

<sup>8</sup> *International Dictionary of Film and Filmmakers*. Fourth Edition / ed. by Tom Pendergast, Sara Pendergast. Vol. 2. Directors. St. James Press, 2004. 1324 p.

<sup>9</sup> Weldon M. J. *The Psychotronic Film Guide*. New York: St. Martin’s Griffin, 1996. 615 p., Weldon M. *The Psychotronic Encyclopedia of Film*. New York: Ballantine Books, 1983. 320 p.-



*V BO'LIM*

**YOSH  
TADQIQOTCHI**

## "QO'SHIQ" TERMINING QO'LLANILLISHI

**Annotatsiya.** Maqolada san'atga oid qo'shiq terminining kelib chiqishi va uning tarixi haqida gap ketadi. Mahmud Qoshg'ariy o'zining "Devonu lug'atit-turk" asarida qo'shiq termini ilk bor qo'llangani va undan so'ng davrlashtirib qaysi asarlarda qo'llangani misollar bilan yoritib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** qo'shiq, terminologiya, asar, vazn, she'r, etimologiya, tahlil, qasida.

Толганой МАМАТКУЛОВА,

преподаватель кафедры "Узбекского языка и литературы" ГИИКУЗ

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕРМИНА "ПЕСНЯ"

**Аннотация.** В статье рассматриваются происхождение и история термина «авторская песня». Махмуд Кашкари в своем «Девони лугатит-турк» приводит примеры того, как сначала использовался термин «песня», а затем в каких произведениях он использовался в хронологическом порядке.

**Ключевые слова:** песня, терминология, произведение, вес, стихотворение, этимология, анализ, стихотворение.

Tolganoy MAMATKULOVA,

lecturer at the chair of "Uzbek Language and Literature" UzSIAC

## USE OF THE TERM "SONG"

**Annotation.** The article examines the origin and history of the term "author's song". Mahmud Kashkari in his "Devonu lug'atit-turk" gives examples of how the term "song" was first used, and then in which works it was used in chronological order.

**Key words:** song, terminology, work, weight, poem, etymology, analysis, poem.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6000-son farmoni asosida so'nggi yillarda mamalakatimizda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. San'at va madaniyat sohasining rivojiga nafaqat soha vakillari, balki tilshunoslar ham o'zining hissasini qo'shishi lozim. Bugungi kunda tilshunoslar yurtimizda san'at sohasining qo'shiq, folklor, teatr, musiqa va kinoga oid terminlarni o'rganishni o'z oldilariga asosiy maqsad qilib qo'yg'an.

O'zbek tilshunosligida, xususan, uning terminologiyasida bir qator tadqiqotlar amalga oshiriloqda, ilmiy izlanishlar qilinmoqda, bir qancha monografiya, to'plam va risolalar hamda ilmiy-ommabop maqolalar nashr etilmoqda bu esa ushbu yo'nalishning dolzarb ekanligidan dalolat beradi. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganidan so'nggi o'tgan vaqt davomida tilshunoslikning boshqa bo'limlari kabi terminologiyada ham ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirilganligi bilan bir qatorda hali tadqiqatlab sohasining ko'pligini ham kuzatishimiz mumkin. Inson kundalik hayotida juda ko'p so'zlar, gaplar, iboralarni o'z ongi va tili oraqli qo'llaydi, lekin ularning aksariyat odamlar bu terminlarning tarixi qanday ma'nolarda qo'llanilishi haqida deyarli to'liq ma'lumotga ega emas, maqolamizda esa "qo'shiq" terminini tahlilga tortdik.

Buning uchun esa, qo'shiq termini bilan qo'shiqchilik an'analarning paydo bo'lishini bir-biridan farqlab olishimiz kerak. Hojiakbar Hamidov o'zining "O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik tarixi" kitobida ta'kidlashicha, "Avesto" matnlari marosimiy ijro doirasida va unga quloq tutgan jamoa uchun badiiy idrok nuqtayi nazaridan ham o'ziga xos qo'shiqlar bo'lgan. Aytish lozimki, "Avesto" matnlari ayni qo'shiq sifatida maxsus qiroat shakllariga bo'yusundirilgan. Qiyosan shuni ta'kidlash lozimki, Qur'oni Karimning ham yetti xil qiroat usuli mavjud bo'lgan. "Avesto" Zardushtiylikning muqaddas asari bo'lganligi uchun ham qadimda O'rta Osiyo va boshqa sharq xalqlarida "Avesto" gacha bo'lgan davrda ham qo'shiqchilik san'ati mavjud bo'lgan [2]. Demak, ushbu fikrlardan, qo'shiqchilik an'analari "Avesto" kitobi yaratilganda paydo bo'lganligini tushunishimiz mumkin. Qadimgi qo'shiqchilik san'ati janrlari va shakllari rang-barang bo'lib ular ijtimoiy turmush, xalq an'analari hamda marosimlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan.

"Qo'shiq" termini esa qo'shiqchilik an'analardan keyin, ilk bor X – XI asrlarda Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asarida "qoshug'" (she'r, qasida, qo'shiq) ma'nosida qo'llangan. Asarda shunday keltiriladi:

*Turkan qatun qutina  
Tegur mendin qo'shig'*

*Achg'il seznin tabg'uchi*

*Otmur jani tabug'*

Malika (shoh) xotinga mendan maqtov, qasida (qo'shiq) etkur va xodimingiz yangi xizmat bilan yo'llanadi deb ayt [3].

Mazkur to'rtlikda kechgan qo'shiq so'zi "qasida, olqish" ma'nosini ifodalagan va to'rtlikning ma'nosidan sezilib turibdiki, oshiq o'z malikasiga ishqiy qasida bitib unga yo'llamoqda. Mahmud Qoshg'ariydan so'ng ushbu atamani XI asrda Yusuf xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" asarining she'riy muqaddimasida ham qo'llagan, mazkur so'z "she'r, nazm" ma'nosida qo'llanilgan:

*Bu turkche qo'shuqlar tuzattim senge*

*Oqirda unutmada dua qil minge [4].*

(Senga atab bu turkcha qo'shiqlarni tuzdim) ushbu misralar bilan muallif o'zining asarini turkcha qo'shiqlardan tuzganligini ta'kidlamogda. Shu o'rinda har ikki asarda qo'llanilgan ushbu so'zlar deyarli bir-biriga yaqin so'zlar ma'nosida kelyotganligiga yana bir ishonch hosil qilib olishimiz mumkin. Asarning birida qasida ma'nosida kelsa, ikkinchisida she'r ma'nosida qo'llanilmoqda. Va yana, manashu Yusuf xos Hojib davrida ya'ni XI asrda Kaykovus ham o'zining "Qobusnoma" asarida ham aynan qo'shiq terminini "суруд" deb aytib o'tadi, shul vajdin bu fanning ustodlari san'atga shundog' tartib bermishlarki, avval podshohlar majlisi uchun xisravona dostonlar tuzmishlar, undan so'ng vaznsiz bir og'ir yo'l tuzmishlarki, uni ikki surud bila aytsa bo'lur va unga og'ir yo'l deb ot qo'ymishlar [5].

Mana endi o'zbek adabiyotining o'ziga xos merosiga ega bo'lgan, turkiy til asoschilaridan biri Alisher Navoiy o'z asarlarida qo'shiq terminini qanday qo'llangani haqida to'xtalamiz. Alisher Navoiy boshqa yozuvchilardan farqli o'laroq qo'shiq terminini bir necha asarlarida qo'llab biz kabi o'quvchilariga ulkan meros qoldirgan. Buyuk alloma o'zining "Mezon ul-avzon" asarida ushbu atamaning ta'rifini ham keltirib o'tadi: *Yana turk ulusi bitaxisis chig'atoy xalqi aro shoyi avzondurkim, alar surudlarin ul vazn bila yasab majolisida aturlar. Biri "tuyug'" durkim ikki baytda muqarrardur va say qilurlarkim, tajnis aytulg'ay va ul vazn ramali musaddasi maqsurdur. Yana "qo'shuq" durkim, arg'ushtak usulida shoyidur va ba'zi advor kutubida uk usul zikr bo'libdur va ul surud a'robining teva surar hudilari vazni bila madidi musammami solimda voqe bo'lur aning asli bu navdurkim, Vaxki ul oy hasrati, dardi bog'i furqati*

*Ham erur jonimg'a o't, ham hayotim ofati [6].*

Ushbu fikrlari bilan Navoiy mazkur misralarni yigitlar ramali musammami mahzuf vazniga solib muloyim qilib tabliq qilsa ya'ni kuylasa bo'ladi deb ta'riflab o'tgan.

Mana biz har bir tahlillarimizdan ko'rib turibmizki, bir

so'zni yaratilishi uchun bir she'r, bir asar, bir kitob xizmat qilmoqda. Chindan ham, bejizga Alisher Navoiy hazratlarini avliyo, mutafakkir ikki tilda ijod qiluvchi shoir deya ta'riflar berilmagan. Birgina qo'shiq so'zini Alisher Navoiy hazratlari bir necha asarlarida namoyon qilib o'tganini guvohi bo'lib, mana shu fikrlar o'z tasdiqini topganiga ishonch hosil qilishimiz mumkin. Bundan tashqari, Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon" asarida ushbu atamaning ta'rifini keltirib o'tgan ilk bor "Hayrat ul-abror" dostonida qo'shiq terminini qo'llagan va ushbu termini keltirilgan:

*Anglamayin so'zda tuyuq bahrini,*

*Qaysi tuyuq, balki qo'shuq bahrini* [7].

Bundan tashqari, Zahiriddin Muhammad Boburning "Muxtasar" asarida ham bu vazn ya'ni qo'shuq ko'ngil oladigan vazn deb ta'riflab o'tadi:

*Qilgil ey arami jan necha tartay intizar,*

*Qildi hajring natavan qildi shavqing beqarar*

Bu vazn turk arasida qoshuqqa mavzumdur. Urg'ushtak bitarda bu vazn taqsim qilurlar.[8]

Qo'shiqlar ba'zi bir manbalarda ham keltirilgan. Jumladan, Britan muzeyida saqlanayotgan Og 8193 raqamli uyg'ur yozuvli majmuadan yirik nasriy va nazmiy asarlar, mumtoz adabiyotimiz namoyondalarining she'rlari, mualifni aniq bo'lmagan besh to'rtlik o'rin olgan. Muhimi shundaki, qo'lyozmada bir to'rtlikda bayt tuyuq ko'rinishidagi keyingi to'rtlikda qo'shuqlar deb sarlavha qo'yilgan[8]. K.Sodiqov o'zining "Ilk va o'rta asrlar turkiy matnlari nomlarining izohli lug'ati" kitobida aynan shu qo'shiq atamasini Britan muzeyidagi majmuada saqlanayotgani haqida ma'lumot berib o'tadi. Fanda qo'shuq (hozirgi imlodagi qo'shiq) so'zlashish etimologiyasi haqida har-xil fikrlar bildirilgan. Ko'pchilik bu so'zning o'zagini "biriktirmoq" ma'nosidagi qo'sh-fe'liga bog'laydi. Bu o'zakni qo'sh (yer haydovchi ho'kiz) so'ziga bog'lovchilar ham bor. Ta'kidlashimiz lozimki, qo'shuq so'zining o'zagi qayd etilgan ma'nolarini birortasiga bog'lanmaydi. Yasalishi: o'zagi **qo'sh** – bo'lib, **-q(-uq)** – ot yasovchi qo'shimcha; u otdan emas, fe'ldan ot yasaydi. Shunday ekan bu so'z o'zagining "yer haydovchi ho'kizga" bog'lanuvi o'rinli emas. So'zning qo'sh – o'zagi "biriktirmoq" ma'nosida ham emas, u she'r to'qimoq ma'nosidadir. Bu ma'no qadimgi turkiy tilda amal qilgan. "She'r to'qimoq" ma'nosidagi qo'sh-so'zini, jumladan, "Devoni lug'ati turk"da ham uchratamiz: **о́л йы́р ко́шды** – u she'r yozdi[8]. Hozirgi o'zbek tilida bu so'z **jir** shaklida qoldiq holda uchraydi: qiz bola borgan (tushgan) joyida jirini jirlab ketsin (ya'ni ashulasini aytib ketsin) ma'nosida qo'llangan. Demak, biz manbalardan qayd etilgan misollardan hozirgi qo'shuq atamasi tarixan qo'sh- fe'lining "qo'shmoq, biriktirmoq" semasidan emas, "(she'r, ashula) to'qimoq" semasidan yasalganini bilishimiz mumkin. Mahmud Qoshg'ariy ushbu katta devonida bir ma'noli so'zning turli shakllarini qo'llaganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Chunki Qoshg'ariy o'z kitobida qo'shuq so'zini ba'zi o'rinlarda **йыр** va yana ba'zi joylarda **кор(-кыр)** shaklida namoyon qiladi. Kor(-kыр) so'zini ikki ma'noda qo'llaydi: 1) she'r, she'r turi, she'riy o'lchov, nazm; 2) kuy, ohang, ashula. Alloma kuy ohang ma'nosini bildiruvchi kog (-kug) so'zini quyidagi to'rtligida keltirib o'tadi:

*Koglar qamug' tuzildi,*

*Yishiq idish tizildi.*

*Sensiz ozum uz aldi,*

*Kelgil, amul oynalim.*

(Kuylar bari tuzidi, May idishlar tizildi. Sensiz ko'nglim barqarordir, Kelgin, xotirjam bo'lib o'ynaylik)[3]. Mahmud

Qoshg'ariy kogla- fe'lini izohlar ekan, uning "kuylamoq, ashula aytmoq" ma'nosida ekanligini ta'kidlaydi. Er kogladi – kishi kuyladi, ashula aytdi. Ushbu misoldagi kogla fe'li "qo'shiq, ashula" ma'nosidagi kog dan yasalgan. Alisher Navoiy esa ushbu fe'lni "ohang" ma'nosida qo'llagan Keyinchalik esa til taraqqiyoti davrida ushbu kog fe'li kuy so'ziga aylangan[8].

Tilshunos olim Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining etimologik lug'ati" da "qo'shiq"ga quyidagicha ta'rif beriladi: "qo'shiq "ashula" ko'cha tomonida childirma va qo'shiq eshitildi (Parda Tursin). Qadimgi turkiy tilda "birlashtir-" ma'nosini anglatuvchi qo'sh – fe'ldan -(u)g' qo'shimchasi bilan yasalgan bu ot asli "she'r, qasida" ma'nosini anglatgan, ma'no taraqqiyoti natijasida "ashula qilib aytiladigan she'r", umuman, "ashula" ma'nosi yuzaga kelgan; eski o'zbek tilida bu so'z oxiridagi **g'** undoshi **q** undoshiga almashgan; keyinchalik, ikkinchi bo'g'indagi u unlisi i unlisiga almashgan: **qosh-** + **ug'** = **qoshug'** > **qoshuq** > **qoshiq'**[9].

Qo'shiq terminini o'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha izohi beriladi:

**QO'SHIQ** 1. Keng ma'noda she'riy-musiqiy janr; ashula. Lirik qo'shiq. She'riy qo'shiq. Xalq qo'shiqlari. Qo'shiq aytmoq. Qo'shiq bastalamoq. – Unda alla qo'shiq bor. Issiq bag'ir va ishq bor. G.Jo'rayeva, Iqbol. Yaxshi kuy va qo'shiq insonga xush kayfiyat bag'ishlaydi. Gazetadan.

2. Lapar, terma [10].

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida ham o'qiyimiz: "**QO'SHIQ** – keng ma'noda she'riy musiqiy janr; vokal musiqant eng ommalashgan, ko'proq band shakliga asoslangan turi, shuningdek, kuylashga mo'ljallab to'qilgan she'riy asarlarning umumiy ifodasi. Xalq ijodiga mansub, bastakor va kompozitorlar yaratgan, ommabop musiqa yo'nalishidagi qo'shiqlar farqlanadi. Kelib chiqishi, janri va mazmuniga qarab marosim qo'shiqlari va ommaviy qo'shiq, shahar, dehqon, bolalar, maishiy, harbiy, lirik, raqs va boshqa qo'shiqlarga ajratiladi. Qo'shiqlar kuyi, diapazoni ixchamligi, musiqa rivoji (yoki band-naqarot) shakliga asoslanganligi, ohanglar tizimida so'z va kuy ohanglari, mushtarakligi she'riy matndagi g'oyaviy-emotsional mazmun rivojining umumiy tarzda ifodalanishi bilan ajralib turadi" [11].

Xulosa qilib aytganda, tahlilga tortilgan qo'shiq termini turkiy so'zdan kelib chiqqani va u ilk bor Qoshg'ariy o'z asarida qo'llaganini, terminning asl ma'nosi she'r, qasida, madh, olqish ma'nolarini ifodalashini guvohi bo'lishimiz mumkin. Bizga ma'lum bo'ldiki, qo'shiq termini Alisher Navoiy Zahiriddin Muhammad Bobur o'z asarlarida ushbu termini mahorat bilan foydalanishini guvohi bo'ldik. Lekin qo'shiqchilik san'ati esa qo'shiq terminidan ancha oldin paydo bo'lganini ham ko'rib o'tishimiz mumkin. Qo'shiq termini orqali biz nafaqat, bu so'zning etimologiyasini bundan tashqari, qo'shiqchilik an'analarning ham paydo bo'lishini e'tiborga olishimiz kerak. Qo'shiq qadimdan inson ongini o'zgarituvchi, orom beruvchi va zavqlantiruvchi hatto tug'ruq jarayonida ham ayollarga dalda bo'luvchi orom manbai hisoblangan. Shuning uchun ham shoir va allomalar qo'shiq terminini o'z asarining o'rinli qismlarida qo'llay bilgan. Xalq orasida esa qo'shiq janri ko'ngilochar dam olish vositasi sifatida ko'rilgan, shu sababli ham qo'shiqchilik san'ati Avesto paydo bo'lgan davrdan yuzaga kela boshlagan xalqning turmush tarzi, ommaviy madaniyatini ochib beruvchi mashg'ulot sifatida o'sha davrning eng keng tarqalgan ko'ngilochar yo'nalishlardan biri bo'lgan.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. E.Vohidov. "So'z latofati" T.: "O'qituvchi", 2011. – B. 5.
2. H.Hamidov. O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik tarixi. – T.: "O'qituvchi", 1996. – B. 11.
3. M.Qoshg'ariy. Devoni lug'ati turk. – T.: 1963. "Fanlar akademiyasi". – B. 357. –B. 220.
4. Yusuf xos Hojib. Qutadg'u bilig. – T.: "Yulduzcha" 1996. – B. 58.
5. Kaykovus. Qobusnoma. – T.: "Istiqlol", 1994. – B. 161.
6. A.Navoiy. Mezon ul-avzon. – T.: "Fan", 1991. – B. 92.
7. A.Navoiy. Hayrat ul-abror. – T.: "Fan" 1991. – B. 65.
8. K.Sodiqov. Ilk va o'rta asrlar turkiy matnlari nomlarining izohli lug'ati. – T.: 2001. – B. 22. – B. 20. – B. 21.
9. Raxmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. – T.: "Universitet". 2003. II. – B. 591.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". 2006. – B. 420.
11. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". – B.332.

Mo'minmirzo XOLMO'MINOV,  
O'zDSMI "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish" kafedrasida o'qituvchisi  
Asilbek QOLQANATOV,  
O'zDSMI "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish" kafedrasida Madaniyat va san'at sohasi  
menejmenti mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

## “YANGI O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI” KITOBINI VA MADANIY-MA‘RIFIY ISHLAR

**Annotatsiya:** Maqolada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobidan madaniy-ma‘rifiy ishlarda keng foydalanish orqali, taraqqiyotning yangi jarayonini yaratish haqida so‘z yuritiladi. Shu bilan birga, madaniyat va san‘at sohasida “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobidan aholi siyosiy madaniyatini oshirishda keng foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yangi O‘zbekiston, strategiya, madaniyat, san‘at, jarayon, aholi, targ‘ibot-tashviqot, taraqqiyot.

Муминмирзо ХОЛМУМИНОВ,  
преподаватель кафедры “Организация и управление учреждениями культуры и искусства” ГИИК Уз.  
Асылбек КОЛКАНАТОВ,  
магистр специальности Менеджмент в сфере культуры и искусства кафедры «Организация и управление учреждениями культуры и искусства» ГИИК Уз.

## КНИГА “СТРАТЕГИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА” И КУЛЬТУРНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

**Аннотация:** В статье рассматривается создание нового процесса развития через повсеместное использование книги Президента Ш.М.Мирзиёева «Стратегия Нового Узбекистана» в культурно-просветительской работе. В то же время были внесены предложения и рекомендации в области культуры и искусства по совершенствованию повсеместного использования книги «Стратегия Нового Узбекистана» в повышении политической культуры населения.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, стратегия, культура, искусство, процесс, население, пропаганда, развитие.

Muminmirzo KHOLMUMINOV,  
Lecturer at the chair of “Organization and Management of Cultural and Art Institutions” UzSIAC  
Asilbek QOLQANATOV,  
Master of the specialty “Management in the field of culture and art” of the 1st stage of the chair “Organization and management of cultural and art institutions”

## BOOK “STRATEGY OF NEW UZBEKISTAN” AND CULTURAL EDUCATIONAL ACTIVITIES

**Annotation:** The article deals with the creation of a new process of development through the widespread use of the book “Strategy of New Uzbekistan” by President Sh.M.Mirziyoyev in cultural and educational work. At the same time, suggestions and recommendations were made in the field of culture and arts to improve the widespread use of the book “Strategy of New Uzbekistan” in raising the political culture of the population.

**Keywords:** New Uzbekistan, strategy, culture, art, process, population, propaganda, development.

O‘zbekistonda bundan besh yil avval Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida ijtimoiy va madaniy sohada yangicha dunyoqarash asosida shiddatli islohotlar boshlandi. Mamlakatimizda mohiyatan yangi davlat, yangi ma‘rifiy jamiyat barpo etish, unga mos qadriyat va munosabatlar tizimini shakllantirish maqsadida bir qator huquqiy-normativ hujjatlar qabul qilindi. Madaniyat va san‘at sohasida ijod va ijodkor erkinligi muammolari ham to‘liq qaytadan ko‘rib chiqildi. Ulkan o‘zgarishlarga yo‘nalish beradigan farmon va qarorlarning ijrosini o‘z vaqtida ta‘minlash masalasiga jiddiy ahamiyat qaratildi. Bularning natijasida hozirgi vaqtda soha rivojini ta‘minlash yo‘lida samarali yutuqlarga erishilmoqda.

Jumladan, mamlakatimiz iqtisodiyoti 24 foizga, sanoat 34 foiz, eksport hajmi 1,5 barobarga, xorijiy investitsiyalar hajmi esa 3 barobarga o‘sgani qo‘lga kiritgan yuqori natijalardan dalolat beradi. Shu davrda o‘rtacha oylik ish haqi 2,2 marta ko‘paydi[1:1].

Ijtimoiy yo‘nalishdagi islohotlarda madaniyat va san‘at sohasi boshqaruv tizimini yagona davlat siyosatiga aylantirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, xodimlarni ma‘naviy-moddiy jihatdan har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, kadrlar salohiyatini oshirishda ijodiy

jihatdan ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari, OTMning yangi filiallari ochildi.

Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi haqida xalqimizning fikr-mulohazalarini milliy qadriyatlarimiz negizida yanada rivojlantirish ma‘naviy-ma‘rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi tub o‘zgarishlarni xalqimizning hayot tarziga singdirish maqsadida 2021-yili “O‘zbekiston” nashriyotidan Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nomli 464-betdan iborat kitobi 10.000 nusxada nashr etildi.

Ushbu asar xalqimizning uyg‘onish davri asoslarini yaratish bilan bog‘liq ezgu orzu-intilishlari, ularni amalga oshirish borasidagi eng muhim vazifalarni atroflicha tahlil etishga xizmat qiladi. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”, “Xalqparvar davlat”, “Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish”, “Adolatli ijtimoiy siyosat”, “Ma‘naviy taraqqiyot”, “Xavfsizlik va tashqi siyosat”, “O‘zbekiston va umumbashariy muammolar” kabi 7 ta bo‘limning har birida mamlakatimizdagi ulkan o‘zgarishlar, olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati va ustuvor yo‘nalishlari, milliy taraqqiyot istiqbollari haqida so‘z yuritilgan. Asarning har bir bo‘limida barcha yo‘nalishlar bo‘yicha erishilgan samarali natijalar hamda kelgusida amalga oshirilishi

rejalashtirilayotgan maqsadlar haqidagi fikr-mulohazalar har bir fuqaroni ezgu tashabbuslar bilan ishlashga undaydi, yangi, ilg'or g'oyalarni ilgari surishga, o'zi uchun, ona yurti, xalqi uchun yanada serg'ayrat bo'lib harakat qilishga chorlaydi.

Xususan, "Ma'naviy taraqqiyot" bo'limida "Ma'naviy yangilanish: imkoniyat va istiqbollar", "Yangi ma'naviy makonni yaratish borasida vazifalar", "Ma'rifiy islohotlar va barkamol inson tarbiyasi", "Yangi O'zbekiston va ma'naviy yangilanish", "Ma'rifatli jamiyat sari", "Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi" mavzularida nafaqat ma'naviyat, balki madaniyat va san'at sohasi uchun ham yangidan-yangi vazifalar, istiqbolli siyosiy-ma'rifiy ishlar keng yoritilgan. Kitob har bir o'quvchida yangi O'zbekistonning zamonaviy, demokratik qiyofasi qanday yaratilayotgani, mamlakatni yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarish uchun belgilab olingan strategik yo'l to'g'risida umumiy, yaxlit tasavvur uyg'otadi. Prezidentimizning mazkur asari – Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini qurishda milliy madaniyatimiz va san'atimizning eng zarur omili bo'lib qolaveradi.

Bugun har bir yosh qalbida Renessans sari dadil odimlab borayotgan yangi O'zbekistonga munosib bo'lish, ularda mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini shakllantirish vazifasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, yangi jamiyatning navqiron avlodi nafaqat puxta bilimli, yuksak salohiyatli, balki o'z taqdirini mamlakat taqdiri bilan chambarchas bog'lab, ijtimoiy faollikni munosib namoyon eta olishi muhimdir.

Yana shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, "Yangi O'zbekiston strategiyasi" Uchinchi Renessans sari ildam qadamlar bilan borayotgan ijod ahlining ma'naviyatini yanada yuksaltirishga keng yo'l ochadi. Endi, madaniy faoliyat va madaniy xizmat ko'rsatish o'chog'i sanalgan, madaniyat va san'at muassasalarida mazkur asarni xalqimiz orasida keng targ'ib qilish va targ'ibot-tashviqot ishlarida keng foydalanish kun tartibidagi masalaga aylanishi darkor. Shunga qarab, madaniyat markazlari o'z rejalarini ishlab chiqishi zarur. Bu kitobni ommalashtirish va ma'naviy-ma'rifiy sohadagi vazifalarni mazmun-mohiyatini oshirish ijodkor-ziyolilarning muhim vazifasi hisoblanishi lozim. Bu ishlarni qayerdan boshlash kerak, degan savol paydo bo'lishi tabiiy.

Hozirgi kunda Madaniyat vazirligi tizimida 39 ta teatr, 826 ta madaniyat markazi va ularda faoliyat ko'rsatayotgan 549 ta undovga ega badiiy havaskorlik jamoalari, 200 dan ortiq tuman-shahar madaniyat bo'limlari, 59 ta madaniyat va istirohat bog'i, 322 ta bolalar musiqa va san'at maktabi faoliyat ko'rsatmoqda. [2:35].

Yuqorida qayd etilgan tashkilot va muassasalarda bu kitobning mohiyati yuzasidan targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borib, aholi orasida madaniy tadbirlar o'tkazib, "Yangi O'zbekiston strategiyasi"ni mohiyatini xalqimizga tushuntirib berishimiz darkor. Aslida, taraqqiyot strategiyasini madaniyat va san'at muassasalarining ma'naviy-ma'rifiy ishlarida, ya'ni madaniy tadbirlarda, ushrachuv va suhbat kechalarida, barcha siyosiy tantanalarda qo'llashdan oldin, uning mag'izini teran chaqib olishimiz zarur.

Barchamizga ma'lumki, mamlakatimizda Prezidentimiz tashabbusi bilan hayotga tatbiq etilayotgan istiqbolli loyihalar, joylarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı bunyodkorlik ishlari xalqimizning nafaqat turmush tarzini, balki dunyoqarashini ham tubdan o'zgartirishiga sabab bo'lmoqda. Bunday ezgu jarayonda madaniyat va san'at sohasi vakillari oldinda, safarbarlikda turishi ijobiy natijaga erishishning muhim sharti hisoblanadi. Chunki siyosiy jarayonlarga

ommani jalb qilishda madaniy-ma'rifiy ishlardan foydalanish davr sinovidan o'tkazilgan eng samarali yo'ldir.

Ma'naviy-ma'rifiy soha polifunksional xususiyatga ega, shuning uchun u bilan hamma kishilar, uyushmalar, tashkilotlar, istagan subyektlar shug'ullanishi mumkin. Aynan ushbu xislati ma'naviy-ma'rifiy sohani ochiq, ijtimoiy hayotga yaqin qiladi, unga dinamizm baxsh etadi[3:108].

Yangi O'zbekistonda aholining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, madaniy hordiq chiqarishga qulay sharoit yaratish madaniy faoliyat va madaniy tashkilotlarning bugungi kundagi dolzarb masalalaridan hisoblanadi. "Taraqqiyot strategiyasi" ijtimoiy-falsafiy ma'noda muayyan jamiyat yoki davlat rivojining yangi bosqichga ko'tarilishini belgilab beradigan omillar va tamoyillar, barcha sohalardagi islohotlar mazmun-mohiyatini ifodalaydigan, hayotning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalarining bir butun tizim sifatida yangilanishini, dinamik ulushi paradigma yaratadi. O'sish va o'zgarish jarayonini aks ettiradigan serma'no tushunchadir. Ushbu tushunchaning mazmun-mohiyatini belgilovchi asosiy jihat – siyosiy o'zgarishlar, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy taraqqiyot va ma'naviy yangilanishga xizmat qiluvchi shart-sharoitlar hamda hayotiy mezonlarning yuksak samaradorligiga erishish, eski tartiblar va tamoyillar o'rni yangi qadriyatlar tizimi, zamonaviy yondashuvlarning vujudga kelishidir.

Demak, mazkur asarni umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimida siyosiy-ma'naviy tarbiya jarayonlarida hamda aholi orasida tashkil etiladigan madaniy tadbirlarda keng targ'ib qilishimiz kerak. Shunda mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini hamda ta'sirchanligini oshirishga, milliy madaniyatimiz, qadriyat va an'analarimizni ma'nan yuksaltirishga katta hissa qo'shgan bo'lamiz. Qolaversa, "Yangi O'zbekiston strategiyasi – yoshlar nigohida", "Ma'rifiy islohotlar va barkamol inson tarbiyasi", "Yangi O'zbekiston va ma'naviy yangilanish", "Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi" "Ma'naviy taraqqiyot – yorug' kelajagimiz", "Jaholatga qarshi – ma'rifat", "Yangi O'zbekiston – yetuk ma'naviyatli jamiyat", "Erkin va baxtli insonlar yashaydigan yurt", "Ma'naviy yangilanish: imkoniyat va istiqbollar", "Yangi ma'naviy makonni yaratish borasida vazifalar", "Yangi O'zbekiston strategiyasi – mushtarak madaniyatimiz va saodatli san'atimiz kafolatidir" singari turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, kitob taqdimotlari, ziyolilar va san'at sohasi vakillari bilan uchrashuv kechalarini amalga oshirish zaruriyati yuzaga kelayotganini ham e'tirof etishimiz lozim.

Asarning ahamiyatli jihati shundaki, unda buyuk ajdodlarimizning jahon madaniy merosiga qo'shgan hissalaridan tortib, zamonaviy IT-markazlargacha keng yoritilganidir. Kitobdan madaniy-ma'rifiy ishlarda qo'llanish hududlarda Uchinchi Renessans va Yangi O'zbekistonning mazmun-mohiyatini oshirib, bu islohotlarni xalqning qo'llab-quvvatlash samaradorligini oshiradi va tashabbuskor aholi mafkurasi shakllanishiga zamin yaratadi. Shularni hisobga olgan holda quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

– "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobi bo'yicha madaniyat va san'at muassasalarida, ayniqsa, madaniyat markazlarida ilmiy-ma'rifiy, adabiy-badiiy va siyosiy tadbirlar o'tkazish;

– kitobni soddalashtirgan holda yoshlar tafakkuriga singdirish maqsadida Madaniyat vazirligi tasarrufidagi barcha muassasa va tashkilotlarni risola, plakatlar bilan ta'minlash;

– O'zDSMI va uning filiallaridagi shu mutaxassislikka ixtisoslashtirilgan texnogen kafedralardagi ta'lim jarayonlarida

ijtimoiy videoroliklar va zamonaviy targ'ibot vositalari hamda media dasturini yaratish;

– Siyosiy targ'ibotchi arboblarda hamda madaniyat va san'at sohasi namoyondalari hamkorligida qisqa muddatli o'quv kurslarini, seminar-treninglar tashkil etish;

– Mazkur jarayonlarda dramaturglarning faolligini oshirish va “Yangi O'zbekiston strategiyasi” nomli madaniy-ma'rifiy tadbirlarning ssenariy yaratish (mualliflarni moddiy rag'batlantirish) va uni hududlardagi madaniyat va san'at muassasalariga tarqatish;

Respublikadagi madaniyat va san'at muassasalarining internet media olamini takomillashtirish va yangilab borish, madaniy-ma'rifiy ishlarning siyosiy jabhalarini ham bundan buyon boyitish orqali, ijtimoiy hayotda sohaning rolini oshirish.

Shu o'rinda aytish lozimki, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, filologiya fanlari doktori, professor I. Yo'ldoshevning “Madaniyat va san'at sohasida malakali kadrlar tayyorlash – bosh maqsadimiz” sarlavhali maqolasida quyidagicha tahlillar mavjud: “O'quv qo'llanmalar qanchalik ko'p bo'lsa, o'qituvchining dars jarayonini tushuntirishi, talabning esa tushunishi shunchalik oson kechadi. 2018-yilning dastlabki oyida institutdagi barcha ta'lim yo'nalishlari kesimida fanlarning o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanganlik darajasi tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra 114 nafar fandan o'quv adabiyotlari yaratish lozimligi aniqlandi[4:37]. Mazkur bo'shliqni to'ldirish, ya'ni “Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish” yo'nalishi talabalarining o'quv dasturidagi asosiy adabiyotga “Yangi O'zbekiston strategiyasi” asarini kiritish va keng targ'ib qilish kerak, deb hisoblaymiz.

Chunki yangilikka intilish orqali biz yuksak marralarga erisha olamiz. Falsafa fanlari doktori, professor V. Alimasovning ta'biri bilan aytganda, “Yangilikka intilib yashashgina bizni turg'unlikdan, siyqa yondashishlar va tor professionalizm chegarasida qotib qolishdan asraydi”[5:37].

“Yangi O'zbekiston strategiyasi”ni mutolaa qilish orqali Vatanimiz oldidagi burch va mas'uliyatni teran his qilib, shijoat bilan harakatga tushish, mamlakat ravnaqi uchun munosib hissa qo'shish ishtiyoqi paydo bo'ladi. Aslida, har birimiz o'z sohamiz, kasbimiz bilan yurtimiz buguni va ertasi uchun kamarbasta bo'lmog'imiz lozim. Yangi O'zbekiston qiyofasini yaratish, samarali natijalarni mustahkamlash borasidagi islohotlarning har bir bosqichida faol ishtirokchi hamda ko'makchi bo'lishimiz zarur. Albatta, bu zimmamizga ulkan mas'uliyat yuklaydi. O'z faoliyatimizga nisbatan tanqidiy va tahliliy nazar bilan qarashni, yanada o'z ustimizda ishlashni, yangi g'oya va tashabbuslarni ilgari surishni, har bir sohada innovatsion yondashuvlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Ana shundagina ko'zlangan yuksak maqsadlarga erishamiz, Yangi O'zbekistonni, Uchinchi Renessansni qurishga qodir bo'lamiz.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, Yangi O'zbekiston yangilikka, yangicha dunyoqarashga intilib yashashida madaniyat va san'at sohasi vakillari faoliyatlarida samarali natijalarga erishib, ulkan yutuqlarni qo'lga kiritishga intilishlari kerak. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, “Bir haqiqatni hech qachon unutmaylik: biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqimiz. Biz – hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo'rqmaydigan, adolatni qadrlaydigan, azmu shijoatli, buyuk xalqimiz. Barchamiz bir tanu bir jon bo'lib, yakdil va ahil bo'lib harakat qilsak, halol-pok bo'lib, yaxshi niyat bilan mehnat qilsak, har qanday marralarni egallashga, boshqacha aytganda, tariximizning yangi sahifasini yaratishga qodir xalqimiz”.

Shunday ekan, buyuk madaniyat yaratgan xalq sifatida azmu shijoatimizni, tariximizning yangi sahifasidan o'rin egallagan Sh.Mirziyoyevning “Yangi O'zbekiston strategiyasi” kitobining mohiyatini xalqimiz orasida keng targ'ib qilishda madaniyat va san'at sohasi vakillarini yanada faol bo'lishiga chaqiramiz.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Yangi O'zbekiston – inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlatdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga ko'rsatilgan nomzod Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik Partiyasining X syezididagi nutqi. Gaz.//XXI asr. 2021, 10 sentabr. – B. 6.
2. Jo'rayeva M. Madaniyat va san'at – jamiyat taraqqiyot manbai. BMI. – Toshkent: 2021. – B. 49.
3. Alimasov V., Manzarov Y. O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy soha: nazariya va amaliyot (falsafiy-sotsiologik tadqiqot). – Toshkent: Navro'z nashriyoti, 2014. – B. 120.
4. Mas'ul muharrirlar: Haydarov A., Yo'ldoshev I. “Yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotida madaniyat va san'atning o'rni” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya maqolalar to'plami. – Toshkent: “Oltin meros press”. 2020. – B.488.
5. Alimasov V. Innovatsiya va ta'lim falsafasi maqolasi. Qarang: “Yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotida madaniyat va san'atning o'rni” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya maqolalar to'plami. – Toshkent: “Oltin meros press”. 2020. – B. 488.

## YANGI O'ZBEKISTONDA KUTUBXONA VA KUTUBXONACHILIK FAOLIYATIDAGI KENG KO'LAMLI YANGILANISH VA O'ZGARISHLAR

**Annotatsiya:** Ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda O'zbekiston aholisiga kutubxonachilik xizmatini ko'rsatish ishlari ancha takomillashdi va ushbu soha taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqadigan muhim vazifalarning ijrosini ta'minlash masalalariga jiddiy ahamiyat qaratilmoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida kitob mutolaasiga qiziqishning ortishi, ularni ma'naviy va moddiy qo'llab-quvvatlash tizimi yaratildi va qator ijobiy chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Mazkur maqolada bu ishlarni yanada takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan. Shuningdek, Yangi O'zbekistonda Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning rahnamoligida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar va ularning ahamiyati haqida fikr-mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** kitob, islohot, kitobxonlik, axborot-kutubxona xizmati, sifat, jarayon, tizim, ma'naviyat, yoshlar, mutolaa madaniyati, siyosat, aholi, elektron (virtual) kutubxona, axborot-resurs markazi.

Дилбархан ШАРИПОВА,

преподаватель кафедры культуры и библиотечно-информационной деятельности

Нукусский филиал ГИИК Уз

## МАСШТАБНОЕ ОБНОВЛЕНИЕ И ИЗМЕНЕНИЕ БИБЛИОТЕКИ И БИБЛИОТЕЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

**Аннотация:** В статье рассматриваются масштабные реформы, проводимые в Новом Узбекистане под руководством Президента Ш. Мирзиёева, и их значение. За последние три-четыре года уровень и возможности библиотечного обслуживания населения Узбекистана кардинально обновились. В частности, стоит отметить рост интереса к чтению среди молодежи, создание для них системы моральной и материальной поддержки и реализации ряда позитивных мер. В связи с этим в статье предлагаются предложения и рекомендации по дальнейшему совершенствованию данной работы.

**Ключевые слова:** книга, реформа, книголюбие, информационно-библиотечное обслуживание, качество, процесс, система, духовность, молодежь, культура чтения, политика, население, электронная (виртуальная) библиотека, информационно-ресурсный центр.

Dilbarkhan SHARIPOVA,

Lecturer in the chair the Culture and Library activities Nukus branch of the UzSIAC

## LARGE-SCALE RENOVATION AND CHANGE IN LIBRARY AND LIBRARY ACTIVITY IN NEW UZBEKISTAN

**Annotation:** This article discusses the large-scale reforms being carried out in New Uzbekistan under the leadership of President Sh. Mirziyoyev and their significance. Over the past three or four years, the level and opportunities of library services to the population of Uzbekistan have been radically renewed. It is especially important to note the growing interest in reading among young people, the creation of a system of moral and material support for them and the implementation of a number of positive measures. From this point of view, the article offers suggestions and recommendations for further improvement of this work.

**Keywords:** book, reform, bookworm, information and library services, quality, process, system, spirituality, youth, reading culture, politics, population, electronic (virtual) library, information resource center.

Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston shaharlari azaldan ilm-fan markazi sifatida mashhur bo'lgan. Bunda kutubxonalar ham katta rol o'ynaganini mamnuniyat bilan e'tirof etsak, arziydi. Tarixiy manbalarga tayanib aytadigan bo'lsak, ayniqsa, IX–XII asrlarda, Amir Temur va Temuriylar davrida mamlakatda ulkan kutubxonalar tashkil etilgan, ular jamiyatning, kishilar hayotining ajralmas qismi bo'lgan. Buning natijasida esa ilm-fan yuksalgan. Xonliklar davrida ham Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon shaharlarida hukmdorlar saroylarida yirik kutubxonalar faoliyat yuritgan. Keyinchalik jadidchilik harakati rahnamolari mintaqa shaharlarida ma'rifatni keng targ'ib qilish maqsadida dastlabki ommaviy kutubxonalarga asos solishgan. Ushbu kutubxonalarda jamlangan adabiyotlar mazmuni va yo'nalishi jihatidan saroy kutubxonalaridan ancha farq qilib, zamon ruhini aks ettirib turgan. Demak, kitoblar barcha zamonlar uchun ham bilimlar xazinasi, donishmandlik chashmasi, qalblar malhami bo'lgan.

Muhtaram Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev: Ma'naviy hayotimizni yanada rivojlantirish maqsadida keyingi paytda bir

qancha muhim hujjatlar, jumladan, kitobxonlik madaniyatini oshirish, madaniyat va san'at sohasini takomillashtirish, hududlarda ulug' san'atkorlarimiz nomi bilan ataladigan ijodiy maktab va markazlar tashkil etish to'g'risidagi qaror va farmoyishlar ham qabul qilindi [1; 180 B] – deya alohida ta'kidlab o'tgan edi.

“Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori esa jamiyatda barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishda hamda yoshlarning ma'naviy-intellektual salohiyatini, ongini, tafakkurini va dunyoqarashini yuksaltirishda muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Albatta, kutubxona moziy haqiqatlarini kelajakka eltuvchi, ma'naviy boyliklarni avloddan avlodga yetkazib beradigan maskan. Kitoblar esa jamiyatdagi voqeliklar, ilm-fandagi yangilik va kashfiyotlarni o'zida qayd etib boruvchi, makon va zamon bilmaydigan inson zakosining

buyuk mahsullaridan biridir. Axborot texnologiyalarini jamiyatimizning turli sohalarda keng tatbiq qilinishi, kitobxonlarga xizmat ko'rsatuvchi kutubxonalar faoliyatida tub islohotlar o'tkazilmoqda. Fuqarolarimizning ma'naviy kamolotini yuksaltirish, kutubxona-axborot sohasida sifatli xizmat ko'rsatishning imkoniyatlarini oshiradigan zamonaviy infratuzilmalar yaratish va davlat dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha yurtimizda keng ko'lamli ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Axborot resurslarini yaratish va jahon ilmiy-ta'lim axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatini yaratish yo'li bilan axborot kutubxona xizmatlari ko'rsatilmoqda. Mamlakatimizning barcha hududlarida kitob savdosiga ixtisoslashgan do'konlari tashkil etilmoqda.

Milliy madaniyatimizga, ma'naviyatimizga salbiy ta'sir ko'rsatadigan turli xurujlardan yoshlarni asrash, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish g'oyasini o'zida jamlagan dunyoqarash negizida tarbiyalash masalasiga jiddiy ahamiyat berilmoqda. Yoshlarning har tomonlama manfaatlarini ta'minlash, ularning orzu-intilishlari, qobiliyat va salohiyatini ro'yobga chiqarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Eng muhimi, farzandlarimizni shonli tariximizda o'chmas iz qoldirgan buyuk ota-bobolarimizning munosib avlodlari sifatida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda esa kitobning tutgan o'rni beqiyosdir.

Muhtaram Prezidentimiz aholi orasida kitobxonlik madaniyati va ma'naviyatini oshirish yo'lida samarali islohotlar, yangilanish va o'zgarishlarni amaliyotga tadbic etgan edi. Qaysi rivojlangan xalq yoki davlat bo'lmasin ularning shu darajaga etishishida birinchi o'rinda ma'naviy hayotini sayqallab, kreativ fikrlash doirasini oshiradigan, tarix va kelajag istiqbolini bog'lab turguvchi kitob va kutubxonalarning ahamiyati beqiyosdir. Xalqimiz azal-azaldan kitob o'qishga, u bilan oshno bo'lishga intilib yashab kelgan. Xalqimiz shuuridagi bu qadimiy an'ana bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Mustaqillik yillarida yurtimizda qadriyatlarini qayta tiklash, ma'naviyatni yuksaltirish, milliy g'ururni paydo qilish, adabiyot va san'atni ma'anaviyatning negizi sifatida rivoj toptirish, erkin fikr, ezgu so'z va xayrli amallarga bosh bo'lish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan birini tashkil qilib kelmoqda [2; 3 B]. Yoshlar tarbiyasida doimo yangilanish, islohot va innovatsion g'oya va metodlar, loyihalar yaxshi natija beradi. Kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarni faqat ma'naviy rag'batlantirish bilan ko'zlangan natijaga erishib bo'lmashligini zamonning o'zi taqozo etmoqda. Shuning uchun sohada mutlaqo yangi tizim yaratildi. Buning natijasida yoshlarning katta maqsadlarga safarbar etilishi, kitobxonlik madaniyatiga qiziquvchan yoshlar sonining ortib borishi tabiiy.

Lekin ko'plab bolalarimiz kitobdan uzoqlashib, ko'p vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazayotgani – bu ham bor gap. Biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o'tgan, yuksak ma'naviyat xazinasi bo'lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmaymiz [3; 134 B].

Aholi, eng avvalo, yoshlar o'rtasida kitobxonlik saviyasini oshirish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida har yili "Eng yaxshi kitobxon maktab", "Eng yaxshi kitobxon mahalla", "Eng yaxshi kitobxon oila", kabi yo'nalishlarda ko'rik-tanlovlarni o'tkazish, yakuniy bosqich g'oliblarini taqdirlash uchun qimmatbaho sovg'alar, jumladan, yurtimizda ishlab chiqarilgan avtomobillarni

mukofot tariqasida berish, o'ylaymanki, bu juda katta rag'bat bo'ladi [4; 530 B] – deya kitob o'quvchilarini qo'llab-quvvatlash muhimligini ta'kidlagan edi Prezidentimiz.

Sohada qonun hujjatlarining joylardagi ijrosi va yaratilgan sharoitlardan foydalanish darajasi esa yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz. Bunday islohatlarni hisobga olgan holda, shahar va qishloqlarda tashkil etiladigan kutubxonalar uchun zamonaviy imkoniyatlar yaratilmoqda. Barcha sohalarda texnikaning rivojlanishi natijasida elektron kutubxona faoliyati isloh qilindi. Virtual kutubxonalar o'z faoliyatini boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi PQ-4354-son "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Qarorida esa yangi tashkil etilayotgan tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlarining asosiy vazifalari:

– *aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatish uchun sifat jihatidan yangi va qulay shart-sharoitlar yaratish, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ularning ilmiy, ta'lim, axborot va madaniy ehtiyojlarini qondirish;*

– *aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga ijtimoiy moslashuv va reabilitatsiya, mustaqil ta'lim olish va muloqot doirasini kengaytirish vositasi sifatida axborotdan foydalanish imkoniyatlarini yaratish;*

– *foydalanuvchilarga har qanday (bosma, multimedia va raqamli) tashuvchilarda, shu jumladan, Internet tarmog'ida sifatli axborot manbalaridan foydalanish imkoniyatini yaratish;*

– *o'z axborot-resurslarini yaratish va ularni sifatli to'ldirib borish orqali kitobxonlarga an'anaviy xizmat ko'rsatish usulidan ularni zamonaviy axborot-kutubxona xizmatlari bilan ta'minlashga o'tish;*

– *aholiga axborot-kutubxona xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha masofadan xizmatlar ko'rsatishni rivojlantirish va modernizatsiya qilish belgilangan. [5; 2 B]*

Nafaqat kitobxonlarni shu bilan birga, kutubxonachilik kasbiga ehtirom ko'rsatish va mukofotlash tizimining yaratilishi shu sohani tanlagan yoshlar uchun katta imkoniyat bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 803-son "Axborot-kutubxona a'lochisi" ko'krak nishoni ta'asis etish to'g'risida"gi Qarori asosida samarali natijaga erishgan kutubxonachilar mazkur ko'krak nishoni bilan mukofotlanishi belgilandi.

Ko'krak nishoni bilan axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishga, aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatishning yangi tizimini yaratishga, kutubxonalarda saqlanayotgan milliy madaniy merosni asrab-avaylash va boyitish ishlariga munosib hissa qo'shgan, jamiyatda mutolaa madaniyati, kitobxonlikni keng targ'ib qilish va yosh mutaxassis kadrlarni tayyorlash borasida samarali mehnat qilgan va mazkur yo'nalishda yuqori natijalarga erishgan fuqarolar taqdirlanadi. Ko'krak nishoni bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan shaxslar ham taqdirlanishi mumkin [6; 2 B]. Bu esa o'z navbatida, Yangi O'zbekistonda kutubxonashunoslik sohasining yuksak islohotga yuz burganidan dalolatdir. Mazkur mukofot bilan qoraqalpog'istonlik kutubxonachilar ham munosib rag'batlantirildi. Bu kabi yuksak e'tirof kutubxonachilar uchun yangicha mas'uliyat yuklashi bilan birga, tanlagan kasbidan faxrlanish hissini tuyishga imkon berdi.

Toshkent shahridagi "Yoshlar ijod saroyida" "Central

Aziya – 2021: fan, ta'lim, madaniyat va biznesda internet va axborot-kutubxona resurslari" XIV Xalqaro konferensiyasi bo'lib o'tdi. Mazkur tadbir doirasida O'zbekiston kutubxonachilik sohasida ilk bor axborot, kutubxona sohasini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shgan xalq amaliy-madaniy merosini saqlash va boyitish ishlarida, jamiyatimizda kitob o'qish madaniyatini, kitobxonlikni keng targ'ib etish va yosh mutaxassislarni tayyorlashdagi pedagogik mehnati yana bu yo'nalishda yuqori natijalarga erishgan soha mutaxassisilari "Axborot-kutubxona a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

"Axborot-kutubxona a'lochisi" ko'krak nishonini topshirish marosimida Qoraqalpog'iston Respublikasi Axborot kutubxona markazi direktori Injigul Sharapovaga "Axborot-kutubxona a'lochisi" ko'krak nishonining berilishi barcha axborot kutubxona markazi xodimlariga bo'lgan katta e'tibor deb bilamiz [7; 2 B].

Darhaqiqat, yuqorida ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi PQ-4354-son "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Qarorida:

– *axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi va zamonaviy umumjahon tendensiyalarini hisobga olgan holda axborot-kutubxona faoliyatini isloh qilish;*

– *aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatish bo'yicha ijtimoiy kafolatlarni sifatli ta'minlash hamda zamonaviy talablarni hisobga olgan holda axborot-kutubxona muassasalarini rivojlantirish maqsadida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;*

– *hududlarda aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatishni barqaror rivojlantirishga ko'maklashish;*

– *axborot-kutubxona muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, shu jumladan, yangi bino va inshootlarni qurish, mavjud binolarni rekonstruksiya qilish, ularni zamonaviy uskunalar bilan ta'minlash;*

– *kutubxona sohasida davlat-xususiy sheriklikni, xususiy va elektron (virtual) kutubxonalar tarmog'ini rivojlantirish;*

– *kutubxonalar faoliyatining samaradorligini va foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish (shu jumladan, pullik*

*xizmat ko'rsatish) tezkorligini oshirish uchun elektron kitoblar tarqatishga ixtisoslashgan internet-resurslar bilan hamkorlikni kengaytirish;*

– *axborot-kutubxona muassasalari xavfsizligini hamda milliy va jahon madaniy merosining bir qismi sifatida axborot-kutubxona fondlarining yaxshi saqlanishini ta'minlash;*

– *axborot-kutubxona muassasalarini malakali mutaxassislar bilan ta'minlash [8;2 B] asosiy vazifa sifatida belgilangan.*

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohani isloh qilishning hozirgi sharoitida axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirishning maqsad va vazifalari davlatimizda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga va xalqaro amaliyotga mos bo'lishi zarur. Shu munosabat bilan fuqarolarning axborotdan erkin foydalanish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqlarini, shu jumladan, milliy qadriyatlar va jahon madaniyati, amaliy va fundamental bilimlardan bahramand bo'lishini ta'minlaydigan aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatishning sifat jihatdan yangi tizimini yaratish, kutubxonalarda saqlanayotgan milliy madaniy merosni asrab-avaylash va boyitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish ustuvor vazifaga aylanmoqda.

Zamon bilan hamnafas bo'lib, Internetdan to'g'ri foydalanib, yuksak mahoratli kadrlarni tarbiyalasak, kutubxonashunoslik ilmini har tomonlama o'rgansak, ko'zlangan maqsadga albatta yetamiz. Yangi O'zbekistonda kutubxona va kutubxonachilik faoliyati keng ko'lamli islohotlar, yangilanish va o'zgarishlar jarayonida dadil qadam tashlab kelayotgan istiqbolli, kelajagi porloq – sohadir. Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Jahon tarixi shundan dalolat beradiki, har qanday yangi sivilizatsiya, yangi Uyg'onish davri kitob va kutubxonalardan boshlanadi" [9; 42 B].

Zero, insoniyat tafakkurining yuksak boyligi bo'lgan kutubxonalarimiz yoshlarning doimiy tashrif buyuradigan maskaniga aylanmoqda. Ilm-ma'rifat, muqaddas bilim, bebaho ma'naviy merosni o'zida jamlagan – ziyo maskani kutubxonalarga e'tibor, ertangi yorug' istiqbolimizga bo'lgan e'tibordir.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.Mirziyoyev. "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir". – 2-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – B. 507.
2. Sh.Mirziyoyev. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". – 1 jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 592.
3. Sh.Mirziyoyev. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. –Toshkent: Toshkent nashriyot uyi, 2021. – B. 50.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi PQ-4354-son "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori. www.lex.uz
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi PQ-4354-son "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori. www.lex.uz
6. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 803-son qarori "Axborot-kutubxona a'lochisi" ko'krak nishoni to'g'risida Nizomi. www.lex.uz
7. I.Yo'ldoshev. O'zbek kitobat san'ati va terminologiyasi. –Toshkent: 2018-yil. O'zDSMI. – B. 305.
8. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. O'zbekiston yoshlar ittifoqi. Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash "Ulug'bek" jamg'armasi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – B. 154.
9. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 803-son qarori "Axborot-kutubxona a'lochisi" ko'krak nishoni to'g'risida Nizomi. www.lex.uz

## SAHNADA NUTQ MADANIYATINI ULUG‘LAGAN MUHIDDIN QIZIQ

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek milliy estrada san’atining qiziqchilik janrida ijod qilgan, o‘ziga xos maktab yaratgan, o‘zbek qiziqchilik, askiya rivojiga katta hissa qo‘shgan san’atkor Muhiddin Darveshov haqida so‘z boradi. Aktyorning ijro qilgan repertuariga to‘xtalib, aktyorlik va nutq mahorati, voqealar mazmuni tahlilga tortilib, xulosalar qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** qiziqchilik, so‘z san’ati, nutq madaniyati, milliy estrada, askiya, latifa, monolog.

Иноятхон НАЗАРОВА,  
Свободный изыскатель (PhD) 2 курс ГИИК Уз. преподаватель кафедры «Сценическая речь»

## МУХИДДИН КИЗИК ПРОСЛАВИВШИЙ

## КУЛЬТУРУ СЦЕНИЧЕСКОЙ РЕЧИ НА УЗБЕКСКОЙ СЦЕНЕ

**Аннотация.** В статье речь ведется о Мухиддине Дарвешове-художнике, создавшем уникальную школу узбекского национального эстрадного искусства, внесшем значительный вклад в развитие жанра аския, кизикчилик. Остановившаяся на репертуаре актёра, проводится анализ его актёрского мастерства и сценической речи, делаются соответствующие выводы.

**Ключевые слова:** юморист, разговорный жанр, речевая культура, национальная эстрада, острословия, анекдот, монолог.

Inoyatkxon NAZAROVA,  
independent researcher 2 course(PhD) USIAC Lecturer of chair "Scene speech"

## REVE THE STAGE CULTURE MUKHIDDIN QIZIQ

**Abstract.** The article is about Mukhiddin Darveshov, an artist who created a unique school of Uzbek national pop art in the word genre, who made a significant contribution to the development of the genre of interest.

**Keywords:** humorist, national stage, rasping genre, sthenic culture, colloquial jokes and puns, joke, monologue.

Askiya – o‘zbek xalq og‘zaki ijodining mustaqil janri hisoblanib, u insonning mehnat faoliyati, kayfiyati, kundalik turmushi, munosabatlari, his-tuyg‘ulari, ijodiy fikrlashi bilan chambarchas bog‘liq. Kishilarni nozik ta‘bli, xushchaqchaq tabiatli, serzavq, nihoyatda didli, ziyrak, his etuvchi inson sifatida tarbiyalashda askiya janrining ahamiyati katta.

“Askiya” so‘ziga ta‘rif beradigan bo‘lsak, u arabcha “zakii” so‘zidan olingan bo‘lib, “so‘zamol”, “zakovatli”, “o‘tkir zehni” degan ma‘nolarni anglatadi, “zakii” so‘zining ko‘plik shakli “azkiy” bo‘lib, u keyinchalik talaffuzda o‘zgarib, “askiya” shakliga kelib qolgan. Xalq orasida bu termin askiya ijrochilari, askiyachi deb yuritiladi. [1.261 b.]

Askiyaning payrov, qofiya, radif, tural, o‘xshatdim, bo‘lasizmi, bahri bayt, safsata, “gulmisiz, jambilmisiz, rayhonmisiz”, shirinkorlik, afsona, rabbiya, laqab, mubolag‘a, kesatiq, lof, chiston, kabi turlari bor.

“Har bir xalqda ham hazil-mutoyiba, bahslashuv, aytishuv, askiya bor. O‘zbek askiyasining boshqa xalqlarning oddiy hazil-mutoyibasidan farqi shundaki, u san‘at darajasiga ko‘tarila olgan. Askiya o‘zbek xalq og‘zaki ijodining bir turi, xalq qiziqchiligining tarkibiy qismi, keng tarqalgan tomosha hisoblanadi” [2.105.b.]

Askiya san‘atini birinchi bo‘lib atrofficha ilmiy o‘rgangan olim filologiya fanlari doktori Rasul Muhammadiyev hisoblanadi. Uning tashabbusi bilan uch bora askiya ekspeditsiyasi tashkil etilgan. Bu jarayonda askiyachilarni bir joyga jamlab, musobaqalar uyushtirilgan, suhbatlar, payrovlar yozib olingan. Yakunda nazhr ekspeditsiya asosida 1970-yili “Askiya” to‘plami mashq qilinish, shu nomdagi film yaratilgan.

Tilshunos olim H.Razzoqov askiya janrida ijod qiluvchi san‘atkorlarga baho berar ekan, “Askiyachilar omonim, sinonim, antonim so‘zlarni qo‘llash, majoziy so‘zlarga e‘tibor berish, ayrim hollarda tovushlarning o‘rnini almashtirish yoki ataylab buzib talaffuz qilish orqali o‘zbek tilini turli bo‘yoqlarda jonlantiradilar” [1.264 b.] degan.

Marg‘ilonlik Yusufjon qiziq Shakarjonov, Bachqir qishlog‘idan Dehqon yuzboshi Shernazarov, qo‘qonlik Erka qori Karimov, Mamayunus Tillaboyev, Mamatxoliq Masodiqov, Tursunbuva Aminov, andijonlik Abdulhay maxsum Qozoqov, Mullamamat

buva, Jo‘raxon Sultonov, G‘oyib aka Toshmatov, Usmon qori Rahimbekovlar, Akbar Usmonov, Muhiddin Darveshov kabi kulgu darg‘alari o‘zbek askiyachiligi tarixida alohida tilga olinadi. Ular sahnaga chiqqanda, beixtiyor odamlarning yuzlariga tabassum yugurgan. So‘z mas‘uliyatini his etish, uni tariqdek ko‘chaga sochmay, bilib-fahmlab ishlatish yuqorida nomlari keltirilgan qiziqchilar ijod yo‘lidagi muhim qoidalar bo‘lgan.

M.Darveshov aslida Samarqand qishloq xo‘jaligi institutini tamomlagan bo‘lsa-da, u Tessa qiziq Komilov, Ohunjon qiziq Huzurjonovlarga ergashib, qiziqchilik san‘atiga kirib kelgan. Marhum qiziqchilar Rustam Hamroqulov, Hojiboy Tojiboyev hamda elimiz sevgan san‘atkorlar Bahodir Shokirov, Abdulla Akbarov, Abdurahmon Siddiqovlar Muhiddin qiziq Darveshovni o‘zlarining ustozlari deb bilishadi.

Muhiddin Darveshov so‘zlarni turli ohanglarda ishlatishi, sheva unsurlaridan unumli foydalanishi, tomoshabin qarshisida o‘zining mimikalari, qo‘l harakatlari, lavzi orqali yaratayotgan yoki aytib berayotgan kishi obrazini aniq, yaqqol gavdalantira olish mahorati bilan davrani qiziqтира olgan. Tomoshabin san‘atkor askiyasidan zavqlanib, ich-ichidan qotib-qotib kulgan. Bunday ma‘naviy hordiq esa tabiiyki ularning ertangi ish kuni, umuman turmush hayoti yanada unumli bo‘lishida kuch-g‘ayrat bag‘ishlagan.

Muhiddin qiziq voqea-hodisani so‘zlashda yoki obraz yaratayotganda so‘zlardan unumli foydalanishga, shu bilan birga tomoshabin diqqatini chalg‘itmaslik uchun ortiqcha xatti-harakat ishlatmaslikka intilgan. Ushbu so‘z ustasining nomi tilga olinganda, xalqimiz ko‘z o‘ngida oq yaktakda do‘ppini qiyshaytirib kiyib olgan san‘atkor siymosi gavdalanadi. Katta yoshdagi yurtdoshlarimiz esa yoshlik davrlarining bir qismiga aylangan bu qiziqchini yuzlarida tabassum bilan yodga oladilar.

Muhiddin qiziq nomining yillar o‘tsa-da avlodlar qalbida mudom yashab kelayotganining talay sabablari bor.

Eng avvalo, bu san‘atkorning repertuari nihoyatda boy. Kulgi – hikoya, latifa va hangoma janrlarida birdek ijod qilgan. O‘z chiqishlarida ularni bir-biriga bog‘lab namoyish etishi tufayli dastur – turkumlar yaratgan. Masalan, o‘z hayoti hamda ustoz qiziqqlar hayotidan olingan hangomalarni hikoya qilish, kulgi-hikoya va latifalarni ijro etish, Abduraim dovdir va Mamaraim erkak sarguzashtlari.

“So‘zlarni salmoqlab, chertib-chertib aytib, ko‘zlari, qoshlarni o‘ynatib, qo‘llarni harakatga keltirish, lahzalarda bo‘lsada, hikoyada so‘z borayotgan turli qiyofalarda gavdalanib, har safar ajib bir tomosha yaratgan”[3.218 b]. Usta san‘atkorning ijodini o‘rganish maqsadida ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirilgan video audiolardan foydalanildi.

Qiziqchi nafaqat insonlarga kulgi ulashuvchi zavqli kasb egasi, balki o‘zi yashab turgan davr muammolari, turli illatlarni ko‘rib, tahlil qilib, ularning yechimlari haqida mushohada qiluvchi san‘atkor hamdir.

Muhiddin Darveshov repertuaridan o‘rin olgan hazil-mutoyiba, hajviyalarda “kosa tagida nim kosa” qilib, o‘zini qiyinayotgan hayotiy masalalarni kulgu qog‘oziga o‘rab, tinglovchilar hukmiga havola qila olgan so‘z ustasi edi.

Qiziqchi haqidagi tadqiqotlardan birida “Muhiddin qiziq o‘zining ichakuzdi hangomalarini turli xil xarakterlarda ijro etib, juda ko‘pchilikni kuldira olgan o‘zbek an‘anaviy teatrining yetuk namoyandalaridan biri bo‘lgan. Muhiddin qiziqning tahsinga loyiq ajoyib odatlaridan biri, qayerdagi yosh qiziqchi, askiyachi chiqsa, albatta uni topib, tanishib, qanoti ostiga olib tarbiyalagan” [6.1.b] degan fikrlarga ham duch kelamiz. Askiyaga usta bo‘lish bilan birga, atrofiga qiziqchilikka ishqiboz yoshlarni ham yig‘a bilgan. U ana shunday yoshlar bilan respublikada birinchi bo‘lib 1986-yil Buvayda tumani madaniyat uyi qoshida “Qahqaha” teatr studiyasini tashkil qilgan. Bu teatrga O‘ktamjon Yusupov, Yuldoshxon Nosirov, Jo‘raxon Po‘latov, Bahodir Shokirov, Mansurjon Oxunov kabi yosh qiziqchi, askiyachilarni jalb qilib, turli ommaviy asarlarni sahnalashtirgan. Muhiddin qiziqning bunday serqirra ijodini kuzatib, o‘ziga xos maktab yaratgan ijodkor ekanligiga amin bo‘lamiz.

Ustoz san‘atkor voqea tanlashda sodda, oddiy odamlar darhol tushunib olishi mumkin bo‘lgan mavzulardan foydalangan. Adabiy tilning o‘ziga xos go‘zalligi, shuningdek, sheva, lahjalarning ham o‘ziga xos latofatini ko‘rsatish bilan birga vodiy lahjasiga alohida urg‘u beradi. U hikoya qilib berayotgan mavzuni tomoshabinlarga yanada yaqinroq va hayotiy bo‘lishini ta‘minlaydi. Masalan, dehqon, shifokor va boshqa soha egalarining obrazlarini yaratishda ularning so‘zlashuv jarayonida ishlatadigan o‘ziga xos terminlari va uslubi bo‘ladi. Qolaversa, har bir insonning o‘z ichki nutqi bor. Ijodkor hikoyalardagi personajlar tilidan aynan ularga xos bo‘lgan kasb va individual shaxsga xos nutq xarakterini nozik payqab uni o‘rnida qo‘llay olgan. Hangomalaridagi har bir so‘zni tovlantirgan.

“Muhiddin qiziq nafaqat o‘zbek tilida, balki rus, qozoq, qirg‘iz tojik tillarida ham qiziqdan-qiziq hangomalar yaratib, qo‘shni davlatlar – Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikistonda o‘z dasturlarini ijro etib, shuhrat qozongan”[6.1 b].

Muhiddin Darveshovga yozuvchi Anvar Muqimov ayrim hajviyalarni yozib bergan. Anvar Muqimov 1929- yil 5-yanvarda Farg‘ona viloyatining Bag‘dod tumanidagi Olchin qishlog‘ida tug‘ilgan. Toshkent shahrida nemis tili o‘qituvchisi mutaxassisligi bo‘yicha ta‘lim olgan. Anvar Muqimov nafaqat hajvnavis yozuvchi balki jiddiy mavzularda qalam tebratib adabiyot ahlining nazariga tushgan. Ayniqsa uning “Qo‘qon shamoli” hikoyasi katta munorazalarga sabab bo‘lgan. “Ichkilikning sharofati”, “Xotinimdan o‘rgilay”, “O‘zimni to‘xtatolmayman” kabi hajviyalari Muhiddin qiziq tomonidan katta mahorat bilan ijro etilgan. Undan tashqari Muso Jalilning hazil she‘rlarini ham ijro qilgan, shulardan biri “Bir balo” nomli hazil she‘r.

O‘zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon Said Anvarning

“Muhiddin Darvesh: Qissa va hangomalar” nomli kitobga yozgan so‘z boshidan quyidagilarni bayon qiladi:

“Muhiddin aka, aytishim mumkin, o‘zbekning yakkayu yagona, takrorlanmas qiziqchisi edi. Bundayin tom ma‘nodagi qiziqchi tariximizda bo‘lmagan. Chunki u Yusufjon qiziq Shakarjonov, Ohunjon qiziq Huzurjonov, Tesha qiziq Komilovlardan keyin qiziqchiligimizni yangi pog‘onaga olib chiqdi, o‘ziga xos maktab yaratdi”[4.3 b].

Shu bilan birga A.Obidjon ushbu so‘z boshida so‘z ustasining topqir, tug‘ma qiziqchi bo‘lgani, yurgan yo‘lida hangoma to‘qib yurgani, xalqning dardini ayta olganiga tan berganini alohida e‘tirof qiladi.

M.Darveshov o‘z repertuarida bolajonlar haqida latifalar ham mavjud, qiziqchi bunday chiqishlarida bolalarga xos sho‘xlik, quvlik, hozirjavoblik bilan bola tilidan so‘zlaydi:

“Bolani tili shirin, odobi undan shirin. Dadasi ishdan kelsa, o‘g‘li yugurib chiqib

– Dada, pul beying, desa.

– Xo‘p, o‘g‘lim.

Har so‘raganda 5 tiyin, 10 tiyin berar ekan. Bugun “Paxtakor” yutgan, oylik ogan, kayf joyida. Uyga kesa, o‘g‘li: “Dada, pul beying”, desa dadasini saxiyiligi tutib: “O‘g‘lim, bu, so‘lkavoy beriymi, qog‘oz pul beriymi” desa. Atom zamonining bollarini esi ko‘pmasmi: “Dada, so‘lkavoyni qog‘oz pulga o‘rab beyvuying, bo‘masa yo‘qotib qo‘yaman” dermish.

“XX asrning 70-yillarida Abdufattoh Saidov va Muhiddin Darveshovlarning to‘yxonada yakka tartibda ijro etgan hangomalari, to‘ydagi chiqishlari “Bir aktyor teatri” talablariga javob berardi. El sevgan bu hangomachi – qiziqchilarni konsertlarga taklif qilishdi. Ularning konsertlardagi chiqishlari – “monolog” ya‘ni nomer edi” [5.294 b].

San‘atkor 1967-yil xalq ijodiyoti ko‘rigi, 1984, 1986, 1988-yillarda askiyachi va qiziqchilarning Respublika ko‘rik tanlovining g‘olibi bo‘lgan.

San‘atshunos olim Sirojiddin Ahmedov shunday yozadi: “Muhiddin Darveshovning yutug‘i – kulgili hangomalarining voqebandligi. Bunday hangomalarni Muhiddin qiziq mahorat bilan ijro qilardi. Yana bir jihati, u kishining shevasi edi. Askiyachilik vodiyga xos bo‘lganidek, Muhiddin qiziq Qo‘qon, Marg‘ilonga xos qiziqchilik maktabini yaxshi egallagan edi. Muhiddin Darveshov bilan bir-ikki marta suhbatda bo‘lganman, u kishi juda band bo‘lard, hayotda ham o‘ta kamtarin, hokisor odam edi. O‘ziga xos xarakterli tomoni, ko‘ngli tortmagan davralardan hech kimning dilini og‘ritmay, chiqib ketardi. Qiziqchilikda, so‘z san‘atida so‘zning o‘mini topa bilish eng muhim omil hisoblanadi. Umuman, askiyachilikda, qiziqchilikda “tutul gap”, ya‘ni ishlatilmagan, o‘xshashi yo‘q so‘zlar mavjud. Shunday qiziq voqealarni topish va ularni qiziqarli qilib ijro etish Muhiddin Darveshovga xos xususiyat bo‘lgan. Qiziqchi zakiy odam bo‘lishi kerak. Ya‘ni xalq an‘analari, termalarini, xalq og‘zaki ijodidagi qo‘shiqchilarni, joy nomlarini, predmetlar nomini, shevalarni yaxshi bilishi zarur. Biz Muhiddin qiziqni ana shunday “zakiy” odam bo‘lgan, deya olamiz. Muhiddin Darveshovning hangomalari o‘ta xalqchil bo‘lgan”[6.1 b].

Xulosa o‘rnida aytish kerakki, Muhiddin Darvesh ijodi milliy estradaning yaratilishiga, estrada san‘atining so‘z janri rivojiga katta hissa qo‘shdi. Aktyor o‘z so‘zamonligi, nutq madaniyati kuchliligi, unga qo‘shimcha aktyorlik mahorati va badihago‘yligi bilan tomoshabin qalbidan munosib o‘rin egallagan. Muhiddin Darveshov o‘z chiqishlari bilan kelajak avlod san‘at ahliga o‘rnak bo‘lgan va o‘ziga xos maktab yaratgan.

#### Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Razzoqov H. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1980. – B. 261-264.
2. Qodirov M. O‘zbek xalq tomosha san‘ati. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1981. – B.105-223.
3. Qodirov M. O‘zbek teatr tarixi. – Toshkent: “Ijod dunyosi”, 2003. – B. 218.
4. Said A. Muhiddin Darvesh: qissa va hangomalar. – Toshkent: “Sharq”, 2006. – B. 208.
5. Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2009. – B. 294.
6. Do‘sanov R. O‘zbek askiyachiligi sardori //Sharq yulduzi. -2015. -№2. – B. 1.

## IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNING JAMIYATDAGI FAOLLIGINI OSHIRISHDA XOREOGRAFIYA SAN'ATINING O'RNI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oliy ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan o'zgarish va yangiliklar, nogironligi hamda imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim berishning turli usullari hamda vositalari xususida atroficha ma'lumotlar taqdim qilingan. Shuningdek, xoreografiya orqali imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatdagi faolligini oshirishning amaliy ahamiyati tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, bolalar, psixodinamika, ritmika, xoreografiya, mashg'ulot, fan, san'at.

## ПОВЫШЕНИЕ АКТИВНОСТИ ДЕТЕЙ-ИНВАЛИДОВ В ОБЩЕСТВЕ С ПОМОЩЬЮ ИСКУССТВА ХОРЕОГРАФИИ

**Аннотация:** В статье научно освещены разработки в области высшего образования, различные методы и средства обучения детей с ограниченными возможностями. Также изучалась практическая значимость повышения активности детей с ограниченными возможностями в обществе посредством хореографии.

**Ключевые слова:** образование, дети, психодинамика, ритм, хореография, обучение, наука, искусство.

## INCREASING THE ACTIVITY OF DISABLED CHILDREN IN SOCIETY THROUGH THE ART OF CHOREOGRAPHY

**Annotation:** The article scientifically highlights developments in the field of higher education, various methods and means of teaching children with disabilities. The practical significance of increasing the activity of children with disabilities in society through choreography was also studied.

**Keywords:** education, children, psychodynamics, rhythm, choreography, teaching, science, art.

Mamlakatimizda yillar davomida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan tub islohotlar ta'lim tizimida ham jiddiy o'zgarishlarni boshlab berdi. Jumladan, oliy ta'limni yanada rivojlantirish borasida bir qator keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Yangi ta'lim yo'nalishlari, turli kasb va fanlar rivojini ta'minlash maqsadida magistratura mutaxassisliklari joriy qilindi. Doimiy bandlikni saqlab qolish va xodimlarning malakasini oshirish uchun sirtqi va kechki ta'lim yo'nalishlari tiklandi, xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda bir qator ta'lim muassasalari tashkil etildi. Eng muhimi, o'quv rejaları tubdan yangilandi. Qolaversa, imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatdagi faolligini oshirish borasida ham ijobiy natijalar ko'zga tashlanmoqda. Inchinun, **"Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan, imkoniyati cheklangan shaxslarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, ular uchun infratuzilmaga oid sharoitlarni yaxshilash"** zarurligini hayotning o'zi taqozo etmoqda<sup>1</sup>.

Shu ma'noda, nogironligi bo'lgan va imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim berish, ularni ijtimoiy himoyalash, salomatlik darajasini muntazam ravishda baholab borish va jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishiga ko'mak berish masalalari asosiy kun tartibiga qo'yilmoqda. Alohida e'tibor ko'rsatilishiga muhtoj bolalarga ta'lim berishning turli usul va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilinmoqda.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni // Xalq so'zi. –2019. 8 oktabr.

<sup>2</sup> Абрайкулова Н.Э. Формула танцевальной композиции // Высшая школа. – 2018. -№12. – С. 21

Statistik ma'lumotlar hamda shifokorlarning izlanishlari natijasida imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatdagi faolligini oshirishda, ruhiyatiga ijobiy ta'sir o'tkazishda, salomatlik darajasini mo'tadil saqlab turishda san'at turlaridan, shu jumladan, xoreografiya san'atidan foydalanish juda samarali ekanligi ma'lum bo'ldi. Chunki raqs, ritmika, musiqa kabi xoreografik harakatlar va jismoniy mashqlarning bir paytda hamohang bajarilishi imkoniyati cheklangan bolaning jismoniy, ruhiy-psixologik va aqliy rivojlanishi uchun qulay imkoniyat yaratib beradi. Bolada o'ziga ishonch, qat'iyat tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qiladi. Xoreografik harakatlar orqali nogironligi bo'lgan yoki imkoniyati cheklangan shaxsda tibbiy-fiziologik o'zgarishlar sodir bo'lib, olamni anglash ko'nikmalari shakllanib, estetik didi oshadi, eng muhimi, o'zini jamiyat uchun kerakli shaxs ekanligini his qiladi. Har bir harakatni o'rganish davomida uning ko'p marotaba takrorlanib bajarilishi bolada mustaqil harakatlanishga intilish, maqsad sari odimlash, o'z sabrini sayqallash kabi xislatlarning rivojlanishiga turtki bo'ladi. Nogironligi bo'lgan bolalarni rehabilitatsiyasida xoreografiya san'ati bilan shug'ullanish organizmning barcha tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Harakat natijasida yurak urishining tezlashuvi o'pka hajmining o'sishiga, organizmda qon almashuvini yaxshilanishiga, tana a'zolarida qon aylanishining faollashuviga, natijada ularning kislorod bilan ta'minlanishini yaxshilanishiga olib keladi. Skeletning mushaklari va bo'g'inlari mustahkamlanadi, egiluvchanlik, epchillik, koordinatsiya rivojlanadi. Bolalar tananing holatlariga e'tibor qaratishni, gavnani tik tutish va muvozanatni saqlashni, mushaklar qisqarishini nazorat

qilishni, qo'l, oyoq, bosh harakatlarini boshqarishni o'rganishadi.

Xoreografik matn yoki uning ko'rinishini tuzish xoreografik asar yaratishning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Raqs asarini yaratishning "formulasi" mavjud. Raqs formulasi — bu muayyan raqs kombinatsiyalarini ajratib ko'rsatish orqali yirik shakllarni umumlashtirish imkoniyatidir. Bu birinchi navbatda, xoreografik asarlar yaratishda foydali bo'lib, raqs san'atining muayyan qonuniyatlarini aniqlashga, raqsnı o'rgatishda, xoreografik asarlarni tomoshabin tomonidan turli davrlarda va turli madaniyatlarda idrok etishda yordam beradi. Shuningdek, raqs harakatlari va kompozitsiyalarini shakllantirish, harakatdan harakatga, bir yo'nalishdan boshqa yo'nalishga o'tishning an'anaviy usuli hisoblanadi<sup>3</sup>. Raqs sahnalashtirishda, ayniqsa, nogironligi bo'lgan bolalarga raqs sahnalashtirishda mana shu tomonlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Raqsda har bir harakatni o'zlashtirishdagi murakkab jarayon miya faoliyatini faollashtiradi. Shuningdek, ko'psonli yangi neyron aloqalarining vujudga kelishiga, bolaning o'qishga bo'lgan qobiliyatini o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Maxsus tanlangan raqs harakatlari va mashqlari ijro etilganda obrazli va ifodali musiqaning yangrashı emotsional ta'sirchan bolalarni tinchlashtirishi, shu bilan birga harakatsiz bolalarni faollashtirishi mumkin. Kommunikativ muammolarga, psixologik to'siqlarga, emotsional buzilishlarga ega bo'lgan bolalar oddiy sharoitda o'ziga birovni qo'l tekkizishiga yo'l qo'ymaydi, raqsda esa bir-birini qo'lini ushlaydi, o'z xatti-harakatlarini boshqa bolalar bilan hamohanglikda bajaradi, ya'ni xulq-atvorida taqlidchilikni o'zlashtiradi. Bunday holat esa ularning kognitiv xususiyatlarini rivojida yangi istiqbollarni vujudga keltiradi.

Imkoniyati cheklangan bolalarni xoreografik faoliyatga jalb etish masalasi bo'yicha loyiha ishlab chiqish jarayonida shuni inobatga olish kerakki, sog'lom bolalar ishtirokidagi raqs jamoasidan farqli o'laroq nogironligi bo'lgan bolalar ishtirokidagi raqs jamoasi faoliyati alohida yondashuvni talab etadi.

Statistikaga murojaat qiladigan bo'lsak, dunyo aholisining 15 foizi imkoniyati cheklangan shaxslardir. Ulardan 2-4 foizi og'ir darajadagi harakati cheklangan bemorlar hisoblanadi. Deyarli barcha davlatlarda imkoniyati cheklangan fuqarolar uchun turli imtiyozlar, nafaqa puli, salomatlik darajasini ta'minlash kabi yengilliklar muntazam amalga oshirilib kelinmoqda.

Muhtaram Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 13-oktyabrda "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qaroriga binoan ko'pgina ishlar amalga oshirildi, imkoniyatlar yetarli darajada taqsimlab berildi. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash uchun ko'ngillilar guruhi tashkil etildi. Barcha fan va san'at o'qituvchilari ketma-ket yangi yulduzlarni kashf eta boshlashdi<sup>3</sup>. Qayd etish joizki, imkoniyati cheklangan bolalar, asosan, maktab-internatlarda

tarbiyalanadi, maxsus ta'lim olib, o'z imkoniyatlari darajasida ijodiy-texnik mehnat bilan shug'ullanadi. Ayni paytda ular qo'shimcha ta'lim bilan ham shug'ullanishsa, bu ularning sog'lig'iga, psixodinamikasiga, ma'lumotlarni kodlash va dekodlash jarayonlari izchilligini oshirishga ta'sir ko'rsatadi.

Ayni xoreografiya yordamida ko'pgina qizaloqlar o'z orzulariga yetishadi, bolajonlar o'zlarini epchil va sog'lom ekanliklarini yana bir bor isbotlashga intilishadi. Shu sababli ham respublikamizdagi barcha imkoniyati cheklangan bolalar uchun mo'ljallangan maktab-internatlarda ritmika va raqs fanlarini yo'lga qo'yish, buning uchun yetarli darajada o'qituvchi-pedagog kadrlarni tayyorlash, maxsus o'quv dasturlari va qo'llanmalarni tayyorlash lozim. Binobarin, ritmik va xoreografik harakatlar nafaqat jismoniy energiya, balki ruhiy kayfiyatni ko'tarishga ham xizmat qiladi.

Musiqqa kuyi tanlanishidan tortib, jismoniy mashqlar ketma-ketligini tuzish murabbiydan katta matonat va bilim talab etadi. Zero, turli xil imkoniyati cheklangan bolalarga bir turdagi qo'shiq yoki raqs harakatini vazifa sanash noto'g'ridir. Bu jarayon ancha murakkab bo'lib, bolaning tibbiy-psixologik holatlarini aniq hisobga olishni taqozo etadi. Musiqqa his-tuyg'ularni junbushga keltiruvchi qurol bo'lsa, murabbiyning birgina xatosi xasta ko'ngilni vayron etishi ham mumkin. Ayrim hollarda nogironlarda xudbinlik, beparvolik, norozilik, sog'lom odamlarga nisbatan hasad, sog'lom jamiyatning ularga nisbatan qarzdor ekanligi moyilligi namoyon bo'lishi mumkin. Xoreografiya ijodi bilan shug'ullanish shaxsni ruhiy-emotsional nuqtayi nazaridan qayta tug'ilishiga sabab bo'ladi. Xoreografik amaliyotda ishtirok etishi tufayli imkoniyati cheklangan shaxslar "MEN" degan tushunchani qaytadan anglashadi, ularning dunyoqarashi, atrofdagi borliqqa munosabati o'zgaradi, o'z-o'zini baholash ko'tariladi.

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ritmika darslari raqslarni o'rganishning boshlang'ich qadami hisoblanadi. Ma'lumki, ritmika darslarida turli yengil harakatlar musiqqa jo'rligida bajariladi. Ritmika bilan shug'ullanish esa nogironligi bo'lgan bolalarda chaqqonlikni rivojlantiradi, shu jumladan, gavda mutanosibligini ta'minlashga imkon beradi, ulardagi ruhiy taranglik-stress va depressiyani bartaraf etadi. Ritmika darslarida o'quvchilar o'z tanasini, tana harakatlarini tushunishni o'rganadi.

Ritmika darslarini o'yin tarzida olib borish bolaning darsga qiziqishini oshiradi. Topshiriqlar va mashqlar ham didaktik prinsiplar asosida: oddiydan murakkabga, yengildan qiyinga qarab beriladi. Ritmika darslarining dasturlari ertak, hikoya shaklida bo'lishi yoki mashhur she'rlar asosida tuzilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bolalarning maktab tadbirlari, turli festivallar, konsertlarda raqs chiqishlari bilan qatnashishi ularda zavq-shavq, o'zidan faxrlanish hissini uyg'otadi, natijada, ular hayotda dadil va shijoatli bo'lishga o'rganadilar.

San'at turlari orasida aynan xoreografiya imkoniyati cheklangan bolalardan alohida qobiliyat talab etmaydi. Didaktik prinsiplarni qo'llash orqali vaqt sayin tananing harakati yengillashadi va raqsqa moslashib boradi. Noverbal mulqotni aks ettiruvchi raqslar o'quvchi va o'qituvchi orasida ko'prik vazifasini o'taydi. Bolalar psixodinamikasining mo'tadillashuvini ta'minlaydi.

Ko'pgina xorijiy davlatlarda rivojlangan ushbu soha asta-sekinlik bilan bizning yurtimizda ham o'z ko'lamini

<sup>3</sup> Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori // Xalq so'zi. —2020. 13-oktabr.

kengaytirib kelmoqda. AQSH, Fransiya, Italiya, Norvegiya, Rossiya Federatsiyasi va ko'pgina davlatlarda maxsus guruhlari, tashkilotlar aynan imkoniyati cheklangan bolalar uchun xoreografiya darslarini tashkillashtirib, muntazam o'quvchilarni jalb etishadi. Professorlar musiqa va xoreografiyaning bola ongiga ijobiy ta'sir etishini doimiy ta'kidlab, uni davolovchi terapiya, realitatsiya deya hisoblashadi. Mazkur sohani rivojlantirish maqsadida xoreograf-pedagoglar tayyorlash rejaga kiritilgan. Aynan imkoniyati cheklangan, nogiron va bolalar serebral falajligi bilan og'rigan o'quvchilarni xoreografiyaga yo'naltirish masalalari ayni kunlarda oliy ta'lim muassasalari va sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan ham ko'rib chiqilmoqda.

Tibbiy, ishlab chiqarish, maishiy adaptatsiya bilan bir qatorda, nogironligi bo'lgan shaxslar ijtimoiy adaptatsiyaga ham muhtojdir. Ijtimoiy adaptatsiya nafaqat "to'siqsiz makon" shakllanishi orqali atrofdagi muhitga moslashuvni, balki ijtimoiy hayotda o'z imkoniyatini namoyon etish uchun maksimal darajaga yetishini nazarda tutadi. Misol tariqasida nogironlarning har xil sport turlari bilan shug'ullanishini, turli musobaqalarda, bellashuvlarda, paralimpiya o'yinlarida muvaffaqiyatli ishtirok etishini keltirishimiz mumkin.

Adaptatsiyaning yana bir turi – ijtimoiy-madaniy moslashuv – imkoniyati cheklangan shaxslar bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish orqali ularni madaniy va ma'naviy-ma'rifiy boyliklarga bahramand etishdir. Imkoniyati cheklangan insonlar badiiy ijodning turli sohalarida – adabiyot, qo'shiqchilik, teatr, amaliy san'at turlarida o'zlarini faol namoyon etishadi. San'atning tabiatida psixoterapevtik va rivojlantiruvchi imkoniyatlar mujassamlangan. Shuning uchun art-terapiya ijtimoiy-madaniy adaptatsiyaning eng ta'sirli vositalaridan biri deb hisoblanishi mumkin.

Art-terapiyaning turlaridan biri – raqs terapiyasi bo'lib, u insonning tana harakatlarini va his-tuyg'ularini faollashtiradi.

Ilk bor raqsni reabilitatsiya vositasi sifatida qo'llash XX asrning 60-yillarida Shvetsiyada boshlangan. O'sha yillarda Avstriyalik xoreograf Xilda Holger Daun sindromiga chalingan o'g'li bilan raqs mashg'ulotlarini bilan shug'ullangan.

1990-yillardan boshlab, Rossiyada integratsiyalash-tirilgan bal raqsi mushak-skelet tizimi jarohatlangan shaxslar uchun adaptatsiya vositasi sifatida qo'llanib kelgan.

Integratsiyalashgan jamoalar, odatda, nogironlikning bitta turiga: mushak-skelet tizimi yoki ko'rish, eshitish, asab xastaligiga chalingan shaxslar uchun mo'ljallangan ixtisoslashgan internatlar yoki reabilitatsiya markazlarida tashkil etiladi. Bunday jamoalarda odamlar bir-biri bilan tezroq aloqa o'rnatadi, biri-birini yaxshiroq tushunadi. Muayyan ijod turini osonroq egallashlari maqsadida ular uchun maxsus metodikalar ishlab chiqilmoqda. Misol uchun, O'zbekistonda eshitish qobiliyati buzilgan bolalar uchun mo'ljallangan bir qator raqs jamoalari muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelishmoqda. Xususan, Toshkent shahridagi

101-sonli kar bolalar uchun ixtisoslashgan maktab-internatda raqs to'garagi mavjud<sup>4</sup>.

Xoreograflarning kar yoki eshitish qobiliyati past bolalar bilan ishlash metodikasi bir necha yil mobaynida muvaffaqiyatli qo'llanib kelinmoqda. Kar-soqovlar musiqani eshitishmaydi, lekin uni vibratsiyasi va ritmini sezishadi. Raqsda harakatlar kombinatsiyaga birlashadi, kombinatsiyalar figuralarga birlashadi.

Har bir kombinatsiya va figuraga raqam beriladi. Raqs ijro etilayotgan vaqtda rahbar raqqosga raqam ko'rsatib, harakatlar ketma-ketligini ijro etilishida adashmaslikka yordam beradi. Afsuski, raqqoslar raqs musiqasidagi emotsional his-tuyg'ularni plastik vositalar yordamida ifoda etolmaydi.

Toshkent shahrida 30 yildan ortiq davr mobaynida nogironlikning turli shakllariga chalingan insonlarni o'ziga birlashtirgan integratsiyalashgan ijodiy jamoa – "Lik" harakatlar teatri faoliyat yuritib kelmoqda. Uning tashkilotchisi va rahbari Lidiya Pavlovna Sevastyanova. Teatrning raqs spektakllarida ko'zi ojiz va kar-soqov bolalar, turli xil ruhiy-nevrologik hastaliklarga, bolalar serebral paralichiga, oligofreniya sindromiga va o'sishi to'xtagan nogiron bolalar ishtirok etishadi. Bu yerda Toshkent Yoshlar teatrining professional aktyorlari va studiyachilari ham ijodiy faoliyat yuritishadi. Teatrda jami 40 nafar ishtirokchi birlashgan.

"Lik" teatri aktyorlari o'zlari uchun zamonaviy, shakli bo'yicha yorqin plastik improvizatsiya texnikasini tanlab olishgan. Mazkur texnika maxsus toifadagi aktyorlarning jismoniy imkoniyatini va ichki his-tuyg'ularini hisobga olish imkoniyatini yaratadi, shu bilan birga, raqsga singdirilgan chuqur g'oyalarni ifodalaydi.

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun madaniy-rivoj-lantiruvchi markazlar tashkil etish va u yerda asosiy e'tiborni xoreografiya san'atiga qaratish – bu davlat va jamiyat oldidagi o'z yechimini kutayotgan muhim insonparvarlik vazifalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qaroriga binoan ijtimoiy tenglikni tiklash va imkoniyati cheklangan bolalarning vaqtlarini samarali taqsimlash, salomatliklarini doimiy nazorat qilib borish bosh maqsad qilib olingan. Bundan tashqari Prezidentning 2020-yil 13-oktyabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarori qabul qilindi. Unda 2020–2025-yillarga xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi, 2020–2021-yillarda uni amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" hamda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'limini 2025-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlandi.

Bir necha yillardan so'ng barcha viloyat tumanlarida imkoniyati cheklangan bolalar uchun ushbu xoreografiya kurslari tashkil etib, ularning nafaqat salomatliklarini tiklashga, balki quvonchlariga quvonch qo'shish istagi-damiz.

<sup>4</sup> Комарова О.К. Роль танцевального искусства в социо-культурной адаптации людей с ограниченными возможностями. Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy hamkorlik istiqbollari // Halqaro ilmiy – amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent; 2017. -B. 210.



*V I BO' LIM*

**KO'NGIL SO'ZLARI**

Narziddin SHERMATOV,  
O‘zDSMI “Sahna harakati va jismoniy madaniyat” kafedrasida dotsenti

## MALAKALI MUTAXASSIS – TA’LIM TARAQQIYOTI OMILI

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola institutda faoliyat olib borgan O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, dotsent Sevilya Rifatovna Tanguriyevaning yorqin xotirasiga bag‘ishlanadi. S.R. Tanguriyevaning o‘zbek raqs san‘atiga kirib kelishi, ijodiy faoliyati va san‘at ta‘limida o‘ziga xos o‘rni xotirlanadi.*

**Kalit so‘zlar:** *baletmeyster, ijrochilik mahorati, pedagog, intellekt, ilmiy ijod, badiiy ijod, ta‘lim berish, tarbiyalash, rivojlantirish, metod, interfaol usullar, aktyor, ustoz, san‘at, spektakl, teatr, rol, repertuar, obraz, kafedra.*

Narziddin ШЕРМАТОВ,

доцент кафедры “Сценическое движение и физическая культура” ГИИК Уз

## КВАЛИФИЦИРОВАННЫЙ СПЕЦИАЛИСТ – ФАКТОР РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАНИЯ

**Аннотация:** *Статья посвящена светлой памяти, педагога работавшей в институте, заслуженной артистки Узбекистана, доцента Севильи Рифатовны Тангуриевой. Вспоминаются первые шаги С.Р. Тангуриевой в узбекское танцевальное искусство, ее творческая деятельность и ее особое место в художественном образовании.*

**Ключевые слова:** *хореограф, исполнительское мастерство, педагог, интеллект, научное творчество, художественное творчество, обучение, воспитание, развитие, метод, интерактивные методы, актёр, искусство, спектакль, театр, роль, репертуар, образ, кафедра.*

Narziddin SHERMATOV,

Associate Professor of the chair of “Stage Movement and Physical Culture” USIAC

## A QUALIFIED SPECIALIST IS A FACTOR OF EDUCATION DEVELOPMENT

**Annotation:** *The article is dedicated to the blessed memory of the Honored Artist of Uzbekistan, Associate Professor Sevilla Rifatovna Tangurieva who worked at the Institute. The entry of S.R. Tangurieva into Uzbek dance art, her creative activity and her special place in art education.*

**Key words:** *choreographer, performing skills, teacher, intelligence, scientific creativity, artistic creativity, training, education, development, method, interactive methods, actor, teacher, art, performance, theater, role, repertoire, image, department.*

2020-yil 30-oktabr kuni “Hammamiz aziz farzandlarimiz hayoti va taqdirini o‘qituvchi va murabbiylarga ishonib topshiramiz. Mana shunday beqiyos bo‘lylik posbonlari, kelajak bunyodkorlari bo‘lgan bu mo‘tabar zotlarga munosib hurmat-ehtirom ko‘rsatishimiz kerak, – dedi davlatimiz rahbari<sup>1</sup>. Shunday e‘zoz va ehtiromga loyiq bo‘lgan, o‘zbek raqs san‘atini shakllanishi va uning ravnaqi yo‘lida fidokorona mehnat qilgan ustoz va murabbiylarni eslab o‘tishni joiz deb hisoblaymiz.

– Yaxshi o‘qituvchi o‘quvchisining qobiliyatlarini so‘nggi chegarasigacha rivojlantiradi. Buyuk o‘qituvchi esa bu chegarani bir qarashdayoq ko‘ra oladi, – degan ekan Iogann Gyote Bundan kelib chiqadiki, o‘qituvchilar har bir talabaga o‘z ta‘sirini o‘tkaza olish texnikalaridan foydalansa, bu albatta o‘z samarasini beradi. Qobiliyatini bir ko‘rishdayoq ko‘ra olgan o‘qituvchi o‘z talabasining kelajagi uchun qayg‘uradi va ta‘lim-tarbiya yo‘lini to‘g‘ri belgilab oladi.



Sevilya Tanguriyevani o‘z ustida ishlashdan charchamaydigan, shogirdlari kelajagi va maqsadi uchun kurashadigan, ularga yangi bilim va zamonaviy metodlarni qo‘llagan holda fanni chuqur o‘rgatishda doim izlanishda bo‘lgan, keng fikrlovchi, zamonaviy pedagog kabi sifatlar egasi bo‘lgan. Tanguriyeva O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutida 1990-yildan 2012-yilgacha fidokorona mehnat qilib, ko‘p shogirdlar tarbiyalab, o‘zbek madaniyatining rivojiga ulkan hissa qo‘shgan, fidoyi pedagog, mehnatsevar inson edilar.

U 1937-yil 25-yanvarda Qrimdagi Bog‘cha Saroy shahrida musiqachi oilasida tug‘ilgan. Tahlakali, be-yov 1937-1938-yillarda jajji Sevilya onasi bilan O‘zbekistonning Asaka shahrida qo‘nim topadi. Ona ham qiyinchiliklar girdobida qolib bu dunyoni erta tark etdi. Sevilya Asakadagi 20-mehribonlik uyida tarbiyalanadi. Unda san‘atga nisbatan kuchli ishtiyoq bo‘lgani bois bolalar uyi qoshida tashkil etilgan havaskorlik to‘garagiga qatnashdi. Mehribonlik uyi tarbiyachilari unda san‘atga nisbatan kuchli musiqa va raqsga bo‘lgan moyillikni sezishadi. 1947-yilda Toshkent shahrida o‘tkazilgan bolalar olimpiadasida qatnashib, “Sho‘x qizcha” raqsini ijro etadi va u yerda ishtirok etgan ustoz san‘atkorlardan

<sup>1</sup> “Mamlakatimizda ta‘lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari” muhokamasi bo‘yicha Prezident Sh.M.Mirziyoyev raisligida o‘tgan videoselektordagi nutqid. // Xalq so‘zi. –2020. 30-oktabr.

Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Zinaida Afanasevalar Toshkent xoreografiya bilim yurtiga o'qishga olib qolishadi.

1955-yili bilim yurtini tamomlab, Navoiy nomidagi Katta Akademik opera va balet teatriga balet artisti lavozimiga ishga qabul kilindi. Yosh Sevilyadagi shijoat, mehnatsevarlik o'z mevasini berdi.

1957-1978-yilgacha Sevilya Tanguriyeva Navoiy nomidagi opera va balet teatrida sermahsul ijod qildi. Teatrdagi qo'yilayotgan balet spektakllarida bosh partiyalarni ijro etib, xalq mehriга sazovor bo'ldi. Jahon klassik baletining eng yuqori repertuarlaridan o'rin olgan hamda ijrochidan yuksak mahorat va tinimsiz mehnat talab qiladigan "Don Kixot", "Baxt sohili", "Semurg", "Kopeliya", "Doktor Aybolit", "Don Juan", "Spartak", "Jizel", "Oq qush ko'li", "Uyqudagi go'zal", "Shelkunchik" kabi baletlarda partiyalar ijro etgan.

Sevilya Tanguriyeva klassik balet ijrochisi bo'libgina qolmay, yoshligidan o'zbek milliy raqslariga kuchli muhabbat qo'ygani bois milliy raqslarni ham mohirona ijro etib, o'zbek raqs tarixi sahifalarida mangu muhrlanib qolgan. Ustozi M.Turg'unboyeva sahnalashtirgan "Tanovar", "Jonon", "Pilla", "Shabbodalar", "Nozik tabassum" maromiga yetkazib ijro egan. 1957-yil Sevilya bir guruh o'zbek san'atkorlari bilan Moskvada bo'lib o'tgan Xalqaro Yoshlar VI festivalida muvaffaqiyatli qatnashadi. Sahnaga Mukarrama Turg'unboyeva sahnalashtirgan "Pilla" raqsini olib chiqib jozibador, jo'shqin raqsi orqali muxlislarni sehrlab qo'yadi. Olqishlarga sazovor bo'lgan Sevilya O'zbekistonga oltin medal va laureatlik diplomi bilan qaytadi.

1958-yili hamkasbi Rajab Tanguriyev bilan turmush qurdi va hayoti davomida ibratli oila sohibasi bo'ldi. 1960-1975-yillar S.Tanguriyeva gastrol safarlar bilan O'zbekiston san'atini dunyoga tanitadi. Yosh Sevilya Angliya, Hindiston, Vengriya, Bolgariya, Polsha, Fransiya, Rossiya, Qozog'iston, Koreya, Xitoy, Misr, Efiopiya, Liviya, Iordaniya kabi davlatlarda bo'lib ko'p muxlislarni orttirdi. Ijodiy faoliyati davomida o'z davrining mashhur xofizlari, yetuk madaniyat namoyondalari bo'lgan Komiljon Otaniyozov, Tavakkal Qodirov, Qahramon Dadayev, Galiya Izmaylova, Bernora Qoriyeva, Muxtor Ashrafiy, Ibrohim Yusupov, Qunduz Mirkarimova, Ergash Yo'ldoshev, Tamaraxonim, Xalima Nosirovalar bilan ko'p muloqotda bo'lib ularning ijodiy tajribalarini o'rgangan. "Bahor" ansamblining asoschisi va rahbari bo'lgan Mukarrama Turg'unboyeva bilan ijodiy hamkorlik asnosida o'zbek raqslarini ijro etish sirlarini o'rgangan. S.Tanguriyeva ijro etgan raqslarning

aksariyatini Xalq artistlari Mukarrama Turg'unboyeva, Isohor Oqilov, Roziya Karimova kabi mashhur raqs darg'alari sahnalashtirgan. Tinimsiz mehnati davlatimiz tomonidan munosib taqdirlanib, 1967-yil Sevilya Tanguriyevaga "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" unvoni berildi.

1978-yili Moskva Xoreografiya bilim yurti qoshida tashkil etilgan malaka oshirish kursida S.Golovkina, N.Tolstaya, O.Ilina kabi mashhur pedagoglardan bilim, tajriba o'rgandi va mahoratini oshirib qaytdi.

1979-yildan boshlab S.Tanguriyeva Toshkent xoreografiya bilim yurtida pedagog sifatida ishlay boshladi.

1990-yildan Sevilya Tanguriyeva San'at institutining "Sahna harakati va raqs" kafedrasida pedagogik faoliyatini davom ettirdi. "Aktyorni plastik jihatdan tarbiyalash nafaqat sahna harakatlari bo'yicha, balki raqs orqali ham amalga oshiriladi. Raqslar mayinlik, kenglik, imo-ishoradagi muloyimlikni o'zgartirishga xizmat qiladi"<sup>2</sup>. Institutdagi ishni aktyorlik san'ati talabalari uchun raqs fani dasturini takomillashgan shaklda ishlab chiqishdan boshladi. Raqs san'atining asosi hisoblanuvchi mumtoz raqs talabalariga o'zbek merosiy raqs durdonalaridan hisoblanmish "Pilla", "Jonon", "Nozik tabassum", "Larzon", "Sho'x qiz" kabi yakka raqslarni o'rgatib, talabalar va o'qituvchilarning tiboriga tushdi. S.Tanguriyeva talabalar bilan ishlashda o'z o'qitish uslubini tadbiiq qildi. Ammo faqatgina uslub bilan ilm berib bo'lmaydi, shu uslubni o'ziga singdirgan, katta tajribaga ega shaxsgina bilim bera oladi<sup>3</sup>. Talabalariga raqsni jonlantirish, uni gapirtirish va raqs orqali rol ijro etish texnikasini o'rgatdi. Talabalarning organikasi va plastikasi S.Tanguriyevaning serqirra ijod yo'lida orttirgan tajribalari asosida shakllanib va sayqallanib bordi. Shu bilan birga ilmiy va pedagogik faoliyatini teng ravishda olib bordi. Musiqa va san'at maktablari xoreografiya bo'limlari uchun dastur tayyorlagan "Tarixiy-maishiy raqs" o'quv uslubiy qo'llanma va "Galiya Izmaylova" nomli monografiyasini nashr ettirdi. Bundan tashqari, raqs san'ati muammolari haqida bir qancha ilmiy maqolalari bilan anjumanlarda ishtirok etgan.

O'zbekiston davlat San'at institutida 22 yil fidokorona mehnat qilgan S.Tanguriyevaga 2004-yilda "dotsent" ilmiy unvoni berildi. Sevilya Rifatovna Tanguriyeva 2012-yil 75 yoshida bu olamni tark etdi. Ammo ustozning hayotiy va pedagogik tajribalari ko'p yillar davomida ortidan qolgan shogirdlariga namuna va o'rnak bo'lib qoladi.

<sup>2</sup> Abdullayeva M. Sahna mahorati maktabi. – Toshkent: 2008. – B.12.

<sup>3</sup> N.E.Abraykulova. "Ustoz xotirasi abadiy", O'zDSMI xabarlari, 2020-yil, 4(16), 74-bet.

## XALQ QALBIDAN O'RIN OLGAN IJODKOR

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada xushovoz, zabardast hofiz, yetuk bastakor, xalqimizning sevimli lirik xonandasi, kamtarin, barchaga namunali va ibratli inson, O'zbekiston xalq artisti Kamoliddin Rahimovning bosib o'tgan mazmunli hayot yo'li va samarali ijodi xususida atroficha fikr yuritilgan. O'zining betakror ovozi, sozi bilan o'zbek qo'shiqchilik san'atimizda o'chmas iz qoldirganligi, millionlab muxlislarning qalbini zabt etib, o'zbek qo'shiqchilik san'atida o'ziga xos maktab yaratishdagi sa'y-harakatlari, intilish va izlanishlari haqida ma'lumotlar taqdim qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *betakror ovoz, ma'naviy boylik, ijodiy faoliyat, haqiqiy san'at, xonanda merosi, nomdor san'atkorlar.*

Нодирбек ХАЙРУЛЛАЕВ,  
преподаватель кафедры "Песни и танец" ГИИК Уз

## ЛЮБИМЫЙ НАРОДНОМ ПЕВЕЦ

**Аннотация.** *В статье рассказывается о содержательной и плодотворной жизни и творчестве народного артиста Узбекистана Камолитдина Рахимова, веселого, талантливого певца, великого композитора, любимого лирического певца нашего народа, скромного, образцового человека. Его уникальный голос и слова оставили неизгладимый след в певческом искусстве, покорила сердца миллионов поклонников, дается сведения о его усилиях, стремлениях по созданию уникальной школы узбекского певческого искусства.*

**Ключевые слова:** *уникальный голос, духовное богатство, творческая деятельность, настоящее искусство, наследие певца, известные артисты.*

Nodirbek XAYRULLAYEV,  
teacher of the chair "Song and Dance" of the USIAC

## A CREATOR IN THE HEART OF THE PEOPLE

**Annotation.** *This article discusses the meaningful and fruitful life and career of the People's Artist of Uzbekistan Kamoliddin Rakhimov, a cheerful, talented singer, a great composer, a beloved lyric singer of our people, a humble, exemplary and exemplary person. His unique voice and words have left an indelible mark on our Uzbek singing art, capturing the hearts of millions of fans and his efforts, aspirations and research to create a unique school in the Uzbek singing art. information is provided.*

**Keywords:** *unique voice, spiritual wealth, creative activity, real art, singer's legacy, famous artists.*

Qadimdan, xalqimizning madaniyatini, ma'naviyatini yuksaltirishda milliy musiqamiz va ashularimiz ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ajdodlarimiz musiqa va qo'shiqchilik san'atining inson shaxsini kamol toptirish, olijanob insoniy fazilatlarini tarbiyalashdagi hissasini yuksak baholashgan. Bu meros asrlar davomida yangi-yangi to'ldirilgan ijrolar bilan sayqallanib boravergan. Xalqimiz o'zining ulug' siymolarini hech qachon unutmaydi. Shu bois, mamlakatimizda so'nggi yillarda musiqiy madaniyatimizni yangi bosqichga olib chiqishda, o'tgan ulug' ustozlarimizning ijodi va faoliyatini, ularning o'ziga xos betakror ijrochilik mahoratini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish uchun katta imkoniyatlar yaratildi. Prezidentimiz tashabbusi bilan milliy qo'shiqchilik san'atini ravnaq toptirish, uning an'ana hamda maktablarini boyitish, bu yo'lda samarali mehnat qilgan ijodkorlar xotirasini hurmatlash, ijodiy faoliyatini keng targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan ta'kidlanganidek, "Biz ajdodlarimizning yorqin xotirasini asrab-avaylab, qalbimizda, yuragimizda abadiy saqlaymiz. Bukilmas iroda, fidoyilik va jasorat namunasini amalda namoyon etib, o'z hayotini aziz Vatanimizning har tomonlama

ravnaq topishiga bag'ishlagan ustoz va murabbiylarimiz, zamondoshlarimiz bilan biz cheksiz faxrlanamiz"<sup>1</sup>. Darhaqiqat, bugun turli sohalar kabi san'at ham taraqqiy etyapti. Ijrochilikda ham, qo'shiqchilikda ham imkoniyatlar bisyor. Ilgari mamlakatimiz bo'yicha bittagina ovoz yozish studiyasi bo'lardi. Qo'shiq yozish uchun respublika radiosiga borib, navbatga turishar edi.

Bir dona qo'shiq dunyoga kelguncha bir necha oy vaqt ketar edi. Hozir zamonaviy uskunalariga ega bo'lgan ko'plab xususiy ovoz yozish studiyalari mavjud. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning san'atga bo'lgan e'tiborlari katta bo'lganligi bois, ayni vaqtda mamlakatimizda yosh qo'shiqchilar uchun kechayu-kunduz o'z ustida ishlab, tinimsiz ijod qiladigan, yashirin iqtidorini namoyish etishlari uchun katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Demak, o'z navbatida, yoshlarimiz ustoz-shogird an'analriga sodiq qolishlari, buyuk san'atkorlar hayoti va faoliyati haqida bilishi kerak. Shunda estradamizning achinarli holati, qo'shiqchi yoshlarning yengil-yelpi shuhratga o'chligi, san'atga haminqadar munosabatda bo'layotganini oldini olishga erishish mumkin. Toki bu yorug' xotiralar yoshlarni haqiqiy san'atni sevishtga, azaliy qadriyatlarini ulug'lashga chorlashi, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini mavjlantirishi bilan e'tiborga molik.

O'zbekiston xalq artisti, o'zbek madaniyati va san'atini dunyo miqyosida keng tarannum etgan, ijodiy faoliyati bilan xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishga beqiyos hissa qo'shgan buyuk san'atkor Kamoliddin Rahimovning ham ijodiy merosi har birimiz uchun qadrlil va ardoqlidir. Ustoz

<sup>1</sup> Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Erkin va farovon, demokratiya O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. Toshkent: "O'zbekistan" NMIU, 2016. – B. 56.

san'atkorning "Agar oshiqligim aytsam", "Ona", "Nargiz", "Kuygay", "Tokay", "Dahr aro", "Qaydasan", "Tortadur", "Yarashmas", "Dildorim erursan" va boshqa o'nlab qo'shiqlari kirib bormagan o'zbek xonadoni bo'lmasa kerak. Uning qo'shiqlaridagi she'rlar sodda, samimiy so'zlardan tuzilgan. Kamoliddin aka shu sodda so'zlarga sehrli musiqa va betakror ovozi bilan qanot bag'ishlab yuborgan. Bu esa aytilajak ashuladagi har bir so'zni ma'nosini sinchkovlik bilan o'rganilganidan dalolat beradi. Shuning uchun u kishining qo'shiqlarini eshitganingizda, har bir so'zning joni borligini his etib turasiz. "She'riy matn va musiqaning ma'lum badiiy mazmuni faqat bizning ongimizga ta'sir ko'rsatib qolmay, hissiyotlarni ham uyg'otadi. Kuylayotgan xonandada badiiy hissiyot vujudga keladi. Bu hissiyot nihoyatda yorug' va yorqin bo'lganidagina tinglovchilar qalbida o'z aksini topadi. Shundagina tinglovchilar ijro etilayotgan asar obrazlariga mehr qo'yishadi"<sup>2</sup>.

Kamoliddin Rahimov o'zbek qo'shiqchilik san'atida o'ziga xos bir maktab yaratib ketgan. Nazarimizda, u hamon o'zining o'lmas qo'shiqlari bilan mahorat darsini o'tishda davom etmoqda. Uning shunday kuy-qo'shiqlari borki, ular bir-ikki emas, minglab, millionlab insonlarning shodligiga sherik, dardlariga malham bo'ladi. Bunday kuy-qo'shiqlarni mumtoz asarlar deb ataymiz. Mumtoz kuy-qo'shiqlarni har qanday san'atkorlar ham maromiga yetkazib ijro eta olmaydi. Buning uchun chinakam iste'dod sohibi bo'lish lozim. "O'zbek milliy musiqa san'ati xilma-xil janrlar, yo'nalishlar va ijrochilik uslublari boy bo'lib, milliy qadriyatlar, an'analar hamda xalqning ma'naviy tafakkuri negizida zamon bilan hamohang tarzda sayqal topib kelgan. Bu bebaho meros o'tmishdagi hassos bastakorlar, mohir sozandalar va zabardast xonandalarning ijod mahsuli sanalib amaliyotda ularga xos ijrochilik an'analari, turli xil lokal (mahalliy) uslublari paydo bo'lgan va rivojlanib kelgan"<sup>3</sup>.

Kamoliddin Rahimovning ijro yo'nalishini tanlagan va mashaqqatlardan cho'chimay astoydil intilgan ijodkor, albatta, xalqning olqishini oladi. Endigina ekilgan navniholni parvarishlab, voyaga yetkazish va meva beradigan ulkan daraxtga aylantirishda bog'bon uchun qancha mehnat, qancha sabr-u toqat kerak bo'ladi! Uztozlar mehnati esa undan ham mas'uliyatli, undan ham nozik. Chunki u inson kelajagi, taqdiri bilan bog'liq. Kishilar hayotining ajralmas bir bo'laki sifatida shakllanib kelayotgan ohanglarda ajib bir go'zallik yashaydi. "Milliy musiqa merosimizni shakllanishi, ravnaq topishi va ularni bugungi kungacha yetib kelishida o'zlarining fidokorona mehnatlari hamda samarali ijodlari bilan ulkan

hissa qo'shgan ustoz san'atkorlarning ijro maktablari va uslublari hozirgi zamon musiqa san'ati sohasida yosh ijrochilarni tarbiyalash uchun ibratli qo'llanma sifatida foydalanib kelinmoqda"<sup>4</sup>. Davrlar silsilasida o'ziga turfa xildagi xususiyatlarni mujassamlashtirgan musiqa san'ati jamiyat taraqqiyotida ham munosib ulush qo'shgan, deya olamiz.

Demak, hech qanday e'tirozlarga o'rin qoldirmagan holda biz musiqani inson jismiga jon baxsh etgan mo'jizaga mengzay olamiz. "Musiqaning tarixiy shakllanish jarayoni dastlab, tabiat hamda tevarak-atrofdan sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni tushunishga harakat qilishga bo'lgan ehtiyoj sifatida ilk mifologik tassavurlar ta'siri ostida kechib, keyinchalik koinat boshchiligidan o'tkaziladigan turli marosimlarning ruhiy-ma'naviy oziq manbaiga aylangan. Musiqaning takomillashuvi shaharlar madaniy hayotining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, uning ildizlari eramizdan avvalgi ikkinchi ming yillik oxiri birinchi ming yillik oxiri va birinchi ming yillik boshlariga borib taqaladi"<sup>5</sup>.

Musiqa va san'at inson ongiga ta'sir etib, uning barkamol rivojlanishiga xizmat qiluvchi omil bo'lsa, shu bilan bir qatorda, u kayfiyatni ko'tarinki qiluvchi, qalb va ruhni poklovchi hayotbaxsh vositadir. Musiqaning san'atga o'zgacha mehr qo'ygan ajdodlarimiz xalq yo'lida kuylanadigan milliy qo'shiqlarni maromiga yetkazib ijro etishgan. Shu bois, dunyo ahli bizni qo'shiqsevar, asl iste'dodlarni qo'llab-quvvatlaydigan xalq sifatida e'tirof etadi. Albatta, bundan faxrlansak arziydi. Qanchadan-qancha buyuk san'atkorlarimiz o'zlarining bebaho ijodiy mahsulotlarini tarix sahifalarida zarhal harflar bilan bitib ketganlar. Kamoliddin Rahimov ham mas'uliyat, izlanish, ijodga sadoqatda, muxlislarga hurmatda chinakam ibratdir.

Shu o'rinda, mamlakatimizdagi jurnallarning birida nashr etilgan Kamoliddin Rahimovning fikrlarini keltirishni joiz bildik:

– San'atga qiziqishim maktab chog'laridan boshlangan. To'rtinchi sinfda o'qib yurgan paytlarim dutor to'garagiga qatnadim. Birinchi ustozim Jo'ra mashshoq Boyxonov tanbur, dutor, rubob, doira chalishni o'rgatganlar. Shu tariqa 10-sinfni tugatgan paytim binoyidek sozanda bo'lib qolgandim. 1960-yildan 1971-yilgacha Namangan shahar madaniyat uyi qoshidagi ashula va raqs xalq ansamblida oddiy ishtirokchidan jamoa rahbari lavozimiga qadar ishladim. O'ylab qaragam, ana shu ansambl men uchun juda katta ijodiy maktab bo'lgan ekan. Bu yerda Nasriddin Majidov, Tojiali Olimov, Abdurashid Vohidov kabi ustozlardan san'at sirlarini o'rgandim. 1972-yildan 1998-yilgacha Namangandagi Alisher Navoiy nomidagi musiqali teatrdan yakxaxon xonanda sifatida xizmat qildim. Teatr va musiqa ijod yo'lida egizaklar kabi hamroh bo'ldi. Ko'p yillar davomida ikki san'at yo'nalishini uyg'un holda olib bordim. Men uchun san'atda yuksalish davri teatrdan kechdi. Bu dargohda Muhriddin Mansurov, Sobirjon Rahmonov, Mamatxon Ubaydullayev kabi xalq artistlari bilan ishladim. O'sha yillari o'zbek qo'shiqchilik san'ati hamda teatrining eng kuchga to'lgan davri edi. Habiba Oxunova, Tursunoy Mamedova, O'rinboy Nuraliyev, Turdiali Saydullayev kabi san'atkorlar bilan birgalikda sermahsul ijod qildik. Har yili televideniye orqali yangi konsert dasturlari berardik.

<sup>2</sup> Muhammadali Mirabdullayev. Vokal asoslari fanida ovoz sozlash mashqlari va maktab repertuari. O'quv qo'llanma. Namangan, – 2009

<sup>3</sup> Muhammadali Mirabdullayev. Vokal asoslari fanida ovoz sozlash mashqlari va maktab repertuari. O'quv qo'llanma. Namangan, – 2009.

<sup>4</sup> Qodirov N. Maqom cholg'u ijrochiligi (G'anjion Toshmatovning ijodi misolida). O'quv qo'llanma. – T.: "Musiq", 2020.

<sup>5</sup> Madrimov B.X. O'zbek musiqa tarixi. (5111100 musiqiy ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan). – Toshkent, "2016. – B.121.

Bugun u kishining yo'lini davom ettirayotgan ijodkorlar ham ustozlariga munosib bo'lishga harakat qilishi lozim. San'atning asosiy vazifasi inson ma'naviy ruhiyatiga ta'sir etishdan iborat. Bu esa san'atkorning o'zidan yuksak ma'naviyatni talab qiladi.

“San'at sohasida uch toifa xonanda bor. Biri o'zi qo'shiq yaratadi, ikkinchisi qo'lidan kelmagani uchun bastakorlar yozgan qo'shiqni kuylaydi. Uchinchi toifa xonandalar esa qaysi qo'shiq daromad olib kelsa, o'shanga o'zini uradi. Lekin hech kim e'tirof etmasa ham kasbiga fidoiy qoladiganlar topiladi. Men o'zimni shu toifaga qo'shaman”, – degan edi Kamoliddin Rahimov suhbatlarimizning birida. O'zi haqida bildirgan bu fikridan hofizning naqadar kamtarin inson ekani, kasbiga majburiyat emas, ko'ngil amri bilan yondashishini anglash qiyin emas. Ustoz san'atkor ellik ikki yil kuy chalib, qo'shiq kuylab, xalqning nafaqat e'tibori, e'tirofi, e'zozi, balki qalbining to'ridan o'chmas, mustahkam o'rin egallashga ulgurgandi.

Darvoqe, Kamoliddin Rahimov 1943-yil 12-yanvarda Namangan shahrida ishchi oilasida dunyoga kelgan. Otasi paxta zavodida ishchi, onasi uy bekasi edi. Kamoliddin Rahimov oiladagi ikki o'g'il, to'rt qizning orasida to'ng'ich farzand bo'lgan. 19-umumta'lim maktabida o'qiyotgan kezlari badiiy-havaskorlik to'garaklariga qatnashgan. Namanganda dong taratgan usta doyrachi Tojiali akadan doyra chalish sirlarini o'rgangan. “Amakim taxtaga sim tortib, tor yasab berardi. O'zim ham konserva bankalarini muqom qilib chalardim-da”, – deya bolalik xotiralarini yuzda tabassum bilan eslardi Kamoliddin Rahimov.

U kishi kelajakda san'at maydonida mustahkam o'ringa ega bo'lish uchun ustoz san'atkor Vahobjon Abdullayevga shogird tushib, tor chalish, Abdurashid Vohidovdan qo'shiq kuylash sir-asrorlarini o'rganishga jiddiy kirishgan. 1963-yilda Toshkentga kelib, Hamza nomidagi musiqa bilim yurtida tahsil olgan. So'ngra, (avvalgi Toshkent davlat madaniyat) hozirgi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutini tamomlab, ish faoliyatini Madaniyat uylarida oddiy musiqachilikdan boshlab, rahbar lavozimlarida ham ishlagan. Poytaxtda ilk bor “Hargiz” qo'shig'i bilan tilga tushgan Kamoliddin Rahimov Namangandagi Alisher Navoiy nomidagi musiqali drama teatrida ishlab, 1998-yili nafaqaga chiqqan. Suhbatlarimizning birida “nafaqaga chiqqan bo'lishimga qaramay, lozim bo'lsa teatrga borib turaman. Turli kechalar ham tashkil qilaman”, – degan edi. Vaqtni behuda sarflamay, unumli foydalangani va to'g'ri taqsimlay olgani bois ham poytaxtdagi, ham Namangandagi ijodiy ishlarga birdek ulgura oladigan mehnatsevar ijodkor bo'lgan.

Mustaqillik yillarida alohida ijrochilik salohiyatiga ega bo'lgan zamonaviy estrada musiqasi va qo'shiqchiligi bugungi kunda ustoz-shogird an'analari asosida rivojlanib bormoqda. Lekin bironing bir ikkita qo'shiqlarini maromiga yetkazib aytib qo'yish bilan o'zini shogird sanasa ham to'g'ri bo'lmaydi. Yoki biror ko'zga ko'ringan hofizning katta davralarda falonchi mening shogirdim, – degani bilan ustoz-shogirdlik vujudga kelib qolmaydi. San'atkorga musiqa asbobini qanday tutish yoki chalishni o'rgatishning o'zi ustozlik hisoblanmaydi. Ustozlik – sahnada o'zini tutish, ijro mahoratini shakllantirish, ijro mazmunini e'tiborda tutish, tinglovchiga nisbatan ehtiromni ijro orqali yetkaza olish kabi ko'nikmalarni rivojlantirish, shogirdiga singdira bilishda namoyon bo'ladi. Shogird ham o'z navbatida, ustozning eng nozik xususiyatlaridan, san'atkorona mahoratidan, xulq-atvoridagi ko'ngilga yaqin jihatlaridan bahramand bo'la olishi lozim.

Musiqa bilan shug'ullanishni istagan yoshlarni o'z vaqtida qo'llab-quvvatlasak, qobiliyatini yuzaga chiqishiga ko'maklashgan bo'lamiz. U o'zining bor kuchini yaxshi qo'shiqlar yaratishga sarflaydi. Qalbida mehr-shafqat tuyg'ulari uyg'onib, insonga, go'zallikka, hayotga o'zgacha nigoh bilan qaraydi. Boshqacha aytganda, san'atni sevgan kishidan yomonlik chiqmaydi. San'atkor bo'lish uchun xudo bergan iste'dod kerak. Lekin bola har xil yo'llarga kirib ketgandan ko'ra, biror musiqa asbobini chalishni o'rgangani yaxshi emasmi? Boshqa kasbni tanlaganda ham do'stlari bilan biror qo'shiqni jo'rlikda xirgoyi qilgani qanday yaxshi?!

Bugun o'zbek oilalarida pianino, skripka chaluvchi bolalar ko'payib bormoqda. Xonadonlarda lapar, yalla, o'lanlar bilan birga, Bax, Shopen, Betxoven, Motsart, Chaykovskiy kabi jahon klassik kompozitorlarining mashhur asarlari yangrayotgani quvonarli hol. Yoshlarning ijodiy salohiyatini yanada keng ochish uchun beqiyos imkoniyatlar mavjud. Yaxshi kuy-qo'shiqlar orqali o'ziga xos ma'naviy qadriyatlarimizni ham ular qalbiga singdirish darkor. Shunda “ommaviy madaniyat” ta'siriga berilmasdan, o'z oldiga ulkan maqsadlar qo'yib yashaydi. Har qanday sharoitda ham to'g'ri yo'lni tanlay oladi.

Buning uchun ularda did, nafosatni his eta olish qobiliyati, intilish va mehnatsevarlik fazilatlarini mujas-samlashmog'i joiz. O'zbekiston xalq artisti Kamoliddin Rahimovning aytgan qo'shiqlari yangi avlod yakkaxon xonandalari, vokal cholg'u ansambllari, estrada yo'nalishidagi yoshlar tomonidan ijro etib kelinishi ustozning san'at sohasida tutgan mavqei juda bo'lganligidan dalolatdir.

Muslimbek YO‘LDOSHEV,  
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi,  
O‘zDSMI “Sahna nutqi” kafedrasining dotsenti vazifasini bajaruvchisi

## ZAMONAMIZ TAVADDUDI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘z davrining o‘ta salohiyatli va yuksak madaniyatli kishisi O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, Qirg‘iziston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi, O‘zbekiston davlat san‘at institutining “Sahna nutqi” kafedrasining sobiq mudiri, professori, san‘atshunoslik nomzodi, mahoratli pedagog, yoshlar murabbiysi Lola Xo‘jayeva va uning faoliyati haqida fikr-mulohaza yuritgan.

**Kalit so‘zlar:** ustoz, nafas, pauza, monolog, innovatsiya, diktir, kompozitsiya, trend, novator, kontsertmeyster, magnitola, riyoziyot, shatranj, kanizak, miting, farang

Муслимбек ЮЛДАШЕВ,  
Заслуженный работник культуры Республики Узбекистан,  
и.о. доцента кафедры «Сценическая речь» ГИИКУз

## ТАВАДДУД СОВРЕМЕННОСТИ

**Аннотация.** Эта статья о Лоле Ходжаевой – кандидате искусств, оведения профессоре, Заслуженном работнике культуры Республики Узбекистан, Заслуженном деятеле искусства Республики Кыргызстан, бывшей заведующей кафедрой «Сценической речи» Государственного института искусства и культуры Узбекистана, педагоге с большой буквы, высокоморальном человеке своего времени, о верной продолжительнице традиций преподавания «Сценической речи» начатой создателем этого предмета преподавания Народной артисткой Узбекистана Назирой Алиевой, о том что, Лола Ходжаева воспитала много учеников которые профессионально работают на телевидении, театральных площадках и в киноиндустрии.

**Ключевые слова:** учитель, дыхание, пауза, монолог, нововведение, рассказчик, композиция, тренд, новатор, концертмейстер, магнитофон, математика, шахматы, наложница, митинг, фаранг

Muslimbek YO‘LDASHEV,  
Honored Worker of Culture of the Republic of Uzbekistan  
Acting Associate Professor of “Stage Speech” of the USIAC

## TAVADDUD OF OUR TIME

**Annotation.** This article is about Lola Khujaeva – Candidate of Arts, Professor, Honoured Worker of Culture of the Republic of Uzbekistan, Honoured Worker of Art of the Republic of Kyrgyzstan, former Head of the Department of Stage Speech of the Uzbek State Institute of Arts and Culture, a Teacher with a capital letter, a highly moral person of her time.

It’s about her long-term effective leadership at the department “Stage speech” after Nazira Aliyeva as a follower of the teachers’ tradition.

It tells about the fact that Lola Khodjaeva has brought up the worthy followers who are engaged in creative work in theatre, cinema and television.

**Keywords:** teakher, breath, pause, monologue, innovation, announcer, innovator, cinemategrapher magnitola, mathematics, chess, concubine, meeting jarang

Bugungi kunda radio-televideniye, o‘zbek teatr san‘atida yetuk mutaxassis maqomida faoliyat ko‘rsatib, “O‘zbekiston xalq artisti”, “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist”, “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi”, “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiyi” kabi unvonlari bilan davlatimizning oliy e‘tiroflariga sazovor bo‘lgan taniqli ijodkorlarning san‘at va madaniyat dunyosidagi umr yo‘li, ular yaratgan betakror obrazlar va erishgan ulkan yutuqlari haqida fikr yuritir ekanmiz, har birining tag zamirida san‘atning tamal toshini qo‘ygan Toshkent teatr va rassomlik san‘ati instituti hamda unda uzoq yillar halol mehnat qilgan atoqli va ardoqli ustozlar mehnatini ko‘ramiz. Bugun so‘z san‘atida sahna nutqi fanidan ta‘lim bergan Nazira Aliyeva, Lola Xo‘jayeva, Sotimxon Inomxo‘jayev, Abdurahim Sayfutdinov, Muhammadjon Usmonovlarning pedagogik mahorati, o‘ziga xos uslubiy jihatlarini, ta‘lim va tarbiyadagi tajribalariga ehtiyoj seziladi.

1977-yilda institut tarixida birinchi marta “Nutq janri” guruhi ochilib, sahna nutqi va aktyorlik mahorati o‘qituvchisi etib Lola Xo‘jayeva tayinlandi. Guruh a‘zosi bo‘lishim hayotim mazmuni hisoblangan diktirlik kasbiga ilk qadamim edi. Anglasam, Lola Xo‘jayevadek ustozga shogird bo‘lish haqiqiy baxt ekan.

Lola Xo‘jayeva Moskvadan o‘z yurtiga yetuk mutaxassis, fidoyi san‘atkor bo‘lib qaytdi. Ular teatrdan ham, undan

keyingi pedagogik faoliyatida ham tanlagan yo‘liga sodiqlik ko‘rsatgan juda kirishimli, xushmuomalali, bilimliligi bilan odamlarni o‘ziga rom qiladigan inson edi. Dunyoqarashi keng, ba‘zan ayollarga xos bo‘lmagan qiziqishlari bilan hayratlantiruvchi tabiiylikni sevadigan inson edi.

– Kecha televizorda bir kino ko‘rdim. Ko‘rdinglarmi? Aktyorning yuzidagi ranglarni o‘zgarishini kuzatdinglarmi? Oppoq yuzi uyatdan qizarganini tomoshabin sezmasligi mumkin emas edi, axir. Qizargan yuzi qo‘rqinchdan bo‘zarib ketgani ham aniq-tiniq ko‘rindi. Ko‘zlarining oqigacha qizarib ketgani-chi?! Bu holatlarni o‘ynab bo‘lmaydi, aktyor makonda yashashi kerak, obrazini his qilishi kerak... (Bu gaplar O‘zbekistonda paydo bo‘layotan rangli televideniya endigina odamlar uyiga kirib borayotgan 1977- yildagi darslardan)

Bu so‘zlar shunchaki, televizordan olgan taassurotni so‘zlash emas, balki bo‘lajak sahna ustalarida, holatni qanday qilib to‘liq anglash va his qilish, obraz kechinmalarini qay yo‘sin bilan aktyorning chin kechinmalariga aylantira olishga qaratilgan navbatdagi mahorat darslardan biri edi. Aktyorning yuz-ko‘zi, qo‘l-oyog‘i gapirmay, hatto tili ham so‘zga kelmay turib, nafasining o‘zida, pauzaning o‘zida yarim monologini gapira olishi hodisasiga olib kelishga undash darslari edi.

“Lola opa dars jarayonida... jahon she‘riyati durdonalari va o‘zbek klassik adabiyoti namunalarini, bugungi o‘zbek

shoirlarining asarlaridan keng foydalanadi, talabalarni go'zallik dunyosi bilan tanishtirishga, ma'naviy dunyosini boyitishga intiladi<sup>1</sup>. Lola Xo'jayeva o'zbekona urfodatlarimizni ikir-chikirigacha bilgani holda, o'zini g'arbning asl san'ati va madaniyati targ'ibotchisi sifatida ham ko'rar edi. Chunki leksiya, suhbatlarimiz, ijro etadigan parcha yo lavhalarimiz ham aksariyat g'arb adabiyoti va dramaturgiyasi namunalari tanlanar, bu esa, har qaysi talabdan o'zga xalq madaniyatini bilishni talab etardi. Ayniqsa, aktyor jahon klassikasidan bexabar holda Gamlet yo Ofeliya bo'la oladimi? Motsart yo Shopenni umrida bir marotaba tinglab ko'rmagan talaba qanday qilib inson ichki kechinmalarini yashab beruvchi aktyorlar guruhini boshqaruvchi rejissor bo'la oladi?

Birinchi bosqich talabasimiz. Darslarimizga konsert-meyster Aziza Karimova taklif qilinadi, V.A.Motsart, F.Shopen, L.V.Betxoven kuylaridan chaldirib eshittiradi. Eng qizig'i, bu kuylar auditoriyaga qo'yilgan pianinolardan jonli ijro etilar va aynan shunisi bilan ham bizni sehrlab qo'yardi. Bunday musiqiy soatlar talabani aqlini charxlash, san'atning cheksiz olami bilan yaqindan tanishishga imkon berar, musiqaning bizga mutlaqo begona bo'lgan sirli olami va mahobatli mehvariga yetaklar edi. Bir kuni ular uylaridan magnitola olib keldilar-da, auditoriyaga qo'ydirib qo'yidilar. Su sabab har darsda jahon klassikasidan bahramand bo'lish baxti nasib etardi. Ispan, italyan, fransuz kompozitorlari va dirijorlarining orkestr uchun yozilgan simfonik asarlarini ilk bor aynan shu darslarda eshitganmiz. O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov, Turg'un Azizov va boshqa ko'plab san'at yulduzlari bilan uchrashganmiz. Ular shunchaki emas, Lola opaning jonbozligi, kelajagimiz uchun cheksiz qayg'urishi natijasida kelishar edi. Bu ularning o'ziga hos innovatsiyasi, "ish reja"si samarasi edi.

O'sha vaqtlar qanchalik ko'p o'qisakda, san'atning qamrovi kattaligi sabab ayrim narsalarga ulgurmas, qiyinchilik bilan o'zlashtirar edik. Lola opa esa, bizga qayta-qayta o'rgatishdan aslo charchamasdilar. Shu yo'sin ular endi darslarga rassomni ham taklif qiladigan bo'ldilar. Ranglar, tasvirlar, yashab turgan dunyomizni badiiy talqinda ko'rish va anglashga o'rgata boshladi. Illo, badiiy tasvirni his qilmasdan turib, badiiy sahnalarni qanaqasiga sezish, ular bilan uyg'unlashish mumkin?

Tabiiyki, spektaklda rol ijro etadiganlarning hammasi ham bosh qahramon bo'lmaydi. Dramatik asar maqsadi ham buni ko'zlamagan, aslida dunyodagi eng buyuk rejissor ham har bir personajni bosh rol darajasiga olib chiqolmaydi. Bu esa sahna tashkilotchisidan yuqori darajada e'tibor va sezgirlikni talab etadi. Lola opa boshchiligida o'qishning birinchi yili Karlo Goldoning "Mehmonxona bekasi", institutni bitirish arafasida Federiko Garsia Lorkaning "Qonli to'y" fojiasini sahnalashtirganmiz. Sahnani qanday va nima uchun sevish kerakligini o'rgatgan, diplom spektakllarini ham birga bajarib, ko'mak bergan Lola opa bizga imkoniyat va iste'dodlarimizdan kelib chiqqan holda rol tanlar edilar. Har birimizning kelib chiqishimiz va oilaviy sharoitimizdan, qiziqishlarimiz, kelajak maqsadlarimiz va hatto qaysi qizning qaysi yigitda ko'ngli bor, qaysi yigit qaysi qizning boshini behuda "aylantirib" yurganidan ham xabardor edi. Ular kabi o'z aktyorlarini yetarlicha tanib olgan rejissor bo'lmasa kerak. Lekin, hozir ustoz talab qilgan ko'rinishlarni maromiga yetkazib ijro etolmaganimdan hayratlanaman. Baribir ham talaba – g'o'r bola ekan.

Ustozimiz darslarda ba'zan mashhur asarlardan, dunyo tanigan shoirlar she'ridan o'qib berar, hech bir dars

avvalgisiga o'xshamas va bir birini takrorlamas edi. Bir gal mashhur "Ming bir kecha" ertagi qahramoni Tavaddud haqida gapirib berdilar. Uning buyuk mutaxassislar bilan bo'lgan bilimdonlar sinovida qanchalik mahorat va malohat bilan bergan javoblarini yoddan o'qib, ijro usuli bilan biz talabalarni sehrlab qo'ygandi. O'zini shu bellashuvda turgandek tutganini eslasam Lola opa, barcha sohalar – tabobat, ilmi nujum, ilmi riyoziyot-u fiqh masalalari, shatranj-u shaxmat, cholg'u va musiqa san'atining chuqur bilimdoni bo'lgan bu afsonaviy kanizakning bugungi davrimizdagi ayni surati ekanligiga amin bo'laman.

"Nutq janri aktyorlari" bo'limining talabalari orasida O'zbekiston xalq artisti Muqaddas Xoliqova, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Bahodir Odilov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi, mashhur teleboshlovchi Abdurasul Abdullayev, Milliy akademik drama teatrlarining taniqli aktyori, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist Hamid Toshpo'latov, jurnalist va kinoshunos olim, san'atshunoslik nomzodi, kinorejissor Oybek Veysal o'g'li zamona Tavaddudidan bilim olganmiz. Ular sabab yuksaklikka erishganmiz.

Davlat rahbari millat tilini mukammal bilishi belgilandi. San'atkorlar-ku mayli, biroq Lola Xo'jayeva nutq mahoratini egallamoqchi bo'lgan boshqa kasb egalariga ham nutq madaniyatidan dars berganlari tarixiy haqiqat. Sobiq ittifoq davrida rahbarlar o'z xalqi tilini bilishi shart bo'lmagan. Asosiy ish hujjatlar rus yozuvida yozilgan, majlislar rus tilida olib borilgan. Ammo, mustaqillikka erishganimizdan so'ng, o'zbek tili davlat tili deya belgilanib, qator qonunlarga o'zgartirishlar kiritildi. Buning ustiga, o'sha yillar mamlakat ziyolilari o'zbek tili maqomi va darajasi, hurmati va rivojlanishi ustida ko'pmillionli mitinglar uyushtirishlari yuqori lavozimli rahbarlar o'zbek tilida bexato gapirishlari kerakligini ko'rsatib turgan paytlar edi. Lola Ag'zamovna "Fidokorona mehnatlari uchun" ordeni bilan mukofotlandi. Bu, albatta, oddiy sahna nutqi o'qituvchisi uchun buyuk sharaf!

X.Djuldiorayeva ta'kidlaganidek, Lola opaning badiiy didi, sahna madaniyatiga har qanday aktyor yoki olim havas qilsa arziydi. Ularning nafaqat so'zlashi, ish faoliyati, talabalar bilan, kasbdoshlari bilan munosabati o'rnak darajasida, balki uy bekasi sifatida ham o'zbek ayollaridan qolishmas edi. Ularning xonadonida bo'lganlar yaxshi biladi, xonalar yuksak did bilan, san'atkorona ifoda va ishora bilan jihozlangan bo'lib, har bir xona ma'lum bir mavzuda bezalgan bo'lardi. Biri "Solomennaya"(somonli) xona, yana bittasi "Ispan xonasi" deb atalardi. Har bir jihoz zargarona o'lcho'v bilan qo'yilgan ediki, joyini o'zgartirsangiz butun asar buziladigandek.

Darslarning birida Lola opa shahd bilan o'rinlaridan turdilar, yog'och kursilarda o'tirgan talabalar hosil qilgan yarim doira o'rtasiga chiqdi. Ular tushunmayotgan, anglab yetolmagan narsalarni bir necha qo'l harakati bilan ko'rsata boshladi. Shu vaqt, orqasiga bir-ikki qadam tashlab yurgan ham ediki, ellik yillik taxta polning notekis yuzasiga poyabzali qoqilib, kuragi bilan yuz tuban yiqilib tushdi. Darhol biz talabalar yugurib borib, o'rinlaridan turishga yordamlashdik. Ular ham go'yo hech nima sodir bo'lmagandek kulimsirab qo'yidilar, darsni davom ettirdi. Garchi hech kim ularning haqiqatdan ham yiqilganini sezmasada, ammo, biz, yoniga borib yordamlashganlar, Lola opa yiqilib tushganini, xijolat bo'lganidan lablarida titroq va ko'zlarida qo'rquv borligini ko'rgan edik. Shunday holatda ham aktyorlik mahorati, gapga ustaligi bilan o'quvchilarni sehrlay oldi. Mana bu haqiqiy mahorat, shunchaki o'tgan umrlarda qolib ketmagan tajriba va ko'nikmalar edi. Bu haqiqiy sahnadagi rol edi.

<sup>1</sup> Djuldiorayeva X. Sahna tili bilimdoni. – Toshkent; 2007. – B. 51.

## USTOZ SAN'ATKOR UCHQUN NAIMOVNI ESLAB...

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada 1935-yilda Buxoro shahrida, san'atkorlar oilasida tavallud topgan o'zbek musiqasi san'atining jonkuyari, mashhur san'atkor Uchqun Naimovning hayot va umr yo'llariga, mehnat faoliyati xususida atroflicha ma'lumotlar taqdim qilingan.

**Kalit so'zlar:** musiqasi, teatr, san'at, kompozitor, dirijor, ijro, sahna, orkestr.

Хикмат РАДЖАБОВ,

Доцент кафедры "Инструментального исполнительства" ГИИКУЗ

## ВСПОМИНАЯ МАСТЕРА УЧКУНА НАИМОВА

**Аннотация:** В статье подробно рассказывается о жизни и творчестве известного художника Учкун Наимова, поклонника узбекской музыки, родившегося в 1935 году в Бухаре в семье художников.

**Ключевые слова:** музыка, театр, искусство, композитор, дирижер, спектакль, сцена, оркестр.

Hikmat RADJABOV,

chair of "Instrumental Performance" associate professors UzSIAC

## REMEMBERING THE MASTER UCHKUN NAIMOV

**Annotation:** This article provides detailed information about the life and work of the famous artist Uchkun Naimov, a fan of Uzbek music, born in 1935 in Bukhara, in a family of artists.

**Keywords:** music, theater, art, composer, conductor, performance, stage, orchestra.

Uchqun Naimovning otasi O'zbekiston xalq artisti Hayot Naimov Buxoro musiqali drama teatrining yetakchi aktyori bo'lgan. Uning tog'asi esa o'zbek musiqasi san'atining yirik vakillaridan biri, mashhur kompozitor, dirijor Muxtor Ashrafiydir. Uchqun yoshligidan otasiga hamroh bo'lib teatrga ko'p borar, u yerdagi ijodiy jarayon, ya'ni repetitsiya hamda spektakllar namoyishlarini ko'rib, ajib bir zavq olar edi. Xonadonida hamisha maqomxonliklar, turli adabiy she'rxonlik kechalari bo'lib turardi.

Mana shunday muhitda o'sib ulg'aygan Uchqunjon musiqaga, san'atga qiziqishi juda erta paydo bo'ldi. 1953-yilda umumta'lim maktabini tamomlab, Buxoro musiqasi bilim yurtiga o'qishga kiradi. U "Goboy sozi" mutaxassisligi bo'yicha muvaffaqiyatli ta'lim oldi. Uchqun o'z bilimini yanada chuqurlashtirish maqsadida Toshkent davlat konservatoriyasining xor dirijorligi fakultetida o'qiydi.

Keyinchalik esa o'qishni sirtqi yo'nalishga aylantirib, o'zbek davlat filarmoniyasi qoshidagi xor san'atining mohir dirijorlari V.Valenkov va Abduqahhor Sultonovlar rahbarlik qilgan xor kapellasida xonanda bo'lib ishlay boshladi. Uchqunning dirijorlik iste'dodini sezgan filarmoniya rahbarlari uni xor jamoasida dirijor yordamchisi lavozimiga o'tkazishgan. Ushbu kapella xorida yordamchi dirijor lavozimida konservatoriyani bitirgunga qadar ishlab, faoliyat ko'rsatgan. 1962-yilda Buxoroga qaytib, bir muddat viloyat musiqasi bilim yurtida o'qituvchilik qildi. So'ngra Sadridin Ayniy nomli musiqali drama teatrinda bosh dirijor lavozimida ishlay boshladi.

Uchqun Naimov mazkur dargohda umrining oxirigacha faoliyat ko'rsatdi. U musiqali drama teatr dirijori uchun kerak bo'lgan barcha malakaviy bilimni ustada tinmay ishlab, yaxshi natijalarga erishgan. Qayd etish joizki, musiqali drama teatrdagi dirijor bo'lib ishlashning o'ziga xos mas'uliyatli bo'lishi bilan birga, diapazoni keng, san'atning barcha janrlarini bilimiga ega bo'lgan murakkab tomonlari bor. Yangi sahna asarini tayyorlash jarayonida dastlab yakkaxon-vokalistlar bilan mashq qilib, musiqali dramadagi ariyalarni o'rgatishi, so'ngra xor va orkestr sozandalari bilan yakka, mashg'ulotlar o'tkazib, sahnalarini tayyorlashi lozim bo'ladi. Dirijor spektakllardagi xor va orkestr partiturasini mukammal bilishi

hamda vokal-xor bo'yicha ma'lum malakaga ega bo'lishi, xalq musiqasini bilishi va orkestrdagi sozlarning applikatorasi, ijro imkoniyatlari ma'lumotidan xabardor bo'lishi talab qilinadi.

Buxoro viloyat musiqali drama teatrinda T.Jalilovning "Tohir va Zuhra", "Nurxon", "Gul va Navro'z", S.Boboyevning "Vatan ishq", R.Olloberganovning "Oshiq G'arib va Shoxsanam, M.Shrafiyning "Mirzo Izzat Hindistonda" singari qirqdan ortiq spektakllarni sahnada namoyish etdi. Bu sahna asarlarining muvaffaqiyatli ijro etilishida albatta dirijyor Uchqun Naimovning xizmatlari katta bo'lgan.

1968-yil Buxoro shahridagi musiqasi bilim yurtining 3-bosqichida o'qib yurganimda U.Naimov S.Ayniy nomli musiqali drama teatri orkestriga rubobchi sozanda kerakligini aytib, meni ishga taklif etgan. Buxoro viloyat musiqali drama va komediya teatriga qashqar rubobi sozandasi sifatida ishga qabul qilinganimda mendan baxtli inson yo'q edi. O'sha kezlarda Uchqun Naimov bosh dirijor edilar.

Taniqli aktyor va sozandalardan O'zbekiston Xalq artistlari – Nazokat Ne'matova, Hayot Naimov, Ahmadjon Fayziev, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlardan Aspiya Qodirov, Jumagul Boboyeva, Zevar Rahmonova, Hadya Yusupova, Naftali Yusupov, Rustam Ergashev, Qalandar Matyoqubov, Rahimjon Shukurov, Salohiddin Karimov, orkestr sozandalari, taniqli doyrachilar ustoz Haydar Shodiyev, Sunnat Naimov, Baxshullo Sharipov, sozanda, nay cholg'usi ustasi, musiqasi rahbari No'monjon Saidov, ustoz g'ijjakchi Rabimjon aka, skripkachi Li Abram kabi mashhur buxorolik san'atkorlar bilan bir oila – kattakon teatr dargohida faoliyat boshladim.

Mohir dirijor Uchqun Naimov o'z ijodiy jarayonida bastakorlik faoliyati bilan ham shug'ullanib, ko'plab asarlar yaratdi. Xonanda va xor jamoalari uchun bir qator qo'shiq va raqslar bastaladi. Uning "Vatan madhi", "Buxoro tongi", "Davr sadosi" singari qo'shiqlari iqtidorli xonandalar tomonidan ijro etilib, viloyat va respublika miqyosida o'tkazilgan ko'rik tanlovlarda sovrinli o'rinlarni egallagan. U katta mutaxassis sifatida viloyatda o'tkaziladigan barcha ma'rifiy tadbirlarning bosh tashkilotchisi edi.

Mohir dirijor, iste'dodli murabbiy Uchqun Naimovning o'zbek musiqasi san'ati rivoji uchun qilgan xizmatlari hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlangan.

G'anijon XUDOYEV,  
O'zDSMI "Musiqiy-nazariy fanlar" kafedrasini mudiri v.b.,  
San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

**ZAKIY OLIM MUBORAK YOSHDA**  
(SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI DOKTORI, PROFESSOR OQILXON IBROHIMOVNING  
65 YOSHLIK YUBILEY SANASIGA BAG'ISHLANADI)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Musiqiy-nazariy fanlar" kafedrasini professori, san'atshunoslik fanlari doktori, musiqashunos olim Oqilxon Ibrohimovning 65 yillik yubileyi munosabati bilan uning san'atshunoslik sohasida erishgan yutuqlari e'tirof etilib, so'nggi uch yillikda amalga oshirgan ilmiy tadqiqot ishlari tahliliy sarhisob qilindi.

**Kalit so'z:** musiqqa, maqom, Shashmaqom, O'n ikki maqom, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, tasavvuf.

Ганижон ХУДОЕВ,  
в.и.о. заведующего кафедрой "Музыкально-теоретических дисциплин" ГИИКУЗ,  
доктор философии в области искусствоведения, доцент.

**УЧЕНЫЙ В ПОЧТЕННОМ ВОЗРАСТЕ**  
(ПОСВЯЩАЕТСЯ 65-ЛЕТИЮ ДОКТОРА ИСКУССТВОВЕДЕНИЯ, ПРОФЕССОРА АКИЛХОН  
ИБРАГИМОВА)

**Аннотация.** В статье, посвященной 65-летию юбилею профессора кафедры "Музыкально-теоретических наук" Государственного института искусств и культуры, Узбекистана доктора искусствоведения, ученого-музыковеда Акилхон Ибрагимова, отмечены достижения учёного в области искусствоведения, а также подведены аналитические итоги научно-исследовательской работы, проведенные в последние три года.

**Ключевые слова:** музыка, маком, Шашимаком, двенадцать макамов, Фергана-Ташкентские макамы, тасаввуф.

Ganijon KHUODOEV,  
v. and. ab. Head of the chair of "Musical and Theoretical Sciences" of UzSIAC,  
Doctor of Philosophy in the field of art history, associate professor.

**SCIENTIST IN VENERABLE AGE**  
(DEDICATED TO THE 65TH ANNIVERSARY OF THE DOCTOR OF ART HISTORY, PROFESSOR  
AKILKHON IBRAGIMOV)

**Annotation.** The article dedicated to the 65th anniversary of the professor of the department of "musical and theoretical sciences" of the Uzbek State Institute of Arts and Culture, doctor of art history, musicologist Okilkhon Ibragimov, noted the achievements of the scientist in the field of art history, and also summed up the analytical results of research work carried out in the last three years.

**Key words:** music, makom, Shashmakom, twelve makoms, Fergana-Tashkent makoms, tasawwuf.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 17-noyabrdagi PQ-3391-sonli "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, respublikamizda maqom san'atiga bo'lgan yuksak e'tibor yanada kuchaydi. Respublikamizda san'at sohasini, shuningdek, maqom san'atini rivojlantirishga qaratilgan katta loyihalarga qo'l urildi. Jumladan, Respublikamiz poytaxtida Maqom markazi, viloyatlarda esa uning filiallari va maxsus maqom maktablarining tashkil etilishi, shuningdek, "Islom sivilizatsiya markazi"dagi musiqqa bo'limi va unda musiqashunos va maqomshunos olimlarimizning olib borgan sa'y-harakatlari tahsinga sazovor. Mazkur loyihalarda o'zining teran g'oyalari bilan ishtirok etgan maqomshunos olim Oqilxon Ibrohimovning san'atshunoslik sohasida so'nggi uch yillikdagi uning ilmiy-tadqiqot, ilmiy-uslubiy va tashkiliy-uslubiy, "Ustoz shogird" yo'nalishlari bo'yicha amalga oshirgan ishlari bilan yaqindan tanishamiz.

Maqom kuylarining koinot qadar yuksalishi haqidagi falsafiy qarashlarni zamonaviy musiqashunoslikda ilk bor dalillab bergan, ranglarda taralayotgan musiqiy ohanglarni idrok ila ko'ra olgan yuksak iste'dod sohibi, o'zbek musiqashunoslari orasidan chaqnab chiqqan eng yosh fan doktori Oqilxon Ibrohimov o'zining yuksak ilmiy salohiyati bilan yurtning ilm-fani ravnaqiga o'z hissasini qo'shib,

1998-yilda "Maqomlar semantikasi" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Yosh fan doktroriga o'sha vaqtda nafaqat musiqashunoslik, balki butun san'atshunoslik ilmining taqdiri ishonib topshirildi. Uning uch yil davom etgan San'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti direktorligi davri (1998 – 2000) o'zbek san'atshunosligining gullab yashnagan davri bo'ldi, desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Chunki mazkur qisqa muddat davomida aspirantura va doktoranturani tugatgan bir qancha iqtidorli yosh olimlar o'zlarining nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilishdi. Bu davr San'atshunoslik ilmiy tadqiqot institutida bir qator respublika va Xalqaro ilmiy konferensiyalar o'tkazilib, to'plam va ilmiy monografiyalar nashr yuzini ko'rdi.

2006-yilda uning "Farg'ona-Toshkent maqomlari" ilmiy monografiyasi Xalqaro YUNESKO tashkiloti tomonidan nashr ettirildi. Olimning yuksak ilmiy salohiyati bois unga Ishoq Rajabovning "Maqomlar" qo'lyozmasini qayta tahrir qilib nashr ettirish sharafiga nasib etdi.

Mustaqillikka erishilgach, umumta'lim maktablarida Musiqqa ta'limini tubdan isloh qilish qayta ko'rib chiqilishi lozim edi. 1992–1993-yillarda yosh olim Oqilxon Ibrohimov Darvin Amanullayev bilan hamkorlikda avval umumta'lim maktablari 1-8-sinflar uchun "Musiqqa" fani konsepsiyasini, keyin esa o'quv dasturini milliy-musiqiy ohanglar asosida

shakllantirishdi. Hozirga qadar "Musika" fani darsliklarini yaratishda mazkur dasturga tayanib kelinmoqda, desak hech mubolag'asi yo'q.

Oqilxon Ibrohimov xorijda va respublikada nashr etilgan 100 dan ortiq ilmiy, ilmiy-uslubiy maqolalar; 20 dan ortiq darslik, monografiya, o'quv, o'quv-uslubiy qo'llanmalar muallifi sanaladi. Xususan, 3 ta monografiya, 3 ta o'quv qo'llanma (Maqom asoslari, 2018, Musika tarixi, 2018, Solfedjio, 2018), 2 ta o'quv-uslubiy qo'llanmalar, san'at litseyi va kollejlari mo'ljallangan "O'zbek xalq musika ijodi" (1-qism), umumta'lim maktablariga "Musiqaning o'qitish uslubi" metodik qo'llanmalari hamda 4- va 7- sinflar uchun "Musika" darsliklarining yetti tildagi (o'zbek, rus, qirg'iz, qozoq, turkman, qoraqalpoq, tojik tillarida) qayta nashrlari shular jumlasidandir. O'tgan yillar davomida O.Ibrohimovning ilmiy rahbarligida 10 ta magistrlik, 9 ta nomzodlik dissertatsiyalari, jumladan 4 ta san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktorlik (PhD) dissertatsiyalari muvaffaqiyatli himoya qilindi. Hozirda 1 nafar tayanch doktorant, 1 nafar mustaqil izlanuvchilarning falsafa doktorlik dissertatsiyalariga va 1 nafar mustaqil izlanuvchi (Doktor of Science)ning fan doktorlik dissertatsiyasiga ilmiy maslahatchi va ilmiy rahbar sifatida faoliyat olib bormoqda.

Ayni vaqtda Oqilxon Ibrohimovning yana bir qancha shogirdlari dissertatsiyalarining so'nggi bosqichini yakunlash arafasida. Bulardan, O'zbekiston davlat konservatoriyasi katta o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi Xolmirza Qurbonov hamda O'zRFA San'atshunoslik instituti tayanch doktoranti Zohidjon Yoqubovlar falsafa doktorlik dissertatsiyasi ustida ilmiy tadqiqot ishlarini yakunlab himoya qilish arafasida bo'lsa, san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori, O'zDSMI dotsenti vazifasini bajaruvchi Nasiba Turg'unova fan doktorligi ilmiy tadqiqot ishlarini yakuniy bosqichlari ustida ilmiy izlanishlarini olib bormoqda.

Oqilxon Ibrohimov rahbarligida 1 ta Xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy loyihalar, hamda bitta amaliy va 1 ta innovatsion grantlar bajarilganligi tahsinga loyiq. San'atshunos olim 2002-yili YUNESKO Xalqaro tashkilotiga taqdim etilgan va g'olib topilgan "Shashmaqom" loyihasining bosh muallifi sanaladi. Ushbu loyiha doirasida milliy musika rivojiga oid bir necha ilmiy anjumanlar o'tkazildi hamda bir qator nashrlar (atoqli olim I.Rajabovning "Maqomlar", R.Yunusovning "Faxriddin Sodiqov", O.Ibrohimov "Farg'ona – Toshkent maqomlari" qo'lyozmalari va b.) monografiya tarzida alohida-alohida chop etildi.

Shuningdek, olimning 10 dan ortiq ilmiy maqolalari nufuzli xorijiy nashrlarda e'lon qilingan bo'lsa, 20 dan ortiq Xalqaro ilmiy anjumanlarda ma'ruzalar bilan ishtiroki, "Sharq taronalari" Xalqaro musika festivali doirasida ilmiy-ijodiy konferensiya ishida ikki bor tashkiliy qo'mita tarkibida, olti marotaba esa, ilmiy ma'ruzalar bilan qatnashganligi zakiiy olimning jahon musiqashunosligida o'ziga xos o'rni va nufuziga ega ekanligidan hamda o'zbek musiqashunosligida o'zining ilmiy maktabini yaratganligidan dalolat.

Ayni vaqtda O.Ibrohimov O'zRFA Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan e'tirof etilgan bir qancha jurnallarda ("San'at", "O'zDSMI xabarlari", "Madaniyat chorrahallari", "O'zbekiston: til va madaniyat" va h.k.) tahrir hay'ati a'zosi sifatida faoliyat olib boribgina qolmay, Ozarbayjonning Baku shahrida chop etilayotgan "KonservatoriY.az" ilmiy jurnalining tahrir hay'ati tarkibida ham o'z faoliyatini ko'rsatib kelmoqda.

San'atshunos olim Oqilxon Ibrohimovning ilmiy nashrlari mazmun mohiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda

olimning fidoyi, xalqparvar, millatparvar, o'z manfaatidan – xalq manfaati va yurt ravnaqini ustun qo'yadigan tom ma'nodagi jonkuyar, yetuk musiqashunos olim ekanligining isbotini topamiz. Uning gazetasi va jurnallardagi ilmiy nashrlari o'zbek musiqasi, aksariyat maqomlar masalasiga bag'ishlangan qarashlari hamisha o'zbek musiqashunos olimlari uchun namuna bo'lib xizmat qiladi.

Uning birgina so'nggi uch yildagi nashrlari diqqatimizni o'ziga jalb etadi. Jumladan, "Ushshoqlar haqida" ("Madaniyat chorrahallari" elektron jurnali, 2019.

1-son. – B. 22-29.), "К вопросу о ладовой и идейной преемственности Бухарского Шашмаком" (науч. журн. "Консерватория". – Баку, 2019, № 2, – С.4-17.), "Alisher Navoiyning samo' falsafasi" ("O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali. – T.: 2019. 2-son, – B.106-118), "Maqomning buyuk bilimdoni" ("O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi. – T.: 2019. 43-son, 18-oktabr), "Amir Temur va temuriylar davri musika madaniyati" ("Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat rivojini o'rganish va targ'ib qilishning umumbashariy ahamiyati" respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – T.: 2019. 18-oktabr), "Abu Nasr Farobiy Sharq musika ilmining asoschisi" ("Nomoddiy madaniy meros" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – T.: 2019. 20-oktabr), kabi yana bir qator ilmiy maqolalari yosh san'atshunos va musiqashunos olimlar uchun hamisha o'rganilishi lozim bo'lgan san'atshunoslik muammolarini ochib berishda kalit vazifasini o'taganligi bejizga emas.

Qolaversa, O.Ibrohimov 2019-yil 30-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Islom sivilizatsiya Markazida bo'lib o'tgan "Islom sivilizatsiyasini shakllanishida san'atning o'rni" Xalqaro ilmiy-nazariy konferensiyasida "Islom va o'zbek xalqining musiqiy qadriyatlari" nomli maqolasi bilan ma'ruza qildi. Bu ma'ruza barcha sohaning yetuk olimlari tomonidan yuksak e'tirofga sazovor bo'ldi.

2019-yilning 14-17-dekabr kunlari respublika musiqashunoslari o'rtasida o'tkazilgan "Maqomlar tarixi, nazariyasi va amaliyoti yo'nalishida yaratilgan adabiyotlar" respublika tanlovida Oqilxon Ibrohimovning "Maqom asoslari" (–T.: "Turon-Iqbol" nashr., 2018.) nomli o'quv qo'llanmasi birinchi o'rinni egallab mutlaq g'olib deb e'lon qilindi.

Ayni paytda Oqilxon Ibrohimov Ishaq Rajabovning "Sharq musiqasi atamallari izohli lug'ati" qo'lyozmasi ustida ish olib borib, 20 bosma toboqli ensiklopedik lug'at nashrga topshirildi. Yaqin kunlarda butun san'atshunoslik ilm ahli uchun yana bir ulug' tuhfa "Sharq musika atamallari izohli lug'ati" nomlanishdagi ensiklopedik lug'ati barcha kitobsevarlar hukmiga havola etiladi.

Ustozning bunday ilmiy faoliyati mamlakatimiz rahbariyati tomonidan munosib taqdirlanib, 2008-yilda "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirlangan bo'lsa, 2021-yil "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi" faxriy unvoni bilan taqdirlandi.

Vaqt daryosining shitobi ko'z ochib yumguncha kechagina hikmatlar ila boqib turgan Oqilxon Ibrohimovni umrning yana bir yetuk 65-pillapoyasiga yetkazganini sezmay qolibmiz. O'zining ilmiy maktabini yaratgan ustoz – bugun farzandlari, shogirdlari va kitobxon muxlislari ardog'ida.

Ustozni yuksak e'tirof – "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi" faxriy unvoni hamda 65 yillik tavallud ayyomlari bilan chin qalbimizdan muborakbod etamiz.

Toychiboy BAYTO'RAYEV,  
O'zDSMI "Kutubxona fondlari va bibliografiyashunoslik" kafedrasini mudiri v.b.,  
pedagogika fanlari nomzodi dotsent

## O'ZBEKISTONDA KUTUBXONA ISHI VA BIBLIOGRAFIYA SOHASI MUTAXASSISLARI SHAKLLANISHI BOSQICHLARI

**Annotatsiya:** Maqola O'zbekistonda kutubxonachilik bibliografiya tayyorlash bo'yicha faoliyat yuritgan ta'lim muassasalari, ularda shakllangan mutaxassislar faoliyati shakllanish jarayonlari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada kutubxonachilik bibliografiya sohasida ko'zga ko'ringan mutaxassislarining faoliyatiga alohida to'xtab o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** kutubxona, bibliografiya, dars, qo'llanma, darslik

Тойчибой БАЙТУРАЕВ,  
кандидат педагогического наук доцент.и.о. заведующего кафедрой  
«Библиотечных фондов и библиографоведения» ГИИКУз

## ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ СПЕЦИАЛИСТОВ В ОБЛАСТИ БИБЛИОТЕЧНОЙ РАБОТЫ И БИБЛИОГРАФИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Аннотация:** В статье анализируются образовательные учреждения Узбекистана, готовящие библиотекарей и библиографов, и процесс подготовки в них специалистов. А также рассматривается деятельность знаменитых специалистов, которые работали в области библиотеки-библиографии.

**Ключевые слова:** библиотека, библиография, урок, учебное пособие, учебник.

Toychiboy BAYTO'RAEV,  
candidate of Pedagogical Sciences Associate Professor Head of the Chair of Library Collections and  
Bibliography UzSIAC

## STAGES OF THE FORMATION OF SPECIALISTS IN THE FIELD OF LIBRARY WORK AND BIBLIOGRAPHY IN UZBEKISTAN

**Annotation:** The article analyzes the educational institutions of Uzbekistan that train librarians and bibliographers, and the process of training specialists in them besides that this article also focuses on the activities of prominent specialists in the field of library bibliography.

**Keywords:** library, bibliography, course, manual, textbook

XX asrning 60-yillarida Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutida "Kutubxonashunoslik" fakulteti qoshida mutaxassislik kafedrasini ochilishi bilan bu kafedraning professor-o'qituvchilari tomonidan O'zbekistonda kutubxonachilik tarixini o'rganishga katta e'tibor qaratilgan.

Mutaxassislik kafedrasiga yosh o'qituvchilar qabul qilingan bo'lib, ulardan biri Osiyo Qosimova edi. Kafedraga ishga kelishi bilan bu yosh mutaxassis O'zbekiston va Turkiston o'lkasidagi ommaviy va ilmiy kutubxonalar tarixini o'rganishga kirishdi.

O. Qosimova XIX asrning 70-yillaridan XX asrning boshlaridagi Turkiston o'lkasidagi kutubxonalar tarixini, ularning qayerda ochilganligi, qaysi tashkilotga bo'ysinishi, qanday kutubxonalar doirasiga xizmat qilganligini ilmiy tahlilni, nashr qilgan maqolalar va ilmiy, darslik kitoblariga kiritdi. Bu davrda ochilgan kutubxonalarning joylashgan manzillari va ularning kutubxonalariga alohida to'xtalib o'tilgan bo'lib, bu muassaning jamiyatdagi o'rniga alohida baho berib o'tilgan.

Bu ilmiy izlanishlar natijasida, Osiyo Qosimova 1965-yilda respublikada birinchi bo'lib, kutubxonachilik ishi tarixi bo'yicha Toshkent davlat universitetida "O'zbekistonda ommaviy kutubxonalar tarmog'ini rivojlanishi" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Tarixiy materiallar asosida yozilgan bu tadqiqotda Turkiston viloyati kutubxonasi, Toshkent shahridagi turli ilmiy jamiyatlarga qarashli kutubxonalarning faoliyatini ilmiy tahlil qilish orqali bu muassasalarning jamiyatdagi

o'rnini belgilash bilan birga, ularning kitob fondlari, kutubxonalar xizmat ko'rsatish ishlarining maqsadi va vazifalarini O'zbekistonda birinchi bo'lib ilmiy tahlilga olinganligini ko'rsatish mumkin. Ushbu ilmiy ishda shuningdek, Turkiston o'lkasidagi ta'lim muassasalarning kutubxonalaridagi faoliyatiga ham arxiv materiallari asosida, ilmiy tahlil bergan bo'lib, ularning faoliyati to'g'ri baholanganligini ta'kidlash mumkin.

O. Qosimova Turkiston ommaviy kutubxonalarning faoliyatlarini keng yoritish bilan birga o'sha davrda faoliyat yuritgan kutubxonachilik komissiyasining 1870 – 1924 yillardagi faoliyatiga ham ilmiy manbalarni tahlil qilish orqali, ularning faoliyati bo'yicha ilmiy maqolalar, ilmiy ommabop kitoblar, maqolalar, darsliklarni keyin bu sohada ta'lim olgan yoshlar uchun tayyorlaganligini alohida ta'kidlashimiz mumkin. U 1968-yilda "O'zbekiston kutubxonachiligi" nomli darslik kitobini nashrdan chiqargan. Ushbu kitobda o'rta asrlardagi yirik shaharlarimiz hisoblangan Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qondagi kutubxonalar tarixi, ularning faoliyati, kitoblar fondi haqida qiziqarli manbalarni tavsiya qilgan.

Darslikda muallif O'rta Osiyo hududidagi hukuronliklardagi kutubxonalar tarixini, ularning faoliyatini yoritib bergan. Bu mavzular bo'yicha nashr qilingan kitoblar va maqolalarda berilgan materiallar bo'yicha mutaxassislariga va keng kutubxonalar tushunarli va qiziqarli tilda yetkazib berilgan. Bunday yo'nalishda ish olib borgan mutaxassislardan yana biri bu kafedraning yosh o'qituvchisi Boqibullo Karimov bo'lib, u o'z izlanishlarida

O'zbekistoning ilmiy kutubxonalarining faoliyatini ilmiy tahlil qildi. Boqibullo Karimov o'z izlanishlari asosida "O'zbekistonda ilmiy kutubxonalarning rivojlanishi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Bu ilmiy ishda muallif 1941–1970-yillardagi kutubxonalarning muammolari va xizmat ko'rsatish doirasi va usullarini, ulardagi adabiyotlar fondi va kitobxonlar doirasini ilmiy tahlil qilgan. Shuningdek, u o'z tadqiqotlarida ilmiy-tadqiqot instituti kutubxonalarining faoliyatiga alohida ilmiy tahlil berganligi bilan ajralib turadi.

1983-yilda M.Turapov "O'zbekistonda bibliografik ishlarning rivojlanishi (1852–1970)" monografiyasini nashr etdi, bu kitobda muallif O'zbekistonda bibliografiya ishi tarixini amaliyotida birinchi marta kelib chiqish tarixi manbalarini ilmiy tahlil qilindi. Muallif O'zbekiston hududida bibliografiya ishini rivojlanish tarixini davrlar kesimida yillar bo'yicha yoritib bergan.

1974-yildan Toshkent davlat madaniyat instituti (hozirgi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti) "Bibliografiya" kafedrasini filologiya fanlari doktori professor A.Vulis boshqara boshladi. Bibliografiya kafedrasida uning rahbarligida 1982-yilda A.Nosirova "Moslashtirilgan adabiyotlar bibliografiyasi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 1990-yilda professor-o'qituvchilar M.Mahmudov, B.Karimov, I.Yuldoshev, N.Abdugafforovlar "Madaniy va ma'naviy ishlar" deb nomlangan lug'at tuzdilar. Aynan shu ishlar keyinchalik ushbu sohada keng ko'lamli tadqiqotlar paydo bo'lishiga olib keldi. 1987-yil I.Yuldashev "O'zbek tilining kutubxona va bibliografik terminologiyasi", 2004-yil "O'zbek adabiyoti terminologiyasini shakllantirish" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

2002-yilda Toshkent davlat madaniyat instituti kutubxonashunoslik fakulteti professor o'qituvchilari dotsent Sh.Shamsiyev, katta o'qituvchilar Z.Ne'matova, E.Islomovlar tomonidan "Kutubxona va bibliografik atamalarning izohli lug'ati" nashr etilgan bo'lib, uni yaratish jarayonida rus tilida ilgari mavjud bo'lgan lug'atlar tanqidiy tahlili o'rganilib, nashrga tayyorlandi.

2005-yili A.I.Kormilitsin tomonidan "O'zbekistonning taniqli kutubxonachilari va bibliograflari" bibliografik ma'lumotnomasini sohadagi mutaxassislar faoliyati bilan qiziquvchi barcha kitobxonlar uchun yaratildi. Bu to'plamdan, shuningdek, O'zbekistonda kutubxonaga oid va bibliografiya sohasidagi mutaxassislarning adabiyotlari va ular haqida yozilgan adabiyotlar haqida ma'lumotlarni olishimiz mumkin. Soha bo'yicha faoliyat yuritgan va yuritayotgan mutaxassislar va ularning adabiyotlari bo'yicha ma'lumotlarni olishlari mumkin. Hozir bu kitob nodir adabiyot hisoblanib, kutubxonalarda, oliy o'quv yurtlari kutubxonalarida yo'qligini hisobga olib qayta nashr qilinishi kutilayotgan dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu kitobdan sohada tahsil olayotgan kutubxona xodimlari, talabalar, professor-o'qituvchilar foydalanishlari mumkin.

2012-yildan Toshkent axborot texnologiyalari universiteti axborot-kutubxona sohasi uchun bakalavrlar va magistrnlarni tayyorlaydigan yagona universitetga aylandi. Axborot-kutubxona tizimlari kafedrasini tashkil qilindi.

2012-2013-o'quv yilida "Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik" ta'lim yo'nalishi "Kasb ta'limi" fakulteti tarkibiga kirdi va "Axborot-kutubxona tizimlari" kafedrasini

tashkil etildi. Ushbu kafedra mudiri pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Barno Ganiyeva tayinlangan bo'lib, uning atrofida olimlar, amaliyotchilar, mutaxassislarning professional jamoasi shakllandi.

Bu yo'nalish mutaxassislari talablariga javob beradigan, yuqori darajadagi ta'lim bilan birga raqobatbardosh bo'lgan zamonaviy kadrlarni tayyorlash bo'yicha faol ishlar olib borilmoqdalar. Yuqori malakali kutubxona kadrlarini tayyorlaydigan Yevropaning yetakchi universitetlari (Buyuk Britaniya, Germaniya, Ispaniya, Italiya va boshqalar) tajribasini o'rganish, o'quv dasturlarini yangilash, o'quv jarayoniga yangi mavzular kiritish bilan keng shug'ullanmoqdalar. Kafedraning ko'plab o'qituvchilari chet el oliy o'quv yurtlarida malaka oshirib, xalqaro seminarlarda qatnashmoqdalar.

Axborot-kutubxona sohasidagi taniqli professor-o'qituvchilar t.f.d. professor Marat Rahmatullayev, dotsentlar Barno Ganiyeva, Mirali Maxmudov, Ulug'bek Karimov, katta o'qituvchi Sergey Arakelov kafedrada kasbiy va ilmiy faoliyat olib borgan va izlanishlarni davom ettirmoqdalar.

Toshkent axborot texnologiyalari universitetida kafedra ochilgandan buyon an'anaviy kutubxonachilik sohalarida ham, axborot-kutubxona muassasalarining asosiy jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashda ham yangi o'quv fanlar joriy etilganligi maqsadga muvofiqdir. Yaratilgan o'quv-axborot bazasi asosida ushbu sohani rivojlanishining zamonaviy talablariga javob bera oladigan, axborot-kutubxona faoliyati bo'yicha professional mutaxassisning yangi qiyofasi shakllandi. 2017-yildan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida an'anaviy kutubxonachi-bibliograflar tayyorlash bo'yicha yo'nalish ochilishi bilan institutda mutaxassislik bo'yicha kafedra tashkil qilish ishlari boshlandi.

2020-yildan institutda "Kutubxona-axborot faoliyati" fakulteti tashkil qilinib, uning tarkibida ikkita mutaxassislik kafedrasini tashkil qilindi. Ular "Kutubxonashunoslik" va "Kutubxona fondlari va bibliografiyashunoslik" kafedralari bo'lib, ularda mutaxassislik fanlarning namunaviy, ishchi dasturlari, darslik, o'quv qo'llanmalarini nashr qilish ishlari keng olib borilmoqda.

Hozirda ushbu fakultet tarkibiga institut rektori tashabbusi bilan sohaning mutaxassislarini jalb qilishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu tashabbus asosida O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi asosiy kutubxonasining direktori Zuhra Berdiyevaning hamda Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona direktori Umida Teshabayevalarning fakultet talabalariga dars berish jarayoniga jalb qilinishlariga institut rektori I.J.Yuldoshevning hissasi katta bo'ldi. Shuningdek, bu yirik mutaxassisning ilmiy salohiyatni o'stirish va o'tilayotgan mutaxassislik darslari uchun darslik kitoblarni nashrga tayyorlash bo'yicha olib borilayotgan faoliyatini alohida ko'rsatish mumkin. Yirik olim va rahbar sifatida kelajakda mutaxassislar tayyorlash uchun yangi yo'lni ochib berishdagi yaxshi g'oyasi bor deyishimiz mumkin. Uning "Kimki bizning chiqarayotgan darsliklarimizdan yaxshiroq darslik tayyorlay olsa, biz ularning hamma gaplarini tan olamiz", deyishining o'zi, yoshlarimizni o'z ustida tinimsiz ishlashga undashi kerak bo'lib, shakllangan mutaxassislarga o'z bilimlarini kitoblarda qoldirib ketishga undaydigan g'oya deb hisoblaymiz.

# O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI XABARLARI

*ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal*

*Jurnal bir yilda to‘rt marta nashr etiladi*

## **Nashrga tayyorlovchilar:**

G‘ani Xudoyev,  
Faxriddin Abduvohidov,  
Nasiba Turg‘unova,  
Muqaddam Sodiqova,  
Zilola Ergasheva,  
Maksim Savochkin,  
Anvar Qobilov,  
To‘xtaxon Qo‘ziyeva.

## **Sahifalovchi-dizayner:**

Abdug‘ani Sodiqov

Bosishga ruxsat etildi: 20.12.2021 y. Ofset bosma usulda bosildi.

«Times New Roman» garniturasida. Bichimi 60×841/8.

Shartli bosma tabog‘i 12,25.

Buyurtma raqami № 2. Adadi: 160 nusxa.

Manzilimiz: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,  
Yalang‘och dahasi, 127-a uy. Tel.: 230-28-02, 230-28-03, 230-28-13

Jurnal «Donishmand ziyosi» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30.